

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

«Logistika» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

Bojxona logistikasi

O'quv qo'llanma

Toshkent – 2019

Tuzuvchilar: Xo'jaev F.E.

Po'latxo'jaeva D.M.

Aytieva S.A.

Taqrizchilar:

1. Nigmanov E. OXBIning «Iqtisodiy ta'lim» kafedrası boshlig'i,
bojxona xizmati podpolkovnigi, dotsent
2. Ergashxo'jaeva SH.J «Marketing» kafedrası mudiri, i.f.d., professor

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyati mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta'minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashqil etishga qaratilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo'lmoqda.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasi va boshqa tashqil etilgan o'ttizdan ortiq zonalarda yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi respublikamiz va xorijiy investorlar mablag'lari hisobidan barpo etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2019 yil 6-fevral kuni "Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda eksport hajmini oshirish borasidagi eng muhim vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi" da transport va logistika xizmatlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratildi.

"Ma'lumki, bu borada 20 dan ortiq Xalqaro transport koridori va yo'nalishlari yo'lga qo'yilgan, avtomobilda xalqalro yuk tashish bo'yicha 30 ta davlat bilan hamkorlik o'rnatilgan. Lekin logistika va yo'l infratuzilmasi, chegara bojxona punktlari quvvati o'sib borayotgan transit talablariga to'la javob bermayapti.

Mutasaddilarga logistika markazlari va yo'lbo'yi infratuzilmasini yanada rivojlantirish, chegara-bojxona punktlarining texnik holati va o'tkazuvchanlik qobiliyatini yaxshilash, transport vositalari va yuklarni rasmiylashtirishda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Havo transportida yo'lovchi va yuk tashish uchun tarif siyosatini optimallashtirish, temir yo'lda xususiy operatorlarga vagonlar parkini tashqil

etishda ko'maklashish, avtomobil transportida transit davlatlardan chegirmalar olish va eksportyorlarga tatbiq etish vazifalari qo'yildi".¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" nomli asarida "2016 yilda ishga tushirilgan temir yo'l tarmog'i Farg'ona vodiysini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan ishonchli bog'lash imkonini yaratish bilan birga, Xitoy-Markaziy Osiyo-Evropa yangi xalqaro transit temir yo'l tizimining ajralmas va muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

O'tgan davrda mamlakatimizda 16 ta yangi temir yo'l vokzali bunyod etildi, 9 ta vokzal rekonstryuktsiya qilindi hamda yo'lovchilarga xalqaro standart va talablar darajasida xizmat ko'rsatish imkonini beradigan zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi.

"O'zbekiston temir yo'llari" aktsiyadorlik jamiyatining transport sohasidagi xizmat ko'rsatish darajasi va sifatini oshirish maqsadida harakatlanadigan tarkibni zamonaviy, yuqori samarali lokomotiv va qulay vagonlar bilan ta'minlash va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. So'nggi yillarda 49 ta zamonaviy elektrovoz va 10 ta yo'lovchi tashiydigan teplovoz sotib olingani, 120 ta lokomotiv modernizatsiya qilingani bu boradagi ishlar qo'lami tobora ortib borayotganini ko'rsatadi", deb ta'kidlab o'tganlar.²

O'tgan yili temir yo'llar qurish, rekonstryuktsiya qilish va elektrlashtirish, yuk va yo'lovchi tashiydigan temir yo'l transportini qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish maqsadida 630 million dollardan ziyod mablag' o'zlashtirildi. Bu mablag'ning yarmidan ko'pi Angren – Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini barpo etish loyahasini jadal sur'atlarda davom ettirishga yo'naltirildi. SHu bilan birga, 240 qilometrlik temir yo'l qayta tiklandi, o'zimizda 650 ta yuk va 20 ta yo'lovchi tashish vagonlari ishlab chiqarildi. Qarshi temir yo'l vokzali rekonstryuktsiya qilindi. Toshkent –

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2019 yil 6-fevral kuni "Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda eksport hajmini oshirish borasidagi eng muhim vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi". Xalq so'zi. 2019 yil 7 fevral. № 26.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" nomli asari. Tashkent-"O'zbekiston" 2018 y.

Samarqand va Samarqand – Toshkent yo'nalishi bo'yicha qatnaydigan «Afrosiyob» tezyurar poezdida 2014 yilda 180 mingdan ziyod yo'lovchi o'z manziliga yetkazildi.

Navoiy shahri aeroporti negizida tashqil qilingan xalqaro logistika markazi Yevropa, Hindiston, Xitoy va Janubi-SHarqiy Osiyoga havo transporti orqali yuk tashishni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu markaz foydalanishga topshirilganidan buyon o'tgan vaqt mobaynida 200 ming tonnadan ziyod yuk tashildi.

Yuqoridagilardan kelib chqib mamlakatimizda 1990-yillardan boshlab bozor munosabatlarining rivojlanishi logistika va bojxona logistikasi kabi ilmiy-amaliy yo'nalishni maqsadli ko'rib chiqish zaruratini asoslab berdi.

*Logistika** – barcha (moddiy, moliyaviy, axborot, mehnat, intellektual va b.) resurslar optimal harajatlari bilan korxonaga maqsadlariga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan (axborot, moliyaviy, servis) oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini izlab topish bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat yo'nalishidir.

«Logistika» so'zining tarixi Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi, bu yerda «logistika» atamasi «hisoblab chiqish, mulohaza yuritish san'ati» ma'nosini anglatardi. Rim imperiyasida logistika deganda oziq-ovqatlarni taqsimlash qoidalari tushunilgan. Vizantiya imperatori Lev VI (816-912) davrida logistika harbiy qo'shinlar ta'minoti va uning harakatlanishini boshqarish san'ati sifatida ta'riflangan. Mazkur atamaning hozirgi kunlargacha etib kelgan ikkita asosiy talqinini kuzatish mumkin:

1) logistikani harbiy ishida qo'llash. Harbiy logistika sohasida dastlabki ilmiy mehnatlar ijodkori sanalgan XIX asr boshida franso'z harbiy mutaxassisi baron A.A. Jomini (1779-1869) logistikaga «qo'shinlar bilan harakat qilish amaliy san'ati» deya ta'rif bergan. Uning ta'kidlashicha, logistika nafaqat tashuvlarni, balki rejalashtirish, boshqarish va ta'minot, qo'shinlar dislokatsiyasini aniqlash, shuningdek, ko'priklar, yo'llar qurilishi va h.k. masalalarni o'z ichiga oladi. 1884

*Практикум по логистике.: Учебное пособие подред. Б.А. Аникина. М.: ИНФРА-М, 2000.

yil Amerika harbiy-dengiz floti instituti navigatsiya ehtiyojlarini belgilash uchun «logistika» tushunchasini kiritdi. Logistika Ikkinchi jahon urushi davrida ham, ayniqsa, Yevropada joylashtirilgan AQSH armiyasi moddiy-texnika ta'minotida keng qo'llanilgan. Mana shu sababdan keyinchalik aynan harbiy logistika iqtisodiyotda ham moddiy oqimlarni samarali boshqara boshladi;

2) matematik mantiq mazmunida «logistika» atamasi talqini mashhur matematik G.Leybnits (1646-1716) asarlarida foydalanilgan. Atamaning ushbu ma'nosi 1904 yil Jenevada bo'lib o'tgan falsafa kongressida belgilab qo'yilgan. Logistika zamonaviy rivojining ustuvorliklarini belgalib beradigan asosiy tendensiyalar bir qator omillarni o'z ichiga oladi.

Tashuv harajatlarining tez o'sishi. An'anaviy taqsimot kanallari tovar mahsulotlari narxining o'sishi va ob'ektiv inflyatsiya jarayonlari tufayli qimmatlashib ketdi. Boshqaruv darajasining ortishi tovar harakati bilan bog'liq bo'lgan logistika asosiy elementlari – ishlab chiqarish, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar yetqazib berish, mehnat va moliyaviy resurslar, axborot ayirboshlash va boshqalarni ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi chegarasiga erishish. Bugungi kunda yalpi ishlab chiqarish hhrajatlari tizimli pasayishini ta'minlash tobora og'irlashmoqda. Aynan logistika hozirgi paytda ularni qisqartirish uchun jiddiy imkoniyatlar saqlanib turgan soha hisoblanadi.

Zahiralar falsafasida fundamental(juda muhim) o'zgarishlar. Ishlab chiqarilgan tovar zahiralarining taxminan yarmi bir vaqtning o'zida chakana savdogarlarda, ikkinchi yarmi esa – qolgan sotuvchilarda va ishlab chiqaruvchilarning tayyor mahsulot omborlarida bo'lib turibdi. Amaliy tajribaning guvohlik berishicha, zahiralarini boshqarish zamonaviy usullarini amalga oshirish zahiralar umumiy darajasini qisqartirish va saqlab turiladigan zahiralar nisbatini chakana savdogarlarda 10%gacha hamda ulgurji savdogarlar va ishlab chiqaruvchilarda 90%gacha qisqartirishga imkon beradi.

Tadbirkorlik faoliyati ustuvorliklarida tub o'zgarishlar marketing konsepsiyasini amalga oshirish natijasi, ya'ni maqsadli bozorning ehtiyoj va

muhtojliklarini aniqlash hamda ularni raqobatchilardagidan ko'ra samaraliroq va unumliroq usullar bilan qondirish hisobiga foyda olish hisoblanadi.

Axborot kompyuter texnologiyalari rivojlanishi.

Boshqaruv ancha katta miqdordagi ma'lumotlar to'plami mavjudligi va quyidagilarni bo'lish bilan bog'liq to'g'ri keladigan axborotdan samarali foydalanishni nazarda tutadi:

har bir iste'molchi joylashgan joy (tabiiyki, logistika jarayonlari uchun gap birinchi navbatda ulgurji va mayda ulgurji savdogarlar haqida boradi);

har bir buyurtma hajmi;

ishlab chiqarish vositalari, omborlar va taqsimot markazlari joylashgan joy;

har bir ombordan yoki har bir ishlab chiqaruvchi korxonadan har bir iste'molchigacha tashish harajatlari;

foydalanish mumkin bo'lgan transport turlari va tashuvchining taxmin qilinayotgan xizmat ko'rsatish darajasi;

ta'minotchilar joylashgan joy va h.k.

Kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlari rivojlanganligi bugungi kundayoq bu vazifalarni anchayin samarali hal qilishga imkon beradi va kelajakda yanada keng istiqbollar ochib beradi.

SHunday qilib, logistika bu – xomashyo xaridlari, ishlab chiqarish, transport, ombor xo'jaligi, zahiralar, mehnat resurslarini boshqarish sohasidagi, shuningdek, axborot tizimlari, moliyaviy va tijorat faoliyati va boshqa ko'plab sohalardagi serqirra faoliyatdir. Logistika yondashuvlarini amalga oshirish xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar xarid qilish va ularni yakuniy iste'molchiga yetqazib berish orasidagi vaqt oraliqlarini sezilarli qisqartirish, moddiy zahiralarini keskin qisqartirish, axborot olish jarayonini tezlashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, servis darajasini oshirishni ta'minlaydi.

Amaliy fan sifatida logistika ishlab chiqarish va muomala sohasida moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni boshqarishning sifat jihatidan yangi,

samarali usullarini ishlab chiqadi, amaliy faoliyat sifatida esa – bu usullarning qo'llanishini ta'minlaydi.

Bojxona logistikasi yondashuvining prinsipal yangiligi – transport, ombor xo'jaligi, zahiralar, mehnat resurslari, axborot tizimlarini tashqil qilish, tijorat faoliyati va boshqalarni yagona material ishlab chiqaruvchi tizimga integratsiya qilish, uyg'unlikdagi o'zaro aloqalardir.

SHunday ekan, agar jismoniy taqsimot* (distribyutsiya*) tizimining maqsadi tayyor mahsulotni ishlab chiqarish joyidan iste'mol joyigacha yetkazish va uni iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishning talab qilingan darajasiga muvofiq ravishda saqlash bilan bog'liq harajatlarni pasaytirishdan iborat bo'lsa, agar ichki ishlab chiqarish moddiy oqimlariga xizmat qilishi lozim bo'lgan moddiy resurslarni boshqarish maqsadi korxonaning xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va h.k.ga ehtiyojlarini samarali qondirishdan iborat bo'lsa, *logistikaning maqsadi* moddiy resurslarni boshqarish va jismoniy taqsimlashni muvofiqlashtirish yo'li bilan korxonada faoliyati samaradorligi yoki foydalilikni (daromadlilikni) ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi.

Bojxona ishida logistika maqsadlari bevosita tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, ya'ni tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali o'tishi bilan bog'liq

Tashqi savdo oqim jarayonlarini boshqarishga logistika yondashuvining mohiyati tovar oqimlarining qo'shni davlatlar bojxona chegaralaridan o'tishidagi vaqt va moliyaviy harajatlarni minimal qilishni ta'minlaydigan hamda barcha tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradigan boj-tarif va notarif tartibga solish tizimi yaratishdan iborat.

Tabiiyki, moddiy eksport-import tovar va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliyaviy va servis oqimlarini boshqarish xususiyatlari bojxona logistikasining o'ziga xosliklari haqida gapirib, uni logistikaning o'z tamoyillari, usullari va texnik vositalariga ega bo'lgan tarmog'i sifatida alohida ajratishga imkon beradi.

Bojxona logistikasi eksport-import tovar oqimlarini boshqarish fani va amaliyoti sifatida shuningdek, bojxona to'lovlari moliyaviy logistikasi, bojxona

ishida axborot logistikasi, bojxona xizmatlari logistikasi hamda boj-tarif va notarif tartibga solishini logistikalashning boshqa bo'limlarini ham o'z ichiga oladi.

Bojxona logistikasining maqsadi – taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hisobiga tashqi savdo faoliyati qatnashchilari uchun qulay sharoitlar yaratish va bojxona ma'murchiligi samaradorligini oshirish bo'lib, buning natijasida quyidagilar ta'minlanadi:

- mamlakat tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, tovar aylanmasini jadallashtirish va savdoning rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish;
- mamlakat bojxona chegaralari orqali olib o'tiladigan tovar moddiy boyliklari va transport vositalari ustidan amaldagi qonunchilikka rioya qilish va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun yetarli va zaruriy hajmdagi bojxona nazorati;
- davlat budjeti daromadlar qismini o'z vaqtida va to'liq to'ldirish.

Respublikamiz bojxona organlari faoliyatiga nisbatan ushbu muammoni hal qilishning dolzarbligini quyidagilar belgilab beradi:

mamlakatning geosiyosiy va geoiqtisodiy holati xususiyatlari;
eksport-import operatsiyalari bo'yicha nazorat qilinadigan yuk oqimlari hajmining ortishi;
bojxona tizimi ichki faoliyatini tashqil qilish va tartibga solish muammolari;
mamlakatning xalqaro savdo va bojxona tashqilotlari va boshqa xalqaro iqtisodiy tashqilotlarga kirish zarurati.

Logistika yondashuvlarini amalga oshiradigan samarali bojxona tizimi barpo etish davlatning barqaror budget siyosatini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi; iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirish; qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti va «sog'lom» raqobat muhit yaratish va uni qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

Bojxona logistikasi mamlakatimizda rivojlanayotgan logistik ishlab chiqarish, savdo, transport va axborot tizimlari bilan birgalikda shakllanish (oyoqqa turish) jarayonini boshidan kechirmoqda. Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy transport-logistika va telekommunikatsiya tizimlari, savdo va transportda logistika markazlari tarmoqlari yaratish bo'yicha TEDIM, UNCTAD, TACIS xalqaro loyihalarida faol ishtirok etmoqda. Logistika tizimlari ularning elementlari hisoblangan respublika va mintaqaviy dastur va loyihalar majmui ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Bu dasturlar va loyihalarning alohida tarkibiy qismlari bevosita bojxona organlari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari faoliyatiga ta'sir etib, bojxona va bojxona bilan bog'liq infratuzilmaga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Bojxona logistikasi nisbatan yosh fan hisoblanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi bilan uning tushunchaviy mazmuni va atamashunosligiga aloqador ko'plab masalalar aniqlashtirib va o'zgartirib borilmoqda, yangi mazmun bilan boyitilmoqda. Mazkur o'quv qo'llanmada logistikaning nazariy asoslari, uning toifaviy-tushunchaviy mazmuni ochib berilgan. Zamonaviy logistika konsepsiyalari keltirilgan hamda tovar moddiy boyliklari va transport vositalarining bojxona chegarasidan o'tishini logistikalash, ya'ni eksport-import tovar va unga hamrohlik qiladigan oqimlarning amaldagi harakatlanishini muvofiqlashtirishning muammoli jihatlari ko'rib chiqilgan.

1-BOB. BOJXONA LOGISTIKASI FANINING MOHYATI VA MAZMUNI

«Bojxona logistikasi» fanining predmeti uning mohiyati va maqsadi

Logistika ta'rifida ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. *Tor ma'noda* gap moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni samarali (umumiy xarajatlarni pasaytirish va yakuniy iste'molchining mahsulot sifatiga qo'yadigan talablarini qondirish nuqtai nazaridan) boshqarish hisobiga biznesni tashqil qilishning strategik, taktik va tezkor maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan integral vosita haqida boradi. *Keng ma'noda* gap qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun belgilangan makro va mikroiqtisodiy muhitda moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni boshqarish va optimallashtirishga ilmiy yondashuvni amalga oshirish haqida boradi.

Buning oqibatida «Logistika» tushunchasini tavsiflaydigan ko'plab talqinlar vujudga keldi. Ularning orasida faqat ikkitasiga to'xtalib o'tamiz:

- logistika – moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni zamon va makon bo'ylab birlamchi manbadan to iste'molchigacha harakatlantirishni boshqarish haqidagi fan;
- logistika – xomashyo va materiallarni ishlab chiqarish korxonasiga yetkazish, zavodda ichki qayta ishlash, tayyor mahsulotni iste'molchining mafaatlari va talablariga muvofiq unga yetkazish, shuningdek, mos keluvchi axborot va moliyaviy vositalarni uzatish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida amalga oshiriladigan transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va boshqa moddiy va nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish, tashqil qilish va nazorat qilish jarayonidir.

SHunday qilib, logistika – korxonada faoliyati samaradorligini oshirish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lgan harakatini boshdan-oyoq boshqarish bo'yicha amaliy faoliyatdir. Konseptual nuqtai nazardan quyidagi *logistika tamoyillari* ajratib ko'rsatilishi mumkin:

➤ tizim hosil qiluvchi tamoyil, unga muvofiq logistika resurslarni boshqarish jarayonini ta'minlash samarali texnologiyalari tizimini ifodalaydi. Tor ma'noda logistika tovar harakatini boshqarish tizimini tashqil qiladi (xo'jalik aloqalarini shakllantirish, mahsulotni omborga joylashtirish joylari orqali o'tishini tashqil qilish, mahsulot zaxiralarini shakllantirish va tartibga solish, ombor xo'jaligini tashqil qilish va rivojlantirish);

➤ *integratsiyalovchi tamoyil*, unga muvofiq logistika iste'molchilarga vositachilik xizmatlari ko'rsatish va mahsulotni tanlangan bozorga yo'naltirgan holda sotish, saqlash va yetqazib berish jarayonlari sinxronligini ta'minlaydi. U logistika tizimida vositachilar manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Logistika xususiy, lokal ekstremumlardan umumiy optimallashtirishga o'tishni amalga oshirishga imkon beradi;

➤ *tartibga soluvchi tamoyil*, unga muvofiq moddiy oqimlarni logistik boshqarish barcha turdagi resurslarni tejash, mehnat xarajatlarini qisqartirishga yo'naltiriladi. Keng ma'noda boshqaruv ta'siri logistika tizimi bir qismining xulq-atvori yaxlit tizim manfaatlariga muvofiqligini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Biron-bir quyi tizimning resurslar salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, u o'z faoliyatida logistika tizimi markazlashtirilgan strategiyasiga shunchalik ko'p yo'nalish olishi lozim;


➤ *natijalovchi tamoyil*, unga muvofiq logistika faoliyati berilgan sifatdagi mahsulotni zarur miqdorda, ko'rsatilgan vaqtda va minimal harajatlar bilan yetqazib berishga yo'naltiriladi. Logistika ta'minot-ishlab chiqarish-taqsimot-iste'mol o'zaro aloqalarining barcha bosqichlarini qamrab olishga intiladi, ya'ni resurslarni mavjud talabga muvofiq tayyor mahsulot yetqazib berishga aylantirish algoritmini ifodalaydi.

Mazkur tamoyillar u yoki bu darajada logistikani moddiy oqimlarni birlamchi manbadan yakuniy iste'molchigacha tovar harakatlanishi bilan bog'liq minimal xarajatlar va unga hamrohlik qiladigan mos keluvchi oqimlarni boshqarish fani sifatida kengaytirilgan talqinini tavsiflaydi.

Logistikaning hozirgi kundagi vazifalariga muvofiq uning ikki xil turdagi funksiyalari ajratib ko'rsatiladi – tezkor va muvofiqlashtirish funksiyalari.

Tezkor funksiyalar bevosita ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot sohasidagi moddiy oqimlar harakatini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, mohiyatan an'anaviy moddiy-texnika ta'minoti funksiyalaridan kam farq qiladi. Masalan, ta'minot sohasidagi funksiyalar qatoriga xomashyo va materiallar, alohida butlovchi qismlar va agregatlar, tayyor mahsulot zaxiralarining ta'minotchidan ishlab chiqarish korxonalari, omborlar tovarlar saqlanadigan joylarga harakatini boshqarish kiradi. Ishlab chiqarish sohasida logistika funksiyasiga zaxiralarni boshqarish kiradi, u bo'lg'usi mahsulot tarkibiy qismlarlarining ishlab chiqarish jarayoni barcha bosqichlari orqali harakati, shuningdek, uning ulgurji omborlar va sotuv bozorlariga ko'chib o'tishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Taqsimotni boshqarish funksiyasi yakuniy iste'molchigacha bo'lgan taqsimot kanallari bo'yicha tayyor mahsulot oqimlarini tezkor tashqil qilishni qamrab oladi.

Muvofiqlashtiruvchi funksiyalar quyidagilarni taqozo etadi: ishlab chiqarishning turli bosqich va qismlarining moddiy resurslarga ehtiyojini aniqlash va tahlil qilish; korxonalar faoliyat ko'rsatayotgan bozorlarni tahlil qilish va istiqbolli bozorlarning rivojlanishini bahorat qilish; iste'molchilar ehtiyojlari va buyurtmalariga aloqador ma'lumotlarni qayta ishlash (1.1-rasm).



1.1-rasm. Logistika strukturali sxemasi

Muvofiqlashtiruvchi funksiyalar doirasida korxonaning ishlab chiqarish va sotuv faoliyati samaradorligini pasaytirmasdan zahiralarini qisqartirishga yo'naltirilgan tezkor rejalashtirish jarayonini ajratib ko'rsatish lozim. Tezkor rejalashtirishning mohiyati shundan iboratki, real buyurtmalar kelib tushishida tuzatishlar kiritiladigan talabni bahorat qilish asosida tashuvlar jadvali va tayyor mahsulot zahiralarini boshqarish tartibi ishlab chiqiladi, pirovardida u ishlab chiqarishni rejalashtirish, xomashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlash dasturlarini ishlab chiqishni belgilab beradi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti tez o'zgarayotgan zamonaviy sharoitlarda bozordagi mavqy evropa ittifoqini saqlab qolish yoki mustahkamlash istagida bo'lgan tadbirkorlik strukturalari tashqi muhitda ro'y berayotgan o'zgarishlarga tezkor va to'g'ri javob qaytarishga imkon beradigan xulq-atvor uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Raqobat kurashi qonunlariga ko'ra, mos keluvchi tadbirlarni amalga oshirish bunday o'zgarishlar ro'y berishidan ancha oldin boshlanishi lozim. Bu korxonaning strategik

maqsadlari va logistikaga tuzatish kiritishni, ya'ni korxonada raqobatbardosh bo'lgan faoliyat yo'nalishlarini aniqlashni taqozo etadi.

Mohiyatan gap tanlangan istiqbolli maqsadlarni korxonada o'zgarishlar amalga oshirish orqali amalga oshirishni ko'zda tutadigan strategik logistika boshqaruvi zarurligi haqida boradi. U quyidagi shartlarda amalga oshiriladi:

- tashqi muhit noaniqligi va dinamikligi bilan asoslanadigan yangi, murakkabroq vazifalar paydo bo'lishi; chunki bu vazifalarning ayrimlari vaziyat jihatidan yangi hisoblanadi va ularning yechimi uchun moslashtirish usullari yaramaydi;
- vazifalarning tez almashtirilishi va korxonalarining mos keluvchi reaksiyasi, masalan kapital qo'yilmalar yo'nalishlari, boshqaruvning tashqiliy shakllari va boshqalarning o'zgarishi;
- noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi tufayli yuzaga kelgan xatoning qimmatga tushishi;
- noaniqlik darajasi yuqoriligi bilan tavsiflanadigan u yoki bu muammoni hal qilish sxemalari va jarayonlari yo'qligi.

Strategik logistika boshqaruvining mohiyati quyidagicha: ichki va tashqi muhit uzlyuksiz o'zgarishlari sharoitlarida har bir vaqt fursatida kelajakdagi maqsadlarga erishish uchun korxonada hozirgi paytda aynan nimalar qilishi kerakligi qayd etiladi. SHu tariqa muhitning ehtimoliy o'zgarishlari bahorat qilinadi va ularga tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Amaliy jihatdan zamonaviy rivojlanish bosqichida logistika yondashuvi moddiy oqim adekvatligini aniqlash; mahsulot va resurslar optimal ko'chirish texnologiyasini aniqlash; mahsulot sifati va uning o'roviga standart talablar ishlab chiqish; vaqt yo'qotishlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan jihatlarni aniqlash; moddiy, mehnat, moliyaviy, axborot resurslari va h.k.dan noratsional foydalanishni aniqlashdan iboratdir. Bunda rahbar (logistika bo'yicha menejer) uchta o'zaro bog'liq tizimli konsepsiyadan foydalanadi.

1.Umumiy harajatlar konsepsiyasi logistika funksiyalarini alohida emas, yaxlit bir butunlik sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni barcha xarajatlar bir vaqtning

o'zida talab qilingan xizmat ko'rsatish darajasini ta'minlash uchun amalga oshiriladi deb hisoblanadi. Muqobil yondashuvlarni taqqoslash shunga asoslanadiki, ayrim funksiyalar bo'yicha xarajatlar ortadi, ayrimlari bo'yicha esa – kamayadi yoki oldingi darajada qoladi. Konsepsiyaning mohiyati – minimal umumiy harajatlar bilan tavsiflanadigan muqobil variantni aniqlashdan iborat.

Masalan: tovarlar tashishni avtomobil transportidan aviatransportga ko'chirishda oraliq omborlar tashqil qilmaslik, demak, zaxiralarni boshqarish, omborga joylashtirish va saqlash xarajatlarini chiqarib tashlash mumkin. Bunda transport harajatlarining o'zi ortadi, biroq taqsimot tarmog'idagi xarajatlar umumiy darajasi kamayadi.

2. Optimallashtirishning oldini olish konsepsiyasi, alohida bir funktsiyani takomillashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar optimal natijalar keltirmaydigan hollarda amalga oshiriladi.

Boshqacha qilib aytganda, boshqalardan alohida ravishda ko'rib chiqiladigan funktsiya samaradorligi umumiy logistika jarayonining bir qismi sifatida funktsiya samaradorligidan farq qilishi mumkin. Konsepsiyaning mohiyati – barcha funksiyalar o'zaro aloqalari murosali variantlarini shunday aniqlashdan iboratki, logistika tizimi umuman olganda qiymatlar samaradorlik optimal balansiga erishsin.

Masalan: agar yuklarni tashish tezlikka va ayniqsa, xizmat ko'rsatish ishonchliligiga putur yetkazadigan yoki tanlangan transport turi maxsus qimmat turadigan o'rab-qadoqlashni talab qiladigan bo'lsa, 1 tonna yukni tashish uchun tarif pastligi butun tizim uchun nomaqbo'l bo'lib chiqishi mumkin.

3. Moliyaviy ayirboshlash konsepsiyasi shuni hisobga oladiki, moddiy oqimlar harakati bilan bog'liq turli harakatlar va qarorlar qabul qilish oqibatida ayrim xarajatlar ortadi, boshqa xarajatlar esa kamayadi. Konsepsiyaning mohiyati umumiy xarajatlar pasayishiga olib keladigan harakatlar va qarorlarni amalga oshirishdan iborat.

Masalan: korxonada tezkor buyurtmalar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish yuqori darajada bo'lishini ta'minlash uchun qimmat aviatransportdan foydalandi.

Tadqiqotlar natijasida logistika zanjirining nozik nuqtasi aniqlandi – buyurtmalarni rasmiylashtirish va ularni ekspeditsiya xizmatiga topshirish uchun ko'p vaqt sarflanarkan. Buyurtmani rasmiylashtirish jarayonini soddalashtirish, axborot uzatishning telekommunikatsiya tizimini joriy qilish ta'minot jadvalini bajarishning erishilgan darajasini saqlab qolgan holda arzonroq bo'lgan avtomobil transportidan foydalanish imkonini beradigan vaqt zaxirasi yaratdi.

Boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayonida birlashtirilgan aynan shu harakatlar mahsulot iste'molchilari va buyurtmachilarning talab va ehtiyojlarini qondirish begilangan darajasida umumiy xarajatlarni minimal qilish uchun barcha funksiyalarni bir qilib birlashtiradigan to'laqonli logistika konsepsiyasini hosil qiladi.

Logistika yondashuvining maqsadi – moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni boshdan-oxir optimal boshqarish yo'li bilan vaqt va resurslar minimal xarajatlari bilan kutilayotgan natijaga erishishdir.

Logistikaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- talabni bahorat qilish va uning asosida zaxiralarni rejalashtirish;
- zaruriy transport va ishlab chiqarish quvvatini aniqlash;
- moddiy oqimlarni optimal boshqarish asosida tayyor mahsulotni taqsimlash ilmiy tamoyillari ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish punktlarida va iste'molchilarda transport-ombor operatsiyalari va yuklash-tushirish jarayonlarini boshqarish ilmiy asoslarini ishlab chiqish;
- logistika tizimlari faoliyatining matematik modellarini tuzish;
- mahsulotni birgalikda rejalashtirish, ta'minot, ishlab chiqarish, omborga joylashtirish, sotish va yuklab jo'natish usullarini ishlab chiqish, shuningdek, boshqa bir qator vazifalar.

Logistika tizimlari real iqtisodiyotning turli ishlab chiqarish birlashmalari doirasida rivojlanishning to'rt bosqichidan birida bo'ladi.

Rivojlanishning birinchi darajasi uchun logistika tizimi harakatlar sohasi shu bilan belgilanadiki, korxonada smena-sutka topshiriqlarini bajarish asosida ishlaydi

va ombordan jo'natiladigan tayyor mahsulot saqlash va uni transport vositasida tashishni tashqil qilishni qamrab oladi. Tizim mahsulotni taqsimlash jarayonida o'zilishlar va kundalik talab o'zgarishlariga bevosita javob berish tamoyili bo'yicha harakat qiladi. Ushbu bosqichda logistika tizimi samaradorligi sotuvdan olingan pul tushumi miqdorida transport vositasida tashish va mahsulot taqsimlash bo'yicha boshqa operatsiyalar xarajatlari bo'yicha baholanadi.

Logistika tizimi rivojlanishining ikkinchi darajasi ishlab chiqarilgan tovarlar oqimini ishlab chiqarish liniyasining oxirgi liniyasidan yakuniy iste'molchigacha boshqarishni ko'zda tutadi. Nazorat buyurtmachiga xizmat ko'rsatish, buyurtmalarni qayta ishlash, korxonada tayyor mahsulotni saqlash, tayyor mahsulot zaxiralarini boshqarish, tizim ishini istiqbolli rejalashtirish kabi funksiyalarga nisbatan amal qiladi. Tizim samaradorligi harajatlar smetasi va real harajatlarni taqqoslash asosida baholanadi.

Logistika tizimlarining uchinchi darajasi – xomashyo xarid qilishdan tortib mahsulot yakuniy iste'molchisiga xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan operatsiyalar ustidan nazoratdir. Bunda korxonaga xomashyo yetqazib berish, sotuvni bahorat qilish, ishlab chiqarishni rejalashtirish, xomashyo topish yoki xarid qilish, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki xomashyo zaxiralarini boshqarish qo'shimcha funksiyalar hisoblanadi. Logistika bo'yicha menejer tomonidan nazorat qilinmaydigan yagona soha bu – korxonani kundalik boshqarishdir. Tizim samaradorligi xizmat ko'rsatish sifat standarti bilan taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda korxonada ikkinchi daraja tizimlari uchun xos bo'lganiday xarajatlarni qisqartirishga emas, balki tizim mahsuldorligini oshirishga intiladi.

To'rtinchi daraja – eng yuqori daraja bo'lib, logistika tizimi nazorat va rejalashtirish jarayonlarining marketing, ishlab chiqarish va moliya operatsiyalari bilan integratsiyasini ko'zda tutadi. Korxonada missiyasini amalga oshirish uchun barcha bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirishni asoslab beradi. Tizimni boshqarish strategik va taktik rejalar asosida amalga oshiriladi. Samaradorlik xalqaro standartlar talablarini hisobga olgan holda baholanadi. Tashqi muhitning korxonada operatsiyalariga bevosita yoki bilvosita ta'siri

kuchayadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, logistika tizimlari rivojlanishining quyi darajasidan yuqoriroq darajalarga o'tish jarayoni qulay sharoitlar yuzaga kelganda, masalan, korxonalar birlashganda, yangicha boshqaruv rejimida, davlatning siyosiy va iqtisodiy tashabbuslarida, ichki va tashqi muhit vaziyatli o'zgaruvchilari o'zgariganda asta-sekinlik bilan yoki keskin ro'y beradi.

Tabiiyki, jarayonning negizida uning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi yotadi. O'tkazilgan tadqiqotlar³ shuni ko'rsatadiki, birlamchi xomashyo manbasidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan tovar harakati vaqtining 93%i uning taqsimot kanallari bo'yicha o'tishiga va asosan saqlanishiga to'g'ri keladi. Tovarlar ishlab chiqarishning o'zi umumiy vaqtning 2%ini, transport vositasida tashish esa – 5%ni tashqil qiladi. Yevropa mamlakatlarida tovar harakati mahsulotlari ulushi yalpi milliy mahsulotning 20%dan ortig'ini tashqil qiladi. Bunda xarajatlar umumiy strukturasida xomashyo zahiralari, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar bo'yicha harajatlar 44%ni, omborga joylashtirish va ekspeditorlik harajatlari 16%ni, magistral va texnologik yuk tashuvlari mos ravishda 23 va 9%ni tashqil qiladi. Qolgan 8% bu – tayyor mahsulot sotuvini ta'minlash bo'yicha harajatlar. Ta'kidlash joizki, jahon bozori doirasida tovarlarni harakatlantirish bo'yicha xarajatlar ichki bozordagi xuddi shunday harajatlardan ko'ra 2-3 baravar yuqoridir.

Ishlab chiqarish va muomala sohalarida moddiy oqimlarni boshqarishga logistika yondashuvini qo'llashdan olinadigan iqtisodiy samarani baholash quyidagi kesimda ko'rib chiqiladi:

- moddiy oqimning butun harakat yo'lida zahiralar kamayishi;
- logistika zanjiri bo'ylab o'tish vaqti qisqarishi;
- transport harajatlari pasayishi;
- tayyor mahsulot bilan yuklash-tushirish operatsiyalarida qo'l mehnati va mos keluvchi harajatlar qisqarishi.

Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining hozirgi sharoitlarida moddiy-texnik bazani takomillashtirish normativlari umumiy tizimlari o'zining avvalgi

³ Kearney A. O'. Logistics Productivity: the Competitive Edge in Europe. Chicago, 1994. P. 39.

ahamiyatini yo'qotmoqda. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt (ishbilarmonlik birligi) mustaqil ravishda muayyan vaziyatni baholamoqda va qaror qabul qilmoqda. Real amaliyot shundan dalolat beradiki: bugungi kunda raqobat kurashida logistika sohasida bilimdon bo'lgan, uning usullarini yaxshi o'zlashtirgan kompaniya yetakchibo'ladi.

Logistikasining rivojlanish bosqichlari

Logistikada konseptual yondashuvlar evolyutsiyasi doirasida beshta asosiy davrni ajratib ko'rsatish mumkin, bu – alohida bo'laklarga ajratish fragmentlash; konseptuallash; rivojlanish; integratsiya; globallashuv.

Fragmentlash davrida (1950-yillar boshlarigacha) logistika g'oyalari moddiy taqsimotni boshqarish va umumiy xarajatlarni pasaytirish integral vositasi sifatida ko'rib chiqilmagan, vaholanki, alohida logistika funksiyalari harajatlar tarkibiy qismlarini pasaytirish uchun foydalanilgan. Biroq o'sha paytdagi iqtisodiy sharoitlarda, menejment va texnologiyalar rivojlanish darajasida asosiy e'tibor mahsulot ishlab chiqarishda zaxiralar izlab topishga, iste'mol bozorini u bilan to'yintirishga qaratilgan. Sotuvchi bozori uchun xos bo'lgan bunday vaziyatda logistika yondashuvlari apriori ortiqcha edi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda logistika yondashuvlarining kelajakda rivojlanishi uchun asosiy shart-sharoitlar shakllantirilgan:

- harbiy logistika nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi⁴;
- tovarlar distribyutsiya tizimida transport xarajatlari va zaxiralar ortishi;
- transport tariflari o'sishi;
- marketing konsepsiyasi paydo bo'lishi va tez tarqalishi.

Aynan shu davrda dastlabki logistika tashqilotlari va jamiyatlari paydo bo'ldi⁵.

Konseptuallashuv (shakllanish) davri (1950-yillar o'rtalaridan 1970-yillargacha) logistika nazariyasi va amaliyotining tez rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

⁴ Б.А.Аникин, А.П.Тяпухин «Коммерческая логистика» учебник изд. «Проспект» Москва 2019 г.

⁵ Б.А.Аникин, А.П.Тяпухин «Коммерческая логистика» учебник изд. «Проспект» Москва 2019 г.

Aynan shu davrda distribyutsiyani yaxshilash (xarajatlarni pasaytirish nuqtai nazaridan) imkoniyatlariga ahamiyat bermaslik mumkin emasligi tushunib etildi.

Buning oqibatida logistika qarorlari qabul qilish metodologiyasini yanada rivojlantirish uchun negiz bo'lib xizmat qilgan *umumiy xarajatlar konsepsiyasi* shakllantirildi. Konsepsiyaning ma'nosi shundan iboratki, distribyutsiyada xarajatlarni shunday qayta guruhlash mumkinki, u tovarlarni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchi tomon harakatlantirishda xarajatlar umumiy darajasini pasaytirishga imkon beradi. Bunday yondashuvga misol – transport vositasida tashish xarajatlari ortishi hamda omborga joylashtirish va zaxiralarni boshqarish xarajatlarining qisqarishidir.

Bundan tashqari, bu davrda logistikaning jadal rivojlanishini izohlab beradigan qo'shimcha ob'ektiv iqtisodiy va texnologik omillarni ajratib ko'rsatish lozim: iste'mol talabi munosabatlari va modellaridagi o'zgarishlar (oligopoliya bozorlari rivojlanishi), kompyuter texnologiyalarining faol rivojlanishi, zaxiralar shakllantirish strategiyalaridagi o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti va b.

Bu omillar yig'indisi biznes strukturalarini talab va taklifni muvofiqlashtirish, iste'molchining talab va ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishning yangicha yo'llarni izlab topishga majbur qildi. Bundan tashqari, korxonalar rahbarlari logistika xarajatlari ancha yirik bo'lishi mumkinligini tushunib yeta boshladilar.

Masalan: 1960-yillarning o'rtalarida o'tkazilgan logistika xarajatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, AQSH uchun ular YAMMning 15%ga yaqinini, YAMMdan servis xizmatlarini chiqarib tashlaganda esa – 23%dan ko'pni tashqil qiladi. Bunda xarajatlarning taxminan 2lar 3 qismini transport xarajatlari, 1lar 3 qismini esa zaxiralar yaratish va qo'llab-quvvatlash xarajatlari tashqil qiladi⁶.

1960-yillar oxirlarida *biznes-logistika konsepsiyasiga* ta'rif berilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni quyidagicha: «Logistika bu – belgilangan joyda va belgilangan vaqtda tovarlarga talab va taklifni muvofiqlashtirish va harakatlantirishga xizmat qiladigan barcha faoliyat turlari menejmenti». Biznes-

⁶ BaHou R.H. Upper Saddle River lar lar Business Logistics Management. 4th Ed. N.J.: Prentice-Hall International, Inc., 1998.

logistika tamoyillarni amaliyotda qo'llash ko'zga ko'rinarli natijalar berardi, biroq ulardan foydalanish zarurati hali o'rta va oliy boshqaruv darajasi rahbarlari uchun yaqqol ko'zga tashlanmasdi. An'anaviy funksiyalarini amalga oshirish, logistika operatsiyalarining moliyaviy natijalari va logistika xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilishdagi eskidan qolgan fikrlash tarzi tufayli korxonalar moddiy oqimlarni boshdan-oxir boshqarishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashqiliy o'zgarishlar joriy etishga to'sqinlik qilardi.

1970-yillar boshlarida ***tara-o'rov-qadoqlash inqilobi yakunlandi***. Mazkur bosqichda ilgari faqat yuklash-tushirish operatsiyalari orqaligina bog'liq bo'lgan transport va ombor o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib qoldi, umumiy muvofiqlashtirilgan texnologiya va umumiy jadval bo'yicha bitta iqtisodiy natijaga ishlay boshladi. Tara turi, yuk xarakterini aniqlash va boshqa vazifalar birgalikda hal etila boshladi¹. Bu esa transport-ombor asbob-uskunalarini, yangi tara va o'rab-qadoqlash turlari, avtomatlashtirilgan ombor komplekslari ishlab chiqarishning faol rivojlanishiga, yuklarni tashishda konteynerlashning joriy qilinishiga, palet (poddon) va o'rovlar qatorlari tur va o'lchamlari standartlashtirilishiga olib keldi.

Bu davrdagi logistika yangiliklari:

- korxonalar xo'jalik yuritish amaliyotida ustuvorliklarning o'zgarishi, bu yerda tovar harakatlanish jarayonlarini boshqarish asosiy o'rin egallay boshladi;
- takror ishlab chiqarish jarayonida moddiy boyliklar harakati masalalariga kompleksli yondashuvdan foydalanish (boshqaruvning fragmentar usulida harakatlarni muvofiqlashtirish ko'pincha yetarli bo'lmasdi, chunki strukturali bo'linmalar harakatlari optimal ketma-ketligiga rioya qilinmasdi).

Rivojlanish (klassik) logistika davri (1970-1980 yillar) quyidagilar bilan tavsiflanadi: moddiy oqimni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchi tomon harakatlantirish qiymatini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish; jismoniy taqsimot qiymatining tez o'sishi; logistika sohasida uzoq muddatli rejalashtirish va b.

Bu davr yangiliklarini logistika tizimlari – moddiy oqimlarni boshqarish umumiy jarayonida o'zaro bog'liq elementlardan iborat bo'lgan, murakkab tashqiliy yakunlangan (stryukturalangan) iqtisodiy tizimlar yaratish belgilab beradi, bunda ushbu bo'g'inglarning faoliyat vazifalari biznesni tashqil qilishning ichki maqsadlari va (yoki) tashqi maqsadlar bilan birlashtirilgan. Mazkur davrda logistikaning integratsion asoslari kengaydi va ishlab chiqarish jarayonini qamrab ola boshladi. Bunda mezonlar va murosalar qo'llash (iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish) sohalari bilan farqlanadigan konseptual yondashuvlar ko'rib chiqildi.

Masalan: murosalar amal qilish sohasini bitta korxonaning alohida logistika funksiyalariga xarajatlar tashqil qiladi, mezon esa moddiy taqsimotga umumiy xarajatlar minimumi hisoblanadi. Bunday yondashuv bitta operatsiya xarajatlarini oshirgan va boshqa operatsiya xarajatlarini pasaytirgan holda butun logistika tizimi xarajatlarini minimumga olib kelish imkonini bergan.

Umumiy xarajatlarni minimal qilishga yo'nalish olish ichki funksional murosalaridan foydalanish asosida ijobiy iqtisodiy samara bergan. Biroq harajatlar mezoni korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini chegaralab qo'ygan, chunki talabning daromadlar va harajatlar nisbatiga ta'sirini aks ettirmagan. Oqibatda amaliyotda ham harajatlarga, ham talabga yo'naltirilgan logistika operatsiyalar korxonaning maksimal foyda olish mezoni foydalanilgan.

Integratsiya davri (1980-yillar-1990-yillar) murosalar faoliyat sohasining kengayishi bilan tavsiflanadi. Bunday ekspansiya (ta'sir sohaslarining kengayishi) zarurati shu bilan izohlanadiki, korxonada ichida bironta funksional hudud odatda mustaqil samarali faoliyat ko'rsatish va tashqi sharoitlar o'zgarishiga «bir o'zi» tegishli javob berish uchun yetarli bo'lgan resurslar va imkoniyatlarga ega bo'lmaydi. SHunday qilib, korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalari birgalikdagi sa'y-harakatlari talab qilinadi, bu esa, korxonada menejerlarining to'plangan bilim va tajribalaridan foydalanish imkonini beradi. Bu vaqtda logistika rivojlanishini belgilab beradigan g'oya yakuniy maqsadga minimal xarajatlar bilan erishish uchun xarid-ishlab chiqarish-sotuv to'liq logistika zanjirida korxonada va uning

logistika hamkorlari logistika funksiyalarining maksimal integratsiyasi bo'lgan. Bunday yondashuv «*kompleksli yondashuv*» yoki «*butun korxonada asosidagi yondashuv*» nomini olgan.

Bu esa shuni anglatadiki, logistika tizimlari umumiy maqsad – butun korxonada faoliyati maksimal samaradorligiga erishish maqsadidan kelib chiqib yaratishi va boshqarilishi lozim. SHu sababli asosiy e'tibor korxonaning funksionallararo murosalariga, jumladan, ishlab chiqarish va uning nologistika strukturalariga mujassam etila boshladi. Mezon sifatida butun korxonada xarajatlarini minimallashtirish namoyon bo'lgan.

Ishlab chiqarish va tovar harakatlanishi umumiy xarajatlari minimumi mezonni xarajatlar va olingan natijalar o'rtasida eng yaxshi nisbatga erishish maqsadida korxonaning barcha tarkibiy bo'linmalari manfaatlari o'rtasida murosada topishni taqozo etadi. Masalan: korxonada marketing bo'limi rahbarlari bozor ulushini kengaytirishdan va shu boisdan zaxiralar darajasining yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki faqat shu shartdagina iste'molchilar uchun minimal zarur bo'lgan tovarlar yetqazib berishning bir maromdaligi, ishonchliligi va muntazamligini ta'minlashi, ya'ni mijozlarga xizmat ko'rsatishning sifat darajasi yuqori bo'lishini ta'minlash mumkin.

Ishlab chiqarish bo'linmalari ta'minotda ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgulishlarga yo'l qo'ymaslikka intilib, ular ham zaxiralar darajasining yuqori bo'lishi tarafdori hisoblanadi. Lekin bunday siyosatda bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish darajasining yakka tartibdagi buyurtmalarni bajarish kabi kuchi pasayadi. Moliya va nazorat strukturalari zaxiralar hajmini qisqartirishga harakat qiladi, transport bo'limi esa bir martada yetqazib beriladigan yuklar hajmining katta bo'lishini talab qiladi. Biroq bu butun ishlab chiqarish va sotuv tizimining ishonchliligini pasaytiradi, chunki korxonada raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Logistika bo'yicha menejerlar murosali pozitsiyani egallab, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifati, zaxiralar va xarajatlar muvozanatini topish va ushlashga intiladi.

Logistika sohasida dunyodagi eng nufuzli tashqilotlardan biri – Logistika menejmenti Kengashi (AQSH) 1985 yil logistikaga quyidagicha ta’rif berdi:

Logistika iste'molchilar so'rovlarini to'liq qondirish maqsadida xomashyo, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, xizmatlar va ularga hamrohlik qiladigan axborot zaxiralari oqimini bu oqim vujudga kelgan joydan u iste'mol qilinadigan joygacha samarali (xarajatlarni pasaytirish nuqtai nazaridan) yetqazib berishni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish jarayonidir.

Ushbu ta’rifda uchta jihat muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, logistika faoliyati integratsiyalangan xarakterga ega bo’lib, yuzaga kelgan joydan moddiy resurslar va tayyor mahsulot oqimi iste’mol qilinadigan joygacha amal qiladi. Ikkinchidan, bu oqimga hamrohlik qiladigan axborot oqimini boshqarish muhimligi alohida ajratib ko’rsatilgan. Uchinchidan, ushbu sohaga servis (nomoddiy) oqimlar ham kiritilgan bo’lib, bu bojxona logistikasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu bojxona ishida logistika yondashuvlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ilgari optimallashtirish va o’rganish ob’ekti faqat moddiy eksport-import tovar oqimlari bo’lgan.

Logistikaning zamonaviy yo’nalishi kompleksli yondashuvning tabiiy va mantiqiy rivojlanishi hisoblangan umumiy javobgarlik konsepsiyasi rivojlanishi bilan bog’liq. Konsepsiyaning o’ziga xosligi – logistika tizimining iqtisodiy muhit doirasidan chiqqanligi va ijtimoiy, ekologik va siyosiy jihatlarning hisobga olinishidir. Mezon sifatida foyda va xarajatlar maksimal nisbati ko’rib chiqiladi. SHunday qilib, murosalar sohasining kengayishi davom etadi va, shu narsa ayniqsa muhimki, konsepsiya ijtimoiy, ekologik va siyosiy vazifalarni hal qilish va foyda olish maqsadlarini muvozanatlashni o’z ichiga oladi.

Iqtisodiy murosalar – tadbirkorlik faoliyati masalalari majmui bo’yicha qaror qabul qilish jarayonida qo’llanadigan hamda korxonaning turli bo’linmalari va logistika jarayoni qatnashchisi bo’lgan barcha korxonalar manfaatlarini aks ettiradigan hisob-kitoblarda ifodalanadigan toifadir. Biroq qaror qabul qilishga ko’p sonli o’zgaruvchilar ta’sir ko’rsatganda manfaatlarni uyg’unlashtirish hisob-

kitoblar yo'li bilan emas, balki korxonalar faoliyat tavsifnomalarini taqoslash yo'li bilan erishiladi.

Mahsulot taqsimlash (transport vositasida tashish, yuklash-tushirish, saqlash va h.k.) logistika zanjirining turli nuqtalarida ro'y berishi sababli, murosalar nazariyasidan kelib chiqadigandek, to'g'ri qaror qabul qilish bir-biriga yaqin funksiyalar ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Bu esa masalan, ekspeditorlik hududi va «aniq muddatida» tamoyili bo'yicha materiallar yetqazib berish xarajatlarini belgilab beradigan ta'minot hajmi va tez-tezligi kabi ko'rsatkichlar bir-biridan alohida hisobga olinmasligi kerakligini anglatadi.

Korxonada foydasi, daromadlari va xarajatlarini muvozanatlash usuli sifatida murosalar ikki jihatdan – tizimning to'liq yalpi xarajatlariga ta'sir nuqtai nazaridan va sotuvdan olingan daromadga ta'sir nuqtai nazaridan baholanadi. Murosani shunday topish mumkinki, to'liq xarajatlar ortadi, lekin xizmatlarni yaxshiroq taqdim etish tufayli sotuvdan olinadigan daromad o'sadi. Agar daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq ilgari bo'lgan darajadan katta bo'lsa, bu murosani natijasi xarajatlarlar samaradorlik nisbatining yaxshilanishi hisoblanadi.

Iqtisodiy murosalar ta'sir sohasi tovarlarni taqsimlash sohasidagi qarorlar strategik, taktik va tezkor darajasini qamrab oladi. Strategik qarorlar institutsional xarakterli muammolarga aloqador bo'lib, korxonada strategik rejasining bir qismini tashqil qiladi (masalan, ta'minotchini tanlash xarid haqida strategik qarorga misol hisoblanadi). Taktik darajada bozor va ishlab chiqarishni tashqil qilish masalalari hal etiladi; ular 1-3 yillik davrni qamrab oladi (masalan, yuklash usuli, transport turi, iste'molchilarga xizmat ko'rsatish darajasini tanlash). Tezkor darajada murosalar tashqiliy rejalarni detallashtirish bo'yicha qaror qabul qilish yo'li bilan erishiladi va 1 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi (masalan, yuk partiyasi hajmini tanlash, buyurtma hajmidan chegirmalarni tanlash). Moddiy oqimning ta'minotchidan iste'molchi tomon harakatlanishida uni integral nazorat qilish va qarorlar darajalari nuqtai nazaridan qaror qabul qilish jarayonida qaysi logistika mezonlaridan va qaysi paytda foydalanishni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Global logistika davri logistikaning kelgusi rivoji bilan asoslanadi. Ushbu atama ostida qoidaga ko'ra, mehnat taqsimoti, davlatlararo darajada qo'llab-quvvatlanadigan shartnoma, bitim va umumiy rejalar shaklida kooperatsiya va hamkorlik asosida dunyoning turli mamlakatlari biznes-stryukturalarini bog'laydigan barqaror makrologistika tizimlari tushuniladi. Kelajak logistikasi nazariyasi va amaliyoti faol rivojlanishining kattalizatorlari jahon iqtisodiyotidagi quyidagi jiddiy o'zgarishlar hisoblanadi: bozor globallashuvi; iqtisodiyot infratuzilmasini davlat tomonidan tartibga solishdagi o'zgarishlar; umumiy sifat boshqaruvi (Total Quality Management - TQM) konsepsiyasining hamma joyda keng tarqalishi; axborot-kompyuter texnologiyalari inqilobi va tez rivojlanayotgan telekommunikatsiyalar bozori; hamkorlik va strategik ittifoqlar o'sishi va b.

Xalqaro maydonda logistika faoliyati kobora kompleksli bo'lib bormoqda, distribyutsiya markazlari va ishlab chiqarishni joylashtirish, transport turi, zaxiralarni boshqarish usullarini tanlash, mos keluvchi telekommunikatsiya va axborot tizimlarini loyihalashtirish kabi muammolar logistikani yanada rivojlantirishni qat'iy talab qiladi. An'anaviy milliy, bojxona to'siqlari va boshqa to'siqlarning masalan, YEVROPA ITTIFOQI mamlakatlarida, AQSH va Kanada o'rtasida tugatilishi, yoki Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Q'irg'iziston va Tojikiston o'rtasida umumiy iqtisodiy makon shakllanishi tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining chegaralar orqali erkin harakatlanishiga imkon yaratadi va shu bilan bir paytda xalqaro logistik muvofiqlashtirishning rolini oshiradi. Oxirgi yillarda ko'plab mamlakatlar hyukumatlari tomonidan qabul qilingan turli qonun hujjatlari, trestlarga qarshi qonunchilikni yumshatishga qaratilgan hamda firmalararo, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiyani rivojlantirish maqsadida biznesni tashqil qilishni qayta stryukturalashga yo'naltirilgan qonunlarga o'zgarishlar kiritilishi logistikada ishbilarmonlik hamkorligining rivojlanishiga xizmat qiladi. 1990 yildan boshlab logistikaga yetakchi rol ajratilgan xalqaro loyiha va dasturlar faollik bilan ishlab chiqila va joriy qilina boshladi.

Masalan: YEVROPA ITTIFOQI mamlakatlarida tovar oqimlarini jismoniy taqsimlash xalqaro logistika markazlari barpo etishga qaratilgan bir

nechta dastur qabul qilindi. Iqtisodiy savdo aloqalari va xalqaro tashuvlarni tashqil qilishga nisbatan logistika tamoyillarini amalga oshirish uchun TEDIM, UNCTAD, TACIS va boshqa loyihalar doirasida ishlab chiqilgan xalqaro kompyuter axborot-kommunikatsiya tizimlari yaratilmoqda.

Umumiy sifat boshqaruvining hamma joyda keng tarqalishi logistika jarayonlarini rivojlantirishning muhim omiliga aylandi.

Umumiy sifat boshqaruvi (TQM) konsepsiyasi bu – boshqaruv yondashuvi bo'lib, asosiy diqqat-e'tibor markaziga korxonalar uchun ham, jamiyat uchun ham o'zaro manfaatli foyda tufayli va iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish hisobiga uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan, mahsulot (xizmatlar) ishlab chiqarish va ilgari surishning barcha bosqichlarida korxonaning barcha xodimlari ishtirok etishiga asoslangan sifatni oshirish vazifasini qo'yadi. Ushbu konsepsiyaning logistika uchun muhimligi shu bilan belgilanadiki, TQM mafko'rasi va korxonalar integratsiyalangan logistika vazifalari korrelyatsiyasi ko'zda tutiladi.

Logistika konsepsiyalari rivojlanishida tez rivojlanayotgan elektron kommunikatsiyalar bozori – ma'lumot uzatish tarmoqlari, faksimile aloqasi, elektron pochta, telekonferensiyalar va h.k. rivojlanishi xizmat qiladi. Logistika jarayoni qatnashchilari ham tijorat asosidagi (CompuServe, America Online va b.), tak i ham notijorat (internet, BITNET, EARN, USENET, EUNET va h.k.) ommaviy axborot xizmatlari ko'rsatish tizimlari imkoniyatlaridan faol foydalanmoqda. Jahon axborot makonida ma'lumotlar to'plamlari va banklari, elektron kommunikatsiya va elektron bitimlar standartlari va tizimlari shakllantirilmoqda va keng foydalanilmoqda. Amaliy logistikada funksional jihatdan elektron bank operatsiyalari tizimi (SWIFT va SWIFT II xalqaro bank tarmog'i asosida), elektron almashinish standartlari (EDI - Electronic Data Interchange) va boshqaruv, transport va savdoda ma'lumotlarni elektron almashinish (EDIFACT - Electronic Data Interchange for Administration, Commerce and Transport) va boshqalar jalb qilingan. Axborot aloqa tizimlari orqali (masalan, so'n'iy yo'ldosh telekommunikatsiya tizimlari orqali) masofadan

ulanish rejimida moddiy oqimlarni onlayn doimiy nazorat qilish imkoniyati amalga oshirilmoqda, tovarlar va transport vositalarini elektron deklaratsiyalash tizimi tarqalmoqda.

Bojxona ittifoqlari, erkin savdo hududlari, shuningdek, liberal boj-tarif rejimiga ega milliy iqtisodiy hududlar shaklida davlatlararo mintaqaviy iqtisodiy birlashmalar tashqil etilishi va rivojlanishi ortga qaytarilmaydigan umumjahon tendensiyasiga aylanmoqda.

Ushbu jarayon o'z rivojlanishida ularning natijasida erkin savdo hududlari, bojxona ittifoqlari, umumiy bozor, iqtisodiy va valyuta ittifoqi vujudga keladigan sifat va son ko'rsatkichlari bilan asoslanadigan bir necha bosqichdan o'tadi.

Erkin savdo hududi uning doirasida qatnashuvchi tomonlar o'zaro tovarlar savdosiga to'sqinlik qiladigan omillarni bartaraf etish haqida kelishib oladigan birlashmalar eng oddiy shaklini ifodalaydi. SHu bilan bir paytda bunday hudud qatnashchisi bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga nisbatan qatnashchi mamlakatlarning har biri o'z siyosatini yuritadi. Erkin savdo hududiga quyidagi xususiyatlar xos hisoblanadi: bojxona cheklovlari va miqdoriy cheklovlardan xoli bo'lgan tovarlar savdosi; bojxona bojlari va notarif cheklovlarining asta-sekinlik bilan o'zaro bekor qilinishi; bir tomonlama tartibda bojxona bojlarini oshirish yoki yangi savdo to'siqlari joriy qilishning mumkin emasligi. Bu ustunliklarning amalga oshirilishi qatnashchi-mamlakatlarga tashqi iqtisodiy faoliyat tizimini takomillashtirish, xalqaro savdo amaliyoti jarayonlarini samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi. Birgalikda qabul qilinadigan barcha qarorlar majburiy xarakterga ega bo'lib, ularning tashqi savdo faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Milliy ishlab chiqaruvchilarga raqobatbardosh import tovarlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan siqib chiqarilishi doimiy xavfi esa asosiy kamchilik hisoblanadi.

Bojxona ittifoqi quyidagilarni taqozo etadi: bir nechta bojxona hududini bitta bojxona hududui bilan almashtirish; erkin savdo hududining faoliyat ko'rsatishi bilan bir qatorda ittifoq ichkarisida bojxona bojlarini to'liq bekor qilish; umumiy tashqi bojxona tarifi joriy qilish; bojxona ittifoqi qatnashchisi sanalmagan

uchinchi mamlakatlarga nisbatan umumiy tashqi savdo siyosati yuritish. Ushbu bazaviy qoidalarni ko'rib chiqish bojxona ittifoqi mamlakatlari uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo siyosati borasida o'zining davlat suvereniteti bahridan kechib, bunday siyosatning barcha vakolatlarini bojxona ittifoqi qatnashchisi bo'lgan barcha mamlakatlar vaqillari ishtirok etadigan markaziy rahbar organga topshiradi.

Umumiy bozor quyidagilarni ko'zda tutadi: qatnashchi-mamlakatlar iqtisodiyoti alohida tarmoq va sektorlarini rivojlantirish umumiy siyosati ishlab chiqish; tovarlarning to'siqsiz harakatlanishini to'ldirib turadigan kapital, ishchi kuchi, axborot erkin harakatlanishi uchun sharoitlar yaratish; ijtimoiy va mintaqaviy rivojlanishga ko'maklashish umumiy fondlari shakllantirish; raqobatni tartibga soluvchi me'yorlar buzilishining oldini oladigan chora-tadbirlar tizimini joriy qilish. Bo'larning barchasi integratsiya jarayonlari afzalliklarini haqiqatda his etishga imkon beradigan iste'molchilar ehtiyojlariga burilishni anglatadi. Milliy huquqiy hujjatlarni uyg'unlashtirish va unifikatsiyalash bo'yicha jiddiy choralarni muvofiqlashtirishni asoslab beradigan bu iqtisodiy qadamlar maxsus boshqaruv va nazorat organlari shakllantishi zarurligini taqozo etadi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi umumiy iqtisodiy va moliya-valyuta siyosati yuritishni, davlatlararo ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Hozirgi paytda faqat bitta xalqaro tizim – Yevropa Ittifoqi (YEVROPA ITTIFOQI) dastlabki uch bosqichdan o'tgan va iqtisodiy integratsiyaning to'rtinchi bosqichini qismlarga ajratgan holda amalga oshirmoqda. Xususan, 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab YEVROPA ITTIFOQI 12 mamlakatida (Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Ispaniya, Fransiya, Irlandiya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Avstriya, Portugaliya, Finlyandiya) yagona umumyevropa valyutasi – EVRO joriy qilindi.

Mazkur jihatdan savdo to'siqlarini bartaraf etish hamda tovarlar va xizmatlar ayirboshlashni yengillatish bilan bog'liq bo'lgan Jahon savdo tashqiloti missiyasidan kelib chiqib, uning o'rni va rolini alohida ajratib ko'rsatish joiz (q. 1-ilova). Biznes globallasuvi va jahon iqtisodiyoti integratsiya jarayonining yanada

kengayishi tabiiy ravishda xalqaro logistika tizimlari barpo etilishiga va shunday ekan, aynan bojxona logistikasiga xos bo'lgan jarayonlarni faollashtirishga xizmat qiladi.

«Bojxona logistikasi» fanining o'rganish ob'ektlari

Zamonaviy logistika nazariyasining metodologik asoslari konseptual jihatdan quyidagilarga asoslanadi: tizimli tahlil, kibernetik yondashuv, operatsiyalarni tadqiq etish, iqtisodiy-matematik modellashtirish. Boshqaruv usullari va logistika tizimlarini tahlil qilish va loyihalashda yuzaga keladigan muayyan muammolarni hal qilish uchun dasturiy-maqсадli rejalashtirish, funksional-qiymat tahlili, makro va mikroiqtisodiyot, bahorat qilish, modellashtirish va boshqa usullar predmetli ravishda foydalaniladi.

Logistikaning ilmiy bazasini quyidagi fanlar tashqil qiladi:

- matematika – ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, tasodifiy jarayonlar nazariyasi, optimallashtirish matematik nazariyasi, funksional tahlil, matritsalar nazariyasi, omillar tahlili va h.k.;
- operatsiyalarni tadqiq etish – optimallashtirish matematik usullari (chiziqli, chiziqsiz va dinamik dasturlash, o'yinlar nazariyasi, statistik yechimlar nazariyasi), ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi, zaxiralarni boshqarish, imitatsion modellashtirish usullari, tarmoq rejalashtirish usullari va b.;
- texnik kibernetika – katta tizimlar nazariyasi, bahorat qilish, boshqaruv umumiy nazariyasi, avtomatik tartibga solish nazariyasi, identifikatsiya va h.k.;
- iqtisodiy kibernetika va iqtisodiyot – optimal rejalashtirish nazariyasi, iqtisodiy bahorat qilish usullari, marketing, menejment, strategik va tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarish (operatsion) menejmenti, narx shakllantirish, distribyutsiya, ijtimoiy psixologiya, transport va ombor xo'jaligini tashqil qilish va b.

Logistikaning metodologik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tizimli yondashuv – logistika tizimining barcha elementlarini umumiy boshqaruv maqsadiga erishish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan va o'zaro aloqa qiluvchi barcha elementlarni ko'rib chiqishda namoyon bo'ladi. Tizimli yondashuvning ajratib turuvchi xususiyati alohida elementlarning emas, balki butun logistika tizimining faoliyatini optimallashtirish hisoblanadi;
- umumiy xarajatlar tamoyili, ya'ni logistika zanjirida moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni boshqarish barcha xarajatlari yig'indisini hisobga olish. Qoidaga ko'ra, umumiy logistika xarajatlari minimumi mezonni logistika tizimlarini optimallashtirishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi;
- global optimallashtirish tizimi – global optimumga erishish uchun logistika tizimi elementlari (bo'g'inlari) faoliyati lokal maqsadlarini muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi;
- logistik muvofiqlashtirish va integratsiya tamoyili – maqsadli funksiyani amalga oshirishda moddiy (hamrohlik qiladigan) oqimlarni boshqarishda logistika tizimi (zanjiri) barcha bo'g'inlari muvofiqlashtirilgan integral ishtirokiga erishish zarurligini nazarda tutadi;
- modellashtirish va axborot-kompyuter ko'magi tamoyili – logistika tizimlari va zanjirlarida ob'ektlar va jarayonlarni tahlil qilish, loyihalash va optimallashtirishda turli – matematik, fizik, grafik va boshqa modellardan foydalanadi;
- logistika menejmenti jarayonini ta'minlaydigan zarur quyitizimlar kompleksi – texnik, iqtisodiy, tashqiliy, huquqiy, kadrlar va boshqa quyitizimlar ishlab chiqish tamoyili;
- umumiy sifat boshqaruvi tamoyili – yakuniy iste'molchilarga yetqazib beriladigan tovarlar va xizmatlar umumiy sifatiga erishish uchun logistika tizimi har bir elementining ish sifati yuqori va faoliyati ishonchli bo'lishini ta'minlaydi;

- logistika tizimlarida barcha texnologik funksiya va yechimlarni gumanizatsiyalash tamoyili – ekologik, ergonomik, axloqiy va boshqa talablarga muvofiqlikni talab qiladi;
- barqarorlik va moslashuvchanlik tamoyili – tashqi muhit ko'rsatkichlari yo'l qo'yiladigan og'ishlarida logistika tizimi ishining barqarorligini talab qiladi. Tashqi muhit omillari va stoxastika kuchlari sezilarli o'zgarishida logistika tizimi faoliyat dasturi, optimallashtirish mezonlari va ko'rsatkichlarni o'zgartirgan holda yangi sharoitlarga moslashib olishi lozim.

Metodologik jihatlarni amalga oshirish logistikada logistik paradigmalari - tahliliy, texnologik (axborot), marketing, integral paradigmalari bilan o'zaro bog'liq konseptual yondashuvlar evolyutsiyasi orqali kuzatiladi.

Tahliliy paradigma – logistikaga nisbatan zaxiralarni boshqarish nazariyasi, operatsiyalarni tadqiq etish, iqtisodiy kibernetika, matematik statistika va boshqa ilmiy asoslangan usul va modellaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va muomala sohasida moddiy oqimlarni boshqarish muammolarini tadqiq etadigan sof nazariy fan sifatida dastlabki klassik yondashuv. Tahliliy paradigma hal etilayotgan logistik muammoning o'ziga xosliklarini aks ettiradigan murakkab iqtisodiy-matematik modellar tuzish uchun qo'llanadi. Bunday modellarni amalga oshirish logistika qarorlari qabul qilish murakkab algoritmlari va boshlang'ich axborot hajmi katta bo'lishini talab qiladi. Shu sababli tahliliy paradigmadan foydalanish ichki ishlab chiqarish logistika tizimlari sohasi bilan chegaralanadi.

Texnologik (axborot) paradigmasi shuni taqozo etadiki, bir tomondan, logistika ob'ekti moddiy oqimini boshqarish umumiy muammosini ifodalash, boshqa tomondan esa – muammo yevropa ittifoqichining axborot-kompyuter ta'minotini ishlab chiqish mumkin. Bunda korxonani boshqarishning rejalashtirish, moddiy resurslar xarid qilish, ishlab chiqarish va distribyutsiya kabi funksiyalari determinantlar hisoblanadi. Mohiyatan bu yerda gap telekommunikatsiya kanallarida va kompyuter-axborot tizimlaridan foydalangan holda moddiy oqimni boshqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash haqida ketmoqda.

Nazariy bazis bo'lib logistika ob'ektlarining o'zini modellashtirish uchun ham, axborot-kompyuter ko'magini tuzish uchun ham qo'llanadigan tizimli yondashuv xizmat qiladi. Bu xususiy muammolarni hal qilish jarayonini avtomatlashtirish va murakkab logistika vazifalarini hal qilishda axborot-kompyuter ko'magidan foydalanish imkonini beradi. Bunda moddiy oqimlarni boshqarish jarayonini optimallashtirish mazkur yondashuvning maqsadi hisoblanmaydi.

Texnologik paradigmani amaliyotda tatbiq etish keng tarqalgan ehtiyojlarni – moddiy resurslar xarid qilish va zaxiralarni ichki ishlab chiqarishda rejalashtirish va boshqarish uchun qo'llanadigan resurslarni rejalashtirish tizimi orqali amalga oshirilgan. SHu bilan bir qatorda alohida optimallashtirish vazifalari ham hal etiladi, masalan, logistika tizimi elementlarida mahsulotning zaxira darajasi va buyurtma optimal partiyasini aniqlash. Biroq mazkur paradigmani amalga oshiruvchi logistika tizimlari tez o'zgarayotgan raqobat sharoitlarida zaruriy moslashuvchanlik va dinamikaga ega emas.

Marketing paradigmasi logistika tizimi korxonaning strategik maqsadini amalga oshirishi – tarmoqda yoki tanlab olingan bozorda jiddiy va barqaror raqobatli ustunlik yaratishi lozim ekanligini taqozo etadi. Bu yerda asosiy omillar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- tashqi muhitdagi bahorat qilinadigan o'zgarishlar (bozor sig'imi, stryukturasi va boshqa tavsifnomalarining o'zgarishi, raqobatchilar va ta'minotchilar xulq-atvori, institutsional va davlat stryukturalarining chora-tadbirlari);
- korxonada tovar siyosatini rivojlantirish yo'nalishlari (iste'molchilar talabi va uning moslashuvchanligi, tovar assortimenti va h.k.);
- korxonada o'zgarishlar va yangiliklar kiritish yo'nalishlari (diversifikatsiya yo'nalishlari, tashqi muhitga moslashish, ichki muvofiqlashtirish, resurslar taqsimlash va b.).

Ushbu paradigmani amalga oshiruvchi ishlab chiqilayotgan modellardan maqsad – raqobat kurashida logistika tizimi va korxonada imkoniyatlari o'rtasidagi aloqani tavsiflashdir. Nazariy bazis bo'lib ishlab chiqarishni tashqil qilish va

iqtisodiyotda qabul qilingan usullar ishtirok etadi, matematik asosni esa ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, operatsiyalarni tadqiq etish usullari tashqil qiladi. Natijada logistika ob'ektlari modellari ma'lum darajada mavhum bo'lib, katta o'lchamga ega bo'ladi, ko'pincha sifat xarakteriga ega bo'ladi va bu oxir-oqibatda oddiy tahliliy yechimlar olishni qiyinlashtiradi.

Marketing paradigmasini amalga oshirishga misol bo'lib RP-tizim (Requirements Planning System – resurslarni rejalashtirish tizimi) – korxonada, hududiy-ishlab chiqarish birlashmalari va makrologistika tuzilmalari miqyosida kiruvchi, ichki va chiquvchi moddiy oqimlar tizimi xizmat qila oladi. RP-tizim quyidagilarni ta'minlaydi: logistika ob'ektining ichki ishlab chiqarish bo'linmalarida va taqsimot tarmoqlarida zaxiralarni boshqarishga konseptual marketing yondashuvi; moddiy resurslarga ehtiyojlarni, tayyor mahsulotga talabni, transport vositalarga ehtiyojni bahorat qilish; logistika zanjiri bo'g'inlari optimal sonini aniqlash va h.k.

Integral paradigma marketing paradigmasini rivojlantirgan holda, quyidagi shartlardan kelib chiqadi:


- logistika va bozor mexanizmlarini korxonaning raqobatli ustunliklarini amalga oshirishda strategik element sifatida tushunish mavjud;
- logistika hamkorlarini integratsiyalash yangi tashqiliy munosabatlarni rivojlantirish uchun yetarli darajada keng imkoniyatlar mavjud;
- texnologik yutuqlar mahsulot ishlab chiqarish va uni yakuniy iste'molchiga yetkazishning barcha sohalarida boshqaruv imkoniyatlarini tubdan kengaytirib yubordi.

Mazkur paradigma mohiyatan korxonani boshqarish usulini ifodalab, talab va taklif bozor tavsifnomalari o'zgarishi, tashqi muhit noaniqligi va dinamikasi bilan asoslanadigan yangi va murakkabroq vazifalar paydo bo'lishi sharoitlarida foydalaniladi.

Bunda logistika tizimlarining o'zgarishi va quyidagilar oqibatida potentsial beqarorligi ortishi tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi:

- moddiy oqimlar o'sishi, hamrohlik qiladigan moddiy va moliyaviy oqimlar intensivligi va murakkabligining ortishi, logistika vositachilari o'rtasida moliyaviy o'zaro munosabatlar murakkablashuvi;
- logistika zanjiri bo'g'inlari sonining qisqarishi, logistika tizimlarida tashqiliy-iqtisodiy munosabatlar doirasida o'zaro aloqalar sonining kamayishi va bir vaqtning o'zida ularning murakkablashuvi;
- taqsimot kanallari va ishlab chiqarishda moddiy zaxiralarni minimallashtirish oqibatida logistika zanjiri ishonchliligining pasayishi.


Aynan tashqilot maqsadlariga erishish jarayonida logistika tizimlari ishonligi va barqarorligini oshirish vazifasini hal qilish integral paradigmaning asosida yotadi. Uning mohiyati logistikani korxonaga maqsadlariga erishish uchun moddiy oqim bilan bog'liq turli funksiyalar integratsiyasi, menejment vositasi sifatida ko'rib chiqishdan iborat.



1.2-rasm. An'anaviy logistika yondashuvi

Agar moddiy oqim doirasida ma'lum bir integratsiya salohiyatiga ega bo'lgan an'anaviy logistika yondashuvi taqsimot kanalining qolgan qatnashchilari faoliyati ustidan nazorat yetarli emasligini qoplash maqsadini ko'zlaydigan korxonaga muvofiqlashtiruvchi funksiyasi sifatida ko'rib chiqiladigan bo'lsa (1.2-rasm), integral paradigma moddiy oqimni integratsiyalovchi funktsiya taqsimot kanalining asosiy qatnashchilariga nisbatan amal qiladigan integrator sifatida ifodalaydi (1.3-rasm). Bu yerda yagona zaruriy shart integratsiyalangan logistika

tizimi elementlarining boshqariladigan moddiy oqim bilan yoki bevosita, yoki axborot, moliya va servis oqimlari orqali bilvosita o'zaro aloqalari hisoblanadi.



1.3-rasm. Integral logistika yondashuvi

SHunday qilib, logistika tizimi integral paradigma doirasida yaxlit bir butun, ta`minotchidan tortib yakuniy iste`molchigacha – o`zining barcha bo`g`inlarida tadbirkorlik faoliyati maqsadlarini ko`zlaydigan integratsiyalangan tizim sifatida ko`rib chiqiladi.

Mohiyatan, gap vertikal integratsiyalangan logistika tizimlari haqida borishi mumkin.

Vertikal integratsiyalangan logistika tizimi (VILS) – kanal a`zolaridan biri yoki qolganlarining xo`jayini hisoblangan, yoki ularga savdo imtiyozlari taqdim etadigan, yoki ularning to`liq hamkorligini ta`minlay oladigan kuchga ega bo`lgan umumiy tizim sifatida bitta yoki bir nechta chakana savdogarlar va bitta yoki bir nechta ulgurji savdogarlar, ishlab chiqaruvchi va ta`minotchilar guruhi.

VILS uchta asosiy turi ajratib ko`rsatiladi:

- korporativ – bunda ishlab chiqarish va taqsimot ketma-ketlikdagi bosqichlari yakka shaxsga tegishli bo`ladi;
- shartnoma asosida – yolg`iz holda bajarish mumkin bo`lganidan ko`ra birgalikda ko`proq tijorat natijalariga valar yoki ko`proq tejamkorlikka erishish uchun o`z faoliyat dasturini muvofiqlashtiradigan va shartnoma munosabatlari bilan bog`langan mustaqil korxonalaridan iborat bo`ladi;

- boshqariladigan – bitta xo'jayinga umumiy tegishlilik bo'yicha emas, balki qatnashchilardan birining kuch-quvvati va miqyosi tufayli ishlab chiqarish va taqsimot ketma-ketlikdagi bosqichlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Korxonalar vaqtinchalik yoki doimiy asosda hamkorlik qilishi, shuningdek, alohida qo'shma korxonalar tashqil qilishi mumkin. bunday tizimlar *gorizontal tizimlar* deb ataladi.

Ko'p kanalli logistika tizimlari an'anaviy vertikal va gorizontal logistika tizimlari ustunliklaridan foydalanadi (o'zining va dilerlarning magazinlari orqali sotish).

Integral paradigma unga muvofiq alohida korxonalar, tizimlar biznes maqsadlariga muvofiq iste'molchilarning ehtiyojlarini to'laroq qondirish uchun moddiy oqimni boshqarish umumiy integral jarayonida bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatini yangicha tushunishni aks ettiradi.

SHunday qilib, zamonaviy integral logistika tizimlarida moddiy oqim tovar yoki xizmatning hayotiylik bavri barcha bosqichlarini birlashtiruvchi omil, ya'ni yaratilish, ilgari surish, servis xizmatlari ko'rsatishdan to bozordan chiqib ketishgacha bo'lgan bozorda mavjudlik davri sifatida ko'rib chiqiladi. SHu nuqtai nazardan logistika faoliyati sifatini boshqarish, ishlab chiqarishni tashqil qilish turli konsepsiyalaridan foydalanadigan, ya'ni umumiy moddiy oqim bilan integratsiyalanadigan tashqiliy birliklar, tizimlar energiyasiga erishiga yo'naltiriladi.

Bojxona ishida logistikani qo'llash istiqbollari

Biznes globallasuvi va jahon iqtisodiyotining faol integratsiyalashuvi xalqaro logistika tizimlari barpo etilishiga xizmat qiladi. YEVROPA ITTIFOQI mamlakatlarida ro'y bergani kabi, an'anaviy milliy, bojxona va boshqa to'siqarning bartaraf etilishi tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchining chegaralar orqali erkin harakatlanishiga imkon berdi va shu bilan bir paytda xalqaro logistik muvofiqlashtirishning rolini oshirdi. Xalqaro bitimlar doirasida tovar oqimlarining o'tishini to'xtatib qo'yadigan mahsulot milliy standartlaridagi tafovutlar, tovarlar

bilan xalqaro operatsiyalar va mos keluvchi moliyaviy hisob-kitoblar bo'yicha hujjatlar hajmining juda o'sib ketganligi, import kvotalar va eksport cheklovlari, yuklarni o'rab-qadoqlash talablari qat'iylashganligi, transport vositalari va transport yo'llari texnik ko'rsatkichlarining xilma-xilligi kabi omillarni soddalashtiradigan, minimallashtiradigan va bir qator hollarda bartaraf etadigan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ko'rildi. SHu bilan bir paytda xalqaro taqsimot markazlari barpo etildi, omborlarni joylashtirish sxemalari o'zgardi, umumiy bozor tashqil etish va G'arbiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyasi sharoitlarida yuk ortish va yuk tushirish punktlari markazlashuvi ro'y berdi. Natijada maksimal bo'lishi mumkin bo'lgan foydali samaraga erishish uchun tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati jarayonida barcha TIF qatnashchilari optimal tashqil qilingan o'zaro aloqa tizimini shakllantirish uchun sharoitlar yaratildi.

1990 yilning oxilaridan boshlab Respublikamizda ham tashqi savdo sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilib, bu asosan bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan asoslanardi.

YAngi O'zbekistonRespulikasi davlati va ijroiya hyukumati tizimining shakllanishi tabiiy ravishda bojxona ishi va tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish va huquqiy tartibga solish mexanizmining ham yangilanishiga olib keldi. Bunda tashqi iqtisodiy sohada uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- milliy xavfsizlikka tahdid soladigan holatlarni istisno qilgan holda tashqi bozorga chiqishdagi ma'muriy cheklovlar bekor qilindi;
- kvotalanadigan va litsenziyalanadigan tovarlar soni qisqartirildi va tashqi savdo tovar oqimlarini tartibga solishning asosan boj-tarif usullaridan foydalanishga o'tish amalga oshirildi;
- strategik ahamiyatga molik tovarlar eksportini tartibga solish, bojxona chegaralari o'rnatish, import qilinadigan mahsulot sifatini nazorat qilish va sertifikatlash mexanizmi yaratish bo'yicha choralar ko'rildi;

- tashqi savdo faoliyatini tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari (O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi; O'zbekiston Respublikasi «Bojxona tarifi to'g'risida»gi Qonun; O'zbekiston Respublikasi «Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni), valyuta qonunchiligi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan 285-XII-son «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazishni;
- tabaqalashtirilgan soliqlar va imtiyozlar sistemasini, shu jumladan valyuta bo'yicha ham belgilanishni;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta'minlashning davlat sistemasini yaratishni;
- ayrim mintaqalar, tarmoqlar va korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va rivojlantirishi uchun dotatsiyalar, subsidiyalar, subvensiyalar, budjetdan qarz berish tarzida moliyaviy yordam ko'rsatishni, tavakkalchilikni sug'urta qilishni;
- respublika tashqi iqtisodiy aloqalarining turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan aniq maqsadli kompleks dasturlarni ishlab chiqish, pul bilan ta'minlash va ekspertiza qilishni;
- O'zbekiston Respublikasiga olib kelinadigan va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketiladigan tovarlar va boshqa mol-mulklarni hujjatlashtirishni;
- mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) eksport va import qilish tartibini belgilashni;
- valyuta va boshqa fondlar mablag'larini vujudga keltirish va ulardan foydalanishni.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining xo'jalik faoliyatiga hokimiyat idoralari va davlat boshqaruvi idoralarining, shuningdek mansabdor shaxslarning o'z vakolat doirasidan ortiqroq darajada aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda tashqi savdo faoliyatini samarali amalga oshirishni qiyinlashtiradigan, jumladan, eksport-import tovar oqimlarini boshqarish amaldagi tizimi kamchiliklari bilan asoslanadigan muammolar hali talaygina. Bu qatorga tashqi savdo tovar oqimlarini tartibga solishga logistika yondashuvining yetarli darajada faol qo'llanmayotgani kabi muammo ham kiritilishi mumkin bo'lib, bu tashqi savdo sohasini boshqarish logistika tizimini shakllantirish zarurligidan dalolat beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat, eng avvalo, tashqi savdo mamlakatning bojxona chegaralari orqali yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tishi bilan bog'liq. Logistika talablariga ko'ra, moddiy oqim o'z yo'nalishidagi barcha punktlarni bir xil tezlik va intensivlik bilan bosib o'tishi lozim. Eksport-import ta'minotlarida bunday punktlardan biri bojxona chegarasi yoki bojxona hisoblanadi. Mazkur punktda tovar oqim sekinlashishi va hatto to'xtab qolishi ham mumkin. Buning sababi bojxona organlarining bevosita eksport-import tovar oqimlari va ularga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari bilan ishlash bo'yicha faoliyati hisoblanadi; gap xususan, bojxona ishining bir qismi sifatida tovarlar va transport vositalarini bojxonada rasmilashtirish va bojxona nazorati jarayoni haqida bormoqda.

Tashqi savdo oqimi jarayonlarini boshqarishga *logistika yondashuvining mohiyati* tovar oqimlarining qo'shni davlatlar bojxona chegaralaridan o'tishida vaqt va moliya xarajatlarini minimallashtirishni ta'minlaydigan hamda tashqi savdo sohasi barcha sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradigan boj-tarif va notarif tartibga solish tizimi yaratish sifatida tavsiflanishi mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan boshqaruv tizimini yaratish va undan foydalanish xalqaro tovar almashinuv sohasida davlatning manfaatlarini himoya qilishdan tashqari ularni

eksport yoki import tovarlarning potentsial valar yoki real iste'molchilari bo'lgan fuqarolarning shaxsiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishga ham imkon beradi. Buni esa shu bilan izohlash mumkinki, logistika nazariyasiga ko'ra, tizimning logistik intensivikasi samarasi ichki tabiatdan kelib chiqishdan uyushgan tarzda faoliyat ko'rsatuvchi quyitizimlar sinergiyasiga o'tish hisobiga amalga oshiriladi.

Umuman olganda, tovar oqimlarining bojxona chegaralari orqali o'tishida vaqt va moliya xarajatlarini minimallashtirish mamlakat tashqi savdo aylanmasini oshirish va tezlatish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transport va bojxona xarajatlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Logistika muammolarini hal qilishning dolzarbligi 2008-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatini rivojlantirish Maqsadli dasturida aks ettirilgan. Dasturda bojxona ma'murchiligi vositalarini takomillashtirish va ulardan davlatning quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vazifalarini hal qilishda samarali foydalanish ko'zda to'atilgan: barqaror budjet siyosatini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalash; bozorni, tovar ishlab chiqaruvchini himoya qilish va iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantirish; qulay tadbirkorlik va investitsiya muhiti hamda sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash; iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish; iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash.

Dasturning amalga oshirilishi bojxona taomillari samaradorligi va oqiloaniligiga erishish, bojxona ma'murchiligi sifatini oshirish, mamlakat bdx organlari faoliyatini jahon standartlariga muvofiq amalga oshirish, taqdim tilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hisobiga TIF qatnashchilari faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Dasturda mamlakat bojxona organlari faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- TIF qatnashchilari bilan hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish va bojxona nazorati samaradorligini oshirish;

- mamlakat bojxona xizmatining tegishli huquqiy faoliyati va bojxona qonunchiligining umumiy tarzda qo'llanilishini ta'minlash;
- mamlakat bojxona xizmati axborot tizimini tubdan modernizatsiya qilish va mamlakat bojxona organlarini texnik qayta jihozlash;
- bojxona sohasida jinoyatchilik va bojxona qoidalarining buzilishi, mamlakat bojxona xizmatiga poraxo'rlikning kirib boriigiga qarshi samarali kurashishni ta'minlash;
- mamlakat bojxona organlari tizimini optimallashtirish va bojxona infratuzilmasini yanada rivojlantirish.

Bu masalalarning hal etilishi bojxona ishini logistikalashning ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarini yaratish va oqibatda eksport-import tovar oqimlarining bojxona chegaralari orqali o'tishida vaqt va mehnat xarajatlarini minimallashtirishga imkon beradi.

Bobga doir qisqacha xulosa

Respublikamizning mustaqillikka erishgan yillaridan boshlab bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi logistika kabi ilmiy-amaliy yo'nalishni maqsadli ko'rib chiqish zarurati paydo bo'ldi.

*Bojxona logistikasi** – barcha (moddiy, moliyaviy, axborot, mehnat, intellektual va b.) resurslar optimal xarajatlari bilan korxonalar maqsadlariga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan (axborot, moliyaviy, servis) oqimlarini boshqarish samaradorligini oshirishning yangi imkoniyatlarini izlab topish bilan bevosita bog'liq bo'lgan amaliy faoliyatni o'rganish to'g'risidagi fandır. «Logistika» so'zining tarixi Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi, bu yerda «logistike» atamasi «hisoblab chiqish, mulohaza yuritish san'ati» ma'nosini anglatardi. Rim imperiyasida logistika deganda oziq-ovqatlarni taqsimlash qoidalari tushunilgan. Vizantiya imperatori Lev VI (816-912) davrida logistika harbiy qo'shinlar ta'minoti va uning harakatlanishini boshqarish san'ati sifatida ta'riflangan.

*Практикум по логистике: учеб. Пособие под ред. Б.А. Аникина. М.: ИНФРА-М, 2015.

Nazorat uchun savollar

1. Tezkor va muvofiqlashtiruvchi logistika funksiyalari o'rtasidagi farq nimada?
2. Qaysi tizimli logistika konsepsiyalarini bilasiz?
3. Logistikaning missiyasi, maqsadlari va asosiy vazifalarini aytib bering.
4. Turli ishlab chiqarish birlashmalari doirasida logistika tizimlarining qanday tasnifiy gradatsiyasini bilasiz?
5. Logistikada konseptual yondashuvlar genezisi beshta asosiy davri har birining mohiyati nimada?
6. Sizga qaysi logistika paradigmalari ma'lum?
7. Bojxona ishida logistikadan foydalanishni faollashtirish muammosi nimalar bilan bog'liq?
8. Bojxona organlari faoliyatini asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
9. Logistikada eksport – import tushunchasi nimani anglatadi?
10. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» gi qonunini asosiy maqsadi nimadan iborat?

Asosiy atama va ta'riflar

Bojxona brokeri – bojxona operatsiyalarini deklarant yoki bojxona operatsiyalarini amalga oshirish majburiyati unga yuklangan yoxud huquqi berilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig'i bo'yicha amalga oshiradigan vositachi.

Logistika faolligi – moddiy oqimga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshiradigan to'laqonli logistika tizimida ilova qilinadigan harakat.

Tashqi savdo faoliyati – tovarlar, xizmatlar, axborot va intellektual mulk bilan tashqi savdo sohasida bitimlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat.

Transport vaqti – tashuv jarayoni uchun zarur bo'lgan vaqt.

Rejalashtirish gorizonti – reja to'zladigan muddat.

Tayyor mahsulot – ushbu korxonada butun ishlab chiqarish siklidan o'tgan, to'liq butlangan, texnik nazoratdan o'tgan, omborga topshirilgan yoki iste'molchiga yuklab jo'natilgan mahsulot.

Deklarant – tovarni deklaratsiya qiladigan yoki tovarlar uning nomidan deklaratsiya qilinadigan shaxs.

Tashqi savdo faoliyati – tovarlar, xizmatlar, axborot va intellektual mulk bilan tashqi savdoda bitimlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat.

Transport (tashuv) hujjatlar – konosament, yuk hujjatlari yoki tovarlar tashish shartnomasi mavjudligi va mazmunini, xalqaro tashuvlarda transport vositalari va tovarlarni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar.

Zaxira – berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan va yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yig'indisi.

Logistika tizimi bo'g'ini – ma'lum bir logistika operatsiyalari yoki funksiyalari bilan bog'liq o'z lokal maqsadini bajaradigan logistika tizimi barpo etish doirasida boshqa dekompozitsiya qilinmaydigan, ma'lum bir iqtisodiy va (yoki) funksional jihatdan alohida bo'lgan ob'ekt.

Xorijiy tovarlar – bojxona maqsadlari uchun erkin muomalada bo'lgan maqomiga ega bo'lmagan tovarlar.

Bojxona infratuzilmasi – tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxonada tartibga solish shartlari, bojxona tizimi faoliyatini va bojxona ishini amalga oshirishni ta'minlaydigan bojxona organlarining moddiy-texnika bazasi, axborot tizimlari, aloqa, ekspertiza va bojxona nazorati texnik vositalari (tizimlari), faoliyat turlari, ijtimoiy va institutsional strukturalar yig'indisi.

Transport manbasi – tashuvlar vujudga keladigan punkt yoki rayon.

Logistika kanali – moddiy oqimlarni muayyan mahsulot turini (mahsulot assortimentini) ishlab chiqarish zarur bo'lgan moddiy resurslar ta'minotchilaridan yakuniy iste'molchilargacha yetqazib beradigan barcha logistika zanjirlari yoki ularning qismlarini o'z ichiga oladigan logistika tizimi bo'g'inlari tartibga solingan yig'indisi.

Taqsimot kanali – tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika taqsimot kanali – muayyan tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika toifasi – logistika jarayonlari va hodisalarining muhim jihatlarini aks ettiradigan eng muhim logistika tushunchasi.

Logistika tizimi sifati – bu tizimning uni amalga oshirishda olingan natijalar bilan bog'liq xususiyatlari yig'indisi.

Logistika - 1) moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarning zamon va makon bo'ylab birlamchi manbadan iste'molchigacha harakatini boshqarish haqidagi fan; 2) korxonada faoliyati samaradorligini oshirish va uning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlar harakatini boshdan-oxir boshqarish bo'yicha amaliy faoliyat.

2-BOB. “Bojxona logistikasi” fanining shakllanishi va rivojlanish boshqichlari

2.1. O'rta asrlarda bojxona ishini rivojlanishi

Xalqlar va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning o'ziga hos shakli sifatida bojxona ko'p asrlar myuqaddam poydo buldi. Tashki savdo alokalari hakidagi eng ilk ma'lumotlar bizga Kadimgi Misrning oltinchi sulolasi(eramizdan uch ming yil oldin) edgorliklari orkali etib kelgan. Usha davrlarda savdo karvonlaring harakati hafsiz emas edi. Misirdagi yangi podshohlik davri ning tarihiy edgorliklari ot ulovlarni talash va savdogarlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari hakida hikoya qiladi. Shu sababli karvonni kuriklash sarf harajatlarini koplash maksadida mahsus yigimlar undirila boshlandi.Feodallar tomonidan ularning orkali utuvchi savdogarlardan

undiriladigan soliklar ham bojning qadimgi kurinishi edi. Keyinchalik ularni shaharlar ham undirib olib boshladi, davlat paydo bulganidan keyin esa boj hazinaning tuldurishni kulay vositasiga aylandi.

Ijtimoiy haet murakkablashishi, shaharlar rivojlanishi, savdo hajmi va intensivligi kengayishi davomida yigimlarning yangi yangi turlari, shu jumladan savdodan va yuk keltirishdan olinadigan yigimlar joriy etila boshladi. Boj uzining asosiy funksiyasi, fiskal fyuksiyasini, yaa'ni hazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliklar va yigimlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga kumaklashadi. Davlatni rivojlanishi barobarida bojar ham rivojlanadi, bojxona hazmatini tashqil etish shaqillari va usullari takomillashadi.

Bojxona tarihining Rossiyalik tadkikotchisi B.A. Qimmerman eramizdan oldingi 6 asrdan boshlab afina aholisi donni Misrdan, Sisiliyadan, keyinchalik esa Shimoliy Koradangizbuyidan olganligini kayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shahar Kadimgi Gresiyaning tashki savdosi uchun shunchalik muhim ediki, ulardan tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmas edi. Gresiyaning uzida chetdan keltirilgan tovarlardan olinadigan boj ular bahosining undan bir kismini tashqil etardi. Birok vakt utishi bilan afinaliklar mu'tadil bojar sovdoning rivojlanishiga kumaklashadi va kup daromad keltirishi mumkin degan karorga keldilar. Shu sababli eramizdan oldingi 4 asrda, Demosfen davrida boj tovar bahosining yigirma, ellik, hatto uzdan bir kismigacha kiskartirildi. Ayrim buumlar - kurol yarog, harbiy anjomlar - umuman boj tulashdan ozod etilgan. Afinaning barcha ittifokchilari boj imtiezlariga ega edilar, ular uz tovarlar uchun bohosining uzdan bir kismi, qadim shaharlar yigirmadan bir kismi mikdorida boj tulashar edi. Boj degiz portlarida va shahar bozorlarida yigilar edi. Kuryuklikdagi bojxonalar ham mavjud edi. Bojxonadagi operasiyalar kushinlar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud bulgan takdirda chegaralar epilganda tuhtatilar edi. Boj odatda oltin va kumush bilan tulanardi. Boj yigish ayrim shahslar eki guruhlarga sotilar, ular obruli fyukarolardan bulgan kafillarga ega bulishardi.

O`rta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi halkaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy iqtisodiy munosabatlarning karor topishi bilan mustahkam aloqadorlikda davom etdi. Xiristianlikni hyukumronlik qilishi Evropada bojxona ishiga katta ta'sir kursatdi. Masalan, Stasburgda 982 yilgi makom bilan episkopga shaharning turt yukori amaldorini: mer, graf, bojxonachi va hazinachini tayinlash huquqi barilgan edi. Biroq keyinroq, 1249 yildaek Frayburg shahrida bojxona amaldorini saylash va, agar ular uz vazifalariga vijdonan munosabatda bulmasalar, ularni lavozimidan bushatish huquqini fyukarolarning uziga berildi.

Strasburglik bojxonachilar vazifalariga, masalan, eng asosiy soliklarni undirish kirardi, ayni vaktida yarmarka yigimlarini kal'a boshligi sifatida grafning uzi undirar edi. Strasburg kupriklari va yullari graf va bojxonachilar mablaglari evaziga saklanardi. Parijda 12 asrda shaharga olib kirishda barcha horijiy tovarlardangina emas, balki boshqa fransuz shaharlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buumlardan, shunegdek movut va muynadan ham boj undirilar edi.

1275 yilda Angliya parlamenti kirol Eduard Iga import qilinadigan vinoga va eksport qilinadigan ingliz juniga boj begilash huquqini berdi. Biroq Evropa mamlakatlarida bojxonaning markazlashuvi yana kup asrlar davom etdi. Angliya bilan Shotlandiya urtasidagi bojxonalar 1707 yilda, Angliya bilan Irlandiya urtasidagi bojhonp zastavalari esa fakat 1823 yilda yuk qilindi. Fransiyada bojxona birligi 1790 yilda vujudga keldi. Avstriya esa uz bojxona siesatini 1775-1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona tusiklari 1859 yilda kuladi, Germaniyaning bojxona jihatdan birlashishi esa 1842 yildan 1888 yilgacha davom etdi. Davlatning ichki siesati murakkabligiga karamay, savdogarlarning tashki savdo alokalari 15-18 asrlarda feodal Evropa mamlakatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siesatining asosiga aylandi.

16 asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj 185 ming funt sterlingni tashqil etar edi. 15-18 asrlarda hududidan savdogarlarning karvonlari Evropadan Xindistonga, Xindistondan Evropaga utadigan Misrda boj tovar kiymating salkam 15 foizini tashqil etardi, 18 asrning ohirlarida kelib esa ular 35 foizga etdi va undan ham

oshib ketdi. Imtiazli tarif fakat sadogarlarni Pizadan etkazib beradigan temir va egoch mahsulotlarga belgilangan.(10%) Keyinroq Xindistonga Afrikani aylanib utadigan dengiz yuli ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Xurmuz va Adan dengiz portlarini bosib olinishi tovarlarni misir orkali olib utishga katta ta'sir etkazdi, biroq bunda bojlarning haddan ortik ekanligi ham muayyan urin tutadi.

Fransiyada 1664 yilda boj yigimlarning fiskal ahamiyati hali kuchli bulgan vaktida boj tarifi tovarlarni keltirish buyicha 700 modda va olib chiqib ketish buyicha 900 moddadan iborat bulgan, Bu esa boj yigimi mayda chuydasigacha ishlab chiqilganligidan dalolat beradi. Kanada 1975 yili dekabr oyida proteksionistik maksadlarda AKShdan gusht mahsulotlariga cheklash joriy qilganda, AKSh ushbu mahsulotlarning Kanadadan import qilinishiga kattik kvota belgilandi, bu hol Kanada iqtisodiyatiga 100 milion dollar zarar etkazdi, AKSh kurgan zarar esa Kanadani kurgan zararidan 10 baravar kam buldi.

2.2. Markaziy Osiyoda bojxona ishi

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash manfatlari, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Masalan olib kiriladigan mashina va asbob uskunalar, kimoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojar undirilgan. Kishloq ho'jaligi mahsulotlari, odatda bojsiz import qilingan. Kiyim - bosh va uy ro'zg'or buymlariga oshirilgan stavkalar kullanilgan. Zeb-ziynat va alkagolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj undirilgan. Takibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy -iqtisodiy tizimning puhta faoliyat ko'rsatishi har qanday tuzumda davlat mavjud bulishining iqtisodiy asosi hisoblanadi. Aqademik B.Ahmedovning fikriga ko'ra bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab mavjud bo'lgan. Chunki ko'p ming yillab Sharqni Garb bilan boglagan Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo hududidan o'tgan. O'rta dengizdagi Suriyaning Antalya porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Benesiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga hizmat qilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo'l olganlar.

Buyuk Ipak yo`li orqali amalga oshiriladigan savdoga qaysi darajada aloqador bo`lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va maqbul holiga keltirildi. Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qattiqlashtirsa, bojar va yigimlar haddan tashqari ko`paytirilsa, karvonlar uni chetlab o`tishni yo`lini kidirganlar: birgina Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yo`lining bir nechta shahobchasi mavjud bulgan. Ushbu karvonlar chetlab o`tgan davlatlar esa anchagina daromadidan mahrum bo`lishar edi.

Tarihchilarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda erdan hiroj va tanob, tovardan esa zakot undirilgan. Kur`onga muvofik, har bir musulmon mol mulkining kirkdan bir kismini zakot qilar edi. Zakot shunengdek kelaetgan va ketaetgan har bir karvondan ham undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlar harakatini ziyraklik bilan kuzatib turishar edi. Shahardan utadigan har kandy savdogar zakot olinadigan saroyga tuhtab utishi shart bulgan. Bu erda uning tovaridan 2,5 foizli boj undirilar edi. Bundan tashkari, savdogar har bir tuya hisobiga erlik ezilganligi uchun ham hak tulaganlar. Bu erlik timpaek54ovar honlikning barcha aholi yashaydigan joylaridan erkin utishga kafolat berar edi. Amudarening Janubiy kirgogida deyarli barcha shahar boj undirish huquqini uzlariga saklab kolgan. Ular zakotni qonun buyicha emas balki o`z bilganlaricha belgilashardi. Afgonistonda esa 2.5 foiz emas, balki 20 foiz miqdorda zakot undirilgan.

Ko`chmanchilardan zakot naturada undirilgan. Xar qirq moldan bittasi zakot sifatida olingan. Zakotchi yikkan butun mol- mulk honning hazinasiga kelib tushgan. Buhoro honligining katta qismini inglizlar o`z nazorati ostida tutib turgan Afgoniston bilan chegarasida bojxonalar tashqil etilgan. Ulkaning Afgoniston bilan savdo qiluvchi boshqa tumanlaridan chiquvchi tovarlar mana shu bojxonadan utar edi. Ma`lumki, Buhoro hyukumati uz vaktida Afgonistonga olib ketilaetgan tovarlarni bojdan ozod qilish hakida farmoish chiqargan bulib, biroq bu farmoish Buhoro devonhonasidan tashkariga chiqmagan. Lekin shunga karamay, bojxona birlashmasi davlatlar urtasida savdo alokalarini kengayishida uzbekistan ahamiyatiga ega buldi. Markaziy Osie Rossiya tomonidan bosib olinganidan keyin

Turkiston general-gubernatorligi tashqil etildi. 1893 yilda 11 ta chegara posti tashqil etildi. Turkiston okurigi shulardan biri buldi. Turkiston okurugida 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895 yilda Termiz shahrida Patta-Gisar bojxonasi tashqil etildi. Unda asosan Afgonistondan keltirilgan tovarlardan bojlar undirilar edi. Xar yili ushbu bojxona posti orkali 2500 dan ziyod sayohatchi o`tardi. U paytlari Afgoniston hududi or qali Markaziy Osiyoga ko`plab kontrabanda tovarlari ham o`tkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashki savdo halk komissarligida 8 bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashqil etildi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bulib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. O`sha yili Temiz shahridagi Patta-Gesar bojxonasi termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilganidan keyin Bojxona bosh boshqarmasi tashqi savdo vazirligi tarkibida qoldirildi.

Toshkent postida hammasi bo`lib 3ta xodim ishlagan. Ularga B.Hovikov rahbarlik qlgan. Etmishinchi yillarda tashki iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1988 yilda esa O`zbekiston bojxonasiga aylantirildi. 1988-1989 yillarda Samarqand, Buhoro, Hamangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo`qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona postlari ishga tushdi.

2.3. Bojxona ishini tashqil etish va boshqarish asoslari

Mustaqillikdan ilgari bojxona ishi 1991 yilda qabul qilingan Bojxona kodeksi va «Boj tarifi to`g`risida»gi Qonuni asosida amalga oshirilar edi. Bu davr bojxona institutlarini huquqiy jihatdan boshqarish va tartibga solishning eng yangi, zamonaviy usullarini joriy qilish bilan ajralib turadi. Mazkur Kodeksning yangiliklaridan biri shundan iborat ediki, ilgari ma`muriy huquqbuzarlik toifasiga kiritilgan kontrabandaga jinoyat turi sifatida baho (kvalifikasiya) berildi; bundan tashqari, lisenziya tizimi va boshqa bojxona vositalari amaliyotga kiritildi. Xo`jalik sohasini davlat tasarrufidan va hususiylashtirish jaraenlar rivojining istiqboli –

bojxona huquqbuzarligi sodir etgan korhonalarni ma'muriy javobgarlikka tortishni qonuniylashtirdi. Xo'jalik urituvchi sub'ektlar va fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy-me'eriy hujjatlar doirasi ancha kengaytirildi, bu holat, o'z navbatida, kontrabanda va bojxona huquqbuzarliklari haqidagi ishlarni uritishni batafsil va qat'iy tartibga solishda hamda bojxona organlariga kontrabanda haqidagi ishlar bo'yicha surishtiruv olib borish huquqining berilishida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 11 aprelda e'lon qilingan «Eksport-import operasialarini tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda «Tovarlar (ishlar, hizmatlar) eksportini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, 1993 yil 7 oktyabrda chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 372-Farmoyishi; bojxona nazoratini takomillashtirish va bojxona statistikasini uritishi maqsadida e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 95-sonli «Tashqi savdo operasialarini amalga oshirishda horijiy valutadagi mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi; 1996 yil 1 oktyabrdagi 342-sonli «O'zbekiston Respublikasida tovarlar importi samaradorligini oshirish (rasionalizasiya) chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari bojxona ishini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonun hujjatlarining aksariyati oraliq va o'tish hususiyatlariga ega bo'lsa ham, o'sha davrda bojxona munosabatlarini tartibga solishda ularning ahamiyati beqies bo'ldi. Aynan o'sha vaqtda bojxona ishi va zamonaviy bojxona huquqining demokratik va ilg'or modeli ishlab chiqila boshlandi. Uqorida sanab o'tilgan Farmonlar, Farmoyishlar va Qarorlar o'ziga hos mustaqil «poydevor» (blok) vazifasini bajarib, sifat jihatdan butunlay yangi bojxona qonunchiligini tashqil etdi.

Bojxona kodeksi, «Boj tarifi» va «Davlat bojxona hizmati to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi tufayli O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi bir butun, yahlit, uzviy bog'langan tizimga aylandi. Bojxona

operasiyalari davomida qonuniylik va fuqarolarning huquqlarini ta'minlovchi ma'muriy-prosessual me'rlarning ahamiyati ortdi. Kodeksda bojxona ishini tashqil qilishga oid eng zamonaviy huquqiy qonun-qoidalar va me'rlar mavjud bo'lib, ularsiz samarali bojxona qonunchiligini shakllantirish va eng muhimi uni tadbiq qilish mumkin emas; bojxona organlarining yagona va yahlitligi tamoyili shular jumlasidandir. Bojxona kodeksi asosini qonuniylik va insonparvarlik tamoyillari tashqil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning jahon amaliyotiga mos keluvchi, yangi qonun-qoidalari (tamoyillari): tarifli boshqaruv, lisenziyalash, kvotalash va boshqalar yuk aylanuvda bo'lgan tovarlar ustidan bojxona nazoratini tashqil qilishni tubdan o'zgartirishni talab qildi. Agar ilgari tovarlarni o'tkazish tartiboti (rejim) va tartibi (prosedura) tashqi savdo bitimining sub'ekti kim ekanligidan kelib chiqib belgilansa, hozir bunday bitimning bosh, asosiy mezon ob'ekt, ya'ni aniq tovardir. Qonunlarga og'ishmay rioya qilmasdan turib, bojxona hizmati faoliyatining samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Shu sababli, bojxona organlarida uridik hizmatni tashqil qilish va rivojlantirish eng dolzarb muammolardandir. Mazkur hizmatning vakolatlariga: bojxona ishining huquqiy me'riy negizini uritish, bojxonachilarga qonun va me'riy hujjatlarni tushuntirish; fuqarolar va tashqilotlarga kerakli ma'lumotlar va uridik maslahatlar berish; ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan shikoyatlar va murojaatlarni ko'rib chiqish; huquqiy me'yoriy hujjatlarni va tegishli hulosalarni tekshirib chiqib, imzolash (viza qo'yish - vizirovanie).

Kodeks o'sha davrning shart-sharoitidan kelib chiqib tuzilgan edi. Xozirgi vaqtda unga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritish (korrektirovka) zamon talabiga aylandi, chunki u bojxona ishining muhim sohalari hisoblangan hamda bojxona siesatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan bojxona valuta nazorati, bojxona statistikasini o'z ichiga olmagan, bundan tashqari, Bojxona kodeksida baen qilingan 16 bojxona rejimlarining har biriga mufassal, barcha tafsilotlari bilan izoh berilmagan. Shuning uchun ham bugungi kunda Bojxona Kodeksini takomillashtirish talab etiladi.

Davlat bojxona xizmati faoliyatining huquqiy asoslari – O‘zbekiston Respublikasi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi va «Boj tarifi to‘g‘risida»gi Qonunlarda hamda O‘zbekiston Respublikasi Buzirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagi 374-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo‘itasi to‘g‘risida»gi Hizomda aniq belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo‘mitasi, Davlat bojxona Qo‘mitasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va postlari bojxona organlaridir.

Bojxona organlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksiga, «Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida»gi Qonunga O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga va halqaro shartnomalariga amal qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda DBQ deb uritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq Davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. DBQ o‘z vakolatlari doirasida yagona boj siesati amalga oshirilishini, bojxona ishiga oid qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlaydi. Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o‘z faoliyatini davlat hokimiyatining mahalliy idoralaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

DBQning qonunchilikka muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat‘iy nazar, jismoniy va uridik shahslar tomonidan ijro etilishi shart. Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi va davlat budjeti mablag‘laridan ta‘minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan va o‘z nomi bitilgan muhriga ega.

DBQning tuzilishi hamda uning faoliyatini tashqil etish O‘zbekiston Respublikasi Buzirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagi 374-sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Shu qarorga asosan DBQning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yagona bojxona siesati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashqiliy mehanizmlarini ishlab chiqish, ularning amalda qo‘llanilishini ta‘minlash,

bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va me'eriya hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashish;

- O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha halqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;
- Respublikaning bojxona hududida davlat havfsizligini, jamoat tartibini, inson haeti va salomatligini himoya qilish, hayvonlar va o'simliklarni muhofaza qilish, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga ko'maklashish;
- Belgilangan tartibda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazilishini ta'minlash va uning shakllarini takomillashtirish;
- TIF qatnashchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida – soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- TIFni tartibga solishda bojxona tartibga solish vositalarini qo'llanishini ta'minlash (tarif mexanizmi ham shu jumlagacha kiradi), tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari belgilashda, lisenziyalash va deklaratsiyani taqdim etish tartibini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashish;
- Boj poshlinalari, soliqlar va boshqa bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash;
- O'z vakolatlari doirasida valuta nazoratini amalga oshirish;
- Bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtirishda, bojxona ishi sohasida statistik ma'lumotlar to'plash, ularga ishlov berish va tahlil qilinishini tashqil etish, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish va takliflarni ishlab chiqish;
- Bojxona organlari faoliyati to'g'risida ahborot to'planishi va ishlab chiqilishi hamda avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishini uritish, shuningdek

bojxona statistika ma'lumatlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etish;

- Kontrabandani, bojxona qonunchiligini va o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda eki huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek halqaro terrorizmga va Respublika halqaro fuqaro aviasiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash;
- Bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruv ishlarini amalga oshirish va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishiga muvofiq ishlarni ko'rib chiqish;
- Uridik va jismoniy shahslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llash;
- Giehvandlik vositalari, psihotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog'ni respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- Respublikaning va horijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giehvand va psihotrop moddalarni nazorat ostida etkazib berilishini amalga oshirish;
- Milliy havfsizlik hizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- Aybdorlarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masala bojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda, qonun buzilishlari faktlari bo'yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa idoralarga topshirish;
- Bojxona organlarining mansabdor shahslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, bojxona organlari mansabdor shahslarining hatti-harakatlari va qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish;

- Bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishi samaradorligini ta'minlovchi bojxona infratuzilmasini tashqil etish;
- Bojxona organlari xodimlarini, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar barcha ishlab chiqarish korhonalari, muassasalar va tashqilotlar uchun bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish bo'yicha mutahassislarni tayerlash, qayta tayerlash va ularning malakasini oshirish;
- Bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida eki bojxona nazorati ostida ishlov berish ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab o'tilgan turlarini amalga oshirish hquqiga ruhsatnomalar berish;
- Xalqaro bojxona va savdo tashqilotlarida qatnashish, horijiy davlatlarning bojxona oganlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi halqaro tashqilotlar bilan hamkorlik qilish, qonunchilikda belgilangan tartibda horijiy mamlakatlarning bojxona hizmatlari bilan o'zaro ahborotlar ayirboshlash;
- Bojxona organlarining moddiy-tehnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tashqi savdo yuklarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish, bojxona maskanlari tarmog'ini va bojxona infrastrukturasining boshqa ob'ektlarini kengaytirish;
- DBQning moddiy erdam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan harajatlar mahsus jamg'armasiga tushadigan pul mablag'lar hisobiga respubliqada bojxona ishini takomillashtirish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashdan iborat.

Organning davlat idoralari tizimidagi ahamiyatini aniqlab beruvchi, huquqiy mavqyining bosh mezoni, tarkibiy qismi uning kompetensiyasidir (bu lotinchada «competentia» so'zidan olingan bo'lib, «uritish, qobiliyat, laeqat, huquqiy tegishlilik» kabi ma'nolarni anglatadi). Ushbu so'zning ikki ma'nosi mavjud: ma'lum masalalar doirasida chuqur bilimga ega bo'lishlik hamda vakolatlar doirasi (huquq va majburiyatlar) demakdir. Boshqaruv idoralarining butun faoliyati, tashqiliy va huquqiy munosabatlari – ularning o'z

kompetensiyalarini amalga oshirishlari natijasida naolen bo'ladi. Organning kompetensiyasida ko'proq boshqaruvning idoraviy mazmuni ko'zga tashlanadi. Davlat boshqaruv idorasining kompetensiyasi huquqiy-me'eriy hujjatlarini e'lon qilish yo'li bilan belgilanib, ushbu idoraning istalgan sohadagi faoliyat doirasini aniqlab beradi. Bojxona organi kompetensiyasi qonunlar erdamida shakllantiriladi.

DBQ huquqiy me'eriy hujjatlar tuzish vakolatining keng qamrovligi uning faoliyati doirasi bilan bog'liq bo'lib, tarmoqlararo boshqaruvning asosiy funksiyasi hamda tashqiliy vositalariga nisbatan boshqaruvda ancha katta hajmni egallab turuvchi asosiy faoliyatning huquqiy shakli sifatida namoen bo'ladi. Davlat qo'mitalari ana shu hususiyatlari bilan o'z tarmoqlaridan tashqarida ijro etilishi majburiy bo'lgan idoralararo hujjatlarni chiqara oladigan vazirlikdan faqlanadi.

Bunday me'eriy hujjatlarning majburiylikini hisobga olganda ular davlat qo'mitalari boshqaruv faoliyatini qat'iyat bilan amalga oshirilishining mazmuniga aylanadi. Ammo, me'eriy hujjatlar tuzishning bunday vakolati mazkur qo'mitalarning mahsus funksiyasi va tarmoq boshqaruvi bilan bog'liq faoliyatining asosiy huquqiy shakli emas. Davlat qo'mitalarida aksincha, idoralararo me'yoriy hujjatlarni chiqarish (tasdiqlash) huquqiy ular funksiyasini amalga oshirishning asosiy kafolati bo'lib hizmat qiladi. DBQ faoliyatida ham me'eriy hujjatlar tuzish ishlari ko'p hollarda. ehud birgalikda, yoki boshqa davlat boshqaruvi idorasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi

O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari va idoralari bilan bojxona qonunchiligini qo'llash masalalari bo'yicha birgalikda, belgilangan tartibda me'yoriy hujjatlarni chiqarish huquqi – Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Hizomda belgilangan. Bir tomondan, bu o'z mavqylariga teng bo'lgan ma'muriy-huquqiy munosabatlar sub'ektlarining harakatlari bo'lib, ularning vakolatiga, misol uchun, DBQ va Moliya vazirligi, DBQ va Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, DBQ va Markaziy bank o'rtasidagi birorta masalani hal qilish va huquqiy-me'eriy hujjatlarni qabul qilish kiradi. Boshqa tomondan, bir tomonlama buyruqlar chiqarishga imkon bermaydigan, vujudga keladigan munosabatlarni yo'lga qo'uvchi muayyan usullaridir. Qo'mita tomonidan, o'z

mavqiyiga ko'ra, teng bo'lgan davlat boshqaruvi idoralari o'rtasida nazorat va muvofiqlashtirish tartibot faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan munosabatlarning o'ziga hos xususiyatlari – davlat qo'mitalarining huquqlari, vakolatlari, funksiyalari reglamentining o'ziga hos jihatlaridan kelib chiqadi.

2.4. O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashqil topishi va rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatining tashqil topishi va rivojlanishining o'ziga hos jihatlari shundaki mamlakatimizning asosiy bojxona qonunini yangilash ishi uzoq va puhta olib borilgan. Qonun loyihasi ustida ishlash bojxona ishiga doir me'yoriy - huquqiy hujjatlarni tizimga solishdan boshlangan. Keyingi ikki yilning o'zidagina ushbu sohani tartibga soladigan o'nlab nizom va yo'riqnomalar qayta ishlandi. Bular bojxona rejimlari, ayrim taomillar, bojxona bilan bogliq infratuzilma xodimlari: bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtirishi bo'yicha mutahassis faoliyatiga taalluqli hujjatlardir.

Tegishli o'zgartirish va ko'shimchalar amaldagi Bojxona kodeksiga ham kiritildi. Bir vaqtda kodeksning yangi tahriri loyihasi ustida ham ish olib borildi. Bunda amaldagi qonunni qo'llash amaliyoti, MDX bo'yicha hamkor davlatlarning bojxona qonunchiligi, hozirgi halqaro bojxona amaliyotining amalda qo'llanishi, shuningdek Jahon savdo tashqilotining qonun-qoidalari, 1999 yil yangilangan tahrirda qabul qilingan "Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'grisida" Kioto konvensiyasi va bojxona nazoratini tashqil etish masalalarini tartibga soladigan boshqa halkaro konvensiyalarning koidalari inobatga olingan. Konun loyihasini tayerlaetganda DBK mutahassislari kodeksga bevosita ta'sir etadigan, qonunosti hujjatlari mikdorini iloji boricha kiskartiradigan hujjat bo'lishi kerakligidan kelib chiqdilar, chunki mufassal va aniq-puhta qonun bojxonani tartibga solish sohasida barkarorlik va oldindan ayta olishlik kafolatidir. Shu bois bojxona organlari va TIF ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar asosiy me'rlarining muhim kismi idoraviy me'eri hujjatlardan yangilangan qonunga o'tkazildi. Bojxona to'lovlarini hisoblab ezish va to'lash eki undirishning barcha

masalalari bevosita qonun loyihasida aks ettirildi. Birok bojxona boshqaruvi jaraenining har bir bosqichini imkoni boricha batafsillashtirish amalda bajarib bo'lmaydigan vazifa. Imkoni boricha bevosita amal qiladigan qonun yaratish maksad qilib olingan bo'lishiga karamay, hozir unga ko'shimcha me'eri-y-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqmasa bo'lmasligi ravshan bo'lib koldi. Bu nafakat Davlat bojxona qo'mitasi, balki loyihani ishlab chiqishning turli bosqichlarida ishtirok etgan halkaro ekspertlarning ham nyuktai nazaridir. Misol uchun, ushbu hujjatga bojxona bojlarining stavkalari, tovarlarni tasniflash koidalarini kiritib bo'lmaydi. Zero u bojxona tariflari bilan tartibga solishning barcha o'ziga hos detallarini batafsil tavsiflab berishi kerak bo'lgan amaliy yo'riknoma emas.

Shu bois muayyan dastaklar to'plami hisoblangan turli hil qonunosti hujjatlari (yo'riknomalar, tartiblar, nizomlar va hokazo), shubhasiz, har doim bojxona amaliyetida qo'llanadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi, bevosita amal qiluvchi hujjat sifatida, ularning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Shu sababli u 198 modda, 19 bob va 11 bo'limdan iborat bo'lgan amaldagi Bojxona kodeksi bilan qiyoslaganda ancha katta hajmli bo'ladi. Chunonchi, hozirgi paytda yangi tahrir loyihasida 500 dan ortiq modda va 18 bo'lim mavjud.

Qonun loyihasi hajmining ko'payishi shu bilan shartlanganki, unda bojxona nazorati va tovarlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlarini hisoblab ezish masalalari va hokazolar bo'yicha bojxona organlari bilan tashki iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar me'erlari ancha batafsil belgilangan; barcha mulkchilik shakllaridagi ho'jalik urituvchi sub'ektlar, shu jumladan fyukarolarning ham bojxona to'grisidagi qonunlarni buzish uchun javobgarligi masalalari tartibga solingan. Shu sababli tashki iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun kulay amaliy muhitni yaratish, tadbirkorlar bilan hamkorlikning sifat jihatidan yangi amaliy algoritmini kurish respublika bojxona hizmatining muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga terrorchilik harakatlari zamonamizning dahshatli vokeligiga aylanib koldi. Terrorizm solaetgan havf, halkaro narkobiznesning hujumkorligi bojxona hizmatidan huquqni muhofaza qilish funksiyalarini kuchaytirishni, yanada faolrok

harakatlarni, ishda ildam bo'lishni talab qildi. Bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, narkotiklar, kurol, o'k-dori, portlovchi moddalar, harbiy va ikkieklama maksaddagi tovarlarni aniqlash hamda ularning kontrabandasiga barham berish Davlat bojxona qo'mitasining eng muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi. DBK *si* tezkor tadbirlarning natijadorligi va uushganligiga; tayerlanaetgan eki sodir etilgan huquqbuzarliklar to'grisdagi ahborotni o'z vaktida olish, to'plash, tahlil qilish va ushbu ahborotdan amalda foydalanish tizimini barpo etishga alohida e'tibor karatgan. Ushbu vaziyatlarni hal etish barcha fyukarolarning qonunga itoat etishi va halolligiga boglik. Buning uchun bojxonaning barcha bo'ginlari bojxona nazoratini aniq-puhta tashqil etishni ta'minlashlari, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishlari zarur bo'ladi.

Ana shu maqsadda bojxona infratuzilmasi ob'ektlarini modernizasiyalash, ularni eng yangi uskunalar, aloka va nazoratning zamonaviy vositalari bilan jihozlash bo'yicha rejali ish olib borilmokda. Bu faoliyat o'z natijasini bermokda. 2005 yilning to'kkiz oyi ichida bojxona hizmati narkotiklarni kontrabanda qilishga doir 80 dan ortik urinishga barham berilgan. Gayriqonuniy aylanmadan 38 qilogrammga yakin turli narkotik vositalar, tarkibida psihotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bo'lgan yarim milliondan ziyod tabletka hamda ampulalar olib qo'yilgan. Ushbu yo'nalishda respublika bojxonasi respublikaning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan yakindan hamkorlik qilmokda. Mintakaviy va halkaro hamkorlikni rivojlantira borib, terrorizmga karshi kurashda bojxona hizmatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, bojxona nazoratining tashki savdoga ko'maklashish choralari bilan iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash choralarini biriktiradigan ta'sirchan mehanizmini shakllantirish uchun harakat qilinmokda. Ikki bo'limdan iborat yagona vazifani amalga oshirish bojxona boshqaruvini isloh qilishni talab etadi, bu, birinchi navbatda, fiskal va huquqni muhofaza qilish vazifalarini majburiy amalga oshirgan holda bojxona rasmiylashtirishi taomillarini soddalashtirish hamda jadallashtirishga albatta ta'sir ko'rsatishi kerak. Bojxona taomillarining samaradorligini oshirish imkonini beradigan halkaro tavsiyalar

Kioto konvensiyasida baen etilgan. Ulardan biri xatarlar tahlili va boshqarilishi tizimini amaliyga joriy etish hisoblanadi, bu tizim, o'z navbatida, bojxona ishi konsepsiyasining o'zini tubdan o'zgartirishi kerak. Xozirgi sharoitda bunday endashuvning muhimligi Jahon bojxona tashqiloti (WCO) Kengashining shu yil ezida bo'lib o'tgan 105/106-sessiyalarida ta'kidlandi, bunda halkaro bojxona hamjamiyati jahon savdosida havfsizlik va hamkorlikning hadli standartlari to'grisidagi WCO loyihasini ma'kulladi. 2017-2021 yillarda respublika bojxona tizimini tubdan yangilash nazarda tutilgan. Xatarlarni boshqarish tizimi nazoratning samaradorligini pasaytirmagan va TIFning qonunga itoatkor ishtirokchilarini ortikcha ma'muriy tazyikdan ozod etgan holda bojxona organlarining zahiralaridan makbul tarzda foydalanish imkonini berishi kerak.

Hozirgi vaqtda uning modeli ustida ish olib borilar ekan, bojxona nazorati jaraenlarida xatarlarni boshqarish tizimi dastaklaridan foydalanmasdan turib yakin istikbolda bojxona hizmati oldida yuzaga keladigan maqsadlarga erishib bo'lmasligidan kelib chiqiladi. Davlat bojxona qo'mitasi umuman olganda xatarlarni tahlil qilish va boshqarish konsepsiyasini belgiladi, xatarlarni aniqlash uslubiyati va xatarlar darajasini, ular tahlili darajalari hamda aniqlangan xatarlarga munosabat bildirish choralari baholash mezonlari ishlab chiqish bosqichida turibdi. Xatarlarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy etish miqesiga ko'ra o'tgan asrning 90 chi yillari boshida bojxona yuk deklarasiyasini qo'llagan holda olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni deklarasiya qilishning joriy etilishi hamda 2018 yil ohirida tashki savdo operasiyalarining yagona elektron axborot tizimi (TSOYaEAT) takomillashtirish bilan taqqoslasa bo'ladigan loyiha bo'ldi deb aytish o'rinlidir.

Bugunga kelib xatarlarni boshqarish tizimi elementlarini joriy etishga keng qamrovli yondashuvga asoslangan dastlabki qadamlar qo'yildi deb qayd etish mumkin. Lekin bular faqat ishning boshlanishi xolos, oldinda esa uzoq, ko'p bosqichli ishlar turibdi. Xatarlarni tahlil qilish va boshqarishni amalda ro'ebga chiqarish, bojxonadan keyingi auditni uchta muhim tarkibiy qimsiz: avtomatlashtirish vositalarini joriy etish va bojxona bo'linmalari o'rtasida

ma'lumotlarni real vaqt rejimida elektron ayirboshlash, amaldagi me'riy-huquqiy bazani yangilash va takomillashtirish hamda kadrlar tarkibining yangi texnologiyalarda ishlashga tayergisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bojxona qonunchiligini xatarlarni tahlil qilish va boshqarish tizimi talablariga muvofiqlashtirish ham bir oyda va hatto bir yilda bajariladigan ish emas.

Tranzit taomillarini soddalashtirish O'zbekiston tovarlarini Evropa bozorlariga ham olib chiqishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu qarorni ro'ebga chiqarishda bojxona organlarining roli katta: zero Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi hukumatlararo shartnomalar va kelishuvlarning uchdan biri bojxona ishiga taalluqli va Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar hududida bojxona nazorati va rasmiylashtirishi, tarifli va notarif tartibga solish choralarini qo'llashning yagona mexanizmlarini belgilaydi. Ulardan ba'zilari quyidagilardir: Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati Bojxona qonunchiligi asoslarini ishlab chiqish to'grisida, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqish va undirishning yagona tartibi, bojxona huquqbuzarligi masalalari bo'yicha jinoiy va ma'muriy qonunchilikni uygunlashtirish, bojxona kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida nazoratni amalga oshirish chogida nazorat organlarining hamkorligi va ularni joylashtirish tartibi mustaqillik sharofati bilan tashqil etilgan Oliy Xarbiy bojxona instituti mustaqilligimizning ilk bor mevalaridan biridir. OXBI barcha jahon standartlariga javob beradi, zamonaviy moddiy-tehnika bazasiga ega, noyob uskunalar bilan jihozlangan. Institutda 12 kafedra, bir nechta komputer sinfi, kriminalistika laboratoriyasi, WCO talablari darajasida jihozlangan o'quv sinflari ishlab turibdi. Ular orasida shu jumladan texnik vositalarni qo'llagan holda bojxona nazorati va rasmiylashtirishini o'rgatish, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzishlarga qarshi kurash sinflari hamda eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan kimyo laboratoriyasi bor. Tinglovchilar ancha qattik tarzda tanlab olinsada, unga kirish uchun talabgorlar oz emas. Institutda boshqa o'quv yurtlarini bitirgan bojxona xodimlari ham dastlabki tayergarlik va qayta tayergarlikdan o'tadilar. Shaxsiy tarkib bilan doimiy tarbiyaviy-profilaktik ish olib

boriladi, unda huquqbuzarlikka moyil bo'lgan xodimlarni aniqlashga katta e'tibor beriladi. Bojxona organlari xodimlarining muntazam o'tkaziladigan attestasiyasi kadrlarning amaliy va ahloqiy xislatlari, kasbga yaroqliligiga, shuningdek shahsiy qobiliyatlari va ish tajribasiga muvofik ularni joy-joyiga o'rinli qo'yishga baho berishning samarali shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bobga doir qisqacha xulosa

Shuni qayd etish lozimki, hatto yetakchi davlatlarda bu tizim odatda kamida besh yil mobaynida joriy etilgan. Bojxona nazorati jaraenlarida xatarlarni boshqarish tizimining huquqiy asoslari va elementlari, tegishincha, uni qo'llash chogida bojxona organlari xodimlari harakatlarining funksional doirasi Bojxona kodeksi yangi tahririning loyihasida aks etgan.

Xalqaro integrasiya jarayonlari miqyosida aytish lozimki Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati va Markaziy Osiyo hamkorligi tashqilotini birlashtirish to'g'risidagi qaror respublika bojxona organlarining faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Aytish lozimki oktyabr oyining boshlarida Sankt-Peterburgda "Markaziy Osiyo hamkorligi" va Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati tashqilotlarini bir tuzilmaga birlashtirish to'grisida qaror qabul qilindi, bu esa, shubhasiz, respublika bojxona organlari faoliyatida ham bojxona taomillarini soddalashtirish bilan aks etadi. Bu hol savdo aylanmasini nafakat Evrosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida jadallashtirishga imkon beradi.

Hazorat savollari:

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizdan oldingi bojxona ishini qanday tasavvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O`rta asrlardagi rivoji qanday bo`lgan?
4. O`rta asrlardan bojxona ishi bo`yicha ma`lumotlar qanday etib kelgan?
5. O`rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday hizmat ko`rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to`grisida gapiring?
7. O`zbekiston Respublikasida bojxona ishini vujudga kelish tarihi to`grisida gapiring.
8. Pata –Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashqil etilgan?
9. Nechanchi yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e`lon qilingan.

3-BOB. «BOJXONA LOGISTIKASI» FANIGA OID ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

Zamonaviy bozor muhitida logistika moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarni samarali boshqarish (yalpi harajatlarni pasaytirish va yakuniy iste'molchilarning ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga talabini qondirish) hisobiga biznesni tashkil qilishning strategik va taktik maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan menejment integral vositasini ifodalaydi. Tabiiyki, logistikada boshqaruv, optimallashtirish va tadqiqot asosiy ob'ekti moddiy oqim hisoblanadi.

Axborot, moliya va servis oqimlari boshqaruvchi moddiy oqim tomonidan yaratiladigan oqimlar sifatida bo'yso'nish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

3.1. Logistika ob'ektlari

Moddiy oqimlar

Logistika yondashuvining moddiy resurslar an'anaviy harakatini boshqarishdan asosiy farq shundaki, logistika yondashuvida boshqaruv ob'ekti bo'lib oqim – umumiy bir yaxlitlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yig'indisi namoyon bo'ladi.

Oqim – ma'lum bir vaqt oralig'ida jarayon sifatida mavjud bo'ladigan va belgilangan vaqt davrida mutlaq birliklarda o'lchanadigan, yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan harakatdagi predmetlar yig'indisi.

Ko'rinib turibdiki, strategik boshqaruvda barcha resurslar yig'indisi oqimlar ko'rinishida, xususiyl holatda esa – zaxiralar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

Zaxira – yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan va berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan predmetlar yig'indisi.

Taktik boshqaruvga nisbatan oqimlar va zaxiralarni paritetli* logistika toifalari sifatida maqsadli ajratishni amalga oshirish lozim.

SHunday qilib, logistika asosiy toifalariga* oqim va zaxiralar aylanadi. Zaxiralar statik ko'rsatkichlari va oqimlar dinamik tavsifnomasi o'rtasida qalin o'zaro bog'liqlik mavjud:

➤ R oqim Z zaxira o'zgarishini tavsiflaydi

$P \cdot q \cdot dZ \text{lar } dt;$

- zaxira oqim to'planishi va o'zgarish natijasini aks ettiradi

$$Z = \int_{t_1}^{t_2} PdT$$

Oqim va zaxira toifalari logistika jarayonlarini ko'rib chiqishda talab qilinadigan darajada chuqur va batafsil bo'lmasada, makroiqtisodiy modellarda* juda keng foydalaniladi. Logistikada oqimlar va zaxiralar umumlashtirilgan iqtisodiy toifalarning xususiy holati hisoblanadi, xuddi shu tarzda logistika qonuniyatlari umumiy iqtisodiy qonunlarning xususiy tarzda namoyon bo'lishi sanaladi.

Moddiy oqim tushunchasi logistikada asosiy tushunchadir. Ko'rinib turibdiki, moddiy oqimlar mavjud bo'lish shakllari transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va birlamchi xomashyo manbasidan yakuniy mahsulot iste'molchisiga yetkazish bo'yicha boshqa moddiy operatsiyalarni bajarish jarayonida barcha mahsulot turlarining harakati bo'lishi lozim (moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot).

Moddiy oqim – unga turli logistika (transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va b.) valar yoki texnologiya (mexanik ishlov berish, yig'ish va b.) operatsiyalarini qo'llash jarayonida ko'rib chiqiladigan va belgilangan vaqt oralig'iga mansub deb sanaladigan yuklar, qismlar, tovar-moddiy boyliklar ko'rinishidagi mahsulotdir.

Moddiy oqimlar quyidagi ravishda taqsimlanadi:

1) logistika tizimiga nisbatan quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- korxonaga uchun tashqi bo'lgan muhitda o'tadigan *tashqi moddiy oqim*.
Bu toifaga korxonaga tashqarisida harakatda bo'lgan har qanday yuklar emas, balki ularni tashqil qilishga korxonaning aloqasi bo'lmagan yuklar kiradi;
- logistika tizimi ichkarisida yuk bilan logistika operatsiyalarini amalga oshirish natijasida hosil bo'ladigan *ichki moddiy oqim*;

- logistika tizimiga tashqi muhitdan kelib tushadigan *kiruvchi moddiy oqim*;
 - logistika tizimidan tashqi muhitga chiqib ketadigan *chiquvchi moddiy oqim*. Ulgurji savdo korxonalarida bunday oqim qoidaga ko'ra, yuk aylanmasi deb ataladi;
- 2) natural-buyum tarkibi bo'yicha quyidagilar ajratiladi:
- bir assortimentli;
 - ko'p assortimentli, bunda bir assortimentli yuklar (masalan, ko'mir) uchun logistika jarayonlari ko'p assortimentli yuklar (masalan, xilma-xil turdagi energetika vositalari) uchun logistika jarayonlaridan jiddiy farq qiladi;
- 3) miqdoriy belgi bo'yicha quyidagilar farqlanadi:
- yukni bitta transport vositasida emas, balki bir guruh transportda (masalan, temiro'l tarkibi, avtomashinalar kolonnasi) tashish jarayonida vujudga keladigan *ommaviy oqimlar*;
 - *yirik oqimlar* (masalan, bir nechta vagon, avtomashinalar);
 - transport vositasining yuk ko'tarish quvvatidan to'liq foydalanishga imkon bermaydigan va boshqa bklar bilan birgalikda tashishni talab qiladigan yuklar tashqil etadigan *mayda oqimlar*;
 - yirik va mayda oqimlar o'rtasidagi oraliqni tashqil qiladigan *o'rta oqimlar*, ya'ni bitta vagon yoki avtomobilda olib kelinadigan yuklar hosil qiladigan oqimlar;
- 4) oqimni hosil qiluvchi yuklar solishtirma og'irligi bo'yicha quyidagilar ajratiladi:
- transport vositasining yuk ko'tarish qobiliyatidan to'liq foydalanishni ta'minlaydigan va saqlash uchun kichiqroq ombor hajmlari talab qiladigan *og'ir vaznli oqimlar*; bu oqimlar bitta o'rin vazni suv transportida tashishda 1 tonna yoki temiro'l transportida tashishda 0,5 tonnadan ortiqni tashqil qiladigan yuklar hosil qiladigan oqimlardir;

- transport vositasining yuk ko'tarish qobiliyatidan to'liq foydalanishga imkon bermaydigan va 1 tonna yuk 2 m³dan ko'proq hajm egallaydigan yuklar bilan ifodalanadigan yengil *vaznli oqimlar*;

5) oqimni tashqil qiladigan yuklarning birgalikda bo'la olishi bo'yicha quyidagilar farqlanadi:

- *birgalikda bo'la oladigan oqimlar*;
- *birgalikda bo'la olmaydigan oqimlar*.

Bu belgi asosan oziq-ovqat tovarlarini transport vositasida tashish, saqlash va yuklarni qayta ishlashda hisobga olinadi;

6) yuklar konsistensiyasi (quyuq-suyuqligi) bo'yicha quyidagilar ajratiladi:

- idishsiz tashiladigan *to'kib ortiladigan yuklar*. Ularning asosiy xususiyati – sochiluvchanlik;
- idishsiz tashiladigan va qoidaga ko'ra, kelib chiqishi mineral bo'lgan *qoplamay ortiladigan yuklar*. Ularga xos xususiyatlar sochiluvchanlik va mo'zlab bir-biriga yopishib qolish, zich bo'lib bosilib ketish, qizib yaxlitlanib qolish tendensiyalari hisoblanadi;
- turli kimoviy-fizik xossaga, solishtirma og'irlikka va hajmga ega bo'lgan *tarali-donabay yuklar*. Bu quyidagilar bo'lishi mumkin: konteyner, quti, qopdagi yuklar, tarasiz yuklar, o'zun va nogabarit yuklar;
- tsisterna va suyuqlik tashiydigan kemalarda tashiladigan *suyuk yuklar*.


Mazkur yondashuv quyidagi ta'riflarni ifodalashga imkon beradi.

Moddiy oqim – unga turli logistika operatsiyalarini qo'llash jarayonida ko'rib chiqiladigan va belgilangan vaqt oralig'iga mansub deb sanaladigan mahsulot (yuklar).

Moddiy zaxira – berilgan vaqt oralig'i uchun moddiy oqim.

Yuk yo'lda bo'lgan paytda u moddiy zaxira hisoblanadi va «yo'ldagi zaxira» deb ataladi.

Moddiy oqimlar bitta korxonada yoki turli korxonalar o'rtasida ro'y berishi mumkin. 3.1-rasmda keltirilgan misol moddiy oqimlarning korxonada asosiy tarkibiy bo'linmalar o'rtasida moddiy oqimlar harakati sxemalarining xilma-xil bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi.



3.1-rasm. Tovarlarini vaqtinchalik saqlash omborida moddiy oqimlar harakati sxemasi

Korxonaning *umumiy moddiy oqimi* uning alohida uchastkalarida o'tadigan moddiy oqimlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Moddiy oqimning asosiy o'lchagichlari* quyidagilar hisoblanadi: transport yo'li, transport vazni va transport vaqti.

Transport yo'li – manbadan* (transport vositasida tashish boshlangan joydan) yukni yetqazib berish punktigacha bo'lgan masofa.

Transport yo'li vektor hisoblanadi. Amaldagi yo'l mojet transport yo'li bilan mos tushmasligi mumkin va muayyan vazifadan kelib chiqib, «borish yo'li», «borish yo'nalishi», «tashish yo'nalishi» yoki «eng qisqa yo'l» deb atalishi mumkin. O'lchov birliklari uzunlik birliklari hisoblanadi: metr, kilometr, dengiz milyasi va b.

Transport vazni – tadqiq etiladigan transport yoki ishlab chiqarish birliklari soni. Logistikada skalyar va vektorli transport vaznlari ko'rib chiqiladi.

Skalyar transport vazni harakatdalar harakatsiz bo'lgan transport yoki ishlab chiqarish birliklaridan iborat bo'lib, bunda ro'y berayotgan yoki rejalashtirilgan harakat yo'nalishi ma'lum emas.

Vektorli transport vazni – manba va manzil haqida, ayrim hollarda esa – tashuv vaqtining ma'lum bir mahali haqida ham zamon-makon axboroti.

O'lchov birliklari quyidagicha: skalyar transport vazni uchun – tonna, qilogramm va b.; vektorli transport vazni uchun – belgilangan vaqtda belgilangan uchastkada bo'lgan mahsulot va transport vositalari soni.

Transport vositalari ko'rib chiqilayotgani yoki ko'rib chiqilmayotganiga qarab, agar transport vazni fizik o'lchov biriklarida ifodalanadigan bo'lsa, «brutto» yoki «netto» aniqlashtiriladi.

Transport vaqti – yuklarni tashish jarayoni uchun zarur bo'lgan vaqt.

Transport vazni harakat vaqti va transport vaznining yo'lda bo'lish vaqtini farqlay olish zarur. Transport vaznining harakatlanish jarayonida alohida transport tashuvlari ham, alohida punktlar o'rtasida ko'chish jarayonlari ham baholanadi. Umuman olganda, moddiy oqim belgilangan vaqt davrida bitta yo'nalishda tashiladigan yuk vazni bilan o'lchanishi mumkin.

Axborot oqimlari

Korxonada ichki tizimlarini ishlab chiqarishning alohida elementi emas, balki butun ishlab chiqarish harajatlari minimallashtirishdan iborat bo'lgan umumiy maqsad va vazifalarga ega bo'lgan tizimga birlashtiruvchi, amaliy natija beradigan logistika vositasi xomashyo xarid qilishdan tortib yakuniy mahsulotni sotishgacha bo'lgan axborot ta'minoti jarayoni hisoblanadi. tashqi muhit bilan o'zaro

aloqalarda vaziyatli va istiqbolli muammolar bo'yicha axborot ta'minoti ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. SHunday qilib, relevant axborot oqimlari butun logistika jarayonini bir qilib birlashtiradigan bog'lovchi tarkibiy qism hisoblanadi.

Axborot oqimi – logistika tizimida boshlang'ich moddiy oqim hosil qiladigan, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan, logistika tizimlari va tashqi muhit o'rtasidagi xabarlar yig'indisi.

Zamonaviy logistikada axborot oqimlari rolining ortishi quyidagi asosiy sabablar bilan izohlanadi:

- *birinchidan*, iste'molchi uchun buyurtma maqomi, tovar mavjudligi, yetqazib berish muddati, yuklab jo'natish hujjatlari va h.k. haqida axborot logistika servisining zaruriy elementi hisoblanadi;
- *ikkinchidan*, zaxiralarni boshqarish uchun to'liq va ishonchli axborot mavjudligi talabning noaniqlik darajasini pasaytirish hisobiga zaxiralar va mehnat resurslariga ehtiyojni qisqartirish imkonini beradi;
- *uchinchidan*, axborot raqobatli ustunliklarga erishish uchun resurslardan qachon, qaerda va qanday foydalanish mumkinligi nuqtai nazaridan logistika tizimi moslashuvchanligini oshiradi.

Logistikada axborot oqimlari quyidagi asosiy belgilar bo'yicha taqsimlanadi:

- oqim bog'laydigan tizimlar turiga qarab - gorizontaal va vertikal;
- joylashgan joyga qarab - tashqi va ichki;
- logistika tizimiga nisbatan yo'nalishga qarab - kiruvchi va chiquvchi;
- axborot vositasi turiga qarab – qog'oz vositasidagi (hujjat) va kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda - magnitli vositalar, elektron dasturlardagi oqimlar;
- axborotning vujudga kelish vaqtiga qarab - vaqt bo'yicha tartibga solingan ma'lumot uzatishga mos keladigan muntazam (statsionar) oqimlar; vaqt bo'yicha qat'iy chegaralangan ma'lumot uzatishga mos keladigan davriy oqimlar; on-line va off-line interaktiv va dialog rejimlarida abonentlar aloqasini ta'minlaydigan tezkor oqimlar;

- bajariladigan vazifalarga qarab - direktiva (boshqaruv), me'yoriy-ma'lumotnoma va yordamchi oqimlar.

Axborot oqimi harakatlanadigan yo'l umumiy holatda moddiy oqimning harakat yo'nalishi bilan mos tushmasligi mumkin. Axborot oqimi moddiy oqimdan o'zib ketishi, u bilan birga yoki undan keyin kelishi, moddiy oqim bilan bir xil va qarama-qarshi yo'nalishda bo'lishi mumkin:

- qarshi yo'nalishdagi o'zib ketadigan axborot oqimi qoidaga ko'ra, buyurtma haqida ma'lumotlardan iborat bo'ladi;
- bir xil yo'nalishdagi o'zib ketadigan axborot oqimi bu – kutilayotgan kirib kelish haqida dastlabki xabardir;
- moddiy oqim bilan bir vaqtda to'g'ri yo'nalishda moddiy oqimning sifat va son ko'rsatkichlari haqida axborot keladi;
- moddiy oqim ortidan qarshi yo'nalishda yukni sifat va son bo'yicha qabul qilish natijalari, reklamatsiya, tasdiqlash haqida axborot kelishi mumkin.

Axborot oqimi quyidagilar bilan tavsiflanadi: vujudga kelish manbasi, yo'nalishi, davriyligi, doimiylik darajasi, strukturalari, hajmi va zichligi, axborot vositasi turi, alohida xabarlarining axborot sig'imi, foydalanish darajasi.

Axborot oqimini oqimning yo'nalishini o'zgartirgan; uzatish tezligini mos keluvchi qabul qilish tezligigacha chegaralagan; oqim hajmini yo'lning alohida qismi o'tkazish qobiliyatigacha chegaralagan holda boshqarish mumkin. Axborot oqimi vaqt birligida o'zatiladigan yoki ishlov beriladigan axborot miqdori bilan o'lchanadi. Mashina birliklari sifatida quyidagilar foydalaniladi: bit (ikqilik birlik), bayt (mashina so'zining 8 bitdan iborat bo'lgan qismi), qilobayt (Kb), megabayt (Mb), gigabayt (Gb). Xo'jalik faoliyati amaliyotida axborot ishlov beriladigan (o'zatiladigan) hujjatlar soni yoki ishlov beriladigan (o'zatiladigan) hujjatlardagi hujjat satrlari umumiy soni bilan o'lchanishi mumkin.

Moliyaviy oqimlar

SHakllanayotgan va barqaror rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida moddiy oqimlar samaradorligini oshirishning amaliy natija beradigan omillaridan biri ularning moliyaviy xizmat ko'rsatishini yaxshilash hisoblanadi. Logistikada tovar oqimlarining moliyaviy xizmat ko'rsatishining asosiy maqsadi eng samarali moliyalashtirish manbalaridan foydalangan holda ularning harakatini zarur hajmda, kerakli muddatda moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Moliyaviy oqim – logistika tizimida muomalada bo'lgan, shuningdek, u va tashqi muhit o'rtasida moddiy oqim samarali harakatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslar* yo'naltirilgan harakatidir. Bu ta'rifdan kelib chiqadiki:

- moliyaviy oqimning o'ziga xosliklari aynan tovar-moddiy yoki tovar-nomoddiy boyliklar oqimining zamon va makonda harakatlanishiga xizmat ko'rsatish ehtiyojlaridan iborat;
- logistika moliyaviy oqimi bu – moliyaviy resurslarning oddiy harakati emas, balki yo'naltirilgan harakatidir;
- logistikada moliyaviy resurslar yo'nalganligi moddiy oqimning harakatini ta'minlash zarurati bilan asoslanadi;
- moliyaviy resurslar harakati yoki logistika tizimida, yoki u va tashqi muhit o'rtasida ro'y beradi.

Logistika moliyaviy oqimlari quyidagi tarzda tasniflanishi mumkin:

1) logistika tizimiga nisbatan quyidagi moliyaviy oqimlar ajratib ko'rsatiladi:

- korxonaga uchun tashqi muhitda o'tadigan *tashqi oqimlar*;
- logistika tizimi ichda bo'ladigan va logistika operatsiyalarini mos keluvchi moddiy oqimi bilan bajarish hisobiga o'zgaradigan *ichki oqimlar*;
- logistika tizimiga tashqi muhitdan kirib keladigan *kiruvchi oqimlar*;
- logistika tizimidan tashqi muhitga chiqadigan *chiquvchi oqimlar*;

2) bajariladigan vazifalar bo'yicha quyidagi moliyaviy oqimlar ajratiladi:

- xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar xarid qilish jarayoni bilan asoslanadigan oqimlar;
- investitsion oqimlar;
- ishchi kuchini takror ishlab chiqarish bo'yicha oqimlar;
- korxonalar ishlab chiqarish faoliyati jarayonida moddiy xarajatlar shakllanishi bilan bog'liq oqimlar;
- tovarlarni sotish jarayonida vujudga keladigan oqimlar;

3) bo'naklangan qiymatni mahsulotga (yukka) o'tkazish usuli bo'yicha quyidagilar ajratiladi:

- korxonaning asosiy fondlari harakatiga hamrohlik qiladigan moliyaviy resurslar oqimlari (ular qatoriga investitsion moliyaviy oqimlar va moddiy xarajatlarni shakllantirish bilan bog'liq qisman moliyaviy oqimlar);
- korxonaning aylanma vositalari harakati bilan asoslanadigan moliyaviy resurslar oqimlari (ular qatoriga bajariladigan vazifalar bo'yicha tasniflashda ajratilgan qolgan barcha moliyaviy oqimlar guruhlari kiradi);

4) qo'llanayotgan hisob-kitob shakllari bo'yicha quyidagi moliyaviy oqimlar ajratiladi:

- so'mdagi schyotlar bo'yicha va ularning valyuta hisob-kitoblari bo'yicha naqd moliyaviy resurslar oqimlariga taqsimlanadigan naqd moliyaviy resurslar harakatini tavsiflaydigan pul oqimlari;
- to'lov topshiriqnomalari, to'lov talabnomalari, inkassa topshiriqlari, hujjatli akkreditivlar va hisob-kitob talabnomalari bo'yicha naqdsiz moliyaviy resurslar oqimlariga bo'linadigan naqdsiz moliyaviy vositalar harakati bilan asoslanadigan axborot-moliya oqimlari;
- bo'naklangan qiymatni oshirish bosqichida tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish davomida vujudga keladigan hisob-moliyaviy oqimlar;

5) xo'jalik aloqalari turlari bo'yicha quyidagi moliyaviy oqimlar ajratiladi:

- tadbirkorlik faoliyatining teng huquqli sub'ektlari o'rtasida moliyaviy vositalar harakatini aks ettiradigan gorizontal oqimlar;
- asosiy va sho''ba tijorat tashqilotlari o'rtasida moliyaviy vositalar harakatini aks ettiradigan vertikal oqimlar.

Moliyaviy oqimlarni tasniflash shuningdek, kapital aylanma bosqichi, pul mablag'larini olish manbalari, ularning o'tish muddati kabi belgilar bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Moliyaviy oqimlarni tasniflash zarurati eng samarali boshqaruv usullarini aniqlash ehtiyoji bilan asoslanadi, shu sababli har bir muayyan logistika muammosini hal qilish uchun o'zining, o'ziga xos tasniflash belgilari tarkibini belgilash maqsadga muvofiq.

Servis oqimlari

1985 yil Logistika menejmenti kengashi (AQSH) logistika funksiyasi mazmunini ifodalashda uni servis (nomoddiy) oqimlar qiziqishlari sohasiga kiritdi. Bu servis xizmatlari sanoatida logistika yondashuvlari rivojlanishini rag'batlantirdi, chunki katta sonli logistika vositachilari va logistika tizimi bo'g'inlari mohiyatan ularda xizmatlar taqsimlanadigan, bozorga chiqariladigan va logistika zanjirining turli qismlarida sotiladigan mahsulot bilan chambarchas bog'liq bo'lgan servis korxonalari hisoblanadi. Ular qatoriga, xususan, eksport-import oqim jarayonlarini boshqarish zanjirida bojxona strukturalari kiritilishi mumkin. AQSH va bir qator Yevropa mamlakatlarida iste'molchilar so'rovlarini qondirish darajasi va xarajatlar bo'yicha eng samarali usul bilan ko'rsatish uchun zarur bo'lgan logistika operatsiyalarini muvofiqlashtirish jarayoni sifatida «servis javobi logistikasi» (Service Response Logistics - SRL) tushunchasi keng foydalaniladi. Ko'pincha SRL-yondashuv xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining stragyeuropa ittifoqik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Moddiy oqimlar kabi, xizmatlar oqimi ham logistika tizimi, zanjirining o'z bo'g'inlari mavjud bo'lgan belgilangan yetqazib berish muhitida (o'ziga xos taqsimot

tarmog'ida) amal qiladi. Bu tarmoq shunday tashqil etilishi kerakki, u iste'molchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada samaradorlik bilan qondirsin.

Servis oqimi – bevosita moddiy oqim bilan bog'liq hamda uning iste'molchilar so'rovlarini qondirish va xarajatlar nuqtai nazaridan eng samarali usul bilan harakatlanishini ta'minlaydigan xizmatlar yig'indisidir.

Servis oqimining tavsifnoma xususiyatlari harakatlar, foyda va qondirish ko'rinishidagi sotuv ob'ekti sifatida xizmatlar mshtidan kelib chiqadi. Bunda quyidagilar asosiy ko'ratkichlar bo'lishi mumkin:

- ishonchlilik – «aniq muddatida» ijro etish ketma-ketligi (masalan, jismoniy taqsimlashda tovarni ko'rsatilgan vaqtda va joyga yetqazib berish, shuningdek, axborot va moliya jarayonlari ishonchliligi);
- his etiluvchanlik – xizmat ko'rsatiladigan tabiiy muhit (imidj va korporativ madaniyat, servis korxonasi intereri, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari va b.);
- mas'uliyat – servis korxonasi xodimlarining iste'molchiga yordam ko'rsatish qobiliyati, xizmatlar bajarilishining kafolatlanishi va b.;
- tugallik – xodimlarning zarur ko'nikmalarga, chuqur bilimlarga egaligi;
- ochiqlik – servis korxonasi bilan muloqot o'rnatish oddiyligi, iste'molchi uchun qulay vaqt va servis xizmatlari maqbo'l keladigan qiymati;
- xavfsizlik – iste'molchi tomonidan ishonchsizlik va riskning yo'qligi (masalan, jismoniy taqsimlashda yuk saqlanishini ta'minlash);
- iste'molchi bilan bir-birini tushunish, hamfikrlik – servis korxonasi xodimining iste'molchi bilan chin qalbdan qiziqishi va h.k.

Servis oqimini boshqarishda bazaviy logistika tamoyillari foydalanilishi mumkin. 2.1-jadvalda logistika servis harakatlari va moddiy oqimlarni boshqarish odatiy logistika zanjirida ayrim logistika harakatlarini taqqoslash keltirilgan.

3.1-jadval

Moddiy va servis oqimlarini boshqarish zanjirlarida logistika harakatlarini taqqoslash

Moddiy oqimlarni boshqarish zanjirida logistika zanjiri harakatlari	Servis oqimlarini boshqarish zanjirida logistika zanjiri harakatlari
Tayyor mahsulot sotuv hajmini bahorat qilish	Servis hajmini boshqarish
Ishlab chiqarishni rejalashtirish	Servis uskunalari va xodimlar ishi ro'yxati; xizmatlarni ilgari surish kanalini tanlash
Buyurtmalar jarayoni	Mijozlar bilan o'zaro aloqalar; ehtiyojlarni baholash; muzokaralar o'tkazish; xizmatlarni iste'molchiga yetkazish monitoringi
Zaxiralarni boshqarish	Servis uskunalari quvvatlarini boshqarish; ma'lumotlar bankini boshqarish; mijozlarni qayd qilish
Distribyutsiya tizimi	Tizimli rejalashtirish; servis tarmog'ini rejalashtirish; ko'rgazmalar tarmog'i
Logistika ma'murchiligi	Tarmoq ma'murchiligi
Omborga joylashtirish	Axborotni saqlash; ma'lumotlar bazasini yuritish

Keltirilgan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, xizmatlar ko'rsatuvchi korxonaning logistika menejmenti xudi moddiy oqimlar uchun kabi servis oqimlarini boshqarishda xudi o'sha tamoyil va metodologik yondashuvlardan foydalanishi mumkin. Biroq shuni hisobga olish kerakki, servis monitoringi va buyurtma jarayoni moddiy logistika menejment uchun bo'lganidan ko'ra odatda kompleksiroq bo'ladi.

3.2. Logistika faolliklari


Moddiy va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarning vujudga kelishi, o'zgarishi logistika nuqtai nazaridan to'laqonli tizim, ya'ni uning oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshiradigan va bu ma'noda yaxlit bir butunlik kabi tavsiflanadigan tizim sifatida ko'rib chiqiladigan ma'lum bir iqtisodiy ob'ektda

ro'y beradi. Mohiyatan gap moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar yig'indisi haqida bormoqda.

Logistika faolliklari – qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirayotgan to'laqonli logistika tizimida moddiy oqimga nisbatan qo'llanadigan harakatlar. Bunda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- logistika operatsiyalari, yoki elementar logistika faolliklari (ordinar logistics activit);
- logistika funksiyalari, yoki kompleksli logistika faolliklari (complex logistics activit).

3.2-rasmda moddiy oqimga nisbatan logistika faolliklari tasnifi keltirilgan.




3.2-rasm. Logistika faolliklari tasnifi

Logistika operatsiyasi – moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi va o'zgartirilishi bilan bog'liq bo'lgan menejment yoki qo'yilgan tadqiqot vazifalari doirasida yanada taxlil qilinishi

lozim bo'lgan har qanday harakat.

Logistika operatsiyalari qatoriga moddiy resurslar yoki tayyor mahsulot bilan amalga oshiriladigan yuklash, tushirish, idishga joylash, tarqatish, tashish, saqlash, bojxona rasmiylashtiruvi, sug'urta qildirish va boshqa harakatlari kiradi. Hamrohlik qiladigan oqimlar bilan bog'liq logistika operatsiyalari sifatida moddiy oqim haqida axborot to'plash, saqlash va uzatish, tovarlar ta'minotchilari va xaridorlari bilan hisob-kitoblar, bojxona to'lovlari to'lash va h.k. namoyon bo'ladi.

Logistika tizimiga kirib keladigan yoki uni tark etadigan moddiy oqim bilan logistika operatsiyalari bajarish xudi shu operatsiyalarni logistika tizimi ichida bajarishdan farq qiladi. Bu tovarga egalik huquqi sug'urta risklarining bita yuridik shaxsdan boshqasiga o'tishi bilan izohlanadi. Bu belgi bo'yicha barcha logistika operatsiyalari bir tomonlama va ikki tomonlama operatsiyalarga ajratiladi. Logistika operatsiyalari tasnifi 3.3-rasmda keltirilgan.



3.3-rasm. Logistika operatsiyalari tasnifi

Ayrim logistika operatsiyalari mohiyatan texnologik ishlab chiqarish jarayonining davomi hisoblanadi (masalan, qadoqlash). Ular tovarning iste'mol xususiyatlarini o'zgartiradi va ishlab chiqarish sohasida ham, muomala sohasida ham amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Korxonani ta'minlash yoki tayyor mahsulot sotish jarayonida bajariladigan logistika operatsiyalari (logistika tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloqa jarayonida bajariladigan operatsiyalar) tashqi logistika operatsiyalari toifasiga kiradi; ularni bajarish xarakteriga atrof-muhit noaniqligi ta'sir ko'rsatadi. Logistika tizimi ichkarisida bajariladigan logistika operatsiyalari ichki operatsiyalar deb ataladi.

Logistika funksiyasi – logistika tizimi maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan va uning chiqish ko'rsatkichlari hisoblangan qiymatlar bilan beriladigan logistika operatsiyalari yiriklashtirilgan guruhidir.

Biznesni tashkil qilish darajasida logistika funksiyalari bazis, asosiy va ko'makchi funksiyalarga taqsimlanadi.

Bazis logistika funksiyalari qatoriga quyidagilar kiradi: ta'minot, ishlab chiqarish va sotuv. Ushbu bazis funksiyalar doirasida mahsulotni omborga joylashtirish, unga egalik huquqi va sug'urta risklarining boshqa yuridik shaxsga berilishi, buyurtmalarni rasmiylashtirish va h.k. bilan bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy operatsiyalar bajariladi.

Asosiy logistika funksiyalar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- moddiy resurslar yetqazib beruvchilarni tanlash, resurslarga ehtiyojni rejalashtirish, ularni yetqazib berish oqilona hajmi va muddatini belgilash, isharnoma ishlarini tashqil qilish, moddiy resurslarni ishlab chiqarish bo'linmalariga yetqazib berish uchun transport turini tanlashni o'z ichiga oladigan vazifalar majmui sifatida xaridlarni boshqarish;
- yuk ortish va tushirish, tashish, tarqatish va boshqa hamrohlik qiladigan logistika operatsiyalari yig'indisi sifatida transport vositasida tashish;
- buyurtmalar olish va ular bilan ishlash tartibini aniqlash, iste'molchiga xizmat ko'rsatish yoki tayyor mahsulot olish vaktini aniqlash, shuningdek, tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetqazib berish va sotish bo'yicha logistika operatsiyalari yoki taqsimot

tarmog'i ishi tashabbusini aniqlash jarayoni sifatida buyurtmalar jarayonlarini boshqarish;

- tayyor mahsulot chiqarish texnologik jarayonlarida tugallanmagan ishlab chiqarish va moddiy resurslar oqimlarini samarali boshqarish jarayoni sifatida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;
- sotuvdan keyingi servis, tovarlar distribyutsiyasi va mahsulot sifati berilgan darajasini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida iste'molchilarga xizmat ko'rsatish standartlarini qo'llab-quvvatlash⁷;
- mahsulot ishlab chiqarish, ta'minot va sotuvda zaxiralar darajasini yaratish, nazorat qilish va tartibga solish jarayoni sifatida tayyor mahsulot va moddiy resurslar zaxiralarini boshqarish. Ta'kidlash joizki, zaxiralarni boshqarishda vaqt omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Odatda bir tomondan, ishlab chiqarish va moddiy resurslar o'rtasida, boshqa tomondan esa – ishlab chiqarish va tayyor mahsulot iste'moli o'rtasida o'ziga xos bufer rolini o'ynaydigan tayyor mahsulot va moddiy resurslar zaxiralari ehtiyoj doim mavjud bo'ladi. Taqchilik yuzaga kelishi risklarini pasaytirib, zaxiralar shu bilan bir paytda korxonaning moliyaviy resurslarini muzlatib qo'yadi. Umumiy logistika xarajatlarining 20%dan 60%gachasini tashqil qiladigan zaxiralar darajasini yaratish va qo'llab-quvvatlash xarajatlarining kattaligi bu asosiy funksiyaning muhim ekanligini ta'kidlaydi;
- logistika strategiyalari bilan bog'langan tayyor mahsulot narxining asosini tashqil qiladigan umumiy logistika xarajatlari darajasini belgilab beradigan funktsiya sifatida narx shakllantirish;
- mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazishni boshqarish jarayoni sifatida jismoniy taqsimlash. Ta'kidlash joizki, g'arb adabiyotlarida haligacha ushbu kompleksli logistika funksiyasi

⁷ А.В.Тебекин «Логистика» учебник. Москва. Изд. «Дашков и К» 2018 г

haqida munozaralar davom etadi. Ayrimlar uni logistikaning deyarli sinonimii deb hisoblaydi, boshqalar esa uni «distribyutsiya» tushunchasining o'rniga qo'llaydi. Bu muhokama logistika konsepsiyasi evolyutsionligiga qoldiq reaksiya hisoblanadi. Turli yondashuvlarni hisobga olib, quyidagicha ta'rif berish mumkin: *jismoniy taqsimlash* bu – kompleksli logistika funksiyasi bo'lib, distribyutsiya jarayonining bir qismi sanaladi hamda ishlab chiqaruvchilar va (yoki) logistika vositachilarining tovar o'tkazish stryukturalarida tayyor mahsulot saqlash va jismoniy harakatlantirish bilan bog'liq barcha logistika operatsiyalarini qamrab oladi.

Ko'makchi logistika funksiyalari qatoriga odatda quyidagilar kiritiladi:

- omborga joylashtirish - zaxiralarni joylashtirish kabi vazifalar bajarilishini ko'zda tutadigan, makonga oid joylashtirishni boshqarish: omborlar soni, turi va joylashuvini aniqlash; tayyor mahsulot va moddiy resurslar saqlash hajmi (maydoni)ni aniqlash; zaxiralarni joylashtirishni rejalashtirish; transport vositasida tashish, saralash, yuklash-tushirish hududlarini loyihalashtirish; yuklash-tushirish va boshqa ombor asbob-uskunalarini tanlash va h.k.;
- yuklarni qayta ishlash – odatda yuklarni ombor bo'ylab harakatlantirishni tashqil qilish uchun texnologik asbob-uskunalar, yuklash-tushirish asbob-uskunalarini tanlash; buyurtmalarni bajarish va transport vositasida tashish uchun yuklarni saralash, bir erga to'plash va butlash jarayonlarini tashqil qilish; omborning ratsional aylanma hajmini qo'llab-quvvatlash va h.k. bilan bog'liq bo'lgan elementar logistika operatsiyalari yig'indisi (moddiy resurslar yoki tayyor mahsulotni omborda harakatlantirish, mahsulotni ombor peshtoklarida joylashtirish va h.k.);
- o'rab-qadoqlash modullarini transport vositalarining yuk sig'imi bilan, shuningdek, ombor binolarining texnologik ko'rsatkichlari va yukni qayta ishlash asbob-uskunalarini bilan muvofiqlashtirish hisobiga

logistika xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan funktsiya sifatida himoya o'rovi (upakovka);

- sotuvdan keyingi servis majmui jarayoni sifatida tovarning qaytarilishi ta'minlash;
- ehtiyot qismlar bilan ta'minlash va servis xizmatlari ko'rsatish;
- mikro- va makrologistika darajasida axborot-kompyuter ko'magi.

Logistika operatsiyalari va funktsiyalari boshlang'ich shartlar, tashqi muhit ko'rsatkichlari, muqobil strategiyalar, maqsadli funktsiya tavsifnomalari bilan belgilab beriladi. Logistika operatsiyalari va funktsiyalari hajmini aniqlash uchun korxonaga quyidagi omillarni hisobga olishi lozim:

- tarmoq omillari – iste'mol qilinadigan materiallar va butlovchi qismlar nomenklaturasi, gabariti va vazni; moddiy resurslar ta'minotchilari soni; moddiy resurslarni kompleksli ravishda yetqazib berish bilan shug'ullanuvchi vositachi korxonalar mavjudligi; tayyor mahsulot oluvchilar soni va h.k.;
- mintaqaviy omillar – mintaqada mavjud bo'lgan tayyor mahsulot iste'molchilari va moddiy resurslar ta'minotchilari bilan aloqalar tizimi; mintaqada ichida tashuvlarni ta'minlash uchun ixtisoslashgan korxonalar mavjudligi va h.k.;
- ichki ishlab chiqarish omillari – tayyorlanayotgan mahsulot gabaritii va vaznini; mahsulot ishlab chiqarish hajmi; ishlab chiqarish turlarini aniqlash va h.k.

Ko'rib chiqilgan logistika faolliklari asosiy hisoblansada, lekin moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlar ustidan amalga oshirish mumkin bo'lgan harakatlar borasida uizl-kesil sanalmaydi.

3.3. Logistika tizimlari va bo'g'inlari

Moddiy oqimlarni ilgari surish bilan bog'liq logistika faolliklari amaliyotda qoidaga ko'ra, xilma-xil texnikalarni (transport vositalari, yuklash-tushirish qurilmalari va h.k.) qo'llagan holda malakali personallar tomonidan amalga

oshiriladi. Logistika jarayoniga jalb qilingan binolar va inshootlar, jarayon borishining o'zi unga tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu va boshqa tarkibiy qism yaxlitlangan tizim tarzda tashqillashtirilgan bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, agar moddiy oqimlar mavjud bo'lsa, doimo material o'tkazuvchi tizim ham o'z o'rniga ega bo'ladi. SHu sababli logistika uchun tayanch bo'lgan «Logistika tizimi» tushunchasini joriy qilish zarurati yuzaga keladi.

Logistika tizimi – bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, u yoki bu logistika funksiyalari yoki logistika operatsiyalarini bajaradigan moslashuvchan tizimdir.

Logistika tizimlariga, qoidaga ko'ra, ularni tahlil va sintez qilishga tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradigan murakkab (katta) asosiy jihatlar xos bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- ko'p sonli elementlar (bo'g'inlar) mavjudligi, alohida elementlar o'rtasida o'zaro aloqalar jarayoni ko'p omilliligi, ko'p pog'onali ma'murchilik tizimi, tashqil etish kuchlari va omillarining tashqi muhitga ta'siri kabi belgilar bilan tavsiflanadigan murakkablik;
- tarkiblanganlik – berilgan maqsadni amalga oshirayotgan boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlaridan iborat bo'lgan ma'lum bir tashqiliy stryuktura mavjudligi;
- ierarxik –chiziqli yoki funksional logistika boshqaruvi doirasida quyiroq pog'onadagi elementlarning yuqori pog'onadagi elementlarga bo'yso'nishi;
- emerjentlik – berilgan maqsadli funksiyaning alohida element yoki quyi tizimlar bilan emas, balki butun tizim tomonidan amalga oshirilishi.

Logistika chiqishda berilgan ko'rsatkichlar bilan moddiy oqimlarga ega bo'lgan uyg'unlashtirilgan, muvofiqlashtirilgan logistika tizimlarini loyihalashtirish vazifasini qo'yadi va hal etadi. Bunday tizimlarning asosiy farqi


ular tarkibidagi ishlab chiqarish kuchlarining muvofiqlik darajasi yuqori ekanligida bo'lib, bu boshdan-oxir moddiy oqimlarni boshqarish imkonini beradi.

Logistika tizimlarini makrologistika va mikrologistika turlariga ajratish mumkin (3.4-rasm).

Makrologistika tizimi deb foyda olish yoki biznesni tashqil qilishning qandaydir korporativ muammolarini hal etini maqsad qilib qo'ymaydigan va ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va shu kabi boshqa vazifalarni hal qilish uchun hududiy yoki ma'muriy-hududiy tuzilma darajasida tashqil etiladigan tizimni hisoblaymiz.

Makrologistika tizimlari quyidagicha tasniflanishi mumkin:

- globallik belgisi bo'yicha – davlat (transmilliy), davlatlararo (xalqaro), transkontinental tizimlar;
- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishi belgichi bo'yicha - tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o'lka, mintaqa, mintaqalararo, respublika, respublikalararo tizimlar;
- ob'ektli-funksional belgi bo'yicha – bitta yoki bir nechta tarmoq, idoraga qarashli, tarmoqlararo, savdo, harbiy, institutsional va h.k. korxonalar guruhlari.



3.4-rasm. Logistika tizimlari tasnifi

Makrologistika tizimlarini shakllantirish mezonlari umumiy logistika xarajatlari minimumi, shuningdek, ekologik, ijtimoiy, harbiy, siyosiy va boshqa maqsadlar bilan belgilanadi.

Masalan: mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash uchun yuk *tashuvlarini bitta transport turidan boshqasiga ko'chirib o'tkazish*, mintaqaviy transport (yuk) oqimlarini optimallashtirish makrologistika tizimi barpo etilishi mumkin.

Makrologistika tizimlarining namunaviy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: tarmoqlararo moddiy balanslar shakllantirish; alohida iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar belgilangan guruhlariga yo'naltirilgan ta'minot va mahsulot sotish shakllari va turlarini tanlash; berilgan hududda umumiy foydalaniladigan ombor komplekslari, yuk terminallari, dispetcherlik (logistika) markazlari joylashtirish; transport o'zellarida transport vositalari va transport turlarini tanlash; ko'p assortimentli moddiy oqimlar uchun ma'muriy - hududiy taqsimot tizimlarini optimallashtirish va h.k.

Mikrologistika tizimlari qoidaga ko'ra, belgilangan biznes tashqilotiga masalan, tovar ishlab chiqaruvchi korxonaga (tovar assortimenti) aloqador bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ular bilan bog'liq bo'lgan (axborot, moliya, servis) oqimlarni boshqarish va optimallashtirish uchun mo'ljallangan.

Mikrologistika tizimlari uch guruhga taqsimlanadi:

- ichki (ichki ishlab chiqarish) tizimlar – mahsulot ishlab chiqarishning texnologik tsikli doirasida moddiy oqimlarni boshqarishni optimallashtiradi. Optimallashtirish mezonlari odatda tayyor mahsulot sifati berilgan darajasini ta'minlagan holda ishlab chiqarish davri o'zunligining minimalligi va mahsulot tannarxining minimalligi hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, bunday tizimlar korxonaning ishlab chiqarish (struktura) bo'linmasigacha detallashtirilgan bo'ladi (tsex, uchastok, alohida ish o'rni).

Masalan: agar tayyor mahsulot chiqarish dasturi (ishlab chiqarish jadvali) berilgan bo'lsa, ichki ishlab chiqarish logistika tizimining asosiy vazifalari sifatida

quyidagilar namoyon bo'ladi: tugallanmagan ishlab chiqarish va moddiy resurslardan samarali foydalanish, korxonaning aylanma kapitali aylanish tezligini oshirish, ishlab chiqarish davri o'zunligini qisqartirish, ishlab chiqaruvchi korxonaning ombor tizimida moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralari darajasini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transporti ishini optimallashtirish;

- moddiy va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarni manbadan belgilangan manzilga (yakuniy shaxsiy yoki ishlab chiqarish iste'moliga) yetkazishda boshqarish va optimallashtirish vazifalarini hal etuvchi tashqi logistika tizimlari. Tizim bo'g'inlari moddiy resurslar ta'minotchilaridan ishlab chiqaruvchi korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalariga va uning tayyor mahsulot omboirdan yakuniy iste'molchilarga oqimlar harakatini ta'minlash bo'yicha logistika operatsiyalarini bajaruvchi ta'minot va taqsimot tarmoqlari elementlari hisoblanadi.

Masalan: bunday tizimlarning namunaviy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi: material o'tkazuvchi tarmoqlarda tayyor mahsulot va moddiy resurslar harakatini oqilona tashqil qilish; logistika tizimi alohida bo'g'inlarining logistika operatsiyalari bilan bog'liq xarajatlar va umumiy xarajatlarni optimallashtirish; moddiy resurslar va tayyor mahsulotni yetqazib berish va iste'molchilarning buyurtmalarini bajarish vaqtini qisqartirish; tayyor mahsulot va moddiy resurslar zaxiralarini boshqarish; yuqori servis sifatini ta'minlash;

- bozordagi strategik va taktik maqsadlarga erishish uchun moddiy, moliyaviy, axborot va servis oqimlarini boshqarishni optimallashtirish jarayonlarida zamon va makon omillarini to'liq hisobga olishni ta'minlash uchun korxonalar va uning logistika hamkorlari faoliyatini tashqil qilishni boshqarish integratsiyalangan, hal qiluvchi vazifalari.

Integratsiyalangan mikrologistika tizimi chegaralari moddiy resurslar xarid qilish va ta'minotni tashqil qilish, ichki ishlab chiqarish logistika operatsiyalari, tayyor mahsulotni iste'molchilarga sotish va sotuvdan keyingi servisni tashqil

qilishda taqsimot tizimida logistika operatsiyalari, ichki ishlab chiqarish logistika funksiyalarini o'z ichiga oladigan ishlab chiqarish-taqsimot (logistika) tsikli bilan belgilanadi. Bu jarayonlar hamrohlik qiladigan oqimlar bilan birgalikda logistika vositachilari va logistika tizimining ichki firma bo'g'inlari integral o'zaro aloqa qiladigan operatsion funksional logistika muhitini hosil qiladi. Bunday tizimlar shakllanishini belgilab beradigan mezon bo'lib ishlab chiqarish-taqsimot tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarish va umumiy logistika xarajatlarini minimallashtirish xizmat qiladi.

Ba'zida ichki ishlab chiqarish va tashqi logistika tizimlari integratsiyalangan logistika tizimining quyi bo'g'inlari deb hisoblanadi.

Ko'rib chiqilgandan tabiiy ravishda kelib chiqadiki, logistika tizimi ular o'rtasida ichki biznes maqsadlari va (yoki) tashqi maqsadlar bilan belgilangan funksional aloqalar va munosabatlar o'rnatiladi.

Logistika tizimi bo'g'ini deb belgilangan logistika operatsiyalari yoki funksiyalari vositasida o'zining lokal maqsadini bajaradigan logistika tizimibarpo etish doirasida yanada dekompozitsiya qilinishi lozim bo'lmagan, iqtisodiy va (yoki) funksional jihatdan alohida bo'lgan ob'ektga aytiladi.

Logistika tizimi bo'g'inlari quyidagi asosiy turlarga taqsimlanadi: moddiy va hamrohlik qiladigan oqimlarni *hosil qiluvchi*, *o'zgartiruvchi* va *singdiruvchi*, shuningdek, uchta asosiy bo'g'in turli birikuvda kombinatsiyalanadigan *aralash* bo'g'inlar. Logistika tizimi bo'g'inlarida moddiy va hamrohlik qiladigan oqimlar birlashishi, tarmoqanishi, maydalanishi, o'z mazmuni, ko'rsatkichlari va intensivligini o'zgartirishi mumkin.

Logistika tizimi ulardan iborat bo'lgan real bo'g'inlar quyidagilar bilan tavsiflanadi: xilma-xil mulkchilik shakllari va tashqiliy-huquqiy shakllar; faoliyat maqsadlari va xarakteridagi tafovutlar; ishlab chiqarish quvvati, ishlab chiqarishning markazlashuv darajasi, foydalanilayotgan texnologik asbob-uskunalar, iste'mol qilinayotgan resurslardagi farqlar; mehnat resurslari va texnika vositalarining katta hududda tarqoq holda joylashuvi; ekshududiylik va transport

vositlari harakatchanligining yuqoriligi; faoliyat natijalarining ko'p sonli tashqi omillarga bog'liqligi va b.

Bundan tashqari, hisobga olish zarurki, logistika tizimi bo'g'inlarining ko'pchiligi logistika boshqaruvi sub'ektlari va ob'ektlarining o'z tashqiliy-funksional va lokal optimallashtirish mezonlari bilan sintezi hisoblanadi. Logistika tizimi bo'g'inlari sifatida moddiy resurslar yetkazib beruvchi korxonalar, ishlab chiqarish korxonalari va ularning bo'linmalari, turli darajadagi savdo va vositachi tashqilotlar, transport va kspedpitorlik korxonalari, birjalar, banklar va oshq moliyaviy muassasalar, aloqa korxonalari va h.k. ishtirok etishi mumkin.

Tabiiyki, logistika tizimi mehnat resurslarini – barcha ketma-ketlikdagi operatsiyalarni bajaruvchi xodimlarni qamrab oladi. Bu logistika tizimida boshqaruv jarayonini ancha murakkablashtiradi va logistika tizimi bo'g'inlari harakatlarini muvofiqlashtirish va integratsiyalash uchun oliy boshqaruv organi tashqil qilish zaruratiga olib keladi.

3.4. Logistika zanjirlari

Logistikada u bo'ylab moddiy va axborot, moliyaviy va servis oqimlari ta'minotchidan iste'molchi tomon o'tib boradigan logistika zanjiri tushunchasi mavjud.

Logistika zanjiri – moddiy va hamrohlik qiladigan oqimlar bo'yicha chiziqli tartibga solingan hamda tashqi moddiy manbani bitta logistika tizimidan boshqasiga yoki yakuniy iste'molchiga yetkazish bo'yicha logistika operatsiyalarini amalga oshiruvchi logistika tizimi bo'g'inlari to'plami.

Eng oddiy logistika zanjiri ta'minotchi va iste'molchidan iborat bo'ladi. Murakkab logistika tizimlari daraxtsimon strukturaga yoki, masalan, yo'naltirilgan jadval ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Logistika zanjirining asosiy bo'g'inlari – materiallar, xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar xarid qilish va yetkazib berish; mahsulot va xomashyoni saqlash; tovarlar ishlab chiqarish; tayyor mahsulot omboridan tovarni jo'natish; tayyor mahsulot iste'moli hisoblanadi. Logistika tizimining har bir bo'g'inini o'z elementlarini qamrab oladi, birgalikda ular logistikaning moddiy asosini tashqil qiladi.

Integratsiyalangan logistika nuqtai nazaridan to'liq logistika zanjirlari tushunchasini ajratib ko'rsatish mumkin.

To'liq logistika zanjiri – moddiy resurslar ta'minotchisidan tayyor mahsulot yakuniy iste'molchisigacha logistika tizimi bo'g'inlari chiziqli tartibga solingan yig'indisi. Tabiiyki, real bozor sharoitlarida bunday zanjirlar amalda mavjud bo'lmaydi. Bu logistika vositachilarining ko'p sonli ekanligi, moddiy resurslar ko'p assortimentli ekanligi, taqsimot kanallari tarqoq ekanligi bilan asoslanadi. SHu sababli amaliyotda odatda «logistika kanali» tushunchasi ko'rib chiqiladi.

Logistika kanali – moddiy oqimlarni muayyan mahsulot turi (mahsulot assortimenti) ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar ta'minotchilaridan yakuniy iste'molchilargacha o'tkazadigan barcha logistika zanjirlari va ularning qismlarini o'z ichiga oladigan logistika tizimi bo'g'inlari tartibga solingan to'plami.

Logistika operatsiyalarini rejalashtirish va logistika tizimi elementlari darajalarini tahlil qilish zarurati uni makrologistika va mikrologistikaga ajratishni belgilab berdi.


Makrologistika ta'minotchilar va iste'molchilar bozorini tahlil qilish, tanlangan bozorda omborlarni joylashtirish, umumiy taqsimot konsepsiyasi ishlab chiqish, transport turi va transport vositalarini tanlash, transport jarayonini tashqil qilish, moddiy oqimlar oqlona yo'nalishlari hamda xomashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar etkazib berish punktlarini tashqil qilish, tovarlar yetqazib berish sxemialarini (tranzit yoki ombor) tanlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi.

Mikrologistika korxonada tovarlar harakatlanish jarayonlarini rejalashtirish, tayyorlash, amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha operatsiyalarni ta'minlab, alohida korxonalarining lokal vazifalarini hal qiladi.

Ta'kidlash joizki, agar makrologistika miqyosida tovar harakatlanishi jarayoni qatnashchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tovarlar oldi-sotdisi asosida amalga oshirilsa, mikrologistikada bu tovarsiz munosabatlarga asoslanadi.


Mikrodaraja va makrodarajada moddiy oqimlarni boshqarishga o'ziga xos logistika yondashuvlari ajratib ko'rsatiladi.

Makrodarajada moddiy oqim u orqali ketma-ketlikda o'tadigan zanjir bir nechta mustaqil korxonadan iborat bo'ladi. An'anaviy ravishda ularning har birini boshqarish alohida ravishda amalga oshiriladi va boshdan-oxir moddiy oqimni boshqarish vazifasi qo'yilmaydi va hal etilmaydi. Natijada tannarx, kelib tushish ishonchligi, sifat kabi oqim ko'rsatkichlari zanjirdan chiqishda ma'lum darajada tasodifiy yuzaga keladi va qoidaga ko'ra, optimallikdan uzoq bo'ladi (2.5-rasm).



3.5-rasm. Makrodarajada moddiy oqimlarni boshqarishga an'anaviy yondashuv

Logistika yondashuvida boshqaruv ob'ekti bo'lib boshdan-oxir moddiy oqim ishtirok etadi (3.6-rasm).




3.6-rasm. Makrodarajada moddiy oqimlarni boshqarishga logistika yondashuvi

Bunday yondashuvda material o'tkazuvchi zanjirning bo'g'ini bo'lgan korxonalar alohidaligi bartaraf etiladi, bu esa boshdan-oxir moddiy oqimni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarishni ta'minlaydi. Kerakli mahsulot kerakli joyga kerakli vaqtda kerakli miqdorda va kerakli sifatda kelib tushadi. Bunda


butun zanjir bo'ylab moddiy oqim harakati minimal xarajatlar bilan amalga oshiriladi.

Mikrodarajada moddiy oqim u orqali ketma-ketlikda o'tadigan zanjir bitta korxonaning funksional xizmatlaridan iborat bo'ladi. An'anaviy yondashuvda korxonada ichida boshdan-oxir moddiy oqimni yaratish vazifasi odatda xizmatlarning birontasi uchun ustuvor bo'lmaydi (3.7-rasm).



3.7-rasm. Mikrodarajada moddiy oqimni boshqarishga an'anaviy yondashuv

Logistika yondashuvida korxonada asosiy vazifasi tashqaridan kelib tushadigan, ta'minot xizmatining omborlari, ishlab chiqarish bo'linmalari, tayyor mahsulot omborlari orqali o'tadigan va so'gra iste'molchiga kelib tushadigan boshdan-oxir moddiy oqimlarni boshqarish hisoblangan xizmat ajratiladi va alohida huquqlarga ega bo'ladi. Natijada moddiy oqim ko'rsatkichlari boshqariladigan bo'linma



3.8-rasm. Mikrodarajada moddiy oqimni boshqarishga logistika yondashuvi

SHunday qilib, moddiy oqimlarni boshqarishga logistika yondashuvining an'anaviy yondashuvdan farqi quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ilgari tarqoq holda bo'lgan moddiy oqimlarni boshqarish umumiy funksiyasini ajratish;
- material o'tkazuvchi zanjirning alohida bo'g'inlarini boshdan-oxir moddiy oqimlar samraali boshqarilishini ta'minlaydigan umumiy tizimga texnik, texnologik, iqtisodiy va metodologik integratsiyalash.

3.5. Bojxona logistikasi asosiy ob'ektlarining mohiyati va tavsifnomalari

26 yanvar “Xalqaro bojxonachilar kuni” Jahon bojxona tashqiloti tomonidan “Bojxona sarhadlari boshqaruvini muvofiqlashtirish – manfaatdor tomonlarni birlashtirish uchun inklyo'ziv yondashuv!” shiori ostida nishonlanada. Ma'lumki, ushbu tashqilotning tarixi 1947 yildan boshlangan. Dastlab Yevropaning 13 ta davlatini o'zida birlashtirgan va Ishchi guruh tarzida faoliyatini boshlagan mazkur birlashma 1950 yilda Kengash tarzida faoliyat olib borish uchun o'z Konvensiyasini imzoladi. 1952 yilga kelib, mazkur Konvensiya kuchga kiritildi. 1953 yilning 26 yanvarida esa Kengashning Inauguratsiya sessiyasi bo'lib o'tdi. Bojxona hamkorligi kengashi (hozirgi Jaxon bojxona tashqiloti)ning 1993 yil 25 yanvardagi Qaroriga asosan har yili 26 yanvarda Halqaro bojxonachilar kuni dunyo bo'ylab keng nishonlanadi. 1994 yildan esa Kengash Jahon bojxona tashqiloti nomini oldi va unga hozirda 179 ga yaqin davlatlar a'zo hisoblanadi. Konvensiyaning 1952 yildan kuchga kirganini inobatga olsak, joriy yilda Jahon bojxona tashqiloti (WCO) - JBT tashqil etilganiga rasman 63 yil to'ldi.

Dunyo bo'ylab savdo aylanmasining 98% ulushi Jahon bojxona tashqilotiga a'zo davlatlar ulushiga to'g'ri keladi. JBT rasmiy tillari - ingliz va frantsuz tili, ba'zi qo'mitalarda ispan va rus tilidan ham foydalanadilar. JBTning yuqori organlari sifatida barcha a'zo mamlakatlarning rahbarlaridan iborat Kengash, 24 davlat vaqillarini o'z ichiga olgan Siyosiy komissiya va 17 mamlakat vaqillaridan iborat Moliya qo'mitasi faoliyat yuritadi. JBTning doimiy ishlaydigan organi - Kotibiyat Brusselda joylashgan bo'lib, unda 105 ta xodimlar, jumladan 68 davlatning doimiy vaqillari faoliyat yuritishadi. JBT qarorgohida narkotiklar va o'ta xatarli tovarlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda axborotlar

almashinuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi huquqni muhofvaza qiluvchi Markaziy tarmoq (CEN) tashqil etilgan bo'lib, u 11 ta mintaqaviy aloqa o'zeli (RILO) ni o'z ichiga oladi.

Jahon bojxona tashqiloti faoliyatida sohaga doir xalqaro konvensiyalar va bojxona ishining boshqa huquqiy normalarini ishlab chiqish, o'zgartirishlar kiritish va amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda JBTning Jahon savdo tashqiloti bilan hamkorligi a'lo darajada yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu orqali mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tijorat ayirboshlovini uyg'unlashtirishga erishilmoqda. Natijada, bugunga kelib barcha tovarlarni tashishga nisbatan qo'llaniladigan xalqaro qoidalar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Bojxona logistikasi tashqi savdo aylanmasi global makrologistika tizimlari shakllanadigan joyda, ya'ni bojxona organlari logistika zanjirlarining bo'g'iniga aylanadigan paytda vujudga keladi va o'ringa ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi savdoni boshqarish sohasi logistika tizimining shakllanishi tartibga soluvchi ta'siri ob'ektlar sifatida turli tizimli tuzilmalarni ajratib ko'rsatishni taqozo etadi. Hozirgi paytda mavjud bo'lgan tashqi savdo faoliyatini tartibga solish tizimi ko'plab bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatadigan elementlardan iborat. Ular qatoriga bojxona organlari va tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa organlarini, bojxona va tashqi savdo vositachilari, tovarlar eksportchi va importchilarining turli toifalarini kiritish lozim. TIFni davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

- boj-tarifi (iqtisodiy usul) orqali tartibga solish;
- notarif (noiqtisodiy yoki ma'muriy usul) tartibga solish;
- intellektual mulk va xizmatlar tashqi savdosi taqiqlari va cheklovlari;
- TIFning rivojlanishiga xizmat qiladigan iqtisodiy va ma'muriy xarakterdagi chora-tadbirlar.

Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan 285-XII-son «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi

qonun bilan belgilangan. TIF amalga oshirishda uning tashqi savdo oqim jarayonlari elementlari sanalgan barcha qatnashchilari o'z maqsadlarini amalga oshirishga intiladi. Buning oqibatida svaqt va moliya xarajatlarini minimallashtirish bilan bog'liq logistikaning asosiy maqsadi TIF sub'ektlarining o'ziga xos maqsadlariga o'zgaradi. SHunday qilib, TIFni tartibga solishda logistika yondashuvini qo'llash uning turli qatnashchilari iqtisodiy (va nafaqat) manfaatlarini eng to'liq muvofiqlashtirishiga xizmat qilishi lozim.

Bojxona logistikasi asosiy ob'ektlarini ajratib ko'rsatamiz:

- tashqi savdo sohasida logistika oqimining xususiy holati hisoblangan eksport-import tovar oqimlari;
- tashqi savdo oqim jarayonlari;
- bojxona operatsiyalari.

Tashqi savdo sohasida moddiy oqimning tovar oqimiga aylanishi uni eesportchidan importchiga bojxona chegarasi orqali yetqazib byevropa ittifoqishda albatta tovar-pul munosabatlaridan foydalanish shartligi bilan asoslanadi.

Eksport-import tovar oqimlari – ta'minotchtdan oluvchiga tomon harakat jarayonida hech bo'lmasa bir marta bojxona chegarasidan o'tadigan yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan hamda stryukturali ravishda bir-biri bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy va (yoki) tovar-nomoddiy boyliklar tartibga solingan to'plami.

Eksport-import tovar oqimlarining xarakatii optimallashtirishda, turli mamlakatlar bojxona chegaralari orqali tovarlar harakatini myukobillashtirishda TIFNi davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlari bilan tatbiq qilinadigan moliyaviy oqimga alohida ajratiladi.

To'lanishi lozim bo'lgan *bojxona to'lovlari* tashqi savdo sohasida moliyaviy oqimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O'zbekistonRrespublikasi bojxona kodeksida bojxona to'ovlari qatoriga quyidagilar kiritlgan: chetdan keltirilgan tovar moddiy boyliklari va transport vositalaridan va chet elga olib chiqib ketiladigan tovar moddiy boyliklari va transport vositalaridan olinadigan bojxona bojlari; tovarlarni

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishda olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i; tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirishda olinadigan; bojxona yig'implari. Davlat boj to'lovlari hajmi va turlarini belgilaydi ekan, shu tariqa eksport-import tovar oqimlarining hajmi, assortiment tarkibi va harakat yo'nalishlarini tartibga soladi. Boj to'lovlari oqimi tashqi savdo sohasidagi logistika moliyaviy oqimining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu qatorga shuningdek, tovarni yetqazib berganlik uchun bevosita savdo vositachilariga to'lovlar oqimi, sug'urta ajratmalari (sug'urta holati ro'y berganda esa sug'urta to'lovlari ham) oqimi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bojxona ishini logistikalash jarayonida *axborot oqimlari* bir tomondan, bojxona organlari butun faoliyati, jumladan, bojxona chegarasi orqali yuklarning harakatlanish oqimlarini ta'minlash, boshqa tomondan o'zlari logistikalash ob'ekti hisoblanadi, chunki bojxona rejimlarining asosiy qismi tovarlar va transport vositalarining jismoniy harakatlanishidan ko'ra ko'proq bojxona taomillarining bajarilishi bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni gap o'ziga xos axborot bojxona texnologiyalari ishlab chiqish haqida boradi.

Shunday qilib, butun bojxona organlari tizimi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining eng muhim sharti butun bojxona tizimi faoliyatini yaxlit tizimga birlashtirish va uni «yaxlit bir butunlik» tamoyili asosida boshqarish imkonini beradigan axborot tizimi mavjudligi hisoblanadi. Muammoning qo'lami haqida quyidagi ma'lumotlar ham dalolat beradi: 1996 yil yanvaridan to hozirgi paytgacha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi Markaziy ma'lumotlar bazasida 700 Gb dan ortiq axborot to'planib qolgan va mintaqaviy bazalarda yana shuncha axborot mavjud. Har yili qo'shimcha kelib tushadigan axborot hajmi 50-70 Gb ni tashqil qiladi.

Logistika jarayonlarini axborotlashtirish bojxona organlari tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun axborot sharoitlari yaratishni, uning tarkibiga ma'lumot qidirish, olish, saqlash, to'plash, uzatish, axborotni qayta ishlash, ma'lumotlar banki tashqil qilishning kiritilishini taqozo etadi. Namunaviy xalqaro savdo bitimini rasmiylashtirishda hujjat aylanmasi hajmini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, unda

o'rtacha 27 ta tomon ishtirok etadi. Ishtirokchilar 40 ta asl hujjat va 360 ta nusxa tayyorlashlari kerak. Hujjatlar tuzish bilan bog'liq xarajatlar bitim umumiy qiymatining 7-10%ini tashqil qilishi mumkin. Vaqt xarajatlari tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishga sarflanadigan vaqtga yaqin, ba'zida esa undan ham katta bo'ladi.

Bundan tashqari, bojxona organlari tizimida bevosita hujjat aylanmasi intensivlik darajasining yuqoriligi va oqim hajmining kattaligi (bir necha gigabayt), hujjatlar turlarining xilma-xilligi (yo'zga yaqin hujjat) va tizimning barcha ierarxik pog'onalarida murakkab texnologik jarayon bilan tavsiflanadi. Hujjat aylanmasining asosiy qismi bojxona yuk deklaratsiyalariga, me'yoriy-ma'lumotnoma axborot (MMA-NSI) ma'lumotlar to'plamini yuritish bo'yicha hujjatlarga, ichki bojxona tranziti (IBT-VTG) va xalqaro tashuvlar (XT-MDP) bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlarga, bojxona qiymati deklaratsiyalariga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, MMA-NSI ma'lumotlar bazasining o'zi xalqaro, umummamlakat, idora va tarmoq tasniflagichlari, bojxona qonunchiligi, bojxona xizmatining me'yoriy hujjatlari asosida shakllantirilgan 100 dan ortiq elektron ma'lumotnomalardan iborat.

Bojxona organlarining axborot resurslari davlat mulki hisoblanadi. Ularni shakllantirish va foydalanish tartibi, axborotni hujjatlashtirishga talablar bojxona ishi sohasida vakolatli ijroiya hyukumati organi tomonidan mamlakatning amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi.

Bugungi kunda *servis oqimlariga* alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning roli va ahamiyati O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida TIF qatnashchilariga nisbatan bojxona taomillari yuritish sifatini oshirish yondashuvining belgilab qo'yilishi, samarali bojxona nazoratini ta'minlagan holda tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvda vaqt sarflanishini qisqartirish tufayli yanada dolzarblashdi. Bojxona organlari ma'lum qilingan bojxona rejimlarini belgilab bermaydi, biroq TIF qatnashchilarini optimal rejimlar tanlashda rag'batlantirishi mumkin bo'ladi. Boshqa barcha shartlar bir xil bo'lganida to'g'ridan-to'g'ri uzoq muddatli xo'jalik aloqalari bojxona taomillarini

soddalashtirish, eng oqilona bojxona rejimlari tanlash imkonini beradi. Tovar oqimlari va ularga hamrohlik qiladigan oqimlarning bojxona chegarasi orqali harakatlanib o'tishida tashqi savdo (eksport va import) oqim jarayonlari vujudga keladi.

Xalqaro statistikada *eksport oqim jarayonlari* deganda quyidagilar tushuniladi:

- ushbu mamlakat hududida ishlab chiqarilgan (davlat hududida qazib olingan foydali qazilmalar; mamlakat hududida etishtirilgan yoki to'plangan o'simlik mahsulotlari; ushbu hududda tug'ilgan va o'stirilgan tirik jonivorlar va ulardan olingan mahsulotlar; ovchilik, baliqchilik yoki dengiz ovchiligi mahsulotlari va h.k.) yoki belgilangan mezonlarga muvofiq yetarli darajada qayta ishlangan tovarlarni olib chiqish;
- ilgari olib chiqilgan va ularni qayta ishlash bojxona nazorati ostida amalga oshirilgan tovarlarni bojxona hududiga olib kirish;
- ilgari bojxona hududiga olib kirilgan va hech qanday qayta ishlanmagan tovarlarni olib chiqish (reeksport).

Import oqim jarayonlari ostida quyidagilar tushuniladi:

- bojxona hududiga xorijiy tovarlar olib kirish;
- bojxona nazorati ostida qayta ishlash uchun tovarlar olib kirish;
- erkin bojxona hududlaridan (erkin omborlardan) tovarlar olib kirish;
- ilgari bojxona hududidan olib chiqilgan va qayta ishlanmagan tovarlarni olib kirish (ryevropa ittifoqimport).

Tashqi savdo sohasida oqim jarayonlarini tasniflash boshqa belgilar bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin, masalan, bojxona operatsiyalari turlari, tashqi savdo moliyaviy hisob-kitoblari turlari, tovar oqimlarining natural-buyum holidagi mazmuni bo'yicha.

Logistika nuqtai nazaridan eksport-import tovar oqimlarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishda yetakchirolni bojxona logistika taomillari egallaydi.

Bojxona logistika taomili – bojxona operatsiyalari amalga oshirish tartibini ko'zda tutadigan va bojxona maqsadlari uchun eksport-import tovar oqimlari maqomini belgilab beradigan qoidalar yig'indisi.

Xuddi logistika funksiyalari kabi bojxona logistika taomillari quyidagi tarzda tasniflanishi mumkin:

- 1) bazis funksiyalar:
 - bojxona rasmiylashtiruvi;
 - bojxona nazorati;
- 2) asosiy:
 - bojxona bojlari, soliqlar, antidemping, maxsus va kompensatsiya bojlari, bojxona yig'implari undirish;
 - ko'rsatilgan bojlar, soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqish to'g'riligi va to'lash o'z vaqtidaligini nazorat qilish;
 - ko'rsatilgan bojlar, soliqlar va yig'implarni majburiy undirish bo'yicha choralar ko'rish;
 - tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali harakatlanish tartibiga rioya qilishni ta'minlash;
 - kontrabanda va boshqa jinoyatlarga, bojxona ishi sohasidagi ma'muriy qoidabuzarliklarga qarshi kurash;
 - o'z vakolatlari doirasida valyuta operatsiyalari nazoratini amalga oshirish va b.;
- 3) ko'makchi funksiyalar:
 - omborga joylashtirish;
 - yuklarni qayta ishlash;
 - bojxona statistikasi yuritish;
 - mikrologistika va makrologistika darajasida axborot-kompyuter ko'magi;
 - bojxona ishi sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar reestrini yuritish va b.

Bojxona logistika operatsiyalari – TIF qatnashchilari va bojxona organlari tomonidan ularning bojxona chegarasi orqali jismoniy o'tishi jarayonida bojxona rasmiylashtiruvda amalga oshiriladigan eksport-import tovar oqimlariga nisbatan alohida harakatdir. Ular qatoriga quyidagi operatsiyalar kiradi, masalan, tovarlar va transport vositalarining bojxona hududiga kirib kelgani haqida ma'lumot va hujjatlar taqdim etish; tovarlarni yuklash va kelish manzilida tushirish; ichki bojxona tranziti taomili ostida joylashtiriladigan tovarlarni identifikatsiya qilish; tovarlarni vaqtinchalik saqlash omboriga joylashtirish; tovarlarga bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirish va b. Bojxona rejimlarini amalga oshirish bo'yicha bojxona operatsiyalari belgilangan ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi va bir-birini asoslab berishi bojxona taomillari oqimini tashqil qiladi.

Bojxona rejimi - eksport-import tovar oqimlariga nisbatan bojxona bojlari, soliqlar, taqiqlar va cheklovlar qo'llanish tartibini o'z ichiga oladigan talablar va shartlar yig'indisini belgilab beradigan bojxona taomilidir.

SHunday qilib, bojxona logistika taomillarini tashqil qilishni logistikalash bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv jarayonlariga nisbatan logistika metodologiyasini amalga oshirishni taqozo etadi hamda bojxona rejimlariga logistika yondashuvini tabiiq etish maqsadli yo'naltirilgan jarayonini ifodalaydi.

Bojxona logistika taomillari oqimlarining xilma-xilligi omillar yig'indisi, jumladan, tovar oqimlari xarakteri, bojxona rejimlari, boj tariflari, iqtisodiy siyosat choralari bilan belgilanadi. Eksport-import tovar oqimlarining 90%dan ortig'i moddiy shaklda tovar ayirboshlash bo'yicha xalqaro tijorat operatsiyalariga to'g'ri keladi. Bu quyidagi operatsiyalardir: xalqaro yuk tashuvlari bo'yicha operatsiyalar, transport-ekspeditsiya operatsiyalari, yuklarni sug'urta qildirish bo'yicha operatsiyalar, xalqaro tashuvlarda yuklarning saqlanishi bo'yicha operatsiyalar, xalqaro hisob-kitoblarni yuritish bo'yicha operatsiyalar.

Bojxona logistika taomillari oqimlarini ratsionallashtirish va optimallashtirish – bojxona ishini logistikalashning axborot texnologiyalaridan keng miqyosli foydalanishda ko'tilgan samarani olish, jumladan, yuklarning bojxona chegarasi orqali o'tish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni

ta'minlaydigan asosiy yo'nalishidir. Bojxona ishiga nisbatan logistika yondashuvi tamoyillarini umumiy va xususiy turlarga ajratish mumkin. Bojxona taomillarini logistikalash *umumiy tamoyillar* qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tizimlilik – bojxona taomillari oqimlarini shunday tashqil qilishki, bunda oqim o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldirib turadigan bo'g'inlardan iborat logistika zanjiri sifatida qabul qilinadi;
- komplekslilik – TIF qatnashchilariga bojxona taomillari bilan bog'liq butun xizmatlar kompleksini taqdim etish;
- ilmiylik – bojxona taomillari butun oqimini logistikalash jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlash;
- aniqlik, muayyanlik – TIF qatnashchilariga bojxona taomillarini tashqil qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning aniq manzilli ekanligi;
- konstruktivlik – TIF qatnashchilariga xizmat ko'rsatish optimal variantini ta'minlash maqsadida logistika tizimlari va logistika zanjirlarini dastlabki modellashtirish;
- ishonchlilik – bojxona taomillari texnik-texnologik va tashqiliy-iqtisodiy quyi tizimlari faoliyati to'xtamasligi, buzilmasligi;
- variantlilik – TIF qatnashchilari uchun ularning fikriga ko'ra eng optimal bo'lgan bojxona taomillari variantini tanlash imkoniyatlarini kengaytirish.

Maxsus tamoyillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- ierarxik – mamlakatda bojxona ishini boshqarish ierarxiyasini hisobga olgan holda logistika tizimlarini shakllantirish;
- subordinatsiya – bojxona taomillari qatnashchilari bo'lgan bojxona organlarida qat'iy belgilangan teng huquqda bir joyga bo'ysotilishi mavjudligi;
- qonuniylik – barcha bojxona taomillarining aniq huquqiy ta'minlanishi.

SHunday qilib, bojxona ishida eksport-import tovar oqimlarini boshqarishga logistika yondashuvi an'anaviy yondashuvdan shunisi bilan tubdan farq qiladiki, u maksimal erishish mumkin bo'lgan umumiy foydali samaraga erishish uchun bojxona tamoyillarini amalga oshirish jarayonida barcha TIF qatnashchilarining optimal tashqil qilingan o'zaro aloqa tizimini ifodalaydi. Bunda logistika harakatlari *ob'ekti* bojxona logistika taomillari, *sub'ektlari esa* – tashqiliy-huquqiy maqomidan qat'i nazar barcha TIF qatnashchilari hisoblanadi.


Bojxona logistika tizimi (BLT-TLC) – bir nechta quyidagi tizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, belgilangan bojxona taomillarini bajaradigan, tashqiliy turdagi moslashuvchan tizim.

BLTlar TLS maqsadi – bojxona taomillarini amalga oshirish jarayonida vaqt va zaxiralar sarfini qisqartirish uchun teng taqsimlash va optimallashtirish xarakati eksport-importga mo'ljallangan tovar oqimlarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishni muvozanatlashtiradi. Bunday tizimlar ierarxik bo'ladi, chunki ularning asosiy elementi belgilangan darajadagi bojxona tizimi hisoblanadi. Bojxona ishida mikrologistika va makrologistika tizimlari ajratiladi.

Mikrologistika tizimida oqimlar jarayoni birinchi navbatda, tovar oqimlarining bojxona chegarasi orqali jismoniy o'tishi bilan ifodalanadi. Tizimli butunlik logistika zanjiri bo'g'inlarining o'zaro aloqalari jarayonida vujudga keladi. Tashqi savdo faoliyatining alohida sub'ektlari o'zaro aloqalarida xo'jalik aloqalari o'rnatib, shu tariqa logistika zanjirlarini hosil qiladi. Logistika zanjirining asosiy bo'g'inlari quyidagilar hisoblanadi:

- bojxona organlari*,
- tashqi savdo faoliyati qatnashchilari (deklarantlar*),
- transport tashqilotlari, shuningdek,
- bojxona vositachilari
- bojxona brokerlari*,
- bojxona tashuvchilari*,
- vaqtinchalik saqlash omborlari va bojxona omborlarining egalari.


Eksport-import tovar oqimlarining jismoniy harakatlanishi To'g'ridan-to'g'ri tovar harakatlanish kanallari bo'yicha ham, turli vositachilar ishtirokidagi bilvosita kanallar bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Quyidagi rasmda ko'rsatilgan to'g'ridan-to'g'ri kanal tashqi savdo tovar oqimlari harakatlanishining eng oddiy sxemasini amalga oshiradi: eksportchi – bojxona organi – vaqtinchalik saqlash ombori – importchi.



3.9-rasm. Eksport-import tovar oqimlari harakati to'g'ridan-to'g'ri kanallari

Bilvosita kanallar tashqi savdo tovar oqimlari harakatlanishi turli sxemalarini amalga oshiradi (2.10-rasm), masalan, eksportchi – bojxona brokeri – bojxona organi – vaqtinchalik saqlash ombori – bojxona tashuvchisi – importchi;

- importchi – bojxona organi – vaqtinchalik saqlash ombori – bojxona tashuvchisi – eksportchi; eksportchi – bojxona organi – vaqtinchalik saqlash ombori – bojxona tashuvchisi – importchi va h.k.



3.10-rasm. Eksport-import tovar oqimlari harakati bilvosita kanallari

Mikrologistika BLT lar TLS elementlari (quyitizimlari) stryukturasi eksport-import operatsiyalari xarakteri, qo'llanadigan bojxona rejimlari va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Asosiy elementlar quyidagilar hisoblanadi:

- yuk jo'natuvchi – bu ko'pincha mahalliy tovarlar eksportchisi bo'ladi;
- bojxona hududi doirasida tovarlar tashishni ta'minlaydigan transport tashqiloti;
- bojxona organi – bojxona taomillari zanjiridagi asosiy bo'g'in;
- yuk oluvchi – bu asosan iportchi bo'ladi;
- yuk jo'natuvchiga va yuk oluvchiga yuklarni bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan bojxona brokeri;
- tovarlarni bojxona chegarasi orqali tashish va (yoki) bojxona hududi doirasida bojxona nazorati ostida tashishni amalga oshiradigan bojxona tashuvchisi;
- belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq eksport-import tovar oqimlarini saqlash funksiyalarini bajaradigan bojxona ombori.

Eksport-import tovar oqimlari jismoniy harakatlanishi axborot ta'minoti BLTlar TLS to'g'ri va qaytuvchan aloqasini amalga oshirib, uning moslashuvchanligini ta'minlaydi. Mikrologistika BLTlar TLS, xuddi boshqa har qanday logistika tizimi kabi, quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- bir-biri bilan reglament bo'yicha ham, ko'gilli (o'zaro manfaatli) asosda ham o'zaro aloqa qiladigan to'laqonli elementlar yig'indisini ifodalash;
- o'z tarkibiga ular o'rtasida tizimning integrativ sifatlarini belgilab beradigan jiddiy aloqalar bo'lgan elementlarni kiritish, ya'ni bironta element tizimli to'la-to'kislik tufayli vujudga keladigan tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati bo'yicha mikrologistika tizimli xususiyatlariga ega bo'lmaydi;
- tartibga solingan tashqilotga ega bo'lish, bunda tashqil qiluvchi asoslar bojxona organiga tegishli bo'ladi;

- TIF qatnashchilari manfaatlari bir-biri bilan bog'lanishini ta'minlash.


Makrologistika bojxona tizimi globallik belgisi bo'yicha davlat bojxona tizimi sifatida tasniflanishi mumkin. uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi – bojxona taomillarini logistikalashni bevosita boshqarishni ta'minlaydi;
- mintaqaviy bojxona boshqarmalari – mamlakat mintaqalarida eksport-import tovar oqimlarini bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati makrologistika tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi;
- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi – bojxona taomillarini logistikalash talablarini hisobga olgan holda davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirishda ishtirok etadi;
- O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi – boj to'lovlarini hisoblab chiqish va undirish, bojxona qiymatini aniqlash taomillarini belgilab beradi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – eksport-import tovar oqimlarining bojxona chegarasi orqali o'tishini valyutaga oid tartibga solish bojxona taomillarini belgilab beradi;
- Bojxona taomillari bilan nazorat funksiyalarini logistik bog'lash jarayonida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan davlat hokumat organlari (O'zbekiston Respublikasi chegara xizmati, milliy xavfsizlik xizmati va b.);
- Bojxona taomillarini amalga oshirishda harakatlar nizosizligi va muvofiqligi tamoyillarini shakllantirishda ishtirok etadigan jamoat tashqilotlari va boshqa birlashmalar.

Makrologistika tizimining strukturali sxemasi quyidagi rasmda aks ettirilgan.

Makrologistika tizimlarini yaratish dolzarbligi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining tobora o'sib borayotgan hajmlari, shuningdek, mamlakat

iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalash ob'ektiv ehtiyoji bilan asoslanadi. Amaliy tajribaning ko'rsatishicha, jahon bozorida tovar oqimlarini harakatlantirish bo'yicha operatsiyalar ichki savdo sohasida milliy bozorda xuddi shunga o'xshash operatsiyalardan ko'ra ancha murakkab va qimmat hisoblanadi. Xususan, xalqaro ayriboshlash sohasida tovar oqimlarini harakatlantirish xarajatlari eksport-import mahsulotlarni sotish qiymatining 25-35%ini tashqil qiladi, ichki bozordagi xuddi shu kabi xarajatlar esa yuklab jo'natish uchun mo'ljallangan tovarlar qiymatining 8-10%idan oshmaydi.



3.11-rasm. Makrologistika bojxona tizimining stryukturali sxemasi

Ekspertlar baholariga ko'ra, logistika boshqaruvi usullarini qo'llash mahsulot harakatlanish vaqtini 25-30%, iste'molchilardagi mahsulot zaxirasi darajasini esa 30-50% qisqartiradi. SHu boisdan taxmin qilish mumkinki, bojxona ishida logistika yondashuvidan foydalanish tashqi savdo samaradorligini sezilarli oshirish hamda eskport-import tovarlarning bojxona chegaralaridan o'tishidagi vaqt va moliya xarajatlarini minimallashtirishni, shuningdek, tashqi savdo sohasining barcha sub'ektlari va davlatning iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan mexanizm yaratishga imkon beradi.

Bobga doir qisqacha xulosa

SHunday qilib, butun bojxona organlari tizimi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining eng muhim sharti butun bojxona tizimi faoliyatini yaxlit tizimga birlashtirish va uni «yaxlit bir butunlik» tamoyili asosida boshqarish imkonini beradigan axborot tizimi mavjudligi hisoblanadi. Muammoning qo'lami haqida

quyidagi ma'lumotlar ham dalolat beradi: 1996 yil yanvaridan to hozirgi paytgacha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi Markaziy ma'lumotlar bazasida 700 Gb dan ortiq axborot to'planib qolgan va mintaqaviy bazalarda yana shuncha axborot mavjud. Har yili qo'shimcha kelib tushadigan axborot hajmi 50-70 Gb ni tashqil qiladi.

Logistika jarayonlarini axborotlashtirish bojxona organlari tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun axborot sharoitlari yaratishni, uning tarkibiga ma'lumot qidirish, olish, saqlash, to'plash, uzatish, axborotni qayta ishlash, ma'lumotlar banki tashqil qilishning kiritilishini taqozo etadi.

Namunaviy xalqaro savdo bitimini rasmiylashtirishda hujjat aylanmasi hajmini tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, unda o'rtacha 27 ta tomon ishtirok etadi. Ishtirokchilar 40 ta asl hujjat va 360 ta nusxa tayyorlashlari kerak. Hujjatlar tuzish bilan bog'liq harajatlar bitim umumiy qiymatining 7-10%ini tashqil qilishi mumkin. Vaqt harajatlari tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishga sarflanadigan vaqtga yaqin, ba'zida esa undan ham katta bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Zamonaviy bozor muhitida logistika nimani ifodalaydi?
2. Moddiy oqim nimani ifodalaydi va uni qaysi asosiy xislatlar tavsiflaydi?
3. Boshqariladigan moddiy oqim qaysi hamrohlik qiladigan oqimlarni yuzaga keltiradi?
4. Logistika faolliklari tasnifining mazmunli jihatlarini ochib bering.
5. Makrologistika tizimlarining qaysi tasniflash belgilarini bilasiz?
6. Mikrologistika tizimlari qaysi vazifalarni hal qilishga imkon beradi?
7. Logistika tizimi bo'g'inlarining asosiy turlarini sanab bering.
8. Logistika kanali va logistika zanjiriga ta'rif bering.
9. Logistika tizimini makrologistika va mikrologistikaga ajratishning mohiyati nimada?

10. Mikrodarajada va makrodarajada moddiy oqimlarni boshqarishga logistika yondashuvlarining an'anaviy yondashuvlardan farqlaydigan o'ziga xosliklari nimada?

11. Bojxona logistikasi asosiy ob'ektlarini ajratib ko'rsating va ochib bering.

12. Bojxona ishiga nisbatan logistika yondashuvi tamoyillarini ifodalab bering.

13. Bojxona logistika tizimining o'ziga xosliklari nimada?

14. Bojxona logistikasida eksport-import tovar oqimlari moddiy logistika oqimlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Asosiy atama va ta'riflar

Autsorsing – ilgari mustaqil ravishda bajarilgan ishlab chiqarish faoliyati ayrim funksiyalari yoki turlarini (asosiy, yordamchi yoki xizmat ko'rsatuvchi jarayonlar) tashqilot doirasidan chetga chiqarish yoxud chet tashqilotlar tomonidan umumiy biznes tizimining bir qismi sanalgan biznes jarayonlarning amalga oshirilishi.

Vertikal integratsiyalangan logistika tizimi (VILS) – umumiy tizim sifatida harakat qiladigan bitta yoki bir nechta ulgurji yoki chakana savdogar, ta'minotchi, ishlab chiqaruvchilar yig'indisi bo'lib, bunda kanal a'zolarining biri yoki qolganlarning xo'jayini hisoblanadi, yoki ularga savdo imtiyozlari taqdim etadi, yoki ularning to'liq hamkorligini ta'minlaydigan kuchga ega bo'ladi.

Logistika faolligi – moddiy oqimga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshiradigan to'laqonli logistika tizimida ilova qilinadigan harakat.

Tayyor mahsulot – ushbu korxonada butun ishlab chiqarish tsiklidan o'tgan, to'liq butlangan, texnik nazoratdan o'tgan, omborga topshirilgan yoki iste'molchiga yuklab jo'natilgan mahsulot.

Zahira – berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan va yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yig'indisi.

Logistika tizimi bo'g'ini – ma'lum bir logistika operatsiyalari yoki funksiyalari bilan bog'liq o'z lokal maqsadini bajaradigan logistika tizimi barpo

etish doirasida boshqa dekompozitsiya qilinmaydigan, ma'lum bir iqtisodiy va (yoki) funksional jihatdan alohida bo'lgan ob'ekt.

Transport manbasi – tashuvlar vujudga keladigan punkt yoki rayon.

Logistika kanali – moddiy oqimlarni muayyan mahsulot turini (mahsulot assortimentini) ishlab chiqarish zarur bo'lgan moddiy resurslar ta'minotchilaridan yakuniy iste'molchilargacha yetqazib beradigan barcha logistika zanjirlari yoki ularning qismlarini o'z ichiga oladigan logistika tizimi bo'g'inlari tartibga solingan yig'indisi.

Taqsimot kanali – tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika taqsimot kanali – muayyan tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika toifasi – logistika jarayonlari va hodisalarining muhim jihatlarini aks ettiradigan eng muhim logistika tushunchasi.

Logistika tizimi sifati – bu tizimning uni amalga oshirishda olingan natijalar bilan bog'liq xususiyatlari yig'indisi.

Marketing konsepsiyasi – rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonaning ishlab chiqarish-sotuv faoliyatini boshqarish haqida tasavvurlar tizimi.

Kon'yunktura – bozorda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, uni quyidagilar tavsiflaydi: talab va taklif o'rtasidagi nisbat, narxlar darajasi, tovar zaxiralari, buyurtmalar portfeli va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Xarid logistikasi – korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarish.

Ishlab chiqarish logistikasi – moddiy oqimlarni moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan yoki moddiy xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar ichida boshqarish.

Sotuv logistikasi – tashqi savdo tarmog'ida turli iste'molchilar o'rtasida moddiy oqim taqsimlanishini boshqarish.

Omborga joylashtirish logistikasi – zaxiralar bilan ta'minlash, buyurtmalarni qayta ishlash va jismoniy taqsimlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarish.

Axborot logistika tizimi – materiallar tayyor mahsulotga aylanadigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlar muomalada bo'ladigan, makro va mikrologistika darajasida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimi.

Lokal axborot tarmog'i – axborotni birgalikda qayta ishlash maqsadida stryukturali bo'linmalar o'rtasida axborot uzatish uchun aloqa liniyalari orqali bir nechta kompyuterni o'zaro birlashtirish.

Logistika operatsiyasi – menejment yoki qo'yilgan tadqiqot vazifasi doirasida dekompozitsiya qilinmaydigan, moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi, o'zgartirilishi yoki o'zlashtirilishi bilan bog'liq har qanday harakat.

Bojxona logistika operatsiyasi – tashqi savdo faoliyati qatnashchilari va bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, eksport-import tovar oqimlarini bojxona chegarasi orqali jismoniy o'tkazishda ularga nisbatan qo'llanadigan alohida harakat.

4-BOB. BOJXONA LOGISTIKASIDA ASOSIY MIKROLOGISTIK KONSEPSIYALAR VA TIZIMLAR

Logistikada bazaviy tushuncha logistika jarayoni – vaqt bo'yicha integratsiyalangan, kompleksli logistika faolliklari bilan bog'langan jarayonlar yig'indisi hisoblanadi.

Biznes-jarayonlarga nisbatan to'liq mikrologistika jarayoni iste'molchi tovarga (xizmatga) buyurtma bergan paytdan boshlab to uni olgan (xarid qilgan) paytgacha bo'lgan vaqt jarayonlarini qamrab oladi. Bojxona mikrologistikasida jarayon manfaatdor shaxslar va bojxona organlari tomonidan tovarlarni bojxona hududiga olib kirgan paytdan to ularni bojxona rejimi ostida joylashtirish paytigacha bo'lgan vaqtda amalga oshiriladigan barcha operatsiyalarni qamrab oladi.

Logistika jarayoni davom etishini optimallashtirish bojxona logistikasida eng muhim muammo hisoblanadi. Uni hal qilish uchun turli xildagi zamonaviy logistika konsepsiyalaridan foydalaniladi. Jahon amaliyotida «Aniq muddatida», «Ehtiyojlarlar resurslarni rejalashtirish», «Tejamkor ishlab chiqarish», «Talabga javob berish» kabi konsepsiyalar eng ko'p tarqalgan.

4.1. «Aniq muddatida» logistika konsepsiyasi

«Aniq muddatida» logistika konsepsiyasi (Just in Time - JIT) – zaxiralar bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtirish maqsadida detallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish iste'moli joyiga kerakli miqdorda va kerakli vaqtda yetqazib berish va zamonaviy ishlab chiqarish tizimi.

Konsepsiya moddiy resurslar yetqazib berish jarayonlarini ularga bo'lgan ehtiyoj bilan sinxronlash, ya'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotuvni muvofiqlashtirish g'oyasiga asoslanadi hamda ishlab chiqarishni bozorga chiqarilayotgan mahsulotga talab o'zgarishlari va texnologik liniyalardagi buzilishlar bilan izohlanadigan o'zgarishlarga moslashtirish imkonini beradi. Moddiy resurslarni logistika tizimining bo'g'ini (ishlab chiqarish) ularga ehtiyoj sezayotgan bir paytda kerakli miqdorda yetqazib berish tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uning sifatini oshirish bir maromdaligini ta'minlaydi, bunda


bo'shatiladigan ombor binolari esa boshqa maqsadlarda foydalaniladi. SHunday qilib, mazkur ishlab chiqarish va moddiy-texnika ta'minot texnologiyasi ortiqcha ishlab chiqarish va tovar zaxiralarini istisno qiladi, istiqbolda esa ularni bartaraf qilishni ko'zda tutadi.

Konsepsiyani amalga oshirish quyidagilarni ta'minlaydi:

- moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot minimal (nolga teng) zaxiralari;
- qisqa ishlab chiqarish jarayonlari;
- tayyor mahsulot ishlab chiqarish va zaxiralarni to'ldirish hajmi kichiqiligi;
- kam sonli ishonchli ta'minotchilar va tashuvchilar bilan moddiy resurslar xaridi bo'yicha o'zaro munosabatlar;
- samarali axborot ko'magi;
- logistika servisi va tayyor mahsulot sifati yuqoriligi.

JIT konsepsiyasi tamoyillaridan foydalanuvchi logistika tizimlari ularda tayyor mahsulot yoki moddiy resurslar zaxiralarini to'ldirishga buyurtmalar ularning logistika tizimi ma'lum bir bo'g'inlaridagi miqdori jiddiy darajaga etganda ro'y beradigan «Tortuvchi» tizimlarga (pull systems) mansub. Bunda zaxiralar distribyutsiya tizimida logistika vositachilaridan yoki moddiy resurslar ta'minotchilaridan taqsimot kanallari bo'yicha «Tortiladi».

Masalan: korxonada 10 ta birlik mahsulot tayyorlashga buyurtma oldi (3.1-rasm). Boshqaruv tizimi buyurtmani yig'uv tsexiga beradi. Yig'uv tsexi buyurtmani bajarish uchun A tsexdan 10 ta detal so'raydi. O'z zaxiralaridan 10 ta detal bergach, A tsex zaxiralarni to'ldirish uchun V tsexdan 10 ta takror buyurtma beradi. O'z navbatida, V tsex 10 ta detalni bergach, zaxiralarni tiklash maqsadida berib yuborilgan detallar sonini tayyorlash uchun xomashyo omboridan materialga buyurtma beradi. SHunday qilib, moddiy oqim har bir keyingi bo'g'in tomonidan tortilganday bo'ladi. Bunda alohida tsex personali optimal buyurtma hajmini belgilab beradigan o'ziga xos omillarni markaziy boshqaruv tizimidan ko'ra yaxshiroq hisobga olishi mumkin.



4.1-rasm. «Tortuvchi» tizimning funksional sxemasi:

_____ -moddiy oqim;-axborot oqimi

Tortuvchi tizim – ishlab chiqarishni tashqil qilish tizimi bo’lib, bunda detallar va yarim tayyor mahsulotlar oldingi texnologik operatsiyadan keyingisiga zarurat tug’ilganda beriladi, shu boisdan qat’iy ta’minot jadvali bo’lmaydi.

JIT konsepsiyasida talab xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulot harakatini belgilab beradi. Mazkur yondashuvni qo’llaydigan tizimlarda logistika jarayonlarining qisqa tarkibiy qismlari moddiy resurslar asosiy ta’minotchilarining tayyor mahsulot yig’ish yoki ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi asosiy korxonaga yaqinida markazlashuvdan dalolat beradi. Ta’minotdagi har qanday o’zilish ishlab chiqarish grafisini bo’zishi mumkinligi sababli ishlab chiqaruvchi korxonaga ta’minotning ishonchlilik darajasi yuqori bo’lishini ta’minlaydigan kam sonli ta’minotchilarni tanlab olishi lozim.

Moddiy resurslar yetqazib berish, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, yig’ish va iste’molchiga yetqazib berishning barcha jarayon va bosqichlarini sinxronlashtirishga asoslangan mikrologistika tizimlari bahorat qilish va axborotlar aniqligini talab qiladi. JIT texnologiyasini samarali amalga oshirish ishonchli telekommunikatsiya tizimlari va moslashuvchan axborot-kompyuter ko’magini taqozo etadi.

Zamonaviy JIT texnologiyalari va logistika tizimlari logistika ishlab chiqarish konsepsiyalari va taqsimot tizimlari turli variantlaridan, masalan, logistika kanallarida zaxiralarni minimallashtiruvchi tizimlar, tez o'zgaruvchi va zaxiralar darajasini tenglashtiruvchi logistika tizimlari, umumiy statistika nazorati va mahsulot sifati jarayonlarini boshqarish logistika tizimlaridan kombinatsiyalanadi. Bunday texnologiyalar hzirgi paytda JIT konsepsiyasining yangi versiyasi - JIT-II konsepsiyasiga kiritiladi.

JIT-II logistika konsepsiyasining asosiy maqsadlari integratsiyalangan logistika tizimida zaxiralar darajasini minimallashtirish, iste'molchilar so'rovlarini maksimal darajada qondirish uchun servis va mahsulot sifati yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan korxonaning barcha logistika funksiyalarini maksimal integratsiyalash hisoblanadi. JIT-II mafko'rasiga asoslangan tizimlar xaridorlar talabini oldindan aytib berish negizida guruh assortimentidagi tayyor mahsulotni kichiq hajmda chiqarish moslashuvchan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanadi.


JIT konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish Toyota Motor korporatsiyasi tomonidan 1972 yil «Takaxama» (Nagoya, YAponiya) zavodida amalga oshirilgan bo'lib, bu yerda «kanban» (yapon tilidan tarjima qilganda - karta) mikrologistika tizimi ishlab chiqilgan. «Kanban» tizimi ishlab chiqarishda «Tortuvchi» mikrologistika tizimlarining ilk bora amalga oshirilishini ifodalagan. Uni joriy qilishga Toyota Motor korporatsiyasi 10 yilga yaqin vaqt sarfladi, chunki «kanban» tizimi uchun mos keluvchi logistika muhiti talab qilingandi. Uning asosiy elementlari quyidagilar bo'ldi: ishlab chiqarishning muvozanatlanganligi va oqilona tashqil qilinganligi; ta'minotchilarda boshlang'ich moddiy resurslar sifati va ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida umumiy sifat nazorati; faqat ishonchli ta'minotchilar va tashuvchilar bilan hamkorlik qilish; personal mehnat intizomi va professional javobgarlikning yuqoriligi. Qayd etish joizki, amerikalik va yevropalik ishlab chiqaruvchilar logistika muhitining bu va boshqa omillarini hisobga olmasdan turib, «kanban» sxemasini avtomatik ravishda ko'chirib olish harakatlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

«kanban» tizimi – tez qayta qurishga qodir bo'lgan va amalda sug'urta zaxirasini talab qilmaydigan uzlyuksiz ishlab chiqarish oqimini tashqil qilish tizimidir.

Tizimning mohiyati shundan iboratki, korxonaning barcha ishlab chiqarish bo'linmalari, jumladan, yakuniy yig'uv liniyalari moddiy rsurslar bilan faqat iste'molchi bo'linma bergan buyurtmani bajarish uchun zarur bo'lgan muddatga va miqdordagina ta'minlanadi. SHu sababli ishlab chiqarishga an'anaviy yondashuvdan farqli ravishda ishlab chiqaruvchi stryukturali bo'linma ishlab chiqarish umumiy qat'iy jadvaliga ega bo'lmaydi, balki o'z faoliyatini ishlab chiqarish-texnologiya jarayonining keyingi bosqichida operatsiyalar amalga oshiruvchi bo'linma buyurtmasi doirasida optimallashtiradi. Tizimda axborot uzatish vositasi ikki turdagi – tanlash va ishlab chiqarish buyurtmasi turidagi «kanban» maxsus kartochkasi hisoblanadi. Tanlash kartochkasida bundan oldingi ishlab chiqarish uchastkasida olinishi lozim bo'lgan detallar (tarkibiy qismlar, yarim tayyor mahsulotlar) soni ko'rsatiladi, ishlab chiqarish buyurtmasi kartochkasida esa – bundan oldingi ishlab chiqarish uchastkasida tayyorlanishi lozim bo'lgan detallar soni. Bu kartochkalar korxonada ham, hamkor-korxonalar o'rtasida ham amal qiladi.

Masalan: A mahsulotga buyurtmani bajarishda konveyerning yig'uv liniyasida yig'ish uchun zarur bo'lgan a va b detallar bundan oldingi texnologiya bosqichida tayyorlangan bo'lishi lozim (3.2-rasm). a va b detallar konveyer bo'ylab ularning asosida tayyorlangan «kanban» buyurtma kartochkalari mahkamlangan maxsus konteynerlarda joylashtiriladi. Mahsulot tayyorlovchi yig'uv liniyasi ishchisi tanlov kartochkasi bilan detallarni omborga joylashtirish joyiga keladi. Detaillar solingan konteynerlarni belgilangan miqdorda olgach, u kartochkada mahkamlab qo'yilgan ishlab chiqarish bururtmasini olib tashlaydi va olingan detallarni «kanban» tanlov kartochkali yig'uv liniyasiga yetqazib beradi. Joyda qoldirilgan, olingan detallar sonini ko'rsatadigan ishlab chiqarish buyurtmasi kartochkalari bo'yicha yangi detallar ishlab chiqarishga buyurtma shakllanadi.

Detallarni omborga joylashtirish



4.2-rasm. «Tortuvchi» tizimning funksional sxemasi


«kanban» tizimi bo'yicha ishlashda ishlab chiqarish doimo sozlash bosqichida bo'ladi, chunki faqat keyingi uchastkalardagi iste'mol bilan belgilanadigan detallar minimal ishlab chiqarish zaxirasi foydalaniladi. Ishlab chiqarish rejasi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlarini hisobga olgan holda har kuni shakllantiriladi, biroq qog'oz shaklidagi axborot oqimi minimal - «kanban» kartochkalarigacha bo'ladi.

Mazkur tizim yordamida ishlab chiqarish bo'linmalarining uzlyuksiz ishlashi ta'minlanadi, har bir turdagi detallarga o'rtacha kundalik ehtiyoj bahorat qilinadi va hisoblab chiqiladi.

4.2. «Ehtiyojlar resurslarni rejalashtirish» logistika konsepsiyasi

Ko'p sonli mikrologistika tizimlari uning asosida ishlab chiqilgan va faoliyat ko'rsatayotgan eng ommaviy logistika konsepsiyalaridan biri «ehtiyojlarnilar resurslarni rejalashtirish» (Requirements Resource Planning- RP) konsepsiyasi hisoblanadi. RP konsepsiyasiga «Itaruvchi» turdagi logistika tizimlari asoslanadi (3.3-rasm). «Itaruvchi» turdagi mikrologistika tizimida detallar, tarkibiy qismlar, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ulardan tayyor mahsulot yig'ish qat'iy belgilangan ishlab chiqarish jadvali bo'yicha amalga oshiriladi. Moddiy resurslar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish logistika tizimining bitta bo'g'inidan boshqasiga «Itarib chiqariladi». Xuddi shu tarzda tayyor mahsulot distribyutiv tarmoqqa «Itarib chiqariladi».

Itaruvchi (itaribb chiqaruvchi) tizim – ishlab chiqarishni tashqil qilish tizimi boʻlib, unda detallar, tarkibiy qismlar va yarim tayyor mahsulotlar bundan oldingi texnologiya operatsiyasidan keyingisiga oldindan belgilangan qatʼiy ishlab chiqarish jadvaliga muvofiq beriladi.



4.3-rasm. «Itaruvchi» tizim sxemasi:

_____ -moddiy oqim,-axborot oqimi

«Itaruvchi» tizimning kamchiliklari – talabning aniq kuzatilmasligi va sugʻurta zaxiralari yaratish zarurati. Aynan ularning mavjudligi talabning oʻzgarishini hisobga olish va ishlab chiqarishdagi toʻxtalishlarning oldini olishga imkon beradi. Biroq zaxiralar saqlanishi korxonaning aylanma vositalari aylanish tezligini pasaytiradi, bu esa tayyor mahsulot tannarxini oshiradi.

RP konsepsiyasiga «Materiallarga ehtiyojlarni rejalashtirishlar resurslarga ehtiyojlarni ishlab chiqarishga oid rejalashtirish» (materiallar manufacturing requirementslar resource planning, MRP-Ilar MRP-II) bazaviy mikrologistika tizimlari asoslanadi.


MRP-I materiallarga ehtiyojlarni rejalashtirish tizimi qatʼiy belgilangan ishlab chiqarish jadvaliga muvofiq mahsulot ishlab chiqarishga va isteʼmolchilarning buyurtmalariga asoslanadi. MRP-I mualliflaridan biri boʻlgan amerikalik tadqiqotchi Dj. Orliski bergan taʼrifga koʻra, tizim tor maʼnoda vaqt boʻyicha sinxronlashtirilgan ishlab chiqarish jadvalini «Talablar zanjiri»ga oʻtkazuvchi talablar va qoidalarni hal qiluvchi mantiqiy bogʻlangan jarayonlardan

iborat bo'ladi. Ishlab chiqarish jadvali, zaxiralar strukturalari yoki mahsulot tavsifnomalarida o'zgarishlar ro'y berganda MRP-I tizimi talablarni ketma-ketligini qayta rejalashtiradi. MRP tizimi ularga talab o'ziga xos tayyor mahsulotga bog'liq bo'lgan materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yig'uv birliklari bilan ishlaydi. MRP tizimlarining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- iste'molchilarga yetqazib berish va ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yig'uv birliklariga ehtiyojni qondirish;
- moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot zaxiralari past darajasini qo'llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish operatsiyalari, yetqazib berish jadvali, xarid operatsiyalarini rejalashtirish.

Bu maqsadlarni amalga oshirish jarayonida MRP tizimi rejalashtirish omborlarda mahsulot zaxiralari va moddiy resurslar rejadagi miqdori oqimini ta'minlaydi. Tizim dastlab qancha va qanday muddatda yakuniy mahsulot ishlab chiqarish zarurligini, so'ngra – ishlab chiqarish jadvalini bajarish uchun talab qilingan moddiy resurslar miqdori va vaqt kerakligini aniqlaydi.

4.4-rasmda MRP-I tizimi strukturalari sxemasi aks ettirilgan. MRP-I tizimiga kirish ishlab chiqarish jadvaliga kiritilgan korxonada tayyor mahsulotga talab bahorati bilan mustahkamlangan iste'molchilar buyurtmalari hisoblanadi.



4.4-rasm. MRP-I materiallarga ehtiyojni rejalashtirish tizimi sxemasi

Moddiy resurslar haqidagi ma'lumotlar to'plami tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yig'uv birliklari va h.k. nomenklaturasi va asosiy ko'rsatkichlari (tavsifnomalar), shuningdek, chiqarilayotgan mahsulot birligiga moddiy resurslar sarfi me'yori va ularni ishlab chiqarish operatsiyalari uchun yetqazib berish muddatlari haqidagi barcha talab qilingan axborotlardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, ma'lumotlar to'plamida yakuniy mahsulotga munosabat bo'yicha va iste'mol qilinadigan moddiy resurslar bo'yicha alohida ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasidagi aloqalar identifikatsiya qilinadi.

Moddiy resurslar zaxiralari haqidagi ma'lumotlar to'plami tizimni va boshqaruv personalini korxonaning ombor xo'jaligida ishlab chiqarish, sug'urta va boshqa talab qilingan moddiy resurslar zaxiralari mavjudligi va ularning hajmi, shuningdek, ularning jiddiy darajaga yaqinligi va ularni to'ldirish zarurati haqida xabardor qiladi. Bundan tashqari, to'plamda moddiy resurslar yetqazib berish ko'rsatkichlari va ta'minotchilar haqida ma'lumot bo'ladi.

MRP-I tizimi dasturiy kompleksi moddiy resurslar va ularning zaxiralari haqida ma'lumotlar to'plamidan olinadigan kompleksli axborot va iste'molchilar talabini hisobga olgan holda shakllantirilgan, tizimlashtirilgan ishlab chiqarish jadvallariga asoslanadi.

Tizimning dasturiy modullari dastlab tayyor mahsulotga talabni boshlang'ich moddiy resurslar talab qilingan umumiy hajmiga qayta hisoblab chiqadi, so'ngra mos keluvchi zaxiralar darajasi haqidagi ma'lumotlar bo'yicha boshlang'ich moddiy resurslarga talablar zanjiri hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarish (yig'uv) uchastkalari uchun kiruvchi moddiy resurslar hajmiga buyurtmalar joylashtiriladi.


Pirovard natijada korxonaning ombor xo'jaligini va ishlab chiqarish uchastkalarini zarur moddiy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha qaror qabul qilish uchun ishlab chiqish hujjatlar to'plami shakllantiriladi. Hujjatlar namunaviy to'plami quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'minotchilardan buyurtma qilinadigan moddiy resurslarga nomenklaturasi, hajmi va vaqti bo'yicha ixtisoslashgan

talablar; ishlab chiqarish jadvaliga kiritish lozim bo'lgan o'zgarishlar; moddiy resurslarni yetqazib berish sxemalari, ta'minot hajmi va h.k.; moddiy resurslar, tayyor mahsulotga bekor qilingan talablar.

MRP-I tizimida materiallarga ehtiyojni rejalashtirish tizimlari keng nomenklaturadagi moddiy resurslar (ko'p assortimentli boshlang'ich moddiy oqimlar) bilan ishlashi mumkin. uzoq muddatli ishlab chiqarish jarayonlariga ega bo'lgan korxonalar uchun va talab noaniq bo'lgan sharoitlarda MRP-I tizimi JIT mikrologistika tizimiga qaraganda samaraliroq bo'ladi.

Xususan, agar moddiy resurslar xaridi va ishlab chiqarish operatsiyalarini boshqarish bo'yicha qarorlar qabul vaqti talab o'zgarishlari davriyligi bilan mos tushadigan bo'lsa, tizim to'liq logistika jarayoni davom etish muddatini qisqartirish va ortiqcha zaxiralarni bartaraf etishga erishish imkonini beradi.

MRP tizimi rivojlanishi natijasida moliyaviy rejalashtirish va logistika operatsiyalarini birlashtirgan va «MRP-II resurslarga ehtiyojni ishlab chiqarishga oid rejalashtirish» nomini olgan integratsiyalashgan mikrologistika tizimlari vujudga keldi. Bugungi kunda ushbu tizimlar logistika, marketing, ishlab chiqarish va moliyada korxonaning strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun samarali rejalashtirish vositasi sifatida ko'rib chiqilmoqda.



4.5-rasm. MRP-II resurslarga ehtiyojni ishlab chiqarishda rejalashtirish tizimining strukturali sxemasi

MRP-II strukturali sxemasi 4.5-rasmda aks ettirilgan. Bu yerda bazaviy tarkibiy qismlar sifatida MRP-I tizimining o'zi, talabni boshqarish va bahorat qilish bloki, ishlab chiqarish quvvatlarini ish bilan yuklash va ishlab chiqarish jadvalini hisob-kitob qilish bloki, buyurtmalarni joylashtirish va moddiy resurslar xaridini nazorat qilish bloki va dasturiy kompleksni tashqil etadigan boshqa bloklar namoyon bo'ladi. MRP-II tizimi MRP-I tizimi bilan taqqoslaganda qo'shimcha ravishda moddiy resurslar darajasi, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot hajmini tartibga solish va nazorat qilish vazifalari kompleksini hal qiladi.

Oxirgi yillarda alohida ko'rinishda bu tizimlarning har biriga xos bo'lgan kamchiliklardan xoli bo'lgan MRP-II-KANBAN kombinatsiyalangan tizimlari yaratish borasida harakatlar amalga oshirilmoqda.

MRP-III nomini olgan bu tizimlarda MRP-II tizimi talab, sotuv va xaridni rejalashtirish va bahorat qilish uchun, KANBAN tizimi esa – ishlab chiqarishni tezkor boshqarish uchun foydalaniladi.

4.3. «Tejamkor ishlab chiqarish» logistika konsepsiyasi

Hozirgi paytda ishlab chiqarishni tashqil qilishda JIT konsepsiyasini rivojlantirgan hamda KANBAN va MRP tizimlarini o'z ichiga olgan «tejamkor ishlab chiqarish» (Lean Production - LP) konsepsiyasi faol foydalanilmoqda. LP konsepsiyasining mohiyati quyidagi tamoyillar bilan ifodalanadi:

- mahsulot yuqori sifatiga erishish;
- ishlab chiqarish vaqti va ishlab chiqarilayotgan mahsulot partiyalari hajmini kichraytirish;
- zaxiralar darajasi pastligini ta'minlash;
- yuqori malakali xodimlar tayyorlash;
- moslashuvchan ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish.

Konsepsiyada ommaviy ishlab chiqarish hajmi katta bo'lganda arzon tannarx hamda mahsulot xilma-xilligi va mayda seriyali ishlab chiqarish moslashuvchanligini uyg'unlashtirish g'oyasi amalga oshiriladi.

Tayyorlash va ishlab chiqarish bosqichida muddatlilari davom etish vaqti va partiyalar hajmini qisqartirish ishlab chiqarish umumiy vaqtini qisqartirish, bozor talabining o'zgarishlariga tezroq javob berishga imkon yaratadi.

Iste'molchi buyurtmasini bajarish uchun zarur bo'lgan minimal zaxiralarga yo'nalganlik ombor xo'jaligini zaruratini paydo qiladi. Ishonchli ta'minotchilar, xuddi JIT konsepsiyasidagi kabi, korxonani sertifikatlangan mahsulot bilan ta'minlaydi; ular bilan hamkorlik ta'minotning korxonaga logistika strategiyasiga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Umumiy ishlab chiqarish ko'magida texnologik asbob-uskunalarning uzlyuksiz tayyorlik holatiga erishiladi, uning ishdan chiqish hollari istisno qilinadi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanadi. Samarali ishlab chiqarish ko'magi va ishlab chiqarishning barcha darajalarida umumiy sifat nazoratining amalga oshirilishi (TQM umumiy sifat konsepsiyasi va ISO-9000 seriyali standartlar asosida) tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralarini minimum holatgacha qisqartirish imkonini beradi (ishlab chiqarish-texnologiya uchastkalari o'rtasida bufer zaxiralar). Bu vazifalarni amalga oshirish barcha darajadagi xodimlardan yuqori darajadagi kasbiy mahorat talab qiladi.

LP konsepsiyasini amalga oshirida asosiysi oddiy ommaviy ishlab chiqarishning «foydasiz» operatsiyalarini bartaraf qilish hisoblanadi.

Masalan: mahsulot tayyorlash va moddiy resurslar oqimlarini boshqarish jarayonida odatda beshta tarkibiy qism ajratib ko'rsatiladi:

- transformatsiya (T) – moddiy resurslar tayyor mahsulotga aylanadi;
- inspeksiya (I) – ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida nazorat qilinadi;
- yetqazib berish (D) – moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotni transport vositasida tashish;
- omborga joylashtirish (S) - – moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotni saqlash;
- to'xtalishlar (3) – ishlab chiqarish jarayonining to'xtalib qolishi.

4.6-rasmda keltirilgan sxemalarni taqqoslashdan ko'rinib turibdiki, omborga joylashtirish va ishlab chiqarish jarayonida kutish kabi «foydasiz» operatsiyalarni bartaraf qilish noishlab chiqarish logistika xarajatlari va ishlab chiqarish jarayon o'zunligini sezilarli pasaytirishga olib keladi.

№	Ishlab chiqarish operatsiyasi	Jarayon an'anaviy oqimi					Jarayon LP-oqimi						
		T	I	D	S	Z	T	I	D	S	Z		
1	Moddiy resurslar olish			*					*				
2	Sinov					*							
3	Kirish nazorati		*										
4	Omborga transport vositasida tashish			*									
5	Moddiy resurslarni omborga joylashtirish				*								
6	Yig'ishga yetqazib berish			*					*				
7	Kutish					*							
8	Mahsulotni yig'ish	*					*						
9	Sifat nazorati		*					*					
10	Qadoqlash uchun yetqazib berish			*									
11	Kutish					*							
12	Mahsulotni o'rab-qadoqlash	*					*						
13	Omborga yetqazib berish			*					*				

4.6-rasm. «Tejamkor ishlab chiqarish» tizimida ishlab chiqarish jarayonining o'zgarishi (transformatsiya)

Logistika tizimining LP konsepsiyasi tamoyillari bo'yicha faoliyat ko'rsatishi natijasida tayyor mahsulot sifati yuqori standartlariga, ishlab chiqarish xarajatlar pastligiga, asbob-uskunalarning tez qayta sozlanishi va bozor talablariga o'z vaqtida javob qaytarishiga erishiladi.

4.4. «Talabga javob qaytarish» logistika konsepsiyasi

Ishlab chiqarish logistikasi amaliyotida «Talabga javob qaytarish» (Demand-driven Techniques - DDT) logistika konsepsiyasining turli variantlari keng qo'llaniladi. Bu konsepsiya asosan talab o'zgarishiga javob qaytarishni yaxshilash maqsadida MR konsepsiyasining modifikatsiyasi sifatida ishlab chiqilgan.

DDT konsepsiyasi talabning o'sishi bahorat qilingan bozor nuqtalarida zaxiralarni tez to'ldirish yo'li bilan talab o'zgarishiga javob qaytarish vaqtini maksimal darajada qisqartirishga imkon beradi, integratsiyalangan logistika zanjirining bo'g'inlari sifatida ishlab chiqaruvchilar, ulgurji va chakana sotuvchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi va muvofiqlashtiradi.

Logistika zanjiri qatnashchilari uchun mazkur konsepsiya afzalliklari quyidagilardan iborat:

- iste'molchilarning ehtiyojlari, buyurtmalar va tayyor mahsulot yetqazib berish jadvali haqidagi axborot taqsimotda zaxiralarni boshqarishni yaxshilaydi;
- savdo tarmog'idagi zaxiralar va sotuv hajmini bo'lish ishlab chiqaruvchiga ta'minotni aniqroq rejalashtirishga yordam beradi;
- ta'minotchilar iste'mol talabi o'zgarishlariga moslashuvchanroq javob qaytaradi;
- bozor monitoringi, ishlab chiqarish bo'linmalari, ombor binolarini joylashtirish haqida qaror qabul qilish jarayoni optimallashtiriladi;
- logistika zanjiri qatnashchilarining hamkorlik munosabatlari barqarorlashadi, bu xatarni kamaytiradi va logistika jarayonlari samaradorligini oshiradi.

Ishlab chiqarish logistikasi amaliyotiga nisbatan DDT konsepsiyasining eng mashhur varianti buyurtma berishlar qayta buyurtma berish nuqtasini aniqlash (Re-order Point - ROP) usuli hisoblanadi.

Buyurtma berish nuqtasi – zaxiralar holati ustidan nazorat tizimlarida foydalaniladigan, unga etganda navbatdagi buyurtmani tashqillashtirish zarur bo'lgan zaxiralar quyi chegarasini bildiradigan ko'rsatkich.

Usul qo'llanadigan soha – talab o'zgarishlarini tenglashtirish maqsadida sug'urta zaxiralari darajalarini aniqlash, optimallashtirish va tartibga solish.

Buyurtma berilgan paytda zaxiralar darajasi tovarlar yetqazib berishga buyurtma va buyurtma berilgan mahsulotni iste'molchining omboriga yetqazib berish o'rtasidagi davrda uzlyuksiz ishlashni ta'minlash uchun yetarli bo'lishi lozim, ya'ni logistika jarayoni davrida sug'urta buyurtmasi daxlsiz (tegilmasdan) turadi.

ROP usuli samaradorligi sezilarli darajada talabni bahorat qilish aniqligiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari har bir sotuv nuqtasida talab tezkor monitoringini amalga oshirish, aniqroq bahoratlar qilish imkonini beradi, bu esa konsepsiyaning amaliyotda faol qo'llanishini ta'minlaydi.

«Talabga javob qaytarish» logistika konsepsiyasi doirasida shuningdek, quyidagilar amalga oshiriladi: «tez javob qaytarish» (Quick Response - QR) mikrologistika konsepsiyasi, «zaxiralarni uzlyuksiz to'ldirish» (Continuous Replenishment - CR) mikrologistika konsepsiyasi, «zaxiralarni avtomatik to'ldirish» (Automatic Replenishment - AR) mikrologistika konsepsiyasi.

QR konsepsiyasi taxmin qilinayotgan talab o'zgarishlariga javoban taqsimot tarmoqlarida tovarlar va xizmatlar harakatini yaxshilash maqsadida vertikal integratsiyalangan logistika tizimi (VILS) barcha qatnashchilarini logistikk muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya sotuv hajmini monitoring qilish va bu axborotlarni barcha VILS qatnashchilariga yetkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Axborot ko'magi «Tez javob qaytarish» jarayonini taqsimot logistika kanali qatnashchilari (ulgurji va chakana savdogarlar, ishlab chiqaruvchilar) o'rtasida taqsimlash bilan ta'minlanadi. Masalan, chakana savdogarlar ishlab chiqaruvchidan ishlab chiqarish davri o'zunligini 15 kundan 13 kungacha qisqartirishni, zaxiralarni to'ldirish davrini esa ulgurji savdogarlardan 6 kundan 3 kungacha qisqartirishni talab qilishi mumkin. Axborot kanallarini takomillashtirish VILS qatnashchilari moslashuvchan o'zaro aloqalari tufayli tayyor mahsulot yetqazib berish, ishlab chiqarish va zaxiralarni o'z vaqtida to'ldirish muddatlarida noaniqlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu konsepsiyani qo'llash tayyor mahsulot zaxirasini talab darajasigacha, lekin bozor ehtiyojlarini tez qondirish va bir vaqtning o'zida zaxiralar aylanish tezligini sezilarli oshirishga qodir bo'lgan hajmdan kam bo'lmagan darajada pasaytirish imkonini beradi.

CR konsepsiyasi QR konsepsiyasining modifikatsiyasi bo'lib, uning maqsadi chakana savdogarlarda tayyor mahsulot zaxiralarini uzlyuksiz to'ldirish bo'yicha samarali logistika rejasi belgilash natijasida tayyor mahsulot zaxiralarini to'ldirishga buyurtmalar zaruratini bartaraf qilish hisoblanadi. Chakana savdogarlarda sotuv hajmi va ulgurji savdogarlarda tayyor mahsulotni yuklab jo'natish haqidagi axborotlarni kundalik qayta ishlash asosida ta'minotchi (ishlab chiqaruvchi korxonaga) tovarlar assortimenti va miqdoriga zarur umumiy ehtiyojni hisoblab chiqadi.

So'ngra ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana savdogarlar o'rtasida xaridlar bo'yicha majburiyatlarni imzolash yo'li bilan tayyor mahsulot zaxiralarini to'ldirish bitimiga erishiladi. Ishlab chiqaruvchi (ta'minotchi) talabni bahorat qilish va sotuv hajmi haqidagi axborotni tahlil qilish asosida chakana savdogarlarning zaxiralarini bevosita yoki ulgurji savdogarlar orqali uzlyuksiz (yoki juda tez-tez) to'ldirib turadi. Hozirgi paytda boshdan-oxir fraxt yoki tayyor mahsulotni ulgurji savdogarlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri yetqazib berishdan faol foydalanilmoqda. «Zaxiralarni uzlyuksiz to'ldirish» konsepsiyasiga ko'ra, samarali faoliyat yuritish uchun ikkita asosiy shart bajarilishi lozim: a) tayyor mahsulotni ishonchli yetqazib berish va chakana savdogarlardan ishonchli axborot ta'minlash; b) mahsulot yuk birliklari hajmining transport yuk birliklariga maksimal darajada mos kelishi.

QR va CR konsepsiyalarini rivojlantiruvchi *AR konsepsiyasi* ta'minotchilarni (tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarini) tovar toifalari va tovar tavsifnomalari bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur qoidalar to'plami bilan ta'minlaydi. AR konsepsiyasini qo'llab, ta'minotchi zaxiralar darajasini baholash uchun tez sotiladigan tovarlar bitta-yarimta sotilishini kuzatish zarurati istisno qilinishi hisobiga taqsimot tarmog'i yakuniy bo'g'inlarining tovar toifasiga ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Tovar toifasiga javob qaytarish ta'minotchilarga

zaxiralar to'ldirish samaradorligi va moslashuvchanligini oshirish imkonini beradi, ularning zaxiralar darajasini talabga muvofiq ushlab turish va ta'minot ishonchliligi uchun javobgarligini oshiradi. VILS qolgan bo'g'inlari uchun AR konsepsiyasini joriy qilish natijasi belgilangan tovar toifasi uchun bozorda iste'molchilar talabini eng to'iq qondiradigan tarzda ishlab chiqilgan sug'urta zaxiralarini to'ldirish yo'li hisoblanadi.

4.5. Logistika tizimi faoliyatini baholash

Logistika tizimlari tuzish butun konseptual strukturasining asosida uning faoliyati sifat jihatlarini baholash yotadi.

Sifat deganda ularning darajasi faoliyat samaradorligini belgilab beradigan ko'rsatkichlar bilan asoslanadigan logistika tizimi ob'ektiv mavjud xususiyatlari yig'indisi tushunilishi mumkin. Bunda xususiyatlar deganda faqat uni amalga oshirish (qo'llash, foydalanish) jarayonida namoyon bo'ladigan tizim ko'rsatkichlarigina tushuniladi. Logistika tizimiga ob'ektiv ravishda xos bo'lgan, lekin amalga oshirish jarayonida namoyon bo'lmaydigan xususiyatlar qoidaga ko'ra, ko'rib chiqilmaydi.

Xususiyatlar ijobiy (masalan, moddiy yoki unga hamrohlik qiladigan oqimlar olish va qayta ishlashning yangi va samarali usullari mavjudligini ta'minlaaydigan) yoki salbiy (masalan, ekologik vaziyat, texnologiklik, xavfsizlikni yomonlashtiradigan) bo'lishi mumkin. SHu sababli logistika tizimi sifati bir vaqtning o'zida uning olingan natijalarga aloqador bo'lgan barcha (ham ijobiy, ham salbiy) xususiyatlarini hisobga oladigan tavsifnomaga ega bo'ladi.

Logistika tizimi sifati taxmin qilinayotgan logistika qarori potentsial jihatdan qanchalik samara berishi mumkinligi haqida axborot beradi. Bunda samarani aniqlashda logistika tizimining bitta xususiyatini (masalan, korxonada ichidagi unumdorligi yuqori bo'lgan alohida bo'g'inlar) emas, balki mikrologistika darajasida ham, makrologistika darajasida ham namoyon bo'ladigan butun xususiyatlar majmuini hisobga olish lozim. Boshqacha qilib aytganda, logistika tizimini tahlil qilishda nafaqat uni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlar, balki umumiy xarajatlarni belgilab beradigan xususiyatlar ham

hisobga olinishi lozim. SHu boisdan *integral sifatni* uni amalga oshirish natijalari va bu bilan bog'liq xarajatlar haqida axborot beradigan logistika tizimi eng umumiy tavsifnomasi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bugungi kunda logistika tizimi sifatini baholashning logistika tizimi stokxolderlarini (juda muhim xususiyatlarini) ajratishga qodir bo'lgan universal modeli mavjud emas. Biroq stokxolderlardan biri sifatida logistika tizimining foyda – xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalarining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi kabi xususiyatini taklif etish mumkin.

Foyda – tovarlar va xizmatlar sotishdan olingan daromadning shu tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan oshib ketishidir. Foyda xo'jalik faoliyati mahsulotini sotishdan olingan tushum va bu faoliyatning pul ifodasidagi ishlab chiqarish omillari xarajatlari summasi o'rtasidagi farq sifatida ta'riflanadi.

Tabiiyki, moddiy oqim harakatlanishi logistika zanjirida faqat foyda oladigan korxonalar ishtirok etadi, ya'ni ularning jarayonga jalb qilinishi iqtisodiy maqsadga muvofiqlik bilan izohlanadi. Masalan, agar iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri yetqazib berish bo'yicha mahsulot olish foydali bo'lsa, hech kim va hech qachon logistika zanjiriga ombor xo'jaligini qo'shmaydi. Agar iste'molchi mahsulotni ombor orqali olishdan manfaatdor bo'lsa, yangi iqtisodiy sharoitlar yuzaga keladi va ombor yaratishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi paydo bo'ladi, ya'ni foyda olish mumkin bo'ladi:

$$P_{obsh} \text{ q } V_{obsh} - I_{obsh}$$

bu yerda

P_{obsh} – balans foydasi (umumiy foyda);


V_{obsh} – yalpi (umumiy) tushum;

I_{obsh} – yalpi (umumiy) xarajatlar.

Logistika xarajatlari – logistika operatsiyalarini bajarish xarajatlaridir. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra ular ishlab chiqarish xarajatlari, transport xarajatlari, tovarlarni olib chiqish va jo'natish xarajatlari, saqlash xarajatlari va muomala xarajatlarini tashqil qiladigan boshqa tarkibiy qismlar bilan qisman mos tushadi.

Logistika xarajatlari umumiy ko'rinishda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- doimiy xarajatlar I_{post} – ular qatoriga qoidaga ko'ra, xizmat ko'rsatish va boshqaruv xarajatlari kiradigan moddiy oqim (MP) o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi;
- o'zgaruvchan xarajatlar I_{per} – moddiy oqimni bo'lish natijasida o'zgaradigan xarajatlar. Bu xarajatlarga misol qilib ishlab chiqarishga sarflanadigan xomashyo, texnologik ehtiyojlar uchun isitish, yoritish va elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari qiymati va h.k. keltirish mumkin;
- yalpi (umumiy) xarajatlar I_{obsh} – har bir muayyan logistika darajasida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar umumiy yig'indisi;
- o'rtacha xarajatlar $I_{sr\ obsh}$, $I_{sr\ post}$, $I_{sr\ per}$ – har bir muayyan logistika darajasida moddiy oqimning har birligiga xarajatlar o'rtacha miqdori;
- eng so'ngi xarajatlar ΔI_{obsh} – logistika operatsiyalari bajarish bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha xarajatlar.



4.7-rasm. Eng so'ngi, o'rtacha umumiy, o'rtacha o'zgaruvchan va o'rtacha doimiy harajatlarning moddiy oqimga bog'liqligi

4.7-rasmda moddiy oqim uchun o'rtacha va eng so'ngi xarajatlar grafiklari keltirilgan, ulardan kelib chiqadiki, birinchidan, moddiy oqim birligi uchun o'zgaruvchan xarajatlar belgilangan qiymatgacha pasayadi, so'ngra *kamayuvchi*


samara qonuni bo'yicha o'sa boshlydi, unga ko'ra belgilangan paytdan boshlab o'zgaruvchan mahsulot birligining (masalan, mehnatning) o'zgarmas qat'iy belgilangan resursga ketma-ketlikda (masalan, kapitalga) birikuvi o'zgaruvchan resursning keyingi har bitta birligiga hisoblaganda kamayuvchan qo'shimcha mahsulot beradi.

Ikkinchidan, eng so'ngi xarajatlar egri chizig'i o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar egri chizig'i va o'rtacha umumiy xarajatlar egri chizig'ini kesib o'tadi. SHunday qilib, eng so'ngi xarajatlar minimal o'rtacha xarajatlarga teng ekanligidan iborat bo'lgan *eng so'ngi va o'rtacha xarajatlar qoidasi* amalga oshiriladi. Bu qoidadan shu narsa kelib chiqadiki: agar eng so'ngi xarajatlar o'rtacha (umumiy yoki o'zgaruvchan) xarajatlardan kichiq bo'lsa, bu xarajatlar egri chiziqlari pastga yo'naladi; agar eng so'ngi xarajatlar o'rtacha (umumiy yoki o'zgaruvchan) xarajatlardan katta bo'lsa, mos keluvchi egri chiziqar yuqoriga qaratilgan bo'lishi lozim. SHunday ekan, eng so'ngi xarajatlar egri chizig'i o'rtacha (umumiy va o'zgaruvchan) xarajatlar egri chizig'ini ularning minimum nuqtalarida kesib o'tadi.

SHunday qilib, xarajatlarni bo'lgan holda optimal moddiy oqimni, optimal ishlab chiqarish xarajatlarini, optimal transport xarajatlari va logistika operatsiyalarini bajarish xarajatlarini tashqil qiladigan boshqa tarkibiy qismlarni aniqlash mumkin.

Tushum – xo'jalik faoliyati mahsulotini sotishda daromad sifatida olingan pul mablag'lari. Daromad qismini ko'rib chiqishda qoidaga ko'ra, *yalpi tushum* V_{obsh} – material oqimi birliklari har qanday miqdorini sotishdan olingan tushumlar umumiy miqdori ajratib ko'rsatiladi.


Daromadlar va xarajatlar qismini bo'lgan holda logistika tizimi sifatini baholashni amalga oshirish mumkin. Bu maqsadlar uchun turli usullar mavjud. Misol tariqasida maksimal foydani hisoblab chiqish imkonini beradigan V_{obsh} yalpi tushum va YA_{obsh} yalpi xarajatlarni taqqoslash grafik-tahlil usuli qo'llanishi mumkin.



4.8-rasm. Maksimal foyda olish uchun material oqimi hajmini hisob-kitob qilishning grafik-tahlil usuli


4.8-rasmda logistika tizimi sifatini tahlil qilish jarayonini tavsiflaydigan asosiy nuqtalar, 4.9-rasmda esa – o‘rtacha umumiy xarajatlar va A nuqta minimal o‘rtacha xarajatlarni, ya‘ni mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan foydani tavsiflaydigan eng so‘ngi daromad o‘zgarish dinamikasi ko‘rsatilgan.

Biroq korxonani $I_{sr\cdot obsh}$ -o‘rtacha xarajatlar egri chizig‘i ajratmaydigan umumiy olinadigan foyda maksimumi qiziqtiradi. SHu sababli qo‘shimcha mahsulot birligi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan eng so‘ngi xarajatlarni ko‘rib chiqish lozim. 4.10-rasmda o‘rtacha umumiy, o‘zgaruvchan va eng so‘ngi xarajatlar o‘zgarish dinamikasini tavsiflaydigan egri chiziqlar ko‘rsatilgan.




4.9-rasm. O‘rtacha umumiy xarajatlar va eng chetki (yuqori) daromadning o‘zgarish dinamikasi

Eng so'ngi xarajatlar doimiy xarajatlarga bog'liq emas, chunki doimiy xarajatlar qo'shimcha mahsulot birligi ishlab chiqarilishi yoki ishlab chiqarilmasligidan qat'i nazar mavjud bo'ladi. SHunday qilib, bitta o'zgaruvchi funksiyasi hisoblangan holda, eng so'ngi xarajatlar egri chizig'i eng so'ngi va o'rtacha xarajatlar qoidasini amalga oshiradi. Ikki chiziqsiz tenglamaning grafik-tahlil yechimi moddiy oqim optimal hajmi A nuqtasini beradi. Material oqimi qo'shimcha birligi ishlab chiqarish qo'shimcha xarajatlardan tashqari qo'shimcha daromadga ham olib keladi



4.10-rasm. O'rtacha umumiy, o'zgaruvchan va chetki xarajatlarning o'zgarish dinamikasi

ΔD eng so'ngi daromad va ΔI eng so'ngi xarajatlarni bo'lgan holda korxonaning muvozanat nuqtasini aniqlash mumkin (3.11-rasm):



4.11-rasm. Korxonaning muvozanat nuqtasini aniqlash grafik-tahlil usuli

Eng so'ngi xarajatlar va eng so'ngi daromadlar nisbati o'ziga xos belgi beruvchi tizim bo'lib, u korxonaga rahbariyatini ishlab chiqarish optimumi erishilgani yoki foydaning yanada o'sishini kutish mumkinligi haqida xabardor qiladi.

4.6. Bojxona amaliyotida mikrologistika tizimlari va konsepsiyalarini amalga oshirish istiqbollari

1989 yilda boshlangan iqtisodiy islohot erkin bozor tomon yo'nalish olib boshlagan mamlakat bojxona ishining rivojlanishida yangi bosqich ochib berdi. Bojxonani tartibga solish mexanizmida ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar 1991 yilga to'g'ri keladi, shunda tashqi savdoda davlat monopoliyasi bekor qilinishi va TIF qatnashchilari sonining kengaytirilishi ortidan chegara orqali o'tkaziladigan tovarlar va boshqa mulklarni albatta deklaratsiya qilish shartligi joriy qilingan.

Konseptual logistika yondashuvlariga nisbatan bojxona ishi amaliyoti bugungi kunda fragmentlash davri darajasida turibdi, ya'ni eksport-import tovar oqimlarini boshqarishda xarajatlarni kamaytirish integral vositasi sifatida logistika g'oyalari talab qilinmayapti, va holatki, ayrim logistika funksiyalari mamlakat bojxona chegarasi orqali o'tkazilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvchi va bojxona nazorati jarayonlarida xarajatlarni pasaytirish uchun foydalanilmoqda. Bojxona ishining hozirgi rivojlanishi logistika yondashuvi uning uchun asosiy hisoblanmagan bojxona organlari determinatsiya funksiyasi sifatida fiskal funksiyani ajratib ko'rsatishda bojxona ishini rivojlantirishning ekstensiv yo'lga yo'naltirilgan.

SHu bilan bir paytda bojxona logistikasi rivojlanishining tabiiy evolyutsiyasi bu bosqich – uning shakllanishi va rivojlanishi bazis shart-sharoitlarini shakllantirish bosqichisiz ro'y berishi mumkin emas. Ma'muriy islohotlar natijasida boj-tarif, soliqlar, taqiqlar va cheklovlar sohasida manfaatlar muvozanatini ta'minlash va idoralararo o'zaro aloqalarga kompleksli yondashuvni ko'zda tutadigan TIFni tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlari yangi tizimi barpo etildi.

1997 yil 29 avgustdan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi bojxona ishining jahon standartlariga javob beradigan huquqiy asoslarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Biroq ayrim muammolar haligacha hal etilmasdan turibdi, chunonchi:

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar va transport vositalarini mamlakat bojxona chegarasi orqali o'tkazishda bojxona qonunchiligiga rioya qilishni ta'minlaydigan usullar va vositalar yig'indisini ifodalaydigan bojxona ma'murchiligi salohiyati yetarli darajada samarali amalga oshirilmayapti;
- savdo-logistika texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan xalqaro standartlar to'liq foydalanilmayapti;
- bojxona organlarini narx shakllanishi, jahon mamlakatlarida savdo-sanoat ixtisoslashuvi, mehnat taqsimotidagi jahon tendensiyalari haqida xabardor qilish tizimi rivojlanmagan.

Ko'rsatilgan muammolar mavjudligi mamlakat bojxona organlarining ro'y berayotgan o'zgarishlarga davlat va jamiyat talablari va xalqaro amaliyotga muvofiq samarali javob qaytarish imkonini beradigan bojxona ma'murchiligiga yangicha yondashuvlar shakllantirish zaruratini asoslab beradi.

Mamlakat bojxona organlari faoliyatining asosini Jahon savdo tashqilotida qabul qilingan jahon savdosini yengillashtirish va xavfsizlikni ta'minlash doirasidagi standartlarida belgilab berilgan yangi tamoyillar tashqil qilishi mumkin. Bojxona tizimining samaradorlik ko'rsatkichi sifatida samarali bojxona nazoratini ta'minlash shartida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'tkaziladigan tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvda bojxona rasmiyatchiliklari o'tish vaqt xarajatlarini qabul qilish taklif etiladi.

Mikrologistika bojxona logistika tizimi bojxona taomillari jarayonida vaqt va resurslar xarajatlarini qisqartirish maqsadida eksport-import tovar oqimlarining bojxona chegarasi orqali o'tishini ratsionallashtirish va optimallashtirish uchun mo'ljallanadi. Bojxona organlari ishida yangicha yondashuvlarni amalga oshirish

bojxona ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini talab qiladi:

- zamonaviy ombor bojxona-logistika terminallari yaratish;
- xalqaro standartlarga kiritilayotgan o'zgarishlar va huquqni qo'llash amaliyoti tahlilini hisobga olgan holda mamlakat bojxona kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlariga o'zgarishlar kiritish;
- mamlakat bojxona organlari faoliyatini ta'minlashning yangi axborot-texnika vositalari joriy qilish;
- davlat nazorati barcha turlarini amalga oshirishda axborot to'plash, saqlash va qayta ishlashning yagona idoralararo avtomatlashtirilgan tizimi yaratish;
- axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilish uchun operatsion markaz tashqil qilish;
- bojxona statistikasini shakllantirish va yuritish texnologiyalarini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish.

SHuningdek, quyidagi faoliyat yo'nalishlarini ham rivojlantirish zarur:

- davlat va fuqarolarning manfaatlariga ziyon yetkazishning oldini olish maqsadida turli, jumladan, xorijiy manbalardan foydalangan holda dastlabki tezkor axborot olish va to'plash (qurol-yarog' va giyohvandlik vositalari kontrabandasi, kontrafakt va sifatsiz mahsulotlar, ishonchsiz (shubhali) deklaratsiya qilish va bojxona qiymatini ma'lum qilish);
- tezkor ahamiyatga molik axborot almashinish borasida xalqaro hamkorlik, xorijiy davlatlarning bojxona organlari bilan birgalikda operatsiyalar o'tkazish;
- tezkor-qidiruv usullari va tahliliy izlanishlardan foydalangan holda tovarlar yetqazib berish butun zanjirida dastlabki tezkor tekshiruvlar o'tkazish.

Xalqaro hamkorlik savdo hamkorlari doirasini kengaytirish, tovarlar va xizmatlar yangi sotuv bozorlarini izlab topishni nazarda tutadi, bu esa ikki

tomonlama munosabatlarni rivojlantirish hamda davlatning xalqaro va mintaqaviy tashqilot va birlashmalardagi ishtirokini faollashtirish zaruratini asoslab beradi. O'z navbatida, bu bojxona ishi sohasida hamkorlikni sifat jihatidan yaxshilash va intensivlash, mamlakat bojxona organlarining xorijdagi vakolatxonalari faoliyat samaradorligini oshirish talablarini qo'yadi. Xalqaro hamkorlikni quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlantirish rejalashtirilgan:

- MDHga a'zo davlatlarda bojxona ishi masalalarini tartibga soladigan qonunchilik me'yorlari va qoidalarni bir xillashtirish, bojxona masallari bo'yicha xalqaro bitimlar tayyorlash;
- respublikamiz bojxona organlarining Jahon savdo tashqilotida, boshqa xalqaro tashqilot va muassasalarda, jumladan, bojxonaga oid tartibga solish sohasidagi ishtirokini faollashtirish;
- bojxona masalalarida boshqa mamlakatlarning bojxona organlari bilan o'zaro yordam va axborot ayirboshlash amaliyotini kengaytirish.

Bugungi kunda makrologistika darajasida amalga oshirilayotgan aynan shu omillar zamonaviy logistika konsepsiyalarini amalga oshirishga o'tishning asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda «aniq muddatida» konsepsiyasi eng ko'p amalga oshiriladigan konsepsiya bo'la oladi. Uni qo'llashning mohiyati shundan iboratki, agar bojxonada amalga oshirilayotgan bojxona rasmiylashtiruvni texnologiyasi qat'iy jadval bo'yicha, sarflanadigan resurslar, foydalaniladigan transport turi, tovarlar va transport vositalari o'tkazuvchi shaxslar toifalari haqida axborotsiz amalga oshiriladigan bo'lsa («kanban» tizimi), bojxona rasmiylashtiruvni va bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan bojxona hujjatlari va ma'lumotlar berish tartibi aniq belgilangan paytda amalga oshiriladi («aniq muddatida»). Elektron deklaratsiya berish va bojxona xatarlarini baholash tizimlari bilan mustahkamlangan bunday texnologiya ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan vazifa – bojxona taomillarini soddalashtirish va samarali bojxona nazoratini ta'minlash o'rtasida optimal muvozanat ushlashga imkon beradi.

Bunday TLC da TIF qatnashchilarining so'rovlarini qondirish va xarajatlar nuqtai nazaridan eng samarali usul bilan eksport-import tovar oqimlarini harakatlantirish uchun bojxona organlari ko'rsatadigan yangi xizmatlar samarali ishlashni ta'minlaydigan asosiy omilga aylanadi. Bunda gap nafaqat bojxona rejimini tanlashda maslahat xizmatlari va axborot ko'magi ko'rsatish haqida, balki tashqi savdo faoliyatini tartibga solish amaliyotida outsorsingni amalga oshirish haqida ham borishi mumkin.

Bobga doir qisqacha xulosa

Makrologistika bojxona tizimi globallik belgisi bo'yicha davlat bojxona tizimi sifatida tasniflanishi mumkin. uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat bo'ladi: O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi – bojxona taomillarini logistikalashni bevosita boshqarishni ta'minlaydi; mintaqaviy bojxona boshqarmalari – mamlakat mintaqalarida eksport-import tovar oqimlarini bojxona rasmiylashtiruv va bojxona nazorati makrologistika tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi; O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi – bojxona taomillarini logistikalash talablarini hisobga olgan holda davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirishda ishtirok etadi; O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi – boj to'lovlarini hisoblab chiqish va undirish, bojxona qiymatini aniqlash taomillarini belgilab beradi; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – eksport-import tovar oqimlarining bojxona chegarasi orqali o'tishini valyutaga oid tartibga solish bojxona taomillarini belgilab beradi; Bojxona taomillari bilan nazorat funksiyalarini logistik bog'lash jarayonida o'z vakolatlarini amalga oshiradigan davlat hukumat organlari (O'zbekiston Respublikasi chegara xizmati, milliy xavfsizlik xizmati va b.); Bojxona taomillarini amalga oshirishda harakatlar nizosizligi va muvofiqligi tamoyillarini shakllantirishda ishtirok etadigan jamoat tashqilotlari va boshqa birlashmalar.

Makrologistika tizimining strukturali sxemasi quyidagi rasmda aks ettirilgan. Makrologistika tizimlarini yaratish dolzarbligi mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining tobora o'sib borayotgan hajmlari, shuningdek, mamlakat

iqtisodiyotini jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalash ob'ektiv ehtiyoji bilan asoslanadi. Amaliy tajribaning ko'rsatishicha, jahon bozorida tovar oqimlarini harakatlantirish bo'yicha operatsiyalar ichki savdo sohasida milliy bozorda xuddi shunga o'xshash operatsiyalardan ko'ra ancha murakkab va qimmat hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Logistika sikli nimani ifodalaydi?
2. «Aniq muddatida» logistika konsepsiyasining asosiy g'oyasi nimada va uni qaysi asosiy jihatlar tavsiflaydi?
3. «Tortuvchi» logistika tizimlarining mohiyatini misol yordamida tushuntirib bering.
4. KANBAN tizimining mohiyati nimada?
5. «Ehtiyojlarlar resurslarni rejalashtirish» logistika konsepsiyasining asosiy g'oyasi nimada?
6. «Itaruvchi» turdagi mikrologistika tizimining mohiyatini misol yordamida ochib bering.
7. MRP-I materiallarga ehtiyojlarni rejalashtirish tizimi qaysi tamoyillarga asoslangan va u qaysi maqsadlarni amalga oshiradi?
8. MRP-II po sra vneniyu s MRP-I bilan taqqoslaganda MRP-II resurslarga ehtiyojlarni ishlab chiqarishga oid rejalashtirish tizimi qaysi afzalliklarga ega?
9. «Tejamkor ishlab chiqarish» konsepsiyasining mohiyati nimada va u qaysi asosiy g'oyani amalga oshiradi?
10. «Talabga javob qaytarish» logistika konsepsiyasining qaysi variantlarini bilasiz?
11. Qaysi xususiyatlar logistika tizimlari faoliyatining sifat jihatlarini baholashga imkon beradi?
12. Bojxona ishi amaliyotida u yoki bu logistika konsepsiyasini amalga oshirish imkoniyatlarini tahlil qiling va baho bering.

Asosiy atama va ta'riflar

Paradigma – muayyan ilmiy tadqiqotni belgilab beradigan, umum e'tirof etilgan shart-sharoitlar yig'indisi.

Paritet – bir hil xolat, tomonlar tengligi.

Intermodal tashuv – yukni bir nechta transport turida tashish, bunda tashuvchilardan biri bitta jo'natish punktidan bitta yoki bir nechta yuk tushirib-ortish punktlari orqali yakuniy manzilga yetqazib berishni amalga oshiradi; javobgarlikning bo'linishiga qarab, har xil turdagi tashuv transport hujjatlari beriladi.

Multimodal tashuv – yuklarni tashish, bunda tashuvni amalga oshiruvchi shaxs yagona tashuv hujjati rasmiylashtirilgan holda ishtirok etuvchi transport turlaridan qat'i nazar butun harakat yo'lida yakka o'zi javobgar hisoblanadi.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatning uni qalbaqilashtirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik o'gartirish natijasida olingan hamda imzo kaliti sertifikatiga egasini identifikatsiya qilish, shuningdek, elektron hujjatda axborotning bo'zib ko'rsatilishini aniqlash imkonini beradigan elektron hujjat rekviziti.

Korxonalar – mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Tayyor mahsulot – ushbu korxonada ishlab chiqarish tsiklidan to'liq o'tgan, to'liq butlangan, texnik nazoratdan o'tgan, omborga topshirigan yoki iste'molchiga yuklab jo'natilgan mahsulot.

Risk profili – risk sohasi, risk indikatorlari, shuningdek, riskning oldini olish yoki minimal qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar yig'indisi.

Logistika bo'jxona taomili – bo'jxona operatsiyalari bajarish tartibini ko'zda tutadigan va bo'jxona maqsadlari uchun eksport-import tovar oqimlari maqomini belgilab beradigan qoidalar yig'indisi.

Transport yo'li – manbadan (tashuv boshlangan joydan) mahsulot yetqazib berish punktigacha bo'lgan masofa.

Reyting – biron-bir hodisani berilgan shkala bo'yicha sub'ektiv baholash. Reyting yordamida ob'ektlarni ular uchun umumiy xususiyatlar bo'yicha birlamchi tasniflash amalga oshiriladi. Reyting baholash shkalalari tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilish mumkin.

Relevant axborot tarkibiy qismlari – muayyan vazifa, shaxs, maqsad va vaqt davri uchun tanlab olinadigan ma'lumotlar.

Moliyaviy resurslar – davlat, korxonalar va tashqilot tasarrufida bo'lgan, yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida yaratiladigan pul mablag'lari yig'indisi.

Xatar (risk) – mamlakat bo'jxona qonunchiligiga rioya qilmaslik ehtimoli.

Xaridor bozori – dastlab bozor ehtiyojlari o'rganiladi, so'ngra uni qondirish usullari amalga oshiriladi tamoyili amalga oshiriladigan bozor.

Sotuvchi bozori – dastlab tovar ishlab chiqariladi, so'ngra uning iste'molchilari faollik bilan izlanadi tamoyili amalga oshiriladigan bozor.

Erkin muomala – tovarlarning mamlakat bo'jxona hududida taqiqlar va cheklovlarsiz aylanmasi.

Server – foydalanuvchining so'rovlariga xizmat ko'rsatadigan personal yoki virtual kompyuter.

Ma'lumotlar to'plami serveri – ma'lumotlar to'plami, tarmoq operatsion tizimi, tarmoq ma'lumotlar to'plamini boshqarish tizimiga ega bo'lgan personal yoki virtual kompyuter.

Sikl – berilgan vaqt oralig'i davomida aylanmani tashqil qiladigan jarayonlar yig'indisi.

Logistika sikli – vaqt bo'yicha integratsiyalangan, kompleksli logistika faolliklari bilan bog'liq bo'lgan tsikllar yig'indisi.

Qisman jarayon – ishlab chiqarish uchastkasida bitta mahsulot (buyurtma) detallari komplektini tayyorlash jarayoni.

Xususiy jarayon – barcha ishlab chiqarish bosqichlarida, asosiy ishlab chiqarishning barcha ishlab chiqarish bo'linmalarida bir turdagi mahsulot (buyurtma) tayyorlash jarayoni.

Adabiyotlar ro'yxati **Asosiy adabiyotlar**

Logistika: Uchebnik lar Pod red. B.A. Aniqina. M.: INFRA-M, 2002.

Nerush YU.M. Logistika: Uchebnik. M.: YUNITI-DANA, 2003.

Parfenov A.V. Tamojennaya logistika: Ucheb. posobie. SPb.: SPbGUEF, 2000.

Staxanov D.V., Staxanov V.N. Tamojennaya logistika. M.: PRIOR, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

Afonin P.I., Salnikov I.A. Informatsionnoe obespechenie v tamojennix organax: Uchebnik. SPb.: Sankt-Peterburgskiy filial RTA, 2006.

Logistika, effektivnost i riski vneshneekonomicheskix operatsiy lar K.V. Zaxarov A.V. TSiganok V.P. Bocharnikov, A.K. Zaxarov. Kiev: INEKS, 2000.

Praktikum po logistike: Uch. Posob. Pod red. B.A. Aniqina M.: INFRA-M, 2000.

5 - BOB. BOJXONA TEXNIK VOSITALARINI AHAMIYATI

5.1. Bojxona nazoratida qo'llanilayotgan texnik vositalarni

bojxona logistikasida tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi dunyodagi ko'pgina davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o'rnatmoqda, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda uni jahon xo'jaligi iqtisodiyotiga integrallashuvini jadallashtirish bo'yicha ko'pgina chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, axolini sogligiga ziyon etkazuvchi sifati past iste'molga yaroqsiz tovarlarni kirib kelishini oldini olish, kontrabanda va bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashishni takomillashtirish chora tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi idoralari oldida bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklarga va kontrabanda jinoyatiga qarshi kurash eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib turibdi. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari va moddiy texnik baza tizimini joriy qilgan holda kontrabanda va bojxona qoida buzarliligini oldini olish va unga qarshi kurashish borasida bojxona bilan huquqni muxofaza qiluvchi organlar hamda xalqaro tashqilotlar bilan birga ko'pgina ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash nazorat va aloqa texnik vositalarini modernizatsiyalashtirmasdan amalga oshirilmaydi. Zamonaviy texnika yutuqlarni bojxona amaliyotiga joriy etish Davlat bojxona qo'mitasining eng muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Faqat oxirgi yilning o'zidagina hududiy organlarni rengen apparaturasi, narkotik moddalarni identifikatsiyalash vositalari va radiatsion nazorat, avtomobil torozilari, murakkab kuzatuv optikasi kabi texnik vositalarining keng doirasi bilan ta'minlashda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

90 – yillar avvalida O'zbekiston bojxona xizmatida bor yo'gi yuztadan ortiq shaxsiy kompyuter, texnik nazorat vositalari esa bir necha eskirgan Xaymen aparatlaridan iborat bo'lgan. Xozirgi kunda Heimann nemis firmasining “HI-SCAN” inspeksion kuzatuv majmualari bojxona tekshiruv taomillarini

o'tkazishda zarur texnik yordamchi sifatida avvalgilaridan ancha farq qiladi.⁸ Ulardan aeroportlar, temir yo'l vokzallari yoki avtotrassalardagi davlat chegaralarini kesib utadigan barcha punktlarda foydalaniladi. Ularning asosini yuk va bagajlarni tarkibini ularni ochmasdan turib o'ta aniqlikda belgilab bera oladigan rengen qurilmasi tashqil etadi. Xususan qurilmaning rangli monitorida turli predmetlar sifat tavsiflariga ko'ra uch xil rangda yoritib beriladi. Masalan, organik moddalar erkin qizil rangda, metal buyumlar – xavorang, shu jumladan plastmassadan yasalgan buyumlar-yashil rangda ko'rinadi. Biron bir buyum qanchalik ko'p joy olgan bo'lsa rang shunchalik to'qlashadi, bir xil turdagi mahsulot joylangan bo'lsa, monitorda qora rang paydo bo'ladi. Bu texnik vositaning qo'llanilishi deklaratsiyalanmagan yoki noto'g'ri deklaratsiyalangan tovarlarni topishga, ko'zdan kechirilayotgan yuk avtomobillari va konteynerlar qo'lamining ko'payishiga imkon yaratadi. Tovarlar va transport vositalarining bojxonada rasmiylashtirilishi va bojxona nazorati taomillarini soddalashtiradi va tezlashtiradi. O'z xususiyatiga ko'ra "HI-SCAN" nazorat ko'rik majmualari bojxonachilarga tekshirilayotgan ob'ekt u yuk avtomobili bo'ladimi, konteyner yoki katta xajmdagi yuk bo'ladimi ichidagisi kuzatuv hujjatlarida ko'rsatilganiga muvofiqmi-yo'qligini aniqlashda yordam beradi. Bundan tashqari giyoxvandlik vositalari, portlovchi modda, qurol yarog', o'q-dori kabi kontrabanda ob'ektlarini aniqlash shuningdek xufiya joylarni topish imkonini beradi chunki majmuaning ko'zlari 200 millimetrgacha qalinlikdagi po'lat ortiga yashirilgan narsani ham ko'ra oladi.

Radiktiv materiallarni noqonuniy olib o'tilishining oldini olish uchun «Toshkent-Aero», G'ishtko'prik (Toshkent viloyati), «Ayritom va Sariosiyo» (Surxondaryo viloyati), «Olot» (Buxoro viloyati) bojxona majmualari kabi O'zbyokistonning yirik bojxona ob'ektlari radiatsion nazoratning zamonaviy tizimlari bilan jihozlangan. Bu erda «YAntar» turg'un majmualaridan foydalaniladi. Ular bojxona organlari xodimlariga radiofaol materiallarni

⁸ SBX №3 (495) 2004 yil 16 yanvar

noqonuniy olib o'tish aniqlanganda tezkor harakat qilish va zarur choralarni qo'llash imkonini beradi.

Ko'tarib yursa bo'ladigan, alohida va shu jixati bilan foydalanish uchun oson, turgan uskunalar yo'qotish joyida qo'l keladigan mo'jaz asboblari- "Spectrometr" portativ radiatsiya detektorlari ham juda qulaydir. Ularning yordamida hatto eng kam miqdordagi radiaktiv moddalar borligini aniqlash mumkin. Hajmi sigaret qutisiday keladigan, kamarga osib yurish mumkin bo'lgan radiatsion peyjerlar ham foydalanish uchun qulay va samaradorli.

Maxsus texnik identifikatsiyalash vositalari, masalan «ITEMISER» detektorlari katta ahamiyatga ega. Ular xususan heroin, kokain, tsiklotrimetilentrinitramin, pentaeritritetranitrat, trinitrotoluol, dinamit, semteks va hakazo ajal tashuvchi vositalarning 40 taga yaqin turini aniqlab bera oladi. Narkotiklar turini aniqlash uchun tezkor tahlillar va testlar o'tkazishda bojxona ekspert laboratoriyalari tomonidan keng foydalaniladigan "NIK" va "BESTON DIKINSON" refoallarining o'rni beqiyos. Kontrabanda va jumladan, eng kutilmagan joylarga yashirilgan xavfli moddalarni aniqlashda bojxonachilar sezgirligiga "BUSTER-2" asbobi ajoyib qo'shimcha hisoblanadi. Yana bir asbob bojxonachilar e'tiboriga sazovor bo'lgan. Bu ikki tomonlarni ko'rish uchun qattiq va yarim qattiq endoskoplardir, ular avtomobillar va temir yo'l transportini tekshirishda qo'llaniladi. U avtotransport g'ildiraklari va boshqa g'ovak joylarida noqonuniy olib o'tilayotgan tovarni aniqlash imkonini beradigan o'ziga xos skaner. Bojxonachilar tomonidan foydalaniladigan asbob uskunalar ichida ultratovush tashxisi asboblari. Ular yordamida benzobaklarning kattaligi va to'laligi aniqlanadi, shuningdek, avtomashinalar, harakatdagi temir yo'l sostavlari kuzovlarini yig'ish va sochish instrumental to'plamlari bor.

CHegaradagi tumanlarda reydlar o'tkazishda, har turli aylanma yo'llar so'qmoqlarda tekshirishlar o'tkazilganda, bunday portativ aloqa vositalari, tunda kurish asboblari kerakli. Bojxona organlarining moddiy-texnikaviy bazasini, shu jumladan bojxona atrofi infrastrukturasini rivojlantirish bojxona organlarini

rivojlantirish maxsus jamg'armasi hamda homiy va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'larini jalb qilish hisobiga amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida tuzilgan, narkotiklar bilan bog'liq birgalikdagi harakatlar to'g'risidagi hyukumatlararo bitim doirasida AQSH hyukumati respublika bojxona xizmatiga texnik yordam berdi. U 2 mln AQSH dollaridan ortiq summada texnik uskunalar, shu jumladan baxaybat yuklarni ko'rikdan o'tkazish uchun portal monitorlar, 9 ta "Jip" avtomobili, ko'rikdan o'tkazish uskunasi, radiostantsiyalar, narkotiklarni aniqlash uchun testlar, yukni ko'rikdan o'tkazish uchun rentgen apparaturasi va hokazolarni taqdim etdi. SHu jumladan turli texnik vositalar va uskunalar eng zamonaviy ko'rikdan o'tkazish majmualari taqdim etilgan. Bu texnik vositalar kontrabanda tovarlarini noqonuniy aylanishiga to'siq qo'ygan holda milliy xavfsizligimiz ta'minlanadi.

Bojxona laboratoriyasi-bojxona tizimining ajralmas bir bo'lagi. Bojxona ekspertizasini o'tkazish hozirgi davrda bojxona laboratoriyalaridan mamlakat iqtisodi uchun o'ta zarur bo'lgan tovarlarni identifikatsiyalash va ularni nazorat qilish soxasida faol katnashishni talab qiladi.

Amalga oshirish lozim bo'lgan vazifalar bizningcha quyidagilardir:

- bojxona ekspertizasini yanada takomillashtirish, bojxona ekspertisasi o'tkazishning yangi usul va vositalarini ishlab chiqish va mavjudlarini esa takomillashtirish, hamda bojxona ishidagi jinoyat va qonunbuzarliklarni oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- zamonaviy fan va amaliyot yutuqlaridan foydalanib bojxona ekspertizasini rivojlantirishning ilmiy asoslangan istiqbolini aniqlash hamda uning usuli va vositalarini rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- bojxona laboratoriyasining ekspress tahlillar uchun analitik qurilmalar va asbob-uskunalar bilan texnik jihozlashni yanada rivojlantirish;

- ekspertiza va tadqiqotlarning uslubiy bazasini shakllantirish, bojxona ishi manfaatlari yo'lida foydalanish uchun uslubiy qo'llanma va yo'riqnomalar ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ekspert tadqiqotlarining sifati va samaradorligini yaxshilash va foydalanish maqsadida fan va texnikaning turli sohalarida erishilgan eng yangi yutuqlarni taxlil qilish va tizimlashtirish;

- bojxona laboratoriyasi xodimlarining xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan ilmiy-uslubiy yig'ilish va konfrentsiyalarda qatnashishlarini tashqillashtirish;

- ayrim turdagi tovarlarni TIF TN bo'yicha klassifikatsiyalashda duch kelinadigan murakkab hollarda yagona fikr yaratish maqsadida Butunjahon bojxona tashqiloti bilan uyg'unlashgan tizim bo'yicha ishchi aloqalarni yanada rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashda mamlakatimiz huquqni himoya qilish organlari bilan hamkorlikda olib borayotgan chora-tadbirlari yaxshi natijalar berayapti. 2017 yilda huquqni muhofaza qilish organi sifatida bojxonaning roli anchagina oshdi. Prezidentimiz va respublika hyukumati tomonidan qo'yilgan O'zbyokistonning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga oid vazifalarning bajarilishida uning ulushi salmoqli bo'ldi. Bunga bojxonaga tegishli bo'linmalarining tezkor-qidiruv faoliyatini tartiblashtirib beruvchi me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishi ham ko'p darajada imkon yaratdi. SHu munosabat bilan ta'kidlash joizki, bojxona tushumlarining o'sishi bojxona organlari fiskal vazifalarini takomillashtirish bilan bir qatorda tovarlarni kontrabanda yo'li bilan olib o'tish va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga qarshi kurashni kuchaytirish, tovarlarni deklaratsiya qilmaslik yoki to'g'ri deklaratsiya qilmaslik yo'li bilan, xususan, tovarlarning bojxona qiymatini, og'irligini kamaytirib ko'rsatish, tovar turkumlarining kelib chiqish mamlakatini o'zgartirish va hokazo yo'llar bilan bojxona to'lovlarini to'lashdan qochish faktlarini aniqlashga oid samarali ishlar bilan ifodalanadi.

2017 yil va 2018 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan aniqlangan kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilish holatlari taxlili shuni ko'rsatadiki 2018 yil davomida davlat bojxona qo'mitasi va uning xududiy boshqarmalari tomonidan jami 25203 ta (2017 yilda 25070 ta)

kontrabanda va bojxona qonunchiligi buzilishi xolatlari (2016 yilga nisbatan 133 ta xolatga ko'p) aniqlangan.⁹

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushlangan tovar moddiy boyliklarning qiymati 1 mlrd 494 mln so'mga ko'paygan. Aniqlangan 1635 (2016y. 1308ta) ta jinoyat alomatlari bor xolatlardan 1348 tasi bojxona organlari tomonidan O'zbyokiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan (2017 yilning shu davrida bu kursatkich 1112 tani tashqil etgan) yoki jinoyat ishi qo'zg'atish o'tgan yilga nisbatan 236 taga ko'paygan bo'lsada, lyokin jinoyat ishlarini qo'zg'atish xolatlari Xorazmda 40 taga, Namanganda 16 taga, Andijon va Qashqadaryoda 5 taga, Jizzaxda 1 taga kamaygan.

Qo'zg'atilgan jinoyat ishlarining moddalari:

- UzR JKning 182-moddasi bilan 231 ta
- UzR JKning 186-1-moddasi bilan 863 ta
- UzR JKning 246-moddasi bilan 90 ta

Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan O'zR JKning 182 va 246-moddalari bilan kvalifikatsiyalanishi lozim bo'lgan jinoyatlar kam aniqlanayotganligi kuzatilmoqda.¹⁰

Huquqbuzarlik holatlarini aniqlash borasidagi ko'rsatkichlar o'tgan yilga nisbatan Andijon viloyatida 623 taga, Farg'onada 116 taga, Jizzaxda 84 taga kamaygan. Hisobot davrida 23057 ta (2016y. 23762) ma'muriy ishlar yuritilib, (o'tgan yilga nisbatan 705 taga kam) huquqbuzarlarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilgan. SHulardan bojxona organi tomonidan 1987 ta ishlar ko'rib chiqilib, 20848 ta ishlar sud idoralariga, 22 ta ishlar boshqa organlarga tegishligiga kura chora ko'rish uchun yuborilgan.¹¹

2017-2018 yillar davomida DBK va barcha xududiy bojxona boshqarmalarining xodimlari tomonidan giyoxvandlik vositalari, psixotrop

¹⁰ 2017 yil yakunlari bo'yicha OzR DBQ ni ma'lumotlari.

¹¹ www.customs.uz.

moddalar, prekursorlar, qurol-yarog', o'q-dorilar va portlovchi moddalarni noqonuniy aylanishini oldini olish borasida qilingan ishlari yuzasidan tahliliy tezkor ko'rsatkichlar quyidagicha:

Giyoxvandlik vositalarini noqonuniy aylanishini oldini olish borasida xududiy bojxona boshqarmalari xodimlari tomonidan 2018 yil davomida aniqlangan xolatlar soni o'tgan yilgi xolatlar soniga karaganda 32 ta xolatga kamaygan bo'lsada, ushlab qolingani giexvandlik vositalarining vazni 171171,932 grammga kamaygan. Bojxona organlari tomonidan giyoxvandlik vositalari, qurol-yarog' va o'q dori kontrabanda xolatlariga qarshi muntazam ravishda, xalqaro hamkorlar bilan qarshi kurash olib bormoqdalar. Bu faoliyat orqali mamlakatimiz milliy xavfsizligini ta'minlash kabi asosiy vazifalarni bajarib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 6-maydagi 154-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2017 01 iyun kunidan 2018 yilning 31 dekabrigacha amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida Respublika xududiga tovar-moddiy boyliklarini noqonuniy olib kirish hamda Respublika ichida xech qanday hujjati bo'lmagan chet el tovarlarini qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bo'yicha jami 52316 ta huquqbuzarlik xolatlari aniqlangan bo'lib, umumiy qiymati 18 mlrd 189,3 mln sumlik tovar moddiy boyliklar ashyoviy dalil sifatida olingan. Mazkur xolatlar bo'yicha bojxona organlari tomonidan UzR JKning tegishli moddalari bilan 2618 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilib, tergov organlariga yuborilgan. Bojxona sud organlari tomonidan yuqorida qayd etilgan xolatlar bo'yicha ashyoviy dalil sifatida olingan tovar moddiy boyliklardan shu kunga qadar 14 mlrd 712,2 mln so'mligi davlat egaligiga o'tkazilgan.¹² Yuqoridagi ma'lumotlarning hammasi, so'zsiz O'zbekiston Respublikasi Bojxona xizmatini samarali faoliyat olib borayotganligini bildiradi.

¹²www.customs.uz

5.2. Bojxonada qo'llanilayotgan radiotexnik vositalar

Radioqarshi deganda nima tushuniladi? Radioxalaqitlar – radio to'lqinlarga qarshi harakatlarning turlaridan biri. Radioxalaqit davlat radiostantsiyalardan uzatilayotgan radioto'lqinlarga qarshi harakat deb dushman yoki raqib tomonidan uzining radio vositalaridan foydalanib davlat radiostantsiyalardan uzatilayotgan informatsiyani buzishi yoki qabo'l qilishini qiyinlashtirishi yoki umuman radioto'lqinlarni qabo'l qiluvchi antenalarga yo'l quymaslikka qaratilgan tadbir deb tushuniladi. Radioxalaqitga qarshi harakatni amalda qo'llash raqib tomonidan birinchidan, texnik vositalarini samarali ishlatishini pasaytiradi. Bu esa qo'shinlarning boshqarishini tubdan chalg'itadi yoki o'zgartiradi. Radioxalaqitga qarshi harakat radioshovqinlarni sun'iy ravishda paydo qilish, hamda radiodezinformatsiyaga va lokatsiyaga qarshi maskirovkalarni tashqil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Radioxalaqit harakatlari deganda, qiziquvchi qarama-qarshi tomon bilan kelishilmagan holda qabo'l qiluvchi radiokanalda elektrosignallarni paydo qiliish tushuniladi. Kelib chiqishiga qarab radioxalaqitlar (pomexlar) qasddan yoki tasodifan qilinadigan radioxalaqitlarga bo'linadi.

Qasddan radioxalaqit paydo qilish deganda, raqib tomonidan radioga qarshi harakat sodir etish tushuniladi. Tasodifan paydo qilingan radioxalaqitlar deganda, dushman tomonidan sodir etilayotgan radioqarshilik bilan boshqa texnik vositalar tomonidan, ya'ni qo'shni radiolokatsiya stantsiyasining ishlashi, momaqaldiroqlar va boshqalar tushuniladi. Bundan tashqari, maskirovka uchun paydo qilinadigan radioxalaqitlar mavjuddir. Bu esa radioxalaqitlar RLS ekranlarida har xil nurlar ko'rinadi, bu o'z navbatida kuzatish ishlarini qiyinlashtiradi. Maskirovka shovqini avtomatik kuzatishlar sistemasini qisman yoki to'la buzilishlariga olib keladi.

Radioxalaqitlarni paydo qilish turlari shundayki, u paydo bo'lishi xususiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: faol xalaqitlar, passiv xalaqitlar, aralash xalaqitlar, Faol xalaqitlar deganda, chetdan, ya'ni, elektromagnit tebranish (radiouzatkichlar, momaqaldiroqlar/ orqali paydo bo'ladigan radioxalaqitlar tushuniladi. Passiv xalaqitlar deganda, RLSning nurlanishi tufayli elektromagnit tebranishlarni qaytarishdan paydo bo'lgan xalaqitlar tushuniladi, Aralash xalaqitlar

deganda faol va passiv radioxalaqitlar harakatidan paydo bo'ladigan xalaqitlar tushuniladi. Radioxalaqitlarning maxsus apparatlarga ta'sir etish darajasiga tushuncha.

Ta'sir qilish xususiyatlari bo'yicha radioxalaqitlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Sekin harakatdagi xalaqitlar
2. O'rtacha harakatdagi xalaqitlar
3. Kuchli harakatdagi xalaqitlar

Sekin harakatdagi xalaqitlar deganda, texnik vositalardan foydalanish va xalaqitlardan ximoyalanish, nishonni aniq kuzatish yoki aniqlashga yaxshi imkoniyat yaratadi. O'rtacha radioxalaqitlar deganda, texnik vositalardan foydalanish va xalaqitlardan ximoyalanish, nishonni aniq kuzatish yoki aniqlashga imkon beradi, lekin bu ishni amalga oshirishni juda qiyinlashtiradi" Kuchli radioxalaqitlar esa aksincha bu harakatlarda nishonlarni na kuzatishga, na aniqlashga imkon beradi.

Faol radioxalaqitlarning modulyatsiya turidan qat'iy nazar klassifikatsiyasi quidagicha:

Shovqinlar haqida umumiy tushunchalar. Shovqinlar deganda yuqori chastotali, modullangan (amplituda yoki chastotada) tebranishlarga ega bo'lgan to'lqinlarga aytiladi. To'g'ri shovqinlar yuqori chastotadagi, keng shovqinli kuchlanishlari o'zida aks ettiradi. Bundan kuchlanishda chastota va shovqinlarning quvvati hamma spektrlar bo'yicha teng taqsimlanadi.

Radiolokatsiyaga qarshi radioshovqin turlari.

Radiolokatsiyaga qarshi qatlamlar o'zlarining tarkibida shu ob'ektdan radioto'lqinlarni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan qoplangandir. Ular 2 tipda bo'ladi:

1. Interferentsion qoplamlar asosan unga yuborilgan radio-to'lqinlarni o'z-o'zdan qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan materiallardan tayorlanadi. Ushbu qoplamning qalinligi uzatilayotgan radio-to'lqinning to'lqin uzunligini 4 ga bo'linganiga teng. Bu holda qatlamdan qaytayotgan radioto'lqinlar interferentsiyalanadi. Interferentsion qoplamlar sifatida karbonilli temir bilan

aralashtirilgan kauchyukdan foydalanish mumkin. Ba'zi bir interferentsion qatlamlar radio-to'lqinlar yordamida qaytarilgach energiyani 400 martagacha nursizlantirishi mumkin.

2. Nur yutuvchi qoplamalar asoamn energiyani yaxshi yutadigan materiallardan tayorlanadi. Bunday qoplamalarga kauchyukli tok o'tkazuvchi kul /sajey/ bilan aralashmasi misol bo'ladi. Nur yutuvchi qoplamalar radioto'lqinlarni quvvatini 90 % gacha kamaytirishi mumkin. Ayrim radioshovqinlar to'g'risida tushuncha.

Radiolokatsion stantsiya (RLS) bor joyda ko'pincha to'satdan shovqinlar paydo bo'lishi mumkin. Shovqinnig tarqalish harakati bo'yicha impulsi, uzlyuksiz bo'lishi mumkin. Uning ta'sir etish quvvati kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin.

Radioshovqinlardan saqlanish metodlari. Radioelektr asboblarni faol shovqinlardan saqlash uchun chastotali, spektrli, amplitudali signallardan foydalaniladi. Radioshovqinlardan himoya qilishning asosiy turlaridan biri bu - keng tarqaluvchan selektsiya. YA'ni qabo'l qiluvchi va tarkaluvchi antennalardan foydalanishga yo'naltirilgan turidir. Ushbu antennalardan foydalanish raqib tomonini razvedka ishlarini olib borishga xalaqit beradi. Bojxona o'rganlarida ishlalaydigan radiouzatkichlarni blok sxemasi quydagicha tasvirlanadi.


Radiouzatuvchi qurilma radioto'lqinlarni nurlantirish va generatsiya qilish uchun ishlatiladi. Radiouzatuvchi qurilma tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi.

1. YUqori chastotali generator-elektromagnit to'lqinlarni hosil qiladi.

2. Boshqaruvchi qurilma (modulyator) yuqori chastotali tebranishlarni modulyatsiya qilishga xizmat qiladi.

3. Antena-fiderli qurilma. Elektromagnitli to'lqinlarni qabo'l qilish va nurlantirish uchun ishlatiladi.

4. Iste'mol manbasi (istochnik pitaniya).



5.1-rasm. Radiouzatuvchi qurilma blok-sxemasining tuzilishi

Asosiy qurilma yuqori chastotali generatordir. Uning tarkibiga zadayushiy generator va bir yoki bir nechta quvvatni kuchaytiradigan qoplamalar kiradi.

Peredatchiqning amplitudali modulyatsiyasini ta'riflari quydagicha.

Yuqori chastotali garmonik tebranish quyidagi uchta parametri bilan harakterlanadi:

1. Amplituda.
2. Chastota
3. Faza.

Elektromagnit tebranishli signallarni uzatuvchi qurilmada berish uchun yuqorida ko'rsatilgan tebranish parametrlarini o'zgartirish orqali hosil qilinadi. Elektromagnit tebranishlarining xoxlagan bitta parametrining o'zgarish jarayoni modulyatsiya deb ataladi. Amplitudali modulyatsiya bu tok yuqori chastotasining modullangan signal kuchlanishi bilan birgalikdagi amplitudasining o'zgarishidir. Modullaydigan kuchlanishning yuqori chastotali tebranishga ta'sirini baholash uchun modulyatsiya koeffitsienta xizmat qiladi.

Peredatchiqning chastotali modulyatsiyasini ta'rif. Chastotali modulyatsiya bu doimiy tebranish amplitudasi asosida yuqori chastotali tebranish chastotasining modullaydigan kuchlanish bilan birga o'zgarishidir. Chastotali modulyatsiya tarkibidagi yuqori chastotali tebranishning modullay olgan kuchlanishga ta'sirini baholash uchun chastotali modulyatsiya xizmat qiladi. U modullaydigan kuchlanish chastotasidir. Chastotali modulyatsiyada yuqori chastotali tebranish oralik /tekuşçaya/ fazasi amplituda bilan birgalikda sinusoidal qonun bo'yicha chastotali modulyatsiyaning indeksiga teng holda uzlyuksiz uzgaradi. Chastotali

modullangan tebranishning spektr kengligi past chastotali modullangan kuchlaiish amplitudaei bilan aniqlanadi.

Radiopriemnikning asosiy parametrlarini ta'riflang. Radiopriemnikning asosiy kriteriyalariga quyidagilar kiradi: sezuvchanlik, saylanuvchanlik, utish palosasi na kuchlaiish koefitsienta. Radiopriemnikning sezgirliigi deb, antennada elektromagnit signallarni (EDS) signallari bilan normal qabo'l qilishni ta'minlash harakteriga aytiladi. Sezgirlik antennadagi yoki uning ekvivalentidagi foydali signal ulgani bilan harakterlanadi. Priemnik sezgirliigi chegarasi deb, shunday sezgirlikka aytiladiki, bunda foydali signaldan detektorlarga kirish shojkin. Radiopriemnik saylanuv-chanliigi deb uning signal aralashmalaridagi va pomexlardagi foydali signal ajratish xususiyatiga aytiladi. Radiopriemnikning sezuvchanliigi uning kuchayishi koefitsientaga bog'liq.

Yuqori chastotali kuchaytirgichning funktsiyalarini ta'riflang. Elektrik tebranishlar quvvatini oshiradigan va unga ega bo'lgan qurilmaga kuchaytirgich deb ataladi. Har xildagi kuchaytirgich tsepidan ta'minlanadigan doimiy tok energiya manbasi ishlanish xisobiga signallar quvvatining kuchayishi hosil bo'ladi. Kuchaytirgich turli belgilari bo'yicha klassifikatsiyalanadi: Asosiy belgilari bo'lib kuchaytirgich foydalanilishi, yuklama turi va yuklama lampaga ulanish tartibi xisoblanadi. Kuchaytirgichning tuzilishi kupchilik xollarda yuklama turiga, elektrik harakteristikasiga va uning sxemasiga bog'liq bo'ladi. Kuchaytirgichlar yuklama turiga qarab rezonansli Kuchaytirgichlar va periodik kuchaytirgichlarga bo'linadi. Yuqori chastotali Kuchaytirgichlar radiolokatsion priemniklarda quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- 1 . Radioimpulslarni quvvati va kuchlanishini kuchaytiradi.
- 2 . Priemnikning shaxsiy xalaqitning foydali signaliga nisbati kuchaytirib, priemnik sezuvchanligini oshiradi.

Vizual kuzatish texnik vositalarini ta'rifi quyidagicha.

Vizual kuzatish texnika vositalari - bu bino va boshqa joylardagi nazorat ostida bo'lgan bojxona xududlardagi va bojxona zonalaridagi tezkor vaziyat ustidan kuzatuvni ta'minlovchi bojxona nazoratining texnik vositalari sinfidir. Bu

vositalarga quyidagilar kiradi: optik kuzatuv priborlari - molekulyarli va stereo trubalar, tungi kuzatish priborlari, hamda televidenie lokal /epik/ sistemalari - yagona nazorat pulti va nazorat monitorlari orqali masofadan boshqarish televizion kameralar tarmogi.

Audio-video ma'lumot tashuvlarni nazorat qilish texnik vositasi quyidagicha:

Audio-video ma'lumot tashuvlarni nazorat qilish texnik vositalari bu audio-video axborotlarni kurish, eshitish va uchirishni ta'minlovchi bojxona nazoratini texnik vositasi turidir. Bu magnit tashuvchilar /plenkalar, kompakt kassetalar, diskalar, EXM disketalariga ezilgan audio-video ma'lumotlar uchirgichlardir. Hamda foto- kinoplenkalar, slaydlar va mikrofishalardagi tasvirlar chiqarilganda ularni vizual nazoratini ta'minlaydigan texnik vositalardir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: magnitofonlar, videomagnitofonlar, formatlarda ezuvchi pleyerlar, telemonitorlar, maxsus kompyuterli nazorat sistemalari, foto-kino-slayd-proektorlar, mikrofilmlarni kurish qurilmasi hamda audio-video ma'lumotlarni uchirish qurilmasi. Audio-video ma'lumotlarni o'chirish qurilmasi – bu har xil turdagi magnit tashuvchilarga yozilgan ma'lumotlarni zudlik bilan o'chirishni ta'minlovchi maxsus priborlar. O'chirish kuchi tashqi o'zgarmas yoki o'zgaruvchan magnit maydoni bilan tashuvchiga qisqa muddatli ta'sir o'tkazish yo'li bilan ta'minlanadi.

Tezkor aloqa texnik vositalari:

Tezkor aloqa texnik vositalari - bu qisqa YUKV radioaloqa apparaturalari yordamida bojxona nazorati protsessi ustidan tezkor boshqarishni ta'minlovchi bojxona nazoratining texnik vositalari turidir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: statsionar /базовый/ avtomobil radioaloqa apparaturalari va boshqalar. Ular bojxona xizmati tomonidan aloxida ajratilgan radiochastotalarga ishlaydi. Yuqori turuvchi va boshqa bojxona organlari bilan tezkor aloqa qilish uchun esa faksimilli aloqa apparaturalari ishlatiladi. Bu telefon aloqa kanali orqali xujjatlarni uzatish va qabo'l qilish mexanik avtomatik va elektron qurilmalar majmuasidir.

5.3. Bojxona nazoratida texnik vositalarni tashqil etish va qo'llash

Ko'rikdan o'tkazish asboblari - bu bojxona nazoratini slesarlik, mexanizatsiyalashgan asboblarni o'z ichiga oluvchi texnik vositalari turidir. Bu tur bojxona nazorati jarayonida yuk urovlari va detallarni demontaj, transport vositalari konstruyktsiya elementlarini olish uchun zarur bo'lgan texnologik operatsiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan turdir. Ko'rikdan o'tkazish asboblari quyidagilar kiradi: toyka va nakidkali kalitlar to'plami, omborlar, otvertkalar va shunga o'xshash asboblari.

Bojxona ta'minlovini quyish vositalari - bu davlat chegarasi orqali utayotgan abonent va xujjatlarga bojxona belgilari va tamg'alarni quyishni ta'minlovchi maxsus uskunalar, materiallar kiradigan bojxona nazoratining texnik vositalari guruhidir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: plombirotorlar, metall va plastmassa plombalar, turli kulflar, maxsus plombalash vintlari, shaxsiy muxrlar, shtamp estikchalari kabilar.

Qidiruv texnika vositalari quyidagicha. Ko'rik kuzgulari - bojxona nazorati texnika kidiruv vositalari kompleksining avtotransport ostini va kurish qiyin bo'lgan joylarini ko'rik qilish uchun muljallangan, uzun dastakli, almashtirilib turiluvchi, har xil shakl va kattalikdagi teleskopik kuzguli kul asboblari termasidir. Bu asbob maxsus kul eritgichi va topilmalarni ilib olishga oslashtirilgan ilmok bilan birga kullaniladi. Ayrim modeldagi ko'rik kuzgular dastagidagi eritgich avtonom elektrik manbaga ega bo'ladi.

Ko'rik shruplarini ta'riflang. Ko'rik shruplari - bojxonazorati texnika kidiruv vositalaridan bo'lib, ko'rik qilinaetgan ob'ektni /transport vositasining yumshok urindiklarini, yumshok upakovka uramlarni, korton kutilar va xokazo/larni sanchib teshib kurish uchun muljallangan moslama. Ular uziga xos uslubda toblangan metaldan, turli uzunlikda va kalinlikda tayerlanadi. SHchuplar kurilaetgan ob'ekt tarkibidan namuna olish uchun maxsus shakldagi teshikka ega.

Ko'rik endoskoplari haqida tushuncha bering. Ko'rik endoskoplari - bojxona texnika vositalarining texnika kidiruv asboblari sinfiga oid optik uskunadir. Ular avtotransportni kurish qiyin bo'lgan joylarini va turli suyukliklar tuldirilgan

idishlarni, shu jumladan, xavfli suyakliklar /benzin, moy, dizel enilgisi va shu kabilar/ solingan idishlarni kuzdan kechirish uchun muljallangan. Ko'rik endoskoplari 3 xil modifikatsiyada ishlab chiqariladi:

1."Qattiq" /baroskoplalar/ eruglik uzatuvchi tolali eritgichi va optik elementi urnatilgan, har xil uzunlikda va diametrdagi metall trubka kurinidda bo'ladi.

2."Yarim qattiq".

3."Egiluvchan" /fleksoskoplalar/ tolali optika asosida yaratilgan va ikkita eruglik uzatuvchi tolali chilvirga ega. Biri ko'rik qilinaetgan idish ichini eritishga, ikkinchisi esa, ob'ektiv va okulyar yordamida nazorat qilishni bevosita amalga oshirish uchundir. Endoskoplarning I va 2 modifikatsiyalari operativ kullanidishda kuprok foydalaniladi.

5.4. Identifikatsiya texnika vositalari

Identifikatsiya texnika vositalari - bojxona nazorati texnika vositasi bo'lib, xujjatlar, muxrlar, tamg'alar qimmatbaho metall va toshlarni asl nusxasi ekanligini aniqlash uchun kullaniladi. Shu jumladan, narkotik moddalarini birlamchi tekshirish, ayrim banknotlarni tekshirish uchun kerak, Bojxona texnika nazoratining bu sinfiga quyidagilar kiradi: texnik vositalar, bojxona xujjatlarini tekshirish, ultrabinafsha eritgichlar, kimyoviy refaollar to'plami, qimmatbaho tomlar analizatori, qimmatbaho tomlar analizatori, qimmatbaho metallar namunali refaollar to'plami va narkotik moddalarni tezkor taxlil qiluvchi kimyoviy refaollar to'plami.

Bojxona xujjatlarini tekshirish texnika vositalarini ta'riflang.

Bojxona xujjatlarini tekshirish texnika vositalari - bojxona identifikatsiyasi texnika vositalari guruxi, bojxona nazorati davomida taqdim etilgan xujjatlarni asl nusxasi ekanligini, ulardagi tuzatmalarni, uchirilgan joylarni, qalbaqilashtirilgan yerlarini va xokazo tekshiruvini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu texnika vositalari xujjatlarni tekshiruvdan utvazuvchi moslamalar, mitti mikroskoplalar, ultrabinafsha chuntak eritgichlarini uz ichiga oladi. Keyingi paytlarda kombinatsiya qilingan xujjatlarni tekshirish asbobi qo'llanilmoqda. Bu asbobda xujjatlarni lyuministsent eritish, kiya yunaltirilgan nurlar, ultrabinafsha nurli

lampalar, hamda kup marotaba kattalashtiruvchi lupalar yordamida tekshirish birgalikda qo'llanilmoqda.

Radorazvedka - bu radioelektron sistema qurilmalaridan tarkatilaetgan elektromagnit to'lqin tebranishlarini ushlash yo'li bilan ularni joylashishi va qurilma asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashga karatilgan tadbirlar majmuidir. Radorazvedka maxsus "Radorazvedka stantsiyasi" /RRS/ qurilmasi yordamida amalga oshiriladi va qurilma to'lqinlarni aniqlash, ularni ushlash va qabo'l qilingan radioelektron to'lqinlarni taxlil qilish imkoniyatlarini beradi.

Radorazvedka stantsiyasi qanday tuzilmalardan iborat?

Radorazvedka stantsiyasi qurilmasi razvedka qilinayotgan radioelektron sistema radioto'lqinlarini antena yordamida "ushlab" olinib radioto'lqin priemnik yordamida tegishli darajagacha kuchaytiriladi va maxsus qurilmalar/indikator, signal analizatori yoki xotiraga olish qurilmasi/ga uzatib utkazib beradi. Bu qurilmalar yordamida radioto'lqinlarni aniqlanganligini belgilaydigan va taxlil qiladigan yoki xotira qurilmasiga qabo'l qilib keyinchalik taxlil qilish uchun xizmat qiladi. Maxsus elektronrazvedka sistemasining razvedkalash belgilarini kursating.

Razvedka qilinaetgan radioelektron qurilmalar radioto'lqinlarini quyidagi harakterli tomonlarini razvedkalash belgilari /razvednriznaki/ deb atash mumkin.

- radioelektron qurilma ish jarayonini
- radio yoki radiolokatsion qurilma yunalishini
- qanday chastotada ekanligi
- modulyatsiya turini
- impuls takrorlanishi chastotalarini uzunligi va formasini
- impuls seriyalarini takrorlanish chastotasi va uzunligini
- radioto'lqinlarni kodlanishi, quvvati va boshqalarni.

Bundan tashqari Razvedka qilinayotgan radioelektron qurilmaning aniqlangan belgilari orqali ularni turlari, belgilanishi, joylashuvi va ularni ta'sir etish uzoqligi darajasi, antena aylanii tezligi, diagrammalar yuborilishi kengligi va boshqa ko'rsatkichlarni bilish

mumkin. Radioelektron qurilmalarini aniqlanishini quyidagicha. Radiorazvedka qurilmasi /RRS/ yordamida radioelektron qurilmalar tomonidan tarqatilayotgan elektromagnit tebranishlarni ushlash va qabo'l qilish yo'li bilan radioelektron qurilmalarni faoliyat ko'rsatayotganligini faktini aniqlash mumkin. Radioelektron qurilmalar ishlash faoliyatini ikki xil metod bilan aniqlash mumkin, ya'ni ular "qidiruvsiz" va "qidiruvli" usullaridir.

5.5. Yuqori aniqli rentgen vositalari

Bojxona nazoratini amalga oshirishda Kodeksning 39 moddasiga asosan texnik vositalarni ham qo'llash mumkin. Shunday texnik vositalardan biri bo'lmish "Xayman" apparatidir. Bu apparat ishlash printsipiga ko'ra rentgen nurlanishi yordamida amalga oshiriladi. Transporter yordamida predmet tunel /tuynyuk/ orqali o'tib boradi. Predmet tunelga qachonki kirib borganda eruglik barjari qurilmasi ob'ektni qamrab oladi va bir vaqtda tutish bilan rentgen nurlanishi generatori ishga tushadi" Rentgen nuri generatordan chiqayotgan rentgen nurlari kalimatori yordamida juda yupqa rentgen nurlari oqimini hosil qiladi, Bu oqim o'tayotgan predmetni tekshirish paytida kesib o'tib detektor chiziqlarini hosil qiladi. Predmetning qattiq yoki yumshoqligi va boshqa xolatlaridan kelib chiqib nur oqimini ko'p yoki ozligi kirishib ketadi va detektor chizig'iga yetib keladi. Detektor chizig'i almashuvchi modullardan tashqil topgan bo'lib, rentgen nurlari energiyasini har xil kattalikdagi elektrenergiyasiga o'zgartirib beradi. Bunday o'zgartirish uchun har bir detektor modulida 64 kristal joylashadi, qaysiki 6 fotodiat va 64 kuchlanishni kuchaytirgichga ulangan. Detektor modullarini joylashganligi sababli tunelning ko'ndalang kesimi bo'ylab to'liq nusxalanadi va natijada xajmi uzun bo'lgan predmetlarni ham nazoratga olishda qo'l keladi.

Rentgen nurlanishdan oziq-ovqatlarni xavfsizligi

Rentgen nurlanishdan Butunjaxon Sog'liqni saqlash tashqilotining "Rentgen apparaturasidan foydalanuvshi oziq-ovqatlarni xavfsizligi" mavzusi bo'yicha yigilish memorandumiga asosan oziq-ovqatlarni XI-KO-SKAN tizimi bilan rentgen nazorati xavfsizdir. XI-KO-SKAN rentgen nazorat tizimi 10 MOVgacha daraja-energiyasida ishlaydi. Bizning bir marta tekshirish uchun nurlanish miqdori

100 mkgr, Butunjaxon soglikni saklash tashqilotining keltirilgan raqamidan 5000 marta kam.

SISOP operator sistemasining vazifalari.

SISOP operator sistemasining vazifalari quyidagilardir: -ximoya sistemalarini /kabelli televidenie indikatsiya sistemalarini/ tekshiradi;

- rentgen nazorati protsessini belgilaydi;
- zaruriyat tugilganda rentgen nazoratini /fakat transportirovqada/ tuxtatadi;
- sistema bo'yicha texnik bilan aloqada ega.

Tasvirlash taxlili bo'yicha operator vazifalari. Tasvirlash tahlili bo'yicha operator vazifalari quyidagicha;

- 1 . Gumon qilingan predmetlarda rentgen tekshiruvini o'tkazish.
- 2 . Yuk baennomasi bilan rentgen tekshiruvini taqqoslash.
- 3 . Tekshirilayotgan ob'ekt bo'yicha gumon bor yoki yo'qligi to'g'risida qaror qabo'l qilish.

4 . Gumon qilingan predmetlarni rentgen tekshiruvidagi markirovka holati.

5 . Kompyuterlashtirilgan blankalar ma'lumotlarida baho bo'yicha o'z qarorini kiritish.

6. Tekshirish tahlili bo'yicha operatorlardan biri ma'lumotlar nazorati bo'yicha operator - katta operator tayinlashi kerak.

EXOR kirish operatorining vazifalari. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

- avtomobil xaydovchisini o'zining yuk avtomobiliga jo'natadi.
- tekshiruv taxlili bo'yicha operator tekshiruviga baxo bo'yicha qaror qabo'l qilgunga qadar xaydovchiga o'zining avtomobilini kutish zonasida parkovka bo'yicha ko'rsatma beradi.

- xaydovchiga tekshiruv zonasini tark etish to'g'risida /agar yuk tekshiruv tahlili bo'yicha operator tomonidan gumonli deb topilmagan holatlarda/ ko'rsatma beradi yoki xaydovchini qayta tekshiruv zonasiga /agar operator tomonidan yuk gumonli deb topilgan holatda/ yuboradi.

Qayta tekshirish bo'yicha RSOP operatori vazifalari. Vazifalari quyidagilardir:

- gumonli ob'ektdarda /yuk bayonnomasi, gorizontaal va vertikal rentgen tekshiruv/ uzining ishchi stantsiyasida ma'lumotlar majmuasini qabo'l qiladi.

- rentgen tovarini konteynerdagi gumonli predmetlarning aniq joylashgan urnini ko'rsatadi.

- qayta tekshirishni nazorat qiladi, kompyuter ma'lumotlar blankasiga natijalarni chiqaradi.

- tekshiruv bo'yicha operatorning aniq vazifasi tekshirish natijasidan olingan bojxona tashqilotining ichki tartibiga mos keladi. XI-KO-SKANning texnik tavsifini tasvirlang. XI-KO-SKANning texnik tavsifi:

Tekshirilaetgan ob'ekt	/talab bo'yicha boshqa o'lchamlar/
uzunligi	20 m
Kengligi	2,60 m
Balandligi	4,20 m
Ogirligi	50000 kg
oldingi yuk bardoshligi	10000 kg
old gildirak diametri	650-1100 mm
old gildirak koiei uzunligi	1600-2200 mm

XI-KO-SKAN sistema nazoratini yozing.

Nazorat sistemasi nazorat tunneli va boshqaruv uchun xonadon tashqil topgan. Ob'ektlarni nazorat imkoniyati mavjud. Ularning uzunligi 20 m ga boradi. Avtomatik konveyer sistemasi avtomobilni gorizontaal shakldagi rentgen nurlanish manbai tomon yunaltiradi, /buyurtmaga asosan kushimcha vertikal rentgen nurlanish manbaini urnatish mumkin/. Ob'ektni skanlashtirishdan utkazgandan keyin, uning rentgenli tasviri rakamli shaqilga utadi va xotirada saklanadi. Operator, tasvirning tahlili bo'yicha, aniq rentgenli tasvirga o'tadi, va yuk xaqida rasmiylashtirilgan deklaratsiyani. Bu ma'lumot unga yukda yashirilgan kontrabanda va boshqa noqonuniy mahsulotlar, misol uchun qurol, portlovchi

moddalar yoki narkotiklar bor yoki yo'qligini aniqlash imkonini beradi. Operator faqat yuk xaqidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mahsulot, konteynerning ichiga joylashtirilgan real mahsulot, ya'ni rentgenli tasvirdagi mahsulot xaqida so'raydi. Bu jarayonning yakunida operator tasvirning taxlili bo'yicha natija baxosini ma'lumotlar ishlovi sistemasiga kiritadi. SHubxalanish xolatida operator konteynerni bo'shatish zonasida tekshiruv o'tkazish orqali to'plangan ma'lumotlarni oladi, shunday qilib u shubxali buyum joylashgan joyni aniqlashi mumkin.

Nazorat tuneli beton devorlar va suriluvchi eshiklar bilan berkitilgan. Bu xolat rentgen nurlanishini chiqib ketishini oldini oladi. Radiatsiya ulchov asbobi /datchigi/ tunnel ichidagi nurlanishni mavjudligini kursatib turadi. Boshqaruv xonasi butun sistemaning boshqaruv markazi bo'lib, nazorat tunelidan butunlay ajratilgan. Kabel televideniyasining epik sistemali videokameralari shit va devorlarga joylashtirilgan bo'lib, tekshirilayotgan ob'ektni nazorat qilib turadi. Butun harakat jarayoni, jarayonni nazorat qilib turuvchi displeyda kuzatib turiladi va boshqaruv xonasida joylashtirilgan bo'ladi. To'la yuklash paytida bir tsikl nazorat taxminan 2,5 minut oladi, masalan, bu vaqt ichida butun tunli yuk avtomobili signordan utkaziladi va tasvirning analizi bo'yicha operatorning pultida 2,5 minutdan keyin yuk deklaratsiyasi bilan birgalikda tegishli rentgenli tasvir paydo bo'ladi.

XI-KO-SKAN sistemasining tavsifi. Bu sistema shunday loyihalashtirilganki, u konteynerlarni ko'zdan kechirish portlarida yoki chegarani kesib utish punktlarida mavjud yuklarni kuzdan kechirish ketma-ketligining ajralmas qismi bo'ladi. Buning natijasida bu sistema kontrabandani, ortiqcha qiyinchiliklarsiz yuklarning portning territoriyasi chegaralaridagi harakatini aniqlash ehtimolini oshiradi va vaqtni tejashni ta'minlaydi. To'la yuklashda, tekshiruvning bir tsikli taxminan 3 daqiqa oladi. Bu vaqt mobaynida yuk avtomobilini skanerdan o'tkazishsa tegishli rentgenli tasvirni tahlil qilish mumkin. Yukli avtomobilning tekshiruv tsikli ma'lumotlarni kiritish uchun muljallangan xonadan boshlanadi. U erda xaydovchi yuk haqidagi deklaratsiyani /yuklash uchun xujjatlarni/ kirish

nazorat operatoriga topshiradi. Planet skaner yordamida yuk haqidagi deklaratsiya ma'lumotlari kompyuterga kiritiladi. Bundan tashqari, nazorat operatori ma'lumotlarning kompyuterlashtirilgan blankini tuldirdi. Bu ma'lumotlarning kompyuterlashtirilgan blanki, real tekshiruv tsikli uchun kerak bo'lgan barcha tegishli ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. /masalan, qayd qilish raqami, konteyner nomeri. Ma'lumotlarni kiritish uchun mo'ljallangan xonadan transport vositasi nazorat tunneli kirishidagi ko'rsatilgan yo'riqnomaga joylashtiriladi. Bu ko'tarish holati deyiladi, Buning uchun xaydovchi svetofor orqali ogohlantiradigan ruxsatnoma olishi kerak. Xavfsizlikni ta'minlash moslamalarining faoliyatini bir necha bor tekshirgandan keyin avtomobilning oldi yuki kotariladi. Maxsus boshqaruv pulti yordamida bu operatsiyani kirishdagi operator /ENOR/ bajaradi. Bundan tashqari, bu operator kirish tunnelida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mas'ul javobgar shaxs hisoblanadi. Avtomobilning oldi yuki ko'tarilgach, kirishdagi operator markaziy sistemaning boshqaruv pultiga signal beradi - READI /tekshiruvga tayerlik/.

XI-KO-SKAN sistemasini boshqarish.

Sistemani markaziy boshqaruv pultida jarayon yuk avtomobilini VR I holatida /kutish holati/ transportirovka qilishdan boshlanadi. VR I holati tunnelning ichida chiziqli tezlashtirgichdan bevosita rentgen nuri o'tadigan traektoriyaning oldida /ro'parasida/ joylashtiriladi. Ekranlashtirilgan eshiklar tegishli knopkani bosish orqali sistema operatori yordamida yopiladi.

XI-KO-SKAN skanlashtirish /ko'chirish/ jarayoni.

Skaner qilishning real jarayonini sistema operatori boshlaydi. Chiziqli tezlashtirgichlar sistema boshqarishning markaziy pultidan yoqiladi. Ikki yoqlama kuzatish sistemasi holatida, har bir chiziqli tezlashtirgich skaner qilish uchun zarur bo'lgan rentgen nurlanishini keltirib chiqaradi /generiruet/. Rentgen nurlari /gorizontal va vertikal/ kollimator yordamida chegaralangan bo'ladi va transportirovka yunaltirilgan xolatda tugri burchak ostida ob'ektga kiritiladi. Chiziqli tezlashtirgich rentgen nurlarini keltirib chiqaradi, ular o'z navbatida kollimatordan o'tadi va ob'ekt ichiga kiritiladi. Kollimator orqali chegaralangan. Rentgen nuri u

yoki bu ma'noda o'chadi, ya'ni nurlanishning bir qismi yutiladi. Yutilish darajasi tekshirilayotgan materialning fizik xossalariga bog'liq. Yuqori zichlikka ega bo'lgan material /pulat/ rentgen nurlarini katta miqdorda yutadi, zichlikdagi materialga Karaganda /egoch/. Ob'ektdan utgach rentgen nurlari detektor chizig'iga tushadi. Detektor chiziqlari, tushuvchi rentgen nurlarini elektr signallarga aylantiruvchi, detektorlardan tashqil topgan"

Detektorning ishlash jarayonini tavsiflanishi quyidagicha.

Detektorlarning chiquvchi signallari ketma-ket hisoblanadi, keyin esa raqamli shaklga o'tkaziladi va tasvirni yaratib beruvchi sistemaga o'tkaziladi. Transport vositasi doimo transportirovka sistemasi yordamida harakat qilgani tufayli har bir sanoq tsikli rentgen tasvirini yaratish uchun yangi ma'lumotni ta'minlaydi. Buning natijasida transport vositasi rentgen nuri yordamida skanerdan o'tkaziladi. Skaner qilish jarayoni transport vositasi chiziqli tezashtirgichdan keluvchi rentgen nuri yonidan to'la utgach, avtomatik ravishda nixoyasiga yetadi. So'ng avtomatik ravishda ekranlashtiruvchi eshiklar ochiladi, va xaydovchi yuk avtomobilini olib chiqib ketish uchun o'z joyini egallashi mumkin. Shu paytda olingan gorizontal rentgenli tasvir, tasvirni tahlil qilinadigan operatorga baholash uchun yuboriladi. Sistemada tasvirni analiz qilish uchun mo'ljallangan 4 ta ishchi stantsiya mavjud.

XI-SKAN sistemasining nazorat jarayonini quyidagicha yoritiladi.

Rentgen nazoratli XI-SKAN sistemasi tasvirga hozirgi zamon rakamli ishlov berish /tsifrovaya obrabotka/ va skanirlash printsipli asosida ishlaydi. Rentgen nazoratli XI-SKAN sistemasi bagaj, kul yuki, posylka, chemodanlar, xatlar va xokozolarni tez va sifatli tekshirish uchun ishlatiladi. Sistema transporter bilan jihozlangan bo'lib, bagajni tekshirish uchun tunnel orqali o'tkaziladi. XAYMEN SYSTEMS firmasida tayyorlangan generator predmetni nazorat qilishga kerak bo'lgan rentgen nurini yaratib beradi, Rentgen nazoratli XI-SKAN sistemasi faqatgina harakatlanayotgan predmetlarni nazorat qilish uchun belgilangan" Odamlar va xayvonlarni nazorat qilib bo'lmaydi. Nazorat tsikli - Go klavishatsini qisqa muddatli bosish bilan ishga tushiriladi. Lentali transporter oldingi yunalishda harakatlanishni boshlaydi, va Go /xod/ klavishasi yuqorisida indikator enadi.

Sistemaning boshqarish bloki yordamida tasvirni avtomatik kalibrovkalash sistemasi orqali olish uchun rentgen nurli generator qisqa muddatga yonadi. Bu vazifa transporter lentasida qancha bagaj turishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi. Generator ishlayotganda rentgen nurlanish indikatorini yonadi. Passajirlar va /yuklar/ operator endi yuklarni kirish transporteriga yoki harakatlanayotgan transporterga quyishlari mumkin. Har bir bagaj harakatlanayotgan lentaning o'rtasiga quyilishi kerak. Har bir bagaj nazorat uchun tunelga kirgandan so'ng, chiroq bar'eri to'xtaydi, va rentgen nurli generator yoqiladi. So'ngra rentgen nurlarini yoqish indikatorlari yoqiladi. Nazoratdan o'tish uchun tunneldan utayotgan bagaj rentgen nuri yordamida monitor ekranda yoritiladi.

Skanirolov paytida va undan so'ng ham, rentgen tasviri sinchiqlab tekshirilishi va paydo bo'lgan tasvirga baxo berilishi mumkin. Ob'ekt aniqlangan holda uni unifikatsiyalash mumkin, ya'ni ob'ektni yana bir bor boshqa holda skanirolov kerak. *REV* /orkaga/ klavishi yordamida bagajni orkaga, ya'ni tunnelning kirish kismiga qaytarish mumkin. Bu holda faqat transporterda boshqa yuklar bo'lmasligi kerak. So'ngra ob'ektni aylantirib, *GO* /xod/ klavishasini bosish orqali nazoratning yangi tsiklini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Agarda, tasvirni baholash natijasida gumonlangan predmetlar aniqlansa, *MARK* /markirovka/ klavishasini bosish orqali elektron markirovka bajariladi va bagaj qayta tekshiriladi. Ob'ekt ekranda butunlay tasvirlangandan so'ng markalanishi kerak. /transporter lentasining harakatlanishi yoki to'xtab turishidan qat'iy nazar/. Agar markirovkalangan ob'ekt tekshirish uchun tunneldan chiqsa, ovozli signal yoki eritish lampasi (lampa-vsplyshka) yonadi.

Tasvirning yo'qolgan qismi shunday tiklanadi: Tasvirning yo'qolgan qismini qayta tiklash uchun *REVIEV* /qayta ko'rish/ klavishi yordamida rentgen tasvirining hozirgi va oldingi jarayonlarini qayta ko'rish mumkin. Bunda bagajni o'zini qayta tekshirish shart emas. Oldingi tasvirning ko'rinishi bilan birga oxirgi ko'rinish xabari ham ko'rinishi mumkin. Hozirgi ko'rinishga qaytish uchun *REVIEV* klavishi yana qayta bosiladi. Xalaqitlar printsiplari quyidagicha:

Agarda, sistema qayta tekshirish bloki bilan birga ishlayotgan bo'lsa va rentgen tasvirlarining qayta tekshirish qurilmasiga yuborilishi blokirovqadan chiqarilgan bo'lsa, u holda xavfli predmetlar har doim markirovkalanishi shart. *MARK* klavishasini bosganda, bagaj elektron usuli bilan markalanishidan qat'iy nazar, gumonsimon predmetlarning rentgen tasvirlari qayta tekshirish blokiga yuboriladi. Agarda, yuborish jarayonida tasvirni ko'rish qiyinlansa, xalatgich /pomexa/ bo'lsa, u holda transporter lentasining to'xtashi natijasida yuborilayotgan xabarlarning ikkitasidan biri ekranda tasvirlanadi.

Bagajni nazorat qilishda operatorga beriladigan ko'rsatmalar Bagajni nazorat qilish jarayonida operatoriya quyidagi muhim ko'rsatmalar beriladi:

a/ tasvirni baholash funksiyasini amalga oshirish uchun *STOP* /transporter/ klavishasi yordamida transporter sistemasini to'xtatish kerak bo'ladi. Tasvirni ko'rib, unga baho bergandan so'ng, operator *Go* /xod/ klavishasi yordamida ishni davom ettirishi mumkin.

b/ bagajdan gumonlanish paytida uni qayta tekshirish uchun blokka yuborib, qo'lda tekshirish kerak bo'ladi.

v/ har safar faqatgina qora rangda ko'rinadigan predmetlarni har doim qo'lda qayta tekshirilishi lozim.

g/ hech qachon rentgen tasvirini baholash jarayonida vaqt tanqislik sharoitida ishlamaslik kerak.

d/ tasvirni baholash funksiyalarining afzalliklaridan foydalanish lozim.

XI-SKAN-12080 sistemasining detektorlar sistemasi quyidagicha:

Detektor turlari - 9 ta smenali modullardan tashqil topgan bo'lib, u rentgen nurlar energiyasini har xil miqdordagi elektr kuchlanishiga o'zgartirib beradi. Bunday o'zgartirish uchun har bir detektor modulida 64 ta stintsillyatsionli kristallar joylashtirilgan bo'lib, ular kuchlanish kuchaytirgichi va 64 ta fotodioldarga ulangan bo'ladi. Rentgen nurlar generatorining va detektor modullarining 4 kurinishli formada joylashtirilganligi sababli, teskari tomondagi burchak diagonallari kurinishi, tunnelning ko'ndalang kesimi to'la skanirlangan

bo'ladi, ya'ni katta xajmdagi narsalarni /ob'ekt/ to'la nazorat qilish imkonini beradi.

Sistema detektorlarining ishlash tartibini shunday:

Favqulodda ingichka rentgen nurlar to'plami ob'ektning to'la uzunligi bo'ylab skaner qila olmaydi, balki buni qalinligi 1 mm bo'lgan qatlamlarda bajaradi. Qatlamlarni skaner qilish natijasida svetodiod va stsintillyatsion kristallar yordamida kuchlanish miqdorini berishga va bitta qatlamni skaner qilishga bor yo'g'i bir necha millisekund vaqt sarf qilinadi. Har bir qatlamni skaner qilishga 576 kuchlanish miqdori beriladi, ya'ni modullar va kristallarning joylashtirilganligi sababli ob'ektning har bir qatlami 576 tasvir elementlariga bo'linadi. Berilayotgan kuchlanishlar miqdorlari rentgen nurlarining yutilish /pogloshenie/ darajasini o'lchaydigan vosita hisoblanadi. Qadam-ba qadam harakatlanayotgan ob'ektning qatlamlari ketma-ket skanir qilinadi va 576 kuchlanish miqdori tasvirlarini raqamli qayta ishlash sistemasiga keyingi qayta ishlashlarni amalga oshirish uchun ketma-ket yuboriladi. Bu erda alohida kuchlanishlarni raqamli o'zgartirishlar va miqdorlarni raqamli videoxotirada saqlab qolish operatsiyasi bajariladi. So'ngra xotiradagi barcha ma'lumotlar qora-oq yoki rangli monitorda namoyish etiladi.

Ob'ektning har bir qatlamini 576 xil kuchlanish miqdori birin-ketin rentgen nurlarining yutilish darajasiga qarab 576 tasvir elementlaridan tashqil topgan holda har xil ko'rinishida xuddi rentgen tasvirlarini vertikal kolonna holatida tasvirlaydi. Nazorat ma'lumotlarini etap bilan yuborish natijasiga o'xshab skaner qilish protsedurasi vaqtida monitor ekranida vertikal stolbiklarni ketma-ket paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Rentgen tasvirlarining stolbik xolatda tasvirlanishi, ularning bir-biriga zich xolatda joylashishi - prokrutka deyiladi. Ekraning ko'ndalang yuzi bo'ylab jami 684 stolbik tasvirlanadi. XI-MA sistemasi bilan jihozlangan sistemalar tovarlarning turini aniqlash uchun ikki barobar ko'p miqdorda detektor modullariga egadir. Ikkita modul har xil sezuvchan kristallar bilan birga birin-ketin shunday urnatiladiki, bunda ob'ektning har bir elementi skaner vaqtida birgina emas, balki ikkita kuchlanish miqdorini generatsiya qilishi zarurdir. Ob'ektning har bir elementini tabiiy materialini xisoblash negizida

tasvirlarni qayta ishlash raqamli sistemasi yordami bilan aniqlanadi. Rangli monitorda har xil materiallar har xil ranglarda tasvirlanadi. Hamma sistemalarda turli xil detallarni yaxshilash maqsadida tasvirlash baxosining bir qator vazifalari ko'rib chiqildi. Rentgen nurlarini generatsiya qiluvchi har qanday texnik uskuna har xil milliy qoidalarga muvofiq vakolatli organlar tomonidan ro'yxatga olingan yoki ushbu uskunadan foydalanishga litsenziya olingan bo'lishi shart. Ushbu tartib qoidalar rentgen nurlarini ishlatish bilan vizual axborotlar oluvchi XI-SKAN sistemalariga ham taalluqlidir. Rentgen nazorat sistemalarini ishlatishdan oldin bu haqda vakolatli organlarga xabar berishi lozim. Aks holda, bunday sistemalarni ishlatish taqiqlanadi. XAYMAN sistemalarida ishlashda javobgar shaxs.

Nurlanishlar haqida qonun dalolatnomalariga muvofiq texnik ekspert tomonidan sistemani o'rnatilish joyi hal bo'lgan joydagina tekshirilishi lozim. Bundam tashqari, nurlanishlardan ximoyalanishga javobgar shaxs hamda uskuna egasi etib xizmatchi tayinlanishi zarur. Uskuna egasi uskunani qachon foydalanishga topshirishni rejalashtirgan bo'lsa, u holda bu haqda uskunadan foydalanishga ruxsat beruvchi organga xabar qilishi va quyidagi xujjatlarni taqdim etishi lozim:

a/ uvedomlenie blankasi,

b/ nurlanishdan ximoyalanishga javobgar etib tayinlangan xizmatchini ma'lumotini tasdiqlovchi xujjatni,

v/ muvofiqlik sertifikatini,

g/ ushbu uskunaning urnatilishi muvofiqlik sertifikatini talablariga /maxsus tekshiruvdan utgan/ javob berishini tasdiklovchi sertifikat,

d/ agar qabo'l qilish tekshiruvlari bo'lib utgan bo'lsa, u holda texnik-ekspertning sertifikatini /tekshiruvlar haqida xisobot bilan.

Buyurtma berilgan sistema olib kelinishiga qadar haridorga zudlik bilan a,v,g punktlarida ko'rsatib o'tilgan barcha kerakli nusxadagi xujjatlar taqdim etiladi. Aks holda, barcha kerakli nusxadagi xujjatlar uchun Xaymen Systeme tashqilotiga /kompaniya/ buyurtma beriladi.

XI-SKAN alohida qoidalari haqida muhim qoidalarini tasvirlang.

Transport vositalariga o'rnatilgan ko'chma nazorat rentgen apparatlaridan foydalanishning alohida qoidalari mavjud: Har xil joylarda ko'chma rentgen sistemalaridan foydalanishga faqat ma'lum birgina sharoitdagina ruxsat beriladi, agar savdo palatasi tomonidan ko'chma sistemalaridan birinchi ko'rsatilgan foydalanilish joyidan boshqa joylarda ham foydalanishga ruxsatnoma berilgan bo'lsa, Ushbu ruxsatnomani olish uchun vakolatli organlarga murojaat etish zarur. Ko'chma sistemalaridan belgilannagan joyda foydalashishga ruxsat beriladi, agar ushbu foydalanish yuzasidan vakolatli organlarga ishlatishni boshlashga 46 soat vaqt kolgunga qadar ma'lumot taqdim qilingan bo'lsa. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi nazorat va aloqaning texnik vositalari boshqarmasining vazifalarini aytib. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi aloqa va nazorat texnik vositalarini qo'llashi mumkin ekanligi O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatida nazoratning texnik vositalarini qo'llash va yangidan jixozlab borish, aloqa va nazoratning texnik vositalari boshqarmasiga yuklatilgan va u quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bojxona organlarini nazoratning zamonaviy texnik vositalari bilan jihozlash;
- boshqarmada aloqaning yagona tizimini yaratish va foydalanish;
- boshqarmada aloqaning zamonaviy vositalaridan foydalanish, rivojlantirish va jihozlash;
- texnik vositalardan foydalanishning reglamentini ishlab chiqish;
- boshqarma aloqa sistemasining aniq ishlashini ta'minlash;
- nazoratning texnik vositalari va aloqani uzlyuksiz ishlashini ta'minlash uchun profilaktika va joriy remontini olib borish.

Nazorat va aloqaning texnik vositalari boshqarmasi funksiyalari nimalardan iborat?

Nazoratning texnik vositalari va aloqa boshqarmasi o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajara borib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- bojxona postini jixozlashda nazoratning texnik vositalari tabelini kerakligi bo'yicha tuzish;

- bojxona boshqarmalari va bojxona maskanlarining texnik jixozlanganligi tugrisidagi ma'lumotlar bazasini tuzish;

- boshqarma aloqa sistemasini rivojlantirish, takomillashtirish ishlarini olib borish;

- hududiy bojxona xizmati texnik xizmatlarini o'qitishi va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash;

DBQ va uning hududiy boshqarmalaridagi texnik vosita va aloqa sistemasidan foydalanishning va holatini nazorat qilish.

- Nazorat texnik vositalari va aloqa vositalarini ishlatishda qoida buzarliklar aniqlanganda DBQ boshliqlarini xabardor qilish.

- aloqa va nazoratning texnik vositalarini ishlatish, jixozlash, remont qilish va saqlash bo'yicha normativ xujjatlar tayyorlash. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari shuningdek boshqa davlatlar bojxona xizmatining, nazoratning texnik vositalari va aloqa ishida to'plangan malakani umumlashtirish va tarkatishdan iborat.

Yuqori aniqlikka ega rentgen nazorati texnik vositalari haqida tushuncha bering.

Yuqori aniqlikka ega bo'lgan XI-SKAN rentgen nazorat sistemasi, rentgen tasvirlarini generatsiyasini ta'minlovchilar ichida ko'proq rivojlangani sifatida tan olingan. Eng zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan bu sistemalar, tekshirilayotgan narsa /predmet/ning tasvirini olishda yarim o'tkazgichli detektorlardan foydalanadi. Rentgen nurlarini hosil qilish stintillyatsion kristallar yordamida amalga oshiriladi, Detektorlarni maxsus joylashtirish yo'li bilan, deyarli barcha sistemalarda aks tasvir burchak ostida bo'lmagan holatda olinadi.

XI-SKAN nazorat vositasini eritib bering.

XI-SKAN nazorat rentgen sistemalari olib o'tilayotgan yuklarni qo'l yuklarini, chemodan, posylka, xat va boshqa yuklarni tez va sifatli tekshirish uchun mo'ljallangan. Nazorat sistemasi transporter /lenta/ bilan jixozlangan, bu transporter /lenta/ qo'l yuklarini tekshirish maqsadida tunneldan olib utishga xizmat qiladigan Xaymen Sisteme firmasida tayyorlangan generator rentgen

nurlanishini hosil qiladi, bu esa predmet /narsa/larni nazorat qilishda kerakli. Kollimator yordamida, veersimon rentgen nurlari zarrachalari generatsiyalanadi va harakatdagi predmet /narsa/ning aksini hosil qiladi. /skaniruet/.

XI-SKAN rentgen texnik nazorat vositasi ekranida kuzatuv ma'lumotlari qanday hosil qilinadi?

Rentgen apparati yordamida bojxona nazoratidan utayotgan yuklar haqida kuzatuv ma'lumoti o'ta sezuvchan yarim utkazgichli ditektozlar yordamida sanoq son shaklini oladi va signallarni qabul qilish protsessorida kayta ishlangach, sanok son /tsifrovoy/ video-xotirada saqlanadi. Bu video tasvir keyinchalik barcha mayda-chuyda detallarni bilan ok-kora yoki rangli monitor ekraniga chiqariladi. Operator monitor ekranidagi predmet aksini, bir necha funktsiyalarni bajarib, tasvirni sinchkovlik bilan nazoratdan o'tkazadi, bu tasvirlar tahlili unga asqotadi.

Bojxona nazoratining texnik vositalariga tushuncha bering.

Bojxona nazoratining texnik vositalari - bu bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida, bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi taqiqlangan predmetlarni yoki tovar-moddiy boyliklarini noqonuniy olib o'tilishini aniqlash maqsadida qo'llaniladigan maxsus texnik vositalardir. Bojxona kodeksining 39-moddasiga kura, bojxona nazoratining amalga oshirish jarayonida insonlar, xayvonlar va o'simliklarning xayoti va sog'lig'iga bezarar bo'lgan, hamda tovarlar va transport vositalariga ziyon yetkazmaydigan texnik vositalar ishlatilishi mumkin. Texnik vositalardan foydalanish qoidalari Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan Bojxona kodeksiga muvofiq belgilanadi.

Bojxona nazoratining texnik vositalarini klasslari bo'yicha sanab o'ting.

Bojxona nazoratining texnik vositalarini shartli ravishda 10 klassga bo'lish mumkin:

- ko'rikdan o'tkazish rentgen texnikasi;
- inspeksion-ko'rikdan o'tkazish komplekslari;
- qidiruv texnik vositalari;
- aniqlov /identifikatsiya/ texnik vositalari;
- kontrabanda holatlari bo'yicha xujjatlashtirish va surishtiruv texnik

vositalari;

- vizual kuzatuv texnik vositalari;
- audiovideo axborot tashuvchilarni texnik nazorat vositalari;
- tezkor aloqa texnik vositalari;
- ko'rikdan o'tkazish uskunasini;
- bojxona ta'minlovini urnatish vositalari.

Ko'rikdan o'tkazish rentgen texnikasini ta'riflang.

Ko'rikdan o'tkazish rentgen texnikasi bu Bojxona nazorati texnik vositalari ichida asosiysi bulib, yo'lovchilarning qo'l yuklari va bagaj, aloxida junatilgan bagaj va urta xajmli yuklar, hamda xalqaro jo'natmalarni ochmasdan, vizual ko'rikdan o'tkazish vositasidir. Amalda ko'rikdan o'tkazish rentgen texnikasining ikki turidan foydalaniladi:

a/ flyuoroskopik-rentgen ekranida tekshirilayotgan ob'ektning "solli" tasvirini chiqaradi.

b/ rentgenotelevizion - maxsus elektron va televizion kurilmalar orqali tekshirilaetgan ob'ektning tasvirini shakllantirib, xotiraga ezadi va ekranga uzatadi. Bunda ob'ekt konveyer sistemasida harakatlanadi.

Inspeksion ko'rikdan o'tkazish kompleksini ta'riflang.

Inspeksion ko'rikdan o'tkazish kompleksi - bu maxsus elektron kurilmalar majmuidan iborat bo'lgan bojxona nazoratining texnik vositasidir. Bu kompleks asosan katta xajmli ob'ektlarni tekshirishga muljallangan bulib, bu qanday ob'ektligiga karab, 3 turga bulinadi:

a/ avtoullovda tashishga muljallangan 3 tonnagacha bo'lgan yuklar, avtopritseplar, mikroavtobuslar va engil avtomobillarni tekshirishga muljallangan komplekslar;

b/ dengiz va temir yo'l konteynerlari, treylerlar va refreteratorlarni tekshirishga muljallangan komplekslar;

v/ aviatsiya konteynerlarini tekshirishga muljallangan komplekslar, Inspeksion ko'rikdan o'tkazish komplekslarida yuqori kuvvatli rentgen kurilmalari /I turdagi komplekslar/, elektronlarni chizikli kuchaytirgich kurinishidagi nurlanish

manbalaridan /2 va 3 turdagi komplekslar/ foydalanilgan. Bundan tashkari, bu komplekslarda tekshirilayotgan ob'ektdan olingan signallarni kayta ishlash, tahlil qilish, xotiraga ezish, televizion monitorda ikki tyokislikdagi /gorizontal va vertikal/ sifatli "soyali" tasvirni chiqarishga mo'ljallangan o'ta sezgir elektron qurilmalar mavjud. Inspeksion ko'rikdan o'tkazish komplekslari radiatsion xavfsizlik talablariga javob beruvchi alohida imoratlar ko'rinishida bo'ladi. Bu komplekslar uz ichiga inspeksion zona, chuqur nazorat boislari, bojxona laboratoriyalari, audiovideo axborot tashuvchilarni nazoratdan o'tkazish joyi, bojxona xujjatlarini kompyuterlarda qayta ishlash xonalari va boshqalarni oladi.

Qidiruv texnik vositalarini ta'riflang.

Qidiruv texnik vositalari qo'l yuki predmetlari, yo'lovchilarning bagaji, xalqaro pochta jo'natmalari, yuklar va transport vositalarining tekshirish mushqo'l bo'lgan joylarini bojxona nazoratidan o'tkazish imkoniyatini beradigan texnik vositalar turidir. Qidiruv texnik vositalariga metallodetektorlar, ko'rik oynasi, endoskoplar, elektr fonarlar va narkotik moddalarni masofadan aniqlash texnik vositalari kiradi. Metallodetektorlar - metall buyumlarni topshi imkonini beradigan elektron qurilmalardir. Metallodetektorlar quyidagi turlarga bulinadi:

- portitiv, ya'ni asosan yo'lovchilarning bagaj va qo'l yuklari, ularning kiyimlari ichiga yashirilgan metall buyumlarni topshiga mo'ljallangan;

- statsionar metallodetektorlar inson tanasi va kiyimlariga berkitilgan metall buyumlar, sovyuk va utochar kurollarni topishga ishlatiladi;

- ko'chirib yuriladigan metallodetektorlar alohida turdagi yuklar, ya'ni to'qiluvchan, qadoqlangan yuklar, yogochlar orasidagi metall buyumlarni toshga ishlatiladi.

5.6. Bojxonada qo'llanilayotgan hozirgi zamon texnik vositalar

Rangli tasvirlash orqali axborot materiyallarini kodlash Xi-MAT uslubi orqali operator belgilangan rejimda aksariyat axborotni qabul qiladi. Tasvirning

qo'shimcha yaxshilanishi shuningdek, aksariyat hollarda bagajning qo'l bilan tekshirilishida bekordan ortiqcha vaqt ketishining oldini oladi. XI-MAT mul'ti energetik usuli boshqa usullarga nisbatan bagaj ichidagi predmetlarni aniqlashda tejimli rangli tasvir orqali tekshirishda qulaylikka ega. XI-MAT tizimi shunday maxorat bilan qurilganki, operatorni elgonchi-rangli rejim tug'diradigan qiyinchiliklardan xalos etadi. Bunday holatda qo'shimcha axborotlar operatorni ortikcha band qilmasdan, aksincha uning to'g'ri xulosa chiqarishga ko'maklashadi.

XI-SKAN 40 t.e. tizimini izohlab bering.

XI-SKAN 40 t.e. tizimi eni 120 sm, buyi 80 sm bo'lgan ob'ektlarni tekshirishda qo'l keladi. Tizim transporteri erdan 40 sm masofada joylashgan og'ir avia dengiz bandargoxlari, yuk terminallari, bojxona punktlarida ishlash uchun mo'ljallangan.

Xaymen tizimini imkoniyatlarini izohlab bering.

Xaymen rentgen tizimi quyidagilar:

– rentgen tasvirida operatorlarning puxta tayyorgarligini tekshirish uchun qurol yaroq, portlovchi moddalarning elgondan ko'rsatila olishi.

– operatorlar, passajirlar va tekshiruvchi shaxslar uchun tula xavfsizligi /rentgen nurlaridan zararlanish xavfining yukligi.

XI-SKAN 12080-40 S tizimini texnik tavsifini ayting.

XI-SKAN 12080 - 40 XS tizimining texnik tavsifi:

- ekranda xech qanday tebranishsiz 70 GI tasvirining aks etishi;
- pulatga 26 mm gacha kira olishi;
- ekranda o'ta aniq tasvir;
- 38 klassli Amerikacha sifatli simlarni ham aniqlay olish kobiliyati $d= 0,1$ mm/;
- konturlarning real vakt mobaynida juda aniq tasvirini bera olish
- juda keng dinamik kenglik;
- ekranda 1024 katorni tasvirlashdagi yuksak imkoniyatlari bilan xavfsizlikni ta'minlaydi;
- a'lo darajadagi rentgen tasviri bilan;

- eng mayda zarralarni ham o'n olti karra kattalashtirishi bilan;
- materiallar guruxini ular rangiga karab ajratishi, narkotik moddalar, portlovchi moddalar va boshqa kontrabandani aniqlashga imkon yaratadi;
- avvalgi rentgen tasvirni kaytarish va takroran uni tekshirishni imkonini beradi;
- rentgen tasvirini magnit tasma-siga tuda eza olishi yoki rentgen kursatkichlarni markaziy baxolash;
- rakamli 6,5-17,5 Mbaytli xotira saklashga muljallangan esda saklovchi kurilmaning mavjudligi;
- esda saklovchi kurilmada aniqlik darajasi mikdori 4096 maksimal dinamik diapazonning mavjudligi.

XI-MAT sistemasini izoxlab bering.

Standart rentgen sistemalaridan farkli, buyurtma asosida etkazib beriladigan XI-MAT sistemi, tekshiriliyetgan materialning kalinligidan kat'iy nazar, kurinishini izoxlash uchun sharoit yaratadi. Rangli monitorda har xil materiallar har xil rangda tasvirlanadi. Materialning kalinligi ranlning balandligi bilan aniqlanishi mumkin.

5.7. Konteyner va katta xajmlik yuklarni nazoratdan o'tkazish texnik vositalari

I-SKAN ob'ektini ro'yxatga olish sistemasini izoxlab bering.

Optimal universal texnologiya asosida tuzilgan XI-SKAN rentgen nazorat sistemi mijozning ko'pgina ixtiyoriy talablarini oson qondiradi. Ro'yxatga olish sistemi bagajni o'lchash maqsadida ataylab sozlangan, ro'yxatga olish stoykasi ko'rinishida jihozlangan, bir umumiy markaz tomondan boshqarilishi asosida bir nechta inspeksion sistemalardan tashqil topgan. Rentgenli tasvirni baholash alohida nazorat xonasida olib boriladi. Rentgenli nazorat kabinet sistemasida tunnelda tekshirish uchun kirish va chiqishda urnatilgan kurgoshinli pardalar, XI-SKAN rentgenli nazorat sistemi nazorat vaktida epiluvchi avtomatik eshiklar bilan jixozlangan. Bu sistemalarni ishlatish qoidalari ixchamroq hisoblanadi.

SKANMOBIL haqida tushuncha bering.

XI-SKAN rentgenli nazorat sistemalari bilan jixozlangan transport vositalari, treylerlar SKANMOBIL /skanavtomobil/, SKANVAN /skanfurgan/ yoki SKANTREILER /skantrayler/ deb ataladi. Bu sistemalar bagajni tekshirilaetgan joyda nazorat qiladi, ya'ni samolet trapining oldida. XI-SKAN rentgenli nazorat sistemalariga qo'shimcha ishlov berish yordamida, ularga uzi yurar moslamalarga aylantirish mumkin va shuning uchun ularni doimiy bir joyga o'rnatib quymasdan ishlatish mumkin.

EDS sistemasi haqida tushuncha bering.

EDS sistemasi portlovchi moddalarni avtomatik ravishda aniqlash uchun rentgenli nazorat texnologiyasining takomillashishidan keyingi etap bo'ladi. Bu sistemalar bagaj tekshiruvchi konveyer sistemasi mavjud bo'lgan moslamalarga kuyib ishlatish mumkin va shu bilan butun bagajni tulaligicha avtomatik ravishda nazoratdan o'tkazilib, aviatsiyaga yuklatiladi. Bu sistemalar yordamida portlovchi moddalarning taxminan hammasi aniq topiladi. XI-SKAN nazorat sistemalarining hammasi ishlatishda soddaligi bilan ajralib turadi. Lyokin ushbu sistemalarni ishlatishdan oldin, ishlatish tartibini tulik o'rganish, asosan XI-SKAN rentgenli nazorat sistemasi ishlatishda xavfsizlikni uz ichiga oluvchi, ichida muxim ma'lumot mavjud bo'lgan texnika xavfsizligi haqidagi kursatmaga e'tibor berish tavsiya etiladi. XIGN-MAT mul'tienergetik metodni izoxlab bering. Xozirgi vaktida jaxonda portlovchi modda, narkotik yoki kurollarni passajirlar bagajidan yoki yuborilaetgan yuklardan avtomatik ravishda topish uchun katta harajatlar sarflanaetgan bo'lsada, bunday sistemalar xaligacha yaratilmagan.

Yaderli fizika usulidan foydalanib, portlovchi moddalarni topishda kerakli natijalarga erishilmadi. Kimyoviy sezgirlik metodidan foydalanishda esa avtomatik ravishda bagaj-predmetlaridan namuna olish muammosi xaligacha ochilmagan. Xozirgi vaqtda, ya'ni rentgenli texnologiyalarga rioya etuvchi avtomatik ravishda xatosiz nazorat kitish metodi ustida ishlar olib borilmokda. Xaymen sisteme firmasi tomonidan individual buyurtma asosida kurib solishtirish shartli bilan yuqori darajali xavfsizlikni yaratib beruvchi rentgen metodikasi urnatilgan.

Bulardan esa XIGX-MAT mul'tienergetik metodikasi o'z ichiga oluvchi yangi imkoniyatlarga erishish mumkin.

Qimmatbaho metallarni aniqlash uchun kimyoviy refaollar.

Qimmatbaho metallarni aniqlash uchun - maxsus naborlar va maxsus Germaniyada tayyorlangan paketchalar, metallarni tezda boshlangich aniqlash imkonini beradi. Boshlangich tez aniqlashdan keyin maxsus laboratoriyalarda albatta yana aniqlanishi kerak. Bu maxsus naborlar- kislotalardan tayyorlangan bulib; kislotaning konsentratsiyasi/mikdori/ni uzgartirib, har xil miqdordagi qimmatbaho metallarni aniqlash mumkin. Ya'ni oltin va kumushdan tayyorlangan buyumlarni. Bu qimmatbaho metallarni aniqlashda asosan kimyoviy nitrat kislotasi va uning eritmasi ishlatiladi. Bu boshlang'ich tekshiruv bo'lib; bunda kislotalar ta'sirida qimmatbaho metallning rangini kay xolatda o'zgarishiga qarab, qaysi sinfli va qancha miqdorda ekanligi aniqlanadi. Qimmatbaho metaldan tayyorlangan buyumlarga shikast yetkazmaslik va sifatiga zarar yetkazmaslik uchun ularning ko'rinmas tomonidan namuna, yoki ichki bilchizik sezilib, unga maxsus eritmalardan tomizib ko'riladi va natijasi etalonga solishtirish yo'li bilan farqlanib olinadi, ya'ni rangi qay darajada, qaysi rang bo'lganligi bo'yicha.

Qimmatbaho metallarning namuna bo'yicha detektorini ishlashi quyidagicha.

Qimmatbaho metallar namunalarni aniqlash analizatori- bu elektr toki bilan ishlashga asoslanib, unda tekshirilayotgan qimmatbaho metall qaysi sinfga tegishliligi va kancha miqdorda borligini maxsus datchiqlar orqali kursatadi. Bu analizatorlar kurilmasi metodikasi asosan metallning potentsiallar farki bo'yicha ajratishga asoslangan holda aniqlab beradi. Bunda maxsus kimyoviy refaollar ta'sirida metallar bilan reaksiyasi ta'sirida kontakt hosil qilinadi. Bu analizator yordamida, o'rganilayotgan metallning tarkibini, uning xossalarini ham o'rganish mumkin. Bu analizator yordamida, ya'ni qoidaga ko'ra murakkab bo'lgan qimmatbaho metallarni ham, o'rganib aniqlab olsa bo'ladi, Ya'ni oltin, kumushdan tashqari, platina gruppasiga kiruvchi qimmatbaho metallarni ham aniqlab beradi.

Qimmatbaho toshlar analizatorini quyidagicha.

Qimmatbaho toshlarni aniqlovchi analizator /detektorlar/ ishlarni asosan elektr tokiga asoslangan. Bu analizatorida qimmatbaho toshlarning sinfi bo'yicha ajratish imkonini beradi. Ya'ni /olmos, safir, rubinga ajratish mumkin. Bu analizatorning metodikasi asosan tabiiy qimmatbaho toshlarning apparatda elektr toki ta'sirida bir qancha vaqt qizdirish plastinasida, qimmatbaho toshlarning o'zidan issiqlik o'tkazuvchanligiga asoslanib aniqlanadi. Natijada, issiqlik o'tkazuvchanlik o'ljasi maxsus etalonlarga solishtirib sinflanib to'lqini aniqlanadi. Agar tekshirilayotgan qimmatbaho toshning issiqlik o'tkazuvchanligi ma'lum bir vaqt mobaynida oshib ketsa, u holda bu tosh qimmatbaho toshlar turkumiga kirishini bildirib, apparat signal beradi va indikatsiya strelkasi orqali issiqlik o'tkazuvchanligini datchiqda ko'rsatadi.

5.8. Narkotiklarni aniqlash uchun qo'llanilayotgan texnik vositalar

Narkotik moddalarni aniqlash uchun kimyoviy refaollar quyidagicha.

Giyohvandlik moddalarini aniqlash uchun kimyoviy refaollar-bu identifikatsiyalash /solishtirish/ usullaridan biri, giexvand moddalarni aniqlab berishdagi ekspress-analiz yurgizishdagi ta'minlovchi uslubdir. Bu tezda aniqlovchi boshlangich ekspertiza ishlari xisoblanadi. Masalan, opiy, gashish, heroin, gashish egi, kokain, morfin, barbikuatlar, LSD va boshqalar giexvandlik moddalariga kiradi. Maxsus kimyoviy refaollar tuplami yordamida ham tezkor boshlangich ekspress-analiz o'tkazish mumkin. Giexvandlik moddalarning bu usul bilan aniqlash metodikasi - bu giyoxvand moddalarni kimyoviy refaollar ta'sirida o'z rangini uzgartirishga asoslangan. Natijada xosil bo'lgan rangni maxsus rangli identifikatsiya jadvaliga solishtirish orqali giyohvandlik moddasining qaysi turkumiga tegishliligi aniqlanadi.

5.9. Bojxona nazoratida texnologik operatsiyalarni bajarish

Kontrabanda ishlariga surishtiruvchi va xujjatlarni tuldirish tartibini quyidagicha. Kontrabanda ishlarini xujjatlashtirish va surishtirish texnika vositalarini - qo'llash albatta keyingi ishlarni oldini olish, qilingan ishlarni tuliq ochib berish, ularga sherikchilik qilgan shaxslarni aniqlash, undan tashqari qilingan jinoyatlarni, qonun buzarlilklarga nisbatan isbotlab berishga yordam beradi. Kon-

trabanda ishlarini yuritish va xujjatlashtirish yordamida yashirish usullari o'rganiladi, undan tashqari qilingan jinoyatlarni o'z so'zidan, xolislar so'zidan olingan ko'rsatmalarni kassetaga yozish, tushirish xollari o'rganiladi. Surishtiruv texnik vositalariga quyidagilar tegishli: vositalarni aniqlash tuplami, bularga qidiruv va izlarni aniqlash chemodani kiradi. Xujjatlashtirish texnik vositalariga: fotoapparatlar, o'z vaqtida otpechatkalarini olish, videokameralar, videomagnitofonlar, telemognitorlar, diktofonglar va boshqalar kiradi.

Nazorat uchun savollar

1. Bojxona logistikasida bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashish deganda nimani tushunasiz?
2. Kontrabanda va bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashishda bojxona nazoratida qo'llanilayotgan texnik vositalar?
3. O'zbekiston Respublikasi kontrabanda va bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashishda axborot texnologiyalarini joriy etishning asoslari.
4. Kontrabanda va bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashishda axborot texnologiyalarini qo'llashni samaradorligi.
5. Bojxona tizimida kontrabanda va bojxona qoida buzarliligiga qarshi kurashishni rivojlantirishda yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ahamiyati.
6. Elektron boshqaruv deganda nimani tushunasiz?
7. Bojxonada qo'llanilayotgan radioelektron qurilma ish jarayonini tushuntiring
8. Rentgen aparaturalarida tovarlarni konteynerdagi gumonli predmetlarni qanday aniqlaydi
9. Tekshiruv bo'yicha operatorning aniq tekshirish natijasidan olingan bojxona ma'lumotlarini saqlash jarayonini aniqlang
10. Qimmatbaho metallarni aniqlash uchun qanday kimyoviy refoollar ishlatiladi.

6-BOB. BOJXONA LOGISTIKASIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLGIYALARINING AHAMIYATI

Logistika zamonaviy rivojlanishining borishini belgilab beradigan aniqlovchi sifatida axborot-kompyuter texnologiyalarining rivojlanish jarayonida shakllangan axborot logistika tarkibiy qismi namoyon bo'ladi. Aynan axborot logistikasi moddiy oqimga hamrohlik qiladigan hamda logistika tizimi uchun ta'minot, ishlab chiqarish va sotuvni bir-biri bilan bog'laydigan muhim element sanalgan ma'lumotlar oqimini tashqil qiladi va muvofiqlashtiradi. Logistika zanjiri bo'yicha o'zatiladigan elektron ma'lumotlar to'plamlari yordamida butun zanjirning ham, alohida bo'g'inlarning ham faoliyati tahlil qilinadi, uning holati raqobatchilar holati bilan taqqoslanadi. Ma'lumotlar bazasi strukturasini, qoidaga ko'ra, korxonalar faoliyati xususiyatlarini aks ettiradi va uning eng muhim nuqari, ularga kiruvchi va chiquvchi yo'llar va mos keluvchi axborot oqimlarini tavsiflaydi.

Hozirgi kunda elektron hujjat almashinish kompyuter tizimining joriy qilinishi yuk bilan bir paytda aloqa kanallari orqali har bir jo'natilayotgan yuk birligi bo'yicha barcha rekvizitlar, kerakli tovar tavsifnomalarini jo'natishga imkon beradi. Bunday tizimda yo'nalishning barcha qismlarida istalgan payt yuk haqida batafsil ma'lumot olish va shu asosda boshqaruv qarorlari qabul qilish mumkin.

SHunday qilib, axborot logistikasi bugungi kunda to'g'ridan-to'g'ri xalqaro savdoning bazaviy jihatlariga daxldor bo'lib, bojxona organlarini tashqi iqtisodiy faoliyat logistika tizimi institutsional infratuzilmasiga integratsiyalamoqda.

6.1. Bojxona logistikasida axborot tizimlari

Umumiy xarajatlarni pasaytirish va moddiy taqsimotni boshqarish integral vositasi sifatida logistika g'oyasiga talab hali mavjud bo'lmagan «logistikagacha bo'lgan davr»da korxonalar rahbariyati hal qiladigan asosiy muammolar jismoniy oqimlar va xomshyo sohasida bo'lgan.

Tovarlarni ta'minotchidan iste'molchi tomon harakatlantirish jismoniy jarayonida axborot ta'minoti deganda faqat ilova qilingan axborot nazarda to'tilgan. Logistika yondashuvlarining shakllanishi va tarqalishi bilan korxonalarda

qo'yilgan maqsadlarga muvofiq axborot oqimlari to'plash, barcha logistika subtizimlarini (ta'minot logistikasi, ishlab chiqarish logistikasi, taqsimot logistikasi va b.) bir butun qilib birlashtirish maqsadida logistika axborot tizimlarini kundalik amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyatga ega bo'la boshladi. Mos ravishda, tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarda ham aynan axborot ta'minoti faoliyatning barcha amaliy jihatlarida vaziyatga oid va istiqboldagi muammolarni hal qilishda asosiy rol o'ynashi lozim.

Axborot ta'minoti logistika tizimining faoliyat yuritishi uchun axborot sharoitlari yaratish, uni zarur axborotlar bilan ta'minlash, axborot qidirish, olish, saqlash, to'plash, uzatish va qayta ishlash vositalari tizimga kiritish va ma'lumotlar banki tashqil qilishni taqozo etadi. Axborot ta'minoti yaratishning dolzarbligi shu bilan asoslanadiki, jamiyat va ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining zamonaviy darajasida axborot uning poenttsial imkoniyatlari korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun keng istiqbollar ochib beradigan mustaqil ishlab chiqarish omilini ifodalaydi.

Hozir ishlab chiqarishni boshqarishda asosiy jihat alohida subtizimlar faoliyatida markazlashuv va nomarkazlashuv optimal nisbati hisoblanadi. Bunda har bir subtizimning optimal tashqil qilingan lokal faoliyati butun logistika tizimi optimal faoliyatini anglatmaydi. Alohida subtizimlarning funksional, demak, axborot jihatidan alohida bo'lib olishi hattoki yuqori malakali personal, zamonaviy asbob-uskuna va texnologiyalar mavjudligida ham butun tizimi faoliyati samaradorligini pasaytirishi mumkin. Har qanday korxonada uchun qaror qabul qilish maqsadida boshqaruvning to'rt darajasi ajratilishi mumkin bo'lib, ularning har birigina erishish uchun mos keluvchi axborot zarur bo'ladi (5.1-rasm):

- boshqaruvning quyi darajasi – yakuniy iste'molchilar uchun alohida bitimlar va so'rovlarni amalga oshirish borasida axborot;
- tezkor boshqaruv darajasi – korxonada menejerlarining asosiy qismi (quyi, o'rta va oliy bo'g'in menejerlari) uchun axborot;
- taktik boshqaruv o'rtacha darajasi – o'rta bo'g'in menejerlari uchun axborot;

- strategik boshqaruv oliy darajasi – oliy rahbariyat bo'g'ini uchun axborot.

Boshqaruv darajalari	Oliy boshqaruv darajasi	Strategik harajatlari uchun axborot	Qaror qabul qilingan qarorni qo'llab-quvvatlash	Boshqaruv qarorlari harakteri
	O'rta boshqaruv darajasi	Texnik boshqaruv uchun axborot	Zarur hulosalar	
	Tezkor boshqaruv darajasi	Tezkor boshqaruv uchun axborot	Tezkor harajatlar	
	Quyi boshqaruv darajasi	so'rovlarni ijro etish, buyurtmalarni rasmiylashtirish va h.k lar uchun axborot	Ijro etish	

6.1-rasm. Korxonaning axborot piramidasi

SHunday qilib, korxonaning butun faoliyatini bir qilib bog'laydigan axborot tizimi, ya'ni axborot logistika tizimi yaratish korxonada samarali faoliyat yuritishining ustuvor shartiga aylanadi.

Axborot logistika tizimi (ALT-ILS) – materiallarning tayyor mahsulotga aylanishi ro'y beradigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlari muomalada bo'ladigan makro va mikrologistika darajalarida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimidir. Ta'rifdan kelib chiqadiki, axborot logistika tizimini ularning yaxlit bir butunlik sifatidagi faoliyati uning o'z axborot subtizimlari darajasida axborot logistikasi bilan ta'minlanadigan, funksional chegaralangan logistika subtizimlari yig'indisi sifatida ko'rib chiqish zarur.

ALTlar ILS dekompozitsiyasini amalga oshirishda ikkita quyitizim ajratib ko'rsatiladi: maqsadning umumiylik belgisi bo'yicha guruhlangan hal etiladigan vazifalar yig'indisidan iborat bo'lgan *funksional quyitizim* hamda quyidagilarni o'z ichiga oladigan *ta'minlovchi quyitizim*:

- texnik ta'minot – axborot okimlarini qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi texnik vositalar yig'indisi;
- axborot ta'minoti – ma'lumotnoma, tasniflagich va kodifiqatorlar, ma'lumotlarni rasmiy tavsiflash vositalari;

- matematik ta'minot – moddiy oqimlarni boshqarish, matnlarni qayta ishlash, ma'lumotnoma ma'lumotlari olish vazifalari yechimi va ular yordamida logistika tizimi subtizimlardan boshlab korxonalar bilan tugatganda yaxlit bir butunlik sifatida ishlaydigan texnik vositalar faoliyatini ta'minlaydigan dasturlash vositalari yig'indisi va dasturlar majmui.

Ta'kidlash joizki, ALTLar ILS alohida korxonalar darajasida moddiy oqimlarni boshqarish, shuningdek, mintaqalar, mamlakat va hatto mamlakatlarning guruhi miqyosida logistika jarayonlarini tashqil qilish maqsadida barpo etilishi mumkin.

Mikrodarajada axborot logistika tizimining ham funksional, ham ta'minlovchi quyitizimlar bilan farqlanadigan uchta guruhi ajratib ko'rsatilishi mumkin: rejali, dispozitiv (dispetcherlik), ijrochi (tezkor).

Rejali ALTLar ILS uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan strategik logistika qarorlari qabul qilinadigan oliy boshqaruv darajasi uchun yaratiladi, masalan: logistika zanjiri bo'g'inlarini barpo etish va optimallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni strategik rejalashtirish va b. Bunda logistika tizimini umumiy moddiy oqim bilan bog'laydigan masalalar hal etiladi, ya'ni ta'minot-ishlab chiqarish-sotuv zanjirida boshdan-oxir boshqaruv amalga oshiriladi. Ta'minlovchi quyitizimlar standartlashtirilgan texnik, axborot va matematika tarkibiy qismlari asosida amalga oshirilishi mumkin.

Dispozitiv ALTLar ILS o'rta boshqaruv darajasida tashqil etiladi hamda taktik rejalashtirish va zaxiralarni predmetli boshqarish, ichki zavod transport tashuvlari, tayyor mahsulotni iste'molchiga yetqazib berini tezkor tashqil qilish kabi vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallanadi. Ta'minlovchi quyitizim korxonada ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarini hisobga oladi va qoidaga ko'ra, standart dasturiy mahsulotlar asosida rasmiylashtiriladi.

Ijrochi ALTLar ILS logistika tizimi bo'g'inlarini tezkor boshqarish va mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayoni doirasida moddiy oqimlarni boshqarishni optimallashtirish uchun mo'ljallangan. Xususan, agar tayyor mahsulot chiqarish dasturi (ishlab chiqarish jadvali) berilgan bo'lsa, ichki ishlab

chiqarish logistika tizimining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: moddiy resurslar va tugallanmagan ishlab chiqarishdan samarali foydalanish, korxonani aylanma kapitalining aylanish tezligini oshirish, ishlab chiqarish davrining davom etish muddatini qisqartirish, ishlab chiqaruvchi korxonaning omborlar tizimida moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zaxiralari darajasini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transporti ishini optimallashtirish. Bu tizimlar moddiy oqimlarni nazorat qilish, ishlab chiqarishni tezkor boshqarish va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan keng doiradagi o'ziga xos masalalarni hal etishi mumkin. Aynan shu xususiyat maxsus axborot va matematika ta'minoti yaratishni talab qiladi. SHunday qilib, korxonani boshqarish har qanday tizimi belgilangan darajadagi maqsadlar bajarilishini amalga oshiradi. Ta'kidlash joizki, korxonani boshqarish samaradorligi aynan axborot tizimini to'ldirish darajasiga, axborot sifati va o'z vaqtidaligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, axborot sifati muhim ko'rsatkich sanaladi, lekin o'zil-kesil emas. Bitta axborotning o'zi turli qiymatga (ahamiyatga) ega bo'lishi mumkin. Axborot sifatini baholashga uchta yondashuv (mezon) qabul qilingan: 1) noaniqlik darajasini pasaytirish bo'yicha; 2) maqsadga erishish bo'yicha; 3) tezaurus ortishi bo'yicha.

Dastlabki yondashuv axborot statistika nazariyasining axborot xabar (xabarlar) olingandan so'ng bilimlar noaniqlik darajasini pasaytirish chorasi sifatida tushunilishidan kelib chiqadigan qoidalariga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, xabar olish ilgari vujudga kelgan tasavvurni o'zgartiradigan qo'shimcha bilim olishga tengdir. Ko'rinib turibdiki, olingan xabarning mohiyati haqida ehtimoli pastroq bo'lgan aniqroq axborot katta o'zgarishlarga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv. Maqsadi aniq belgilangan tizimlar uchun axborot qimmatini maqsadga erishish ehtimolining ortishi orqali ifodalash mumkin. Logistika tizimlarida axborotning pragmatik qimmatini juda yuqori: logistika zanjirining faoliyat samaradorligini k marta oshirish uchun kanallar o'tkazish qobiliyatini kengaytirish va yaratilayotgan, o'zatilayotgan va qayta ishlanayotgan xabarlar hajmini ikki marta oshirish zarur.

Uchinchi yondashuv. Xabar ob'ektlar va jarayonlarning tushunchalar, mulohazalar va tushunchalar obrazida tartibga solingan aks etishi – bilimlar uzatish shakli hisoblanadi. Xabarni olish va o'zlashtirish uchun logistika tizimida *tezaurus* – ular o'rtasidagi ma'noga oid aloqalar ko'rsatilgan holda tizimlashtirilgan tushunchalar lug'ati ko'rinishida taqdim etiladigan bilimlar zaxirasiga ega bo'lish zarur. Olingan xabar tezaurusda keltirilgan ma'no bilan taqqoslanadi:

- ular to'liq mos kelmaganda xabar qabul qilinmaydi;
- ular to'liq mos kelganda xabar tezaurusga hech narsa qo'shmaydi va axborot beradigan xabar sifatida ko'rib chiqilmaydi;
- ular qisman mos kelganda – yangi tushuncha va aloqalar qo'shgan holda boyitadi.

Axborot qimmati bu – foydalanuvchi xabarni qabul qilish va izohlashida qabul qiladigan tezaurusni kengaytirish, rivojlantirish o'lchovi.

Umumiy axborot oqimidan qaror qabul qilish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan relevant tarkibiy qismni ajratib, kognitiv (mazmunga oid) filtr – axborotni baholaydigan mutaxassis yordamida rahbar (menejer) qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha imkoniyatlar chegaralarini begilaydi.

YUqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib, ALTlar ILS tashqil qilishga asos qilib olinishi lozim bo'lgan tamoyillari ifodalash mumkin:

- *axborotning foydalanuvchi (logistik qaror qabul qiluvchi shaxs) uchun yaroqliligi va to'liqligi* – ALTlar ILS mos keluvchi logistika funksiyalari va operatsiyalarini bajarish uchun talab qilinadigan joyda, ko'rinishda va to'liqlikda axborot taqdim etishi lozim ekanligini anglatadigan tamoyil;
- *axborot aniqligi* to'g'ri qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, taqsimot tarmog'ida zaxiralar darajasi haqidagi ma'lumotlarda xatolik jismoniy taqsimot, zaxiralar darajasini yaratish va iste'molchilar so'rovlarini qondirish haqida qaror qabul qilishda 1%dan oshmasligi lozim;

- *axborot o'z vaqtidaligi* deyarli barcha logistika funksiyalari uchun, ayniqsa, logistika monitoringi vazifalari, real vaqt rejimida zaxiralar va buyurtmalarni boshqarish muammolarini hal qilish uchun muhimdir;
- *axborot mahsulot va servis sifatini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirishning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilganligi shuni* anglatadiki, axborot olish, uzatish, aks etitirish va qayta ishlash usullari «zaif nuqtalar»ni, resurslar tejash zaxiralarini aniqlashga xizmat qilishi lozim;
- *moslashuvchanlik* – axborot muayyan foydalanuvchilarning so'rovlariga moslashtirilgan bo'lishi lozim;
- *ma'lumotlar optimal shakli* – unga muvofiq ma'lumotlar shakli (formati) telekommunikatsiya va kompyuter vositalari mahsuldorligi (xotira hajmi, tez ishlashi, o'tkazish qobiliyati va h.k.) foydalaniladigan, axborotni kb yordamida qayta ishlash soddalashtiriladigan, ILS logistika jarayonining boshqa qatnashchilari bilan axborot borasida birga bo'la olishi ta'minlanadigan bo'lishi lozim bo'lgan tamoyil.

ILS yaratish jarayonini amalga oshirishdan oldin uning yaxlit bir butun olingan logistika tizimida axborot oqimini tashqil qilish real tizimida moddiylashadigan modelini ishlab chiqish zarur. SHu nuqtai nazardan logistika yondashuvi eng oqilona hisoblanadi, chunki u predpolagaet, masalan, svedenie na mikrologistika darajasida muayyan ishlab chiqarish qatnashchilarini ular bilan kombinatsiya qilgan holda ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy oqimni tashqil qilish vositalari kabi elementlardan iborat bo'lgan korxonalar boshqaruv strukturasini variantlarini tahlil qilish uchun model olish mumkin.


Bu elementlar kombinatsiyasi korxonalar strukturasida xomashyo olishdan tortib tayyor mahsulotni iste'molchiga yetqazib berishgacha bo'lgan barcha faoliyat turlarini qamrab oladigan ikki hududni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- bufer hududi – mehnat predmeti statsionar holatda bo'ladi, ya'ni bu zaxiradir;
- texnologik hudud – mehnat predmeti dinamikada bo'ladi, ya'ni bu oqimdir.

Dekompozitsiya va logistika toifalariga to'g'ri keladigan hududlar ajratilgach, moddiy oqimning optimal boshqarilishini ta'minlash uchun aynan qaysi ma'lumotlar to'planishi, qayta ishlanishi va o'zatilishi lozimlini aniqlanadi. SHu tariqa shakllantirilgan o'zatiladigan ma'lumotlar guruhlari, qoidaga ko'ra, moddiy resurslar harakatini nazorat qilish uchun baza yaratadigan to'qqizta axborot elementlarini o'z ichiga oladi: mehnat predmeti miqdori yoki hajmi; mehnat predmetining kelib chiqishi; mehnat predmetining joylashuvi; mehnat predmetining joylashtirish punktiga kelib tushish vaqti; mehnat predmetining joylashtirish punktidan jo'natilish vaqti; mehnat predmetini transport vositasida tashish tizimi; mehnat predmetini transport vositasida tashish vaqti; mehnat predmetini zaxiralash.

Sanab o'tilgan ma'lumotlar guruhlari barcha joylashtirish joylari har bir bir transport vositasida tashiladigan mehnat predmeti uchun tuziladi. Bu maqsadda ishlab chiqarishning bufer hududi va texnologiya hududi o'rtasidagi chegarada axborot o'qish va uzatish punktlari o'rnatiladi. Axborot modeli tuzishning yakuniy bosqichi olingan ma'lumotlarni taqsimla bilan bog'liq. Bu yerda ikki tizim ajratib ko'rsatiladi: birinchi tizim transport buyurtmalari bilan bog'liq bo'lib, material oqimini nazorat qilish va boshqarishni yuritadi; ikkinchi tizim bevosita ishlab chiqarishni boshqaradi va ularning darajasi ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan moddiy resurslar zahiralarini nazorat qiladi. Bir qator hollarda tizimlar birlashtiriladi. Istalgan variantda ham axborot ishlab chiqarish buyurtmasi kelib tushishi bilan qayta ishlana boshlaydi – transport tizimi yordamida yetqazib berilgan materiallarni qayd qilish ro'y beradi. 6.2-rasmda korxonada axborot oqimini tashqil qilishning logistika tizimi aks ettirilgan. Bu tizim qator xususiyatlarga ega: birinchidan, u qat'iy ierarxik (boshqaruv darajalari aniq belgilab qo'yilgan va ularga yuklatilgan funksiyalar uchun javob beradi);

ikkinchidan, tashqi aloqalar funksiyalari faqat belgilangan ierarxiya darajasiga berilgan; uchinchidan, tizim uchun yopiq hududlar yo'q. Korxonada ILS piramidasining uchi – uning menejment funksiyalarini (rejalashtirish, tashqil qilish, motivatsiya, nazorat) amalga oshiruvchi oliy rahbariyatidir. Funksional nazorat boshqaruvning o'rta darajasida amalga oshiriladi va moddiy-texnika vositalari yetqazib berish, taqsimotni boshqarishni o'z ichiga oladi. Asosiy nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar: qayta ishlash vaqti, ta'minotga xizmat ko'rsatish, moddiy resurslar zaxiralari, unumdorlik. Tezkor boshqaruv darajasini bevosita moddiy oqim bilan logistika operatsiyalari amalga oshiriladigan (yuk birligi, detal yoki moddiy oqimning boshqa har qanday elementi yuklanadigan, boshqa joyga ko'chiriladigan, o'rab-qadoqlanadigan) ish o'rinlari bilan muloqotga kirishadigan, ishlab chiqarish va moddiy-texnika ta'minotini funksional boshqaradigan tizimlar tashqil qiladi. Nazorat qilinadigan ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi: ishlab chiqarish quvvatlari, mahsulotning o'tish yo'nalishlari va miqdori, ishlab chiqarishning texnologik muddatlari.



6.2-rasm. Korxonada axborot logistika tarmog'i stryukturasi

Lokal axborot tarmoqlaridan* iborat bo'lgan avtonom quyitizimlar darajasi alohida ajratib ko'rsatiladi. Moddiy oqim joriy holatining lokal axborot tarmog'i ma'lumotlar (ta'minot predmetlari holati va ularning sifatini nazorat qilish haqida, yuk ortish vositalari holati haqida, mahsulotni markirovka va identifikatsiya qilish haqida, mahsulotning omborga kelib tushishi haqida va b.) to'plash va ularni moddiy-texnika vositalari yetqazib berish uchun javob beradigan o'rta boshqaruv darajasiga yetkazishni amalga oshiradi.

Bevosita ish o'rinlaridagi lokal tarmoqlar ishlab chiqarishning joriy holati nazorat stryukturasini tekshirish natijalari, yig'uv sur'ati haqida axborot bilan ta'minlaydi. Bufer hududlardagi va omborlardagi holat haqida axborot moddiy-texnika ta'minoti ustidan nazorat stryukturalari uchun mo'ljallanadi. Bir vaqtning o'zida bu tizim tayyor mahsulotni qayta ishlash va uni iste'molchilarga yetqazib berish bo'yicha ma'lumotlar to'plashni amalga oshiradi, ularni mahsulot taqsimotini yuritadigan bo'linmalargayetkazadigan. Ikkala lokal quyitizim (moddiy oqimning joriy holati va ishlab chiqarishning joriy holati) o'z darajasida faol axborot almashinadi.

Kelgusida turli guruhlarga mansub bo'lgan axborot tizimlari umumiy axborot tizimiga integratsiyalanadi. Bunda quyidagilar farqlanadi:

- vertikal integratsiya – bunda axborot oqimlari turli darajadagi boshqaruv organlarini bog'laydi (oqim o'suvchi va pasayuvchi bo'lishi, ya'ni yuqori boshqaruv organlaridan quyi boshqaruv organlariga yo'naltirilgan va aksincha bo'lishi mumkin), bu bozorga ayni payta zarur bo'lgan mahsulot chiqarishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarini tez o'zgartirish; iste'molchilarning maqsadli buyurtmalarini eng qisqa muddatlarda amalga oshirish; tayyor mahsulotning yuqori sifatini barqaror ushlab turishga imkon beradi;
- gorizantal integratsiya – bunda axborot oqimlari bitta darajadagi boshqaruv organlarini bog'laydi, bu barcha axborotlarni bir qilib

bog'lash va u bilan xomashyo va tovarlar kelib tushi zanjirida moddiy oqimni ta'minlash, sotuvni tekshiri, shuningdek, moddiy oqmlarni ishlab chiqarish va korxonada darajasida boshqaruv umumiy tizimi bilan bog'lash imkonini beradi. Eng ideal holatda bunday aloqa mavjudligida ishlab chiqarish maqsadlari va umumiy strategiya bilan bog'lamasdan turib ishlab chiqarish jarayoni haqida qaror qabul qilish istisno qilinadi.

Integratsiyalangan ILSga qo'yiladigan asosiy talablar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) ILS ochiqqligi:
 - dasturlar masshtablanishi*;
 - dasturlar muayyan foydalanuvchiga va muayyan texnik platformalarga (hisoblash va operatsion tizimlarga) bog'lab qo'yilishi;
 - taqsimot strukturasida foydalanuvchilarning funksional imkoniyatlari va interfeyslari sozlanishi;
- 2) biznes tamoyillariga muvofiqlik:
 - reglamentlangan avtomatlashtirilgan hujjat aylanmasi;
 - hujjatlarni saqlash, nazorat qilish va hisobga olish birligi;
 - mazmunga oid va formal hisobga olish birligi;
 - tahliliy* va sintetik* hisobga olish birligi;
 - multivalyutalik va g'arb normativlariga sozlanish;
- 3) umumiy axborot makonini ta'minlash:
 - foydalanuvchilarning makon bo'yicha taqsimlanganligi;
 - ALTlar ILS real vaqt rejimida faoliyat ko'rsatishi;
 - kengaytirilgan global telekommunikatsiya imkoniyatlari;
 - ichki tizim axborotga oid bog'langanlik;
 - interfeyslar ko'pligi; ularni texnik amalga oshirish virtualligi va bir xilligi;
- 4) foydalanuvchilarning muayyan dasturlarga sozlanishi, jumladan, tasniflar sozlanishi:

- struktura, tarkib, funksiyalar va vakolatlarni tavsiflash;
 - foydalanuvchi interfeysini tavsiflash (shakl, hisobot, menyu);
 - ma'lumotlarni turli kommunikatsiya sxemalari (lokal, korporativ va global hisoblash tarmoqlari, on-line va off-line rejimlar, elektron pochta, videokonferensiya aloqasi) uchun integratsiyalangan tizimda uzatish;
 - servislarni tavsiflash (jumladan, axborotni himoya qilish va o'zaro aloqalar reglamentlari);
 - tizimlararo interfeyslarni tavsiflash (personal, masofaviy, telefon orqali va virtual ulanish, videoulanish, plastik kartochka texnologiyalaridan foydalanish va b.);
- 5) biznes boshqariluvchanligini ta'minlash:
- rivojlanish taktikasi va strategiyasini boshqarish;
 - logistika tizimining ichki va tashqi muhiti holatini bahorat qilish;
 - logistika zanjiri bo'g'inlarini birlashtirish va ularning boshqariluvchanligi;
 - resurslar, aktivlar va passivlar portfellarini boshqarish;
 - elektron hujjat aylanmasi, huquqlar va vakolatlarni idora qilish;
- 6) ishonchlilik, himoyalanganlik va xavfsizlik:
- zaxiralash, jumladan, texnik va axborot jihatidan takrorlash (jumladan, zaxira axborot markazi yaratish);
 - himoya darajalari ko'p sonli ekanligi;
 - alohida operatsiya va funksiyalarni bajarish uchun tizimga kirishda avtorizatsiya va ulanishni nazorat qilish;
 - operatsiyalar va jahon aylanma jurnallari yuritish;
- 7) hujjatlashtirish, hamrohlik qilish va modifikatsiya umumiy reglamenti;
- 8) foydalanuvchining moslashuvchan va rivojlangan grafik interfeysli qaror qabul qilishni tayyorlash va tahlil qilish ko'p pog'onali va ko'p jihatli tizimi.

SHunday qilib, ALTlar ILS asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat: axborot almashinish tezligi ortadi; hisobga olishda xatolar ehtimoli kamayadi; unumsiz ishlar hajmi kamayadi; ilgari tarqoq holda bo'lgan axborot bloklari birlashtiriladi.

6.2. Bojxona logistikasida axborot texnologiyalari

Moddiy oqmlarni real boshqarish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarishni ta'minlovchi jarayonlar monitoringi yuritish;
- normativ hujjatlar, loyiha va texnik hujjatlar, ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik kartalariga murojaat qila olish;
- ish o'rinlarining yuklanganligi, moddiy oqimlarning logistika zanjiri bo'ylab harakatlanishi, ish vaqtining sarflanishi haqida axborot olish;
- uzlyuksiz inventarizatsiya o'tkazish, moddiy resurslar zaxiralari o'zgarishini qayd qilish va xarajatlarni batafsil ravishda tasniflash.

Hozirgi paytda axborot to'plash, uni tashqil qilish va qo'yilgan maqsadlarga muvofiq yetqazib berishni amalga oshirishi lozim bo'lgan axborot infratuzilmasi yaratish (yoki yanada rivojlantirish) vazifasi qo'yilmoqda.

Axborot infratuzilmasi – axborot kanallari va omborlari, axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat faoliyatining huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy bazasi, shuningdek, axborot faoliyatini ta'minlaydigan boshqa usullar yig'indisidir.

Asosiy vazifa – yaratilgan infratuzilma orqali logistika zanjirining barcha bo'g'inlarini birlashtirishdir. Bu boshqaruv jarayoni qatnashchilari, shuningdek, ta'minotchilar va buyurtmachilar o'rtasida qalin aloqalar o'rnatishga imkon beradi. SHunday qilib, gap korxonada ichida ma'lumotlar hajmini boshqarishdan tashqari tashqi muhit bilan o'zaro aloqalar tijorat va tashqiliy jarayonlarini o'z ichiga oladigan istiqboldagi va joriy rejalashtirish vazifalarini avtomatlashtirish haqida boradi. Rejalashtirish sifati to'g'ridan-to'g'ri relevant axborot to'liqligi va ishonchliligi, uni qayta ishlash tezligiga bog'liq ekanligi sababli ishlab chiqarish

tizimlarining ichki strukturasini umumiy tarmoqqa birlashtirish boshqaruv punktlari bilan jihozlanishi lozim.

Hozirgi kunda axborot infratuzilmasining moddiy tarkibiy qismlari bevosita kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi. Moddiy resurslar harakati axborot nazorati ma'lumotlar to'plamini uzatish va saqlash uchun bu texnologiyalarni amalga oshirish kamida ikki tarafdin foyda keltiradi. Birinchidan, bunday tizim tobora murakkablashib borayotgan moddiy-texnika ta'minoti jarayonini boshqarishni yengillashtiradi. «Aniq muddatida» (JIT) «ehtiyotlar resurslarini rejalashtirish» (RP), «tejamkor ishlab chiqarish» (LP) va boshqa logistika konsepsiyalarini amalga oshiruvchi ixcham va yuqori tashqil qilingan ishlab chiqarish tizimlari uchun kelib tushayotgan materiallar harakatini boshqarish o'ta muhim sanaladi. Ikkinchidan, ta'minotga oid ma'lumotlar almashinishda axborot infratuzilmasidan foydalanish zaxiralarni boshqarish samaradorligining o'sishiga olib keladi, chunki moddiy oqim harakati haqida amalda bir lahzada ma'lumot olish boshqaruv barqarorligini oshiradi va ishlab chiqarish riski darajasini pasaytiradi.

SHunday qilib, gap axborot oqimini belgilangan maqsadlarga muvofiq «tashqil etish» imkonini beradigan zamonaviy axborot texnologiyalari haqida boradi.

Axborot texnologiyasi (AT) – texnologik zanjirga birlashtirilgan, axborot resursidan foydalanish jarayonlari mehnat sig'imini pasaytirish hamda ularning ishonchliligi va tezkorligini oshirish uchun axborot olish, saqlash, qayta ishlash, tarqatishni ta'minlaydigan usullar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar yig'indisi. Zamonaviy logistika tizimlarida AT amalga oshirish qabul qilinayotgan qarorlar samaradorligi, makrologistika va mikrologistikada unumdorlik va raqobatbardoshlik ortishiga yangicha turtki berdi. Bunda logistika AT rivojlantirish jarayonida beshta tendensiya etakchilik qiladi:

- bir-biriga to'g'ri kelishni ta'minlash, ya'ni turli axborotlarni erkin almashinish imkoniyati;
- oraliq bo'g'inlarni tugatish;

- axborot chegaralari va imkoniyatlarining kengayishi oqibatida globallashtirish;
- axborot mazmunining kengayishi bilan asoslanadigan axborot oqimlari murakkablashuvi;
- konvergentsiya, ya'ni axborot belgilarining bir-biriga o'xshashi.

Logistika tizimlarida moddiy oqimlarni boshqarishda foydalaniladigan hujjatlar murakkabligi, hajmi kattaligi va ko'p sonli ekanligi xoriyda EDI (Electronic Data Interchange) elektron ma'lumot almashinish konsepsiyasi paydo bo'lishini rag'batlantirdi. Eng umumiy talqinda *EDI standart ma'lumotlar formatidan foydalangan holda foydalanuvchilar o'rtasida kompyuter orqali elektron ma'lumot almashinuvni ifodalaydi* va zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalariga xizmat ko'rsatadi. Logistika tizimlarida EDI qo'llashning bevosita afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborotni tez qayta ishlash va uzatish, shuningdek, ma'lumotlar ishonchliligi va aniqligi hisobiga logistika menejmentida qog'oz shaklidagi hujjatlar miqdorining va ma'lumot kiritishda xatoga yo'l qo'yish imkoniyatlarining kamayishi natijasida unumdorlik o'sadi;
- logistika tizimi bo'g'inlari o'rtasida kanalli o'zaro munosabatlar yaxshilanadi;
- logistika tizimlari tashqi quyitizimlari unumdorligi ortadi;
- logistika bo'g'inlari harakatlarini to'liq integratsiyalash qobiliyat ortadi;
- qog'oz shaklidagi hujjat aylanmasi, pochta, bosib chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlar va jonli mehnat ulushining qisqarishi, shuningdek, telefon, teleks va faksimil kommunikatsiyalari qisqarishi tufayli operatsion va ma'muriy xarajatlar kamayadi.

EDI uchun berilishi lozim bo'lgan hujjatlar turi va strukturasini tartibga soladigan axborot standartlari va ma'lumot qabul qilish, o'zgartirish va uzatish tezligining texnik tavsifnomalarini belgilab beradigan kommunikatsiya standartlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot standartlari transaksiya qatorlari* yoki hisob-shartnoma birliklari (UDE) bilan belgilanadi.

Eng ko'p foydalaniladigan kommunikatsiya standartlari orasida UNlar EDIFACT, ASC X.12, TDKlar EDIA va boshqalarni ajratib ko'rsatish lozim. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida eng tarqalgan UNlar EDIFACT standarti sintaksis qoidalari xalqaro standarti (ISO 9735) va «Savdo ma'lumotlari elementlari BMT Ma'lumotnomasi» xalqaro standartiga (ISO 7372) asoslanadi. Standart sanoat korxonalarini, eksportchilar, ta'minotchi tashqilotlar, ulgurji distribyutorlar, brokerlar, agentlar, ekspeditorlar, tashuvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, ma'muriy va hyukumat tashqilotlari va institutlar o'rtasida ishbilarmonlik ma'lumotlari almashinish tamoyillari to'plamini ifodalaydi. U xalqaro standartlar asosida bir xil tarzda tuzilgan xabarlarini shakllantiradi, an'anaviy qog'oz shaklidagi hujjatlarni elektron hujjatlar bilan almashtiradi. EDIFACT xabarlarini elektron uzatish uchun «Savdo ma'lumotlari almashinishni yuritish umumiy qoidalari» qo'llanadi. UNlar EDIFACT dan foydalanish beradigan afzalliklar sifatida axborot logistika oqimlarining tezlashuvi, turli kompyuter arxitekturalari va telekommunikatsiya tarmoqlariga moslashuvni ko'rsatish mumkin. Qog'ozsiz texnologiya konsepsiyasi ancha uzoq vaqtdan beri ishlab chiqilmoqqa, lekin bugunga kelib ham uni amalga oshirish qismlarga bo'lingan holda ifodalanishi mumkin, chunki qog'ozsiz texnologiyalar qaror qabul qiluvchi shaxsda ma'lum bir ko'nikmalar talab qiladi hamda mos keluvchi me'yoriy-qonunchilik va yuridik ko'makka ehtiyoj sezadi.

Elektron hujjat (elektron shakldagi hujjat) – kodlangan va axborot tizimiga o'zatilgan elektron xabar bo'lib, uning barcha rekvizitlari me'yoriy talablarga muvofiq tasdiqlangan bo'ladi.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatning uni qalbaqilashtirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik o'gartirish natijasida olingan hamda imzo kaliti sertifikatini egasini identifikatsiya qilish, shuningdek, elektron hujjatda axborotning bo'zib ko'rsatilishini aniqlash imkonini beradigan elektron hujjat rekviziti.

Bu ta'rifdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, elektron imzo ushbu assotsiatsiya qatnashchilari tomonidan imzo va raqamli imzolash jarayoni sifatida tan olinadigan ma'lum bir axborot xabari (son) hisoblanadi. «Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Federal qonun ularga rioya qilishda elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qog'oz shakldagi hujjatta qo'yilgan shaxsiy imzo bilan bir xil kuchga ega deb tan olinishi lozim.

Mohiyatan elektron ma'lumot almashinish bu – to bitim imzolangunga qadar kompyuter uskunalari yordamida tashqilotlar o'rtasida aloqa o'rnatish va rivojlantirish bo'yicha jarayondir. Standart kompyuter protokollari turli operatsiyalarni bajarish – tovarlar partiyasiga buyurtma rasmiylashtirish va jo'natish; yuk jo'natuvchilar uchun maslahatlar olish; tovar-transport yuklama hujjatlari to'ldirish va h.k.da bitimlarni rasmiylashtirishga imkon beradi.

Istalgan tarmoqda to'lov va hisob-kitoblarda qo'llash uchun rasmiy hujjat sifatida BMT EEK UNlar EDIFACT «Tijorat invoysi» (BMTlar INVOYS) standart xabaridan va logistika uchun eng muhim bo'lgan «Xalqaro transport-ekspeditsiya xabari», «Bojxona deklaratsiyasi», «Xarid topshirig'i» va boshqa xabarlardan foydalanishni tavsiya qiladi. Masalan, «Xalqaro transport-ekspeditsiya xabari» paketi konosament, temiro'l, avia- va avtomobil yuklama hujjatlari, etib kelganlik haqida xabarnoma, yuklarning qayta ishlanganligi haqida hujjatlar va qog'oz shaklidagi boshqa hujjatlarni elektron imzoli elektron hujjatlar bilan almashtirdi, bu esa «eshikdan eshikkacha» logistika intermodal tashuvlari monitroingini ancha soddalashtirdi.

SHunday qilib, EDI tizimi va UNlar EDIFACT standartining joriy qilinishi logistika zanjirining qatnashchilari – yuk jo'natuvchilar, tashuvchilar, ekspeditorlar, bojxona organlari va boshqalar o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirib, logistika jarayonini sezilarli darajada o'zgartirdi. Milliy assotsiatsiyalarga birlashtirilgan EDI tizimi va UNlar EDIFACT standirtidan foydalanuvchilar standart axborot ma'lumotlar to'plamlarini doimiy kengaytirish, hujjatlar aylanmasini soddalashtirish va bir xillashtirish va shu asosda logistika AT samaradorligini oshirish imkoniyatiga egalar. UNlar EDIFACT standartini joriy

qilishda logistika tizimlari jismoniy taqsimot operatsiyalarida jiddiy ustunliklarga erishiladi:

- yuk partiyalarini jo'natishga tayyorlash soddalashtiriladi;
- eng qisqa vaqt ichida tovar, transport vositasi, konteynerning joylashgan joyi aniqlanadi;
- ishlab chiqaruvchi va distributiv tarmoq omborlarida zaxiralar mavjudligi va jo'natilishi lozim bo'lgan yuklar mavjudligi aniqlanadi;
- intermodal tashuvning istalgan uchastkasida yukning joylashgan joyi va uning belgilangan yakuniy manzilga etib kelish aniq vaqti aniqlanadi;
- rejalashtirish, tartibga solish, nazorat qilish va monitoring jarayonlari sezilarli darajada soddalashtiriladi.

EDI ustunliklarini amalga oshirish mikrologistika darajasida lokal tarmoqlar hisobiga logistika tizimining barcha bo'g'inlarini va mamlakat, mintaqa doirasida amal qiladigan tijorat va notijorat global telekommunikatsiya tarmoqlarini (masalan, CompuServe, America Online, Relcom va b.) bog'laydigan telekommunikatsiya kanallaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. Xususan, transport vositalarini kuzatish va boshqaruvini markazlashtirish (dispetcherizatsiya) logistika ATning istiqbollari keng. Hozirgi kunda jahon amaliyotida 150 dan ortiq turdagi bunday tizimlar foydalanilmoqda va ularning yarmidan ko'pi so'n'iy yo'ldosh telekommunikatsiya kanallaridan foydalanmoqda.

Masalan: globalnaya sistema sputnikovoy svyazi INMARSAT-C so'n'iy yo'ldosh aloqasi global tizimi to'rtta geostatsionar yo'ldosh va yer ustiqirg'oq stansiyalari vositasida 75° gacha kenglik va o'zunlik bo'yicha butun sayyoramizni qamrab olishni ta'minlaydi. Tizim quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi: pramuyu svyaz s dispetcherlik punkti bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa, xabarlarini ma'lumotlar to'plamida saqlash, yuk va transport vositalarining holati va joylashgan joyi haqida axborot olish, X.25 ma'lumot uzatish tarmog'i (katta masofada aloqa liniyali tarmoqlar va paketlar kommunikatsiya tizimi bo'yicha va katta masofadagi telefon liniyalari bo'yicha aloqa uchun standartlar to'plami) va

teleks aloqasi tarmog'i bilan ulash, transport vositalarini guruhli chaqirish. Hozirgi kunda GPS NAVSTAR so'n'iy yo'ldosh navigatsiya tizimiga talab eng yuqori hisoblanadi; u transport vositasi joylashgan joyni, uning tezligi va harakatlanish vaqtini er sharining istalgan nuqtasida sutkaning 24 soati mobaynida yuqori darajadagi aniqlik bilan aniqlashni ta'minlaydi.

Transport vositasining tezligi va joylashgan joyi (100 metrgacha) haqida yuqori darajada aniq bo'lgan axborot kuzatishni (dispetcherlikni) amalga oshirayotgan markaziy ishchi stansiyaning elektron yo'llar xaritasiga qo'yiladi. GPS-signallar qabul qiluvchi vosita bilan jihozlangan har qanday transport vositasi uning «yo'nalishda» yoki «yo'nalishdan tashqarida» bo'lishidan qat'i nazar, aniq va o'zil-kesil aniqlanishi mumkin. Axborot ma'lumotlar to'plamida saqlanadi va istalgan payt tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun foydalanilishi mumkin bo'ladi. Har bir transport vositasidan axborot olish tezligi shundayki, dispetcher amalda transport bilan bog'liq vaziyatni real vaqt rejimida nazorat qiladi.

Logistika AT rivojlanishining istiqboldagi yo'nalishlari internet jahon kompyuter tarmog'idan faol foydalanish bilan bog'liq. Hozirgi paytga kelib, transportda logistika AT dan foydalanishga yo'naltirilgan va yuk jo'natuvchilar, tashuvchilar, ekspeditorlar uchun ham, axborot ko'magi va moddiy oqimni jismoniy taqsimlash logistika operatsiyalarini tashqil qilish uchun ham internet imkoniyatlarini amalga oshiruvchi «MAP Op-Line» xalqaro avtomobil tashuvlarini boshqarish ishlab chiqildi va ALTLar ILS amaliyotiga joriy qilindi.

Tizimning missiyasi logistika jarayoni qatnashchilariga on-line rejimida quyidagilar ulanish imkoniyatini taqdim etishdan iborat: logistika vositachilari uchun zarur bo'lgan axborotdan iborat bo'lgan ixtisoslashgan ma'lumotlar to'plami; mijozlar izlash, yuklarni tashish bitimlari tuzish va rasmiylashtirish bo'limi; mintaqaviy (hududiy, idora, tarmoq) transport-logistika tizimi logistika markazining tahliliy bo'limi; logistika markazi serverining* masofaviy ilovalari (dastur paketlari).

Mazkur tizimda internetdan foydalanish ustunliklari boshlang'ich qiymat pastligi, qo'llanish oddiyliги, barcha transport turlarida yuklarni tashishni

sinxronlashtirish uchun ochiqlik, shuningdek, bitimlar tuzish uchun xalqaro bozorga chiqish imkoniyati hisoblanadi, bu ayniqsa, intermodal va multimodal tashuvlar uchun dolzarbdir. Internetning WWW, JAVA-applet va taqsimlangan ma'lumotlar to'plamiga ulanish apparatli mustaqil kabi resurslari va amaliy imkoniyatlari tizimi bu tizimning yanada rivojlanishi uchun keng istiqbollar ochib beradi.

6.3. Bojxona ishida axborot tizimlari va axborot texnologiyalari

Ta'kidlash joizki, bojxona ishini logistikalash jarayonida axborot oqimlari ikki taraflama funksiya bajaradi: birinchidan, bojxona organlari faoliyatini axborot bilan, jumladan, bojxona chegarasi orqali yuklarning jismoniy harakatlanishi oqimlari haqida axborot bilan ta'minlaydi; ikkinchidan, o'zi logistikalash ob'ekti hisoblanadi, chunki bojxona rejimlarining asosiy qismi tovarlar va transport vositalarining jismoniy harakatlanishidan ko'ra ko'proq bojxona taomillarini bajarish bilan bog'liq, bu esa maxsus axborot bojxona texnologiyalari ishlab chiqishni talab qiladi.

Bojxona organlari strukturasida faqat butun bojxona faoliyatini bir qilib bog'lash va uni yaxlit bir butunlik tamoyilidan kelib chiqqan holda boshqarish imkonini beradigan axborot tizimi mavjudligida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Bojxona ishida logistika jarayonlarining axborot ta'minoti tizim faoliyat yuritishining axborot sharoitlari yaratish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, axborot qidirish, olish, saqlash, to'plash, uzatish, qayta ishlash vositalari tizimiga kiritish, ma'lumotlar banki tashqil qilishni taqozo etadi. Axborot ta'minot ierarxik strukturasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mutaxassisning ish o'rnida uning axborot va hisoblash ehtiyojlarini tezkor qondirishni ta'minlaydigan apparatli va dasturiy vositalar kompleksi sifatida avtomatlashtirilgan ish o'rinlari;
- boshqaruv ob'ektlaridan axborot olish, axborot oqimlari to'plash, qayta ishlash va uzatishni ta'minlaydigan, bojxona boshqaruv tizimiga

chiqishga ega bo'lgan funksional bojxona modullari va mikrointegratsiyalangan ATga asoslangan lokal boshqaruv tizimlari;

- lokal hisoblash tarmoqari va ularni komplekslash asosida bojxona faoliyati hududini (bojxona posti, bojxona rasmiylashtiruvi punkti, bojxona brokeri, bojxona ombori, bojxona tashuvchisi) hisobga olgan holda tashqil qilingan avtomatlashtirilgan bojxona boshqaruv tizimlari;
- axborot ta'minoti nuqtai nazaridan makon bo'ylab tarqoq holda joylashgan strukturali bo'linmalarni tashqiliy boshqarishga tizimli yondashuvni amalga oshiradigan integratsiyalangan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari.

Umuman olganda bunday struktura bojxona faoliyatining ko'p funktsionalli xarakterini, bojxona organlari strukturasini, bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi usullari va shakllari xilma-xilligini, bunda qo'llanadigan funksional va ta'minlovchi tarkibiy qismlarni aks ettiradi. Bojxona xizmati umumiy (yagona) avtomatlashtirilgan axborot tizimi bojxona ishini logistikalash jarayonini ta'minlaydigan bazaviy axborot tizimiga aylanishi mumkin. uning asosiy maqsadi bojxona organlari faoliyati va davlatning bojxona siyosatini shakllantirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish hisoblanadi. YAAAT haqida «maqsadga yo'naltirilgan» axborot-logistika tizimi sifatida gapirib bo'lmaydi, chunki u bojxona faoliyati jarayonlarini boshqarish bo'yicha keng doiradagi vazifalarni hal qilish uchun mo'ljallangan, biroq tashqi savdo tovar oqimlarini tartibga solishga logistika yondashuvi boshlang'ich paradigma sifatida ishtirok etmaydi. Mohiyatan YAAAT bojxona faoliyati jarayonlarini boshqarish tizimini, zamonaviy dasturiy-texnika kompleksiga asoslangan asosiy axborot bojxona texnologiyalari vositasini ifodalaydi.

SHu bilan bir paytda bojxona ishida axborot manbalarini identifikatsiya qilish va standartlashtirish, uni qayta ishlash va uzatish bo'yicha logistika tamoyillarini amalga oshirishning amaliy asoslari mavjud. YAAAT ierarxik tamoyil bo'yicha tashqil etiladi, ya'ni boshqaruv darajalari ajratib ko'rsatiladi va

belgilangan funksiyalarning amalga oshirilishi uchun javobgarlik belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi barcha strukturali bo'linmalari (bojxona postlari va bojxona rasmiylashtiruv bo'limlaridan tortib markaziy apparatgacha) eng quyi darajada lingan ma'lumotlarni agregatsiyalash va sifat jihatidan taqqoslash mumkin bo'lgan ko'rinishda taqdim etish uchun YAAAT orqali birlashtiriladi. Katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish masalasini hal etish istiqbolda bojxona logistika tizimining alohida funksiyalarini avtomatlashtirish hamda bojxona ishi mikro va makrologistika tizimlari barcha elementlarini faol jalb qilgan holda dastlabki optimallashtirilgan joriy va istiqbolli rejalashtirish imkonini beradi.

YAAAT dekompozitsiyasini amalga oshirishda funksional va ta'minlovchi quyitizimlar ajratiladi. YAAAT *funksional quyitizimi* bir qator vazifalar to'plamidan iborat bo'lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi strukturali bo'linmalari va davlat organlarini bojxona statistikasi yuritish uchun zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlash; barcha darajadagi bojxona organlari tashqiliy-iqtisodiy boshqaruv tizimlarini takomillashtirish;
- tovarlarga hujjatlar bojxona rasmiylashtiruvini avtomatlashtirish;
- boj to'lovlarini markazlagan tarzda undirish va hisoblanishini nazorat qilish;
- litsenziya va kvotalarni notarif tartibga solish va nazorat qilish usullari va vositalarini takomillashtirish;
- valyutani tartibga solishni amalga oshirish maqsadida TIF bojxona-bank nazorati AT yaratish.

YAAAT ta'minlovchi quyitizimi quyidagilarni amalga oshiradi:

- kon'yunktura va telekommunikatsiya texnikasi va axborot texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlar negizida YAAAT apparat-dasturiy platformasini rivojlantirish va takomillashtirish;
- elektron hujjatlar joriy qilish va bojxona hujjatlarini qayta ishlash qog'ozsiz texnologiyasidan qisman foydalanish;

- bojxona organlari o'rtasida, shuningdek, bojxona organlari va boshqa tashqilotlar o'rtasida tezkor o'zaro aloqani ta'minlaydigan elektron pochtdan foydalanish asosida umumiy axborot bojxona makoni yaratish;
- bojxona taomillari, texnologiyalari, me'yoriy bazasi va hujjatlarini rasmiylashtirish va standartlashtirish;
- bojxona organlari xodimlarining eskirgan operatsiyalar bilan yuklanganlik darajasini pasaytirish, ularni TIF turli jihatlarini chuqurlashtirilgan tahlil qilishga qayta yo'naltirish, hisobot-hisob hujjatlari ishonchligini oshirish bilan bir paytda ularni tayyorlashning mehnat sig'imini kamaytirish.

YAAAT ta'minlovchi quyitizimi texnik, axborot, matematik ta'minot turlarini o'z ichiga oladi.


YAAAT *texnik ta'minoti* axborot oqimlarini qayta ishlash va uzatishni ta'minlaydigan va ierarxik tamoyil bo'yicha tashqil etilgan texnik vositalar yig'indisini ifodalaydi. Bojxona organlari tizimining oliy darajasi – Bosh ilmiy-axborot hisoblash markazi (GNIVTS) bo'lib, uning texnik ta'minot markaziy kompyuterlar va umumiy kompyuter tarmog'iga bilashtirilgan intellektual terminallarni qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi, mintaqaviy bojxona boshqarmalari, bojxona bo'linmalari, vakolatli banklar va bojxona organlari ular bilan ishlaydigan boshqa tashqilotlar o'rtasida axborot almashinishni ta'minlash bir vaqtning o'zida ma'lumot uzatish, telefon orqali muzokaralar o'tkazish, teleks va faksimile aloqasi yuritish imkoniyati bilan bojxona axboroti taqsimlangan ma'lumotlar to'plami funksiyalarini integratsiyalash uchun mo'ljallangan «Nazorat» axborot telekommunikatsiya tarmog'i asosida amalga oshiriladi.

Axborot almashinish ma'lumot uzatishning lokal*, mintaqaviy* va global tarmoqlari* vositasida amalga oshiriladi. YAAAT *axborot ta'minoti* spravochniklar, klassifiqatorlar, kodifiqatorlar, ma'lumotlarni tavsiflash vositalari, bojxona hujjatlari bir xillashtirilgan tizimlari va ma'lumotlar to'plamlari fayllarini o'z

ichiga oladi. Bojxona organlari tizimi murakkab ko'p darajali ierarxik stryukturalarni ifodalashi sababli YAAAT hujjat aylanmasi bo'yicha turli ob'ektlar axborot ta'minotiga yo'naltiriladi.

YAAAT axborot bazasi o'zaro bog'liq bo'lgan ichki mashina va mashinadan tashqari ma'lumotlar to'plamlari yig'indisini ifodalaydi. Mashinadan tashqari axborot bazasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: hujjatlar bir xillashtirilgan tizimi va ularni rasmiylashtirish va nazorat qilish qoidalari; tasniflash va kodlashtirish umumiy tizimi; axborot shakllantirish va qayta ishlash texnologik jarayonini tavsiflash.

YAAAT ichki mashina axborot bazasi bojxona organlarini boshqarish turli darajalariga (bojxona posti, mintaqaviy bojxona boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi) mos keladigan, ulardan foydalanish yakuniy foydalanuvchilarning funksional vazifalarini hal qilishda belgilangan ulanish rejimlariga muvofiq o'zaro aloqada bo'lgan ma'lumotlar to'plamlaridan, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'linmasi xodimlarining so'rovlari bo'yicha axborot-ma'lumotnoma vazifalaridan iborat (5.3-rasm).



6.3-rasm. YAAAT ma'lumotlar to'plami tasnifi

YAAAT *matematika ta'minoti* eksport-import tovar oqimlarini boshqarish masalasini hal etish, matnlar qayta ishlash, spravochnik ma'lumotlari olish va ularning yordamida bojxona faoliyati boshqaruvi amalga oshiriladigan texnik vositalar faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan dasturlash vositalari yig'indisi va dasturlar majmuini o'z ichiga oladi. EAIS matematik ta'minoti kompyuter tarmoqlarida amal qiladigan ma'lumotlar qayta ishlash taqsimlangan tizimlari tashqil qilish tamoyillariga asoslanadi. Uning tarkibiga kiradigan dasturiy ta'minotni umumtizim va amaliy turlarga ajratish mumkin.

Umutizim dasturiy ta'minot tarkibiga quyidagilar kiradi: MS DOS, UNIX, MS Windows operatsion tizimlari; tarmoq operatsion tizimlari; tarmoqni boshqarish vositalari; marshrutizator* va shlyo'zlar* dasturiy ta'minoti; elektron pochta, elektron e'lonlar taxtasi, videokonferensiya aloqasini tashil qilish uchun dasturiy ta'minot; ma'lumotlar to'plamlarini boshqarish tizimlari; kriptografik himoya tizimlari.

Amaliy dasturiy ta'minot (ADT-PPO) umumtizim dasturiy ta'minot muhitida ishlaydi, muayyan ierarxik darajaga nisbatan bojxona xizmati vazifasini hal qilish funksiyasini bajaradi, deklaratsiya qilingan tovarlar joylashtirilgan bojxona rejimlari algoritmlarini amalga oshiradi. Amaliy dasturiy ta'minotga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- adekvatlik – amaliy sohaning qo'yilgan maqsad va vazifalariga mos kelish;
- komplekslanish – YAAAT boshqa dasturiy tarkibiy qismlari bilan o'zaro bog'lanish;
- masshtablanish – ekspluatatsiya ob'ektlari soni oshganda iste'mol xislatlarini saqlab qolish imkoniyati;
- me'yoriy-spravochnik axborotlari umumiyliigi – YAAAT uchun umumiy bo'lgan me'yoriy-spravochnik axborot tizimlari hamda tasniflash va kodlashtirish tizimlaridan foydalanish;
- foydalanuvchi interfeysini* bir xillashtirish – operatsion tizimning YAAAT boshqa tarkibiy dasturiy qismlari bilan o'zaro aloqa qoidalari

yagona shakliga keltirish maksimal imkoniyati;

- hamrohlik qilinish – uning barqaror faoliyat ko'rsatishi, unga o'zgarishlar kiritish va modernizatsiya qilish uchun PPOga hamrohlik qilishni ta'minlash;
- sozlanish – dasturiy ta'minot faoliyat yuritish algoritmlarini uni qayta dasturlashsiz o'zgartirish maksimal ehtimoliy darajasi;
- himoyalanganlik – amaliy darajada YAAAT axborot xavfsizligini ta'minlash.

YAAAT faoliyatini ta'minlaydigan asosiy dasturlar qatoriga lokal avtomatlashtirilgan ish o'rinlari* (ARM) va yuklarni bojxona rasmiylashtiruvini avtomatlashtirilgan tizimlari (ASTO) kiradi. *Lokal ARM* bir nechta asosiy turda bo'ladi:

1. Bojxona inspektorining avtomatlashtirilgan ish o'rni (ARM TI) – bojxona yuk deklaratsiyalari (BUD-GTD), bojxona qiymatiga tuzatish kiritish (BQTK-KTS), bojxona qiymati deklaratsiyalari (BQD-DTS) qayta ishlash va nazorat qilish texnologik zanjirida ishtirok etadigan bojxona organlarining strukturali bo'linmalari uchun mo'ljallangan ko'p funktsionallik nazorat dasturiy vositasi. ARM TI quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: spravochnik ma'lumotlari kiritish, yuritish va saqlash; GTD, DTS, KTS ko'rsatkichlari kiritish va nazorat qilish; GTD, DTS ma'lumotlari va spravochnik ma'lumotlari fayllarini yuklash va qayta ishlash; GTD, DTS ni keyingi qayta ishlashga berish; valyuta nazorati (bitimlar pasportlari bo'yicha); statistika hisoboti chiqish shakllarini shakllantirish. ARM TI asosini ma'lumotlar to'plamlari, spravochnik ma'lumotlari, GTD, KTS, DTS ko'rsatkichlari kiritishlar chiqarish va nazorat qilish yuklash va yuritish amaliy dasturlari, shuningdek, GTD ma'lumotlari asosida chiqish hujjatlari shakllantirish dasturlari tashqil qiladi.

2. Bojxona kirim orderi va unga qo'shimcha varaqani to'ldirish va nazorat qilish texnologik zanjirida ishtirok etadigan bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish joylarida boj to'lovlari va buxgalteriya hisobi bo'limlarida foydalanish uchun mo'ljallangan bojxona kirim orderini to'ldirish uchun avtomatlashtirilgan ish o'rni

(ARM TPO). ARM TPO bajaradigan asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- kiritilayotgan ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan format va mantiqiy nazorat qilgan holda TPO ma'lumotlar to'plamiga rasmiylashtirilgan TPO va unga qo'shimcha varaqa kiritish bilan bog'liq operatsiyalarni avtomatlashtirish;
- rasmiylashtirilgan transport vositalari va ularni olib kirish guvohnomalari haqida ma'lumotlar to'plamiga axborot kiritish bo'yicha operatsiyalarni avtomatlashtirish;
- TPO chiqish blanklari va TPO qo'shimcha varaqalari, transport vositalari olib kirish guvohnomalari va pasportlarini shakllantirish;
- transport vositalari olib kirish guvohnomalari va pasportlarin ma'lumotlarini qabul qilish va jo'natish.

ARM TPO asosini ma'lumotlar to'plamlari, spravochnik ma'lumotlari yuklash va yuritish, TPO haqida ma'lumotlar kiritishlar chiqarish va nazorat qilish amaliy dasturlari, shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar asosida chiqish hujjatlari rasmiylashtirish dasturlari tashqil qiladi.

3. Bojxona to'lovlarini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan ish o'рни (ARM KTP) bojxona to'lovlari va bojxona rasmiylashtiruvi bo'limlarida bojxona to'lovlarini hisoblab chiqish, to'lash va hisobga olish, shuningdek, bojxona to'lovlarining to'liq va o'z vaqtida yig'ilishini ta'minlash, bojxona to'lovlarini (jumladan, bo'nak to'lovlari bo'yicha) hisoblab chiqish, to'lash va davlat budjetiga o'tkazish bo'yicha hisobotlar shakllantirish uchun mo'djallanadi.

4. Transport vositalarini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan ish o'рни (ARM-Avtokontrol) transport vositalarining mamlakat bojxona chegarasidan o'tishida ularni nazorat qilish maqsadida bojxona bo'linmlarida rasmiylashtirilgan yoki ro'yxatga olingan transport vositalari haqida axborot to'plashni avtomatlashtirish uchun mo'ljallanadi.

5. Tovar yetqazib berishni nazorat qilish bo'yicha avtomatlashtirilgan ish o'рни (ARM-yetqazib berish) yuridik va jismoniy shaxslarning ichki bojxona tranziti taomili bo'yicha rasmiylashtirilgan, belgilangan manzil bojxonasida

tovarlar yetqazib berish bo'yicha majburiyatlari ijrosini nazorat qilish uchun mo'ljallanadi. ARM-yetqazib berish quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- bojxona faoliyat hududlari bo'yicha ma'lumotlar to'plamini saqlash, qayta ishlash, yangilash;
- yuk oluvchilar ma'lumotlar to'plamini saqlash, qayta ishlash, yangilash;
- ichki tranzit hujjatlarini avtomatlashtirilgan tarzda kiritish va bosib chiqarish;
- ichki tranzit hujjatlari bo'yicha hisobga olish jurnali yuritish;
- yo'qotilgan yuklarni qidirib topish va jarima belgilash uchun zarur bo'lgan barcha hujjat turlarini avtomatlashtirilgan tarzda tayyorlash va bosib chiqarish.

6. Musodara qilingan mulk bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun avtomatlashtirilgan ish o'рни (ARM-Konfiskat) davlat mulkiga aylantirilgan tovarlar kelib tushishi va sotilishini hisobga olish uchun mo'ljallangan. ARM-Konfiskat hal qiladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- musodara qilingan mollar haqida ma'lumotlar to'plami markazlashgan tarzda to'plash va yuritish;
- format-mantiqiy nazorat;
- saqlash muddati yakunlangach, tovarlarni musodara qilingan mollar toifasiga o'tkazish;
- tovarlar sotilishi bilan ularni hisobdan chiqarish;
- davlat mulkiga aylantirilgan tovarlar haqida ma'lumotlar berish;
- statistika hisoboti standart shakllarini berish va b.

7. Yuklarni saqlash bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun avtomatlashtirilgan ish o'рни (ARM-SVX (VSO)-S) vaqtinchalik saqlash omborlarida tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni avtomatlashtirish uchun mo'ljallanadi. ARM asosini ma'lumotlar to'plamlari, spravochnik ma'lumotlari yuklash va yuritish, qisqa deklaratsiyadan ma'lumotlar

kiritishlar chiqarish va nazorat qilish amaliy dasturlari, shuningdek, kiritilgan ma'lumotlar asosida chiqish hujjatlari rasmiylashtirish dasturlari tashqil qiladi.

Amaliy dasturiy ta'minotning xuddi shu guruhiga quyidagilarni kiritish lozim:

- ARM-Deklarant – qog'oz shaklidagi BUBlar GTDni kompyuterga kiritish uchun dasturiy vosita;
- ARM-Regstat – tashqi savdo bojxona statistikasi shakllantirish va yuritish uchun dasturiy vosita;
- ARM-Vvod – qog'oz shakladiga BUBlar GTDni kompyuterga nazorat va rekvizitalrsiz tez kiritish dasturiy vositasi;
- ARM-Avtokod – BUBlar GTD elektron shaklining mos keluvchi qismlarida noto'g'ri yozilgan rekvizitalrni nazorat qilish va avtomatik ravishda to'g'ri (lug'atdan) rekvizitlarga tuzatish dasturiy vositasi;
- ARM-Dostovernost – BUBlar GTD rekvizitlarini nazorat qilish dasturiy vositasi (bojxona statistikas bo'yicha nazorat, valyuta nazorati, to'lovlar nazorati, noto'g'ri BUBlar GTD saralash va h.k.).

Yuklarni bojxona rasmiylashtiruvi avtomatlashtirilgan tizimlari (ASTO) bojxona chegarasi orqali o'tkaziladigan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi masalalarini hal qilish uchun instrumental vositalarni ifodalaydi.

ASTO (AIST-RT21, AIST-M turidagi) asosiy vazifalari BUB, BKB bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni avtomatlashtirish, bu deklaratsiyalarning elektron nusxalari ma'lumotlar to'plamini shakllantirish, bojxona qiymatiga tuzatish kiritish va bojxona to'lovlarini o'zgartirish, shuningdek, bojxona organi statistika hisobotlari turli shakllari haqida operatsiyalarni avtomatlashtirish jarayonlari bilan bog'liq.

YAAAT ta'minlovchi quyitizimining amalga oshirilishiga misol tariqasida tashqi savdo saylanmasi statistikasini yuritish jarayonini ko'rib chiqamiz. Gorizontaal axborot oqimli bu namunaviy tizim bojxona posti-mintaqaviy bojxona boshqarmasi-davlat bojxona qo'mitasi sxemasi bo'yicha axborot to'plash va qayta

ishlashni ta'minlaydi. Tashqi savdo statistikasi va bojxona to'lovlari statistikasi uchun asosiy ma'lumot manbasi mamlakat bojxona chegarasi orqali o'tkazilayotgan tovarlar haqida tezkor axborot olish imkonini beradigan BUBLar GTD hisoblanadi. BUBLar GTDda keltirilgan ma'lumotlar tashqi savdo aylanmasi statistikasini yuritish uchun rasmiy boshlang'ich ma'lumotlar hisoblanadi. 5.4-rasmda axborot to'plash va uzatishning to'rt pog'onali ierarxik tizimi aks ettirilgan:

I pog'ona – bojxona postlari;

II pog'ona – bojxonalar;

III pog'ona – mintaqaviy bojxona boshqarmalari;

IV pog'ona – O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi, bosh boshqarmalari.

Mazkur tizimni amalga oshirish BUBLar GTD va boshqa birlamchi shakllar asosida statistik axborot yig'ish, to'plash, qayta ishlash va saqlashni ta'minlaydi.

Axborot oqimi vertikal normativ-spravochnik axboroti hisoblanadi. I pog'onada (bojxona postida) shakllanadigan axborot II pog'onaga (bojxonaga) kelib tushadi, bu yerda uni yig'ish (BUBLar GTD va postning tezkor ishlari bo'yicha hisobot), qayd qilish va birlamchi hisobot shakllari to'g'riligini nazorat qilish amalga oshiriladi. III pog'onaga (axborot to'plash mintaqaviy punktlari) kelib tushadigan axborot oqimi to'ldirishning to'liqligi borasida tekshiriladi va DSK ga beriladi, bu yerda bojxona statistikasi ma'lumotlarini avtomatlashtirilgan tarzda to'plash va qayta ishlash amalga oshiriladi. Chiquvchi axborot oqimi davlat boshqaruv organlariga jo'natiladigan hisobot shaklida taqdim etiladi:

- mamlakatning MDH mamlakatlari va qator kontragent-mamlakatlar bilan tashqi savdosining rivojlanishi haqida axborot, shuningdek, eng muhim tovarlar eksporti va importi haqida ma'lumotlardan iborat bo'lgan muddatli hisobot;
- mamlakatning jahon savdosi haqida axborot, shuningdek, mamlakatlar bo'yicha taqsimlangan holda eksport va import haqida ma'lumotlardan iborat bo'lgan oylik hisobot;

- quyidagi axborotdan iborat bo'lgan choraklik hisobot: mamlakat tashqi savdosining umumiy yakunlari; alohida mamlakatlar bilan tashqi savdo yakunlari; mamlakatlar guruhlarini bilan tashqi savdo yakunlari; tovar nomenklaturasining tovar guruhlarini bo'yicha eksport va import haqida yakunlar; TIF qatnashchilari toifalarini bo'yicha tovarlar importi va eksporti haqida yakunlar.

Vertikal axborot oqimli tizimga ko'rib chiqilgan misol bojxona organining strukturali bo'linmalari o'rtasida gorizontal bo'yicha axborot oqimlari kichiq bo'lgan holdagi masalalar uchun amalga oshiriladi.

6.4. Elektron deklaratsiya berish va bojxona xatarlarini baholash tizimlari

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarini rivojlantirish Konsepsiyasida bojxona rasmiylashtiruvini texnologiyalari sohasida bojxona axborot texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilab berilgan: risklarni boshqarish tizimidan foydalangan holda bojxona nazorati shakllarini tanlash va risklarni tahlil qilishni avtomatlashtirish; tovarlar va transport vositalarini elektron deklaratsiya qilish tizimlari ishlab chiqish va joriy qilish.

Risklarni boshqarish tizimi (RBT-SUR) – mamlakat bojxona organlari faoliyatining tubdan yangi yo'nalishi bo'lib, bojxona chegarasi orqali o'tadigan barcha tovarlar va transport vositalarini ommaviy nazorat qilishdan voz kechib, tanlov asosida nazorat qilishga o'tishni nazarda tutadi.

Bu yo'nalish bilan quyidagi tushunchalar bog'liq:

- risk – mamlakat bojxona qonunchiligiga rioya qilinmaslik ehtimoli;
- risk tovarlari – mamlakat bojxona chegarasi orqali o'tkaziladigan, ularga nisbatan risk aniqlangan yoki potentsial risk mavjud bo'lgan tovarlar;
- risk indikatorlari – ulardan og'ish nazorat ob'ektini tanlashga imkon beradigan berilgan ko'rsatkichli mezonlar;

- riskni baholash – risk vujudga kelish ehtimoli va u vujudga kelgan hollarda bojxona qonunchiligining buzilishi oqibatlarini sistematik aniqlash.

SUR ob'ektlari quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakat bojxona hududida erkin muomala uchun chiqarilgan yoki bojxona nazorati ostida bo'lgan tovarlar;
- xalqaro transport tashuvlarida foydalaniladigan transport vositalari;
- transport (tashuv), tijorat va bojxona hujjatlarida bo'lgan ma'lumotlar;
- xalqaro oldi-sotdi shartnomalari yoki tashqi iqtisodiy bitimlar amalga oshirishda tuzilgan boshqa turdagi shartnomalarda, bir tomonlama tashqi iqtisodiy bitimlarda esa – bunday bitimlar mazmunidan kelib chiqadigan boshqa hujjatlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar;
- bojxona nazorati ostida bo'lgan tovarlar bilan yuriik ahamiyatga molik harakatlarni o'z nomidan amalga oshirish uchun yetarli vakolatga ega bo'lgan shaxslar faoliyati;
- bojxona brokerlari (vaqillari), vaqtinchalik saqlash omborlari va bojxona omborlarining xo'jayinlari, shuningdek, tashuvchilar, jumladan, bojxona tashuvchilar faoliyati;
- bojxona nazorati shakllarini qo'llash natijalari;
- bojxona organlari.

Risk sohasini risklarni minimal qilish uchun ularga nisbatan maxsus nazorat qo'llash talab etiladigan, alohida guruhlariga ajratilgan tahlil ob'ektlari hosil qiladi.

SUR maqsadi sifatida mamlakat bojxona qonunchiligi buzilishi: barqaror xarakterga ega; bojxona ojlari, katta miqdordagi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq; mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini pasaytiradigan; davlatning ularga rioya qilishni ta'minlash bojxona organlariga yuklatilgan boshqa muhit manfaatlariga daxl qiladigan qonunbuzarliklar oldini olish uchun bojxona organlari resurslaridan foydalanishga asoslangan oralatib tanlash tamoyilidan kelib chiqqan holda samarali bojxona nazoratini ta'minlaydigan bojxona ma'murchilik tizimi yaratish namoyon bo'ladi.

SUR asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bojxona qoidabuzarliklari ro'y berishiga xizmat qiladigan sabablar va sharoitlarni aniqlash;
- potentsial risk vujudga kelganda ko'rilishi mumkin bo'lgan ziyonni va niqlangan risklardagi ziyonni baholash;
- risklarni minimallashtirish yoki oldini olish bo'yicha qo'llanadigan chora-tadbirlar samaradorligini baholash uslubiyatlarini ishlab chiqish;
- bojxona nazorati alohida shakllari yoki ularning yig'indisini qo'llash natijalari haqida, shuningdek, bojxona qoidabuzarliklari sodir bo'lishiga xizmat qiladigan sabablar va sharoitlar haqida axborot to'plash va tahlil qilish.

SUR bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki vazifa – bojxona taomillarini soddalashtirish va samarali bojxona nazoratini ta'minlashi lozim. Bu SUR faoliyatini va risklarni aniqlash bo'yicha dasturlar (uslubiyatlar) ishlab chiqishni ta'minlaydigan umumiy axborot makoni yaratishni taqozo etadi. Bunda risklarni boshqarish bazis hisoblanadi.

Risklarni boshqarish – risklarni minimallashtirish va oldini olish, ularni qo'llash samaradorligini baholash, shuningdek, bojxona organlarida mavjud axborotni uzlyuksiz yangilash, tahlil qilish va qayta ko'rib chiqishni nazarda tutadigan bojxona taomillari va bojxona operatsiyalari qo'llanishi ustidan nazorat bilan bog'liq sistematik chora-tadbirlar ishlab chiqishdir. Bojxona rasmiylashtiruv taomilini optimallashtiradigan boshqaruv qarori qabul qilishning asosida risk pofillari yotadi.

Risk profili – risk sohasi, risk indiqatorlari, shuningdek, riskni minimallashtirish yoki oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar yig'indisi. Risk pofillari alomatlarini belgilab beradigan misollr tariqasida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- bojxona statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, ularni olib kirish hajmi kontragent mamlakatning bojxona statistikasida ko'rsatilgan ularni olib chiqish hajmidan ancha kichiq bo'lgan tovarlar;
- ularga nisbatan bojxona bojlari past advalor stavkalari* belgilangan tovarlar;
- ularga nisbatan 10% qo'shilgan qiymat solig'i belgilangan tovarlar yoki QQC olinmaydigan tovarlar;
- ularga nisbatan qonunchilik bilan tarif imtiyozlari yoki boshqa bojxona bojlaridan ozod qilish belgilangan tovarlar;
- ularga nisbatan xuddi shu tovar pozitsiyasida tasniflanadigan va (yoki) o'z tavsifnomalari va tashqi ko'rinishi bo'yicha ushbu tovarlarga mansub bo'lgan tovarlarga nisbatan pastroq boj stavkalari belgilangan tovarlar;
- ularga nisbatan tovarlar kelib chiqish mamlakati sifatida e'lon qilingan mamlakatda ularni ishlab chiqarish mavjud bo'lmagan yoki ishlab chiqarish hajmi ularni bizning mamlakatga olib kirish hajmiga mos kelmasligi ma'lum bo'lgan tovarlar;
- tashiladigan tovarlar brutt vazni va netto vazni o'rtasida umume'tirof etilgan (muayyan tovarlar uchun) tafovutdan farq qiladigan tafovut.

Risklar ustuvorliklar bo'yicha baholanadi va qo'yib chiqiladi, bu esa risklarni minimallashtirish masalasini hal etish uchun bojxona organlarining resurslarini eng samarali taqsimlash imkonini beradi. Mamlakat bojxona organlarida risklarni tahlil qilish va boshqarish avtomatlashtirilgan tizimi yaratish bojxona rasmiylashtiruv taomillari ustidan tezkor nazorat shakllantirish, bojxona xizmati funksional bo'linmalari faoliyatini ta'minlash agregatsiyalangan ma'lumotlar to'plamlari majmuidan foydalanish, bojxona qiymatini nazorat qilishning kompleksli axborot ta'minoti tizimi yaratish, shuningdek, ijroiya hyukumati organlarining relevant ma'lumotlar to'plamlariga masofadan turib ulanishni taqozo etadi.

Umumiy ko'rinishda bojxona taomillarini amalga oshirishda risklarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish va qaror qabul qilish texnologiyasi uch bosqichdan iborat bo'ladi (6.5-rasm):

1) hujjatlar qabul qilish va avtomatlashtirilgan tizimga axborot kiritish, bunda hujjatlardagi ma'lumotlar mantiqiy to'g'riligi, ichki qarama-qarshi emasligi, to'liqligi va bojxona rasmiylashtiruv uchun yetarliligi tekshiriladi. Tekshiruv natijasida deklarant bojxona rasmiylashtiruv uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlar qabul qilingani va qayd qilingani yoki rasmiylashtirishdagi xatolar valar yoki etishmayotgan ma'lumotlar ko'rsatilgan holda ularni qabul qilish imkoniyoti haqida xabardor qilinadi;

2) markaziy ma'lumotlar to'plamida saqlanadigan axborot asosida risklarni tahlil qilishni ta'minlaydigan tovarlar, TIF qatnashchilari, tashuvchilarni avtomatik seleksiya qilish. Risklarni tahlil qilishda foydalaniladigan seleksiya mezonlari turli variantdagi vazn qiymatiga ega bo'ladi, bu esa tashqi muhit o'zgarishlariga (masalan, bozor kon'yunkturasining o'zgarishi, o'tkazish punktlaridagi vaziyat va b.) tezkor javob qaytarish imkonini beradi;

3) risklarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish, ya'ni bojxona organi mansabdor shaxsining keyingi harakatlari bilan bog'liq boshqaruv qarorlari shakllantirish.

Tovaras va transport vositalarini elektron deklaratsiya qilish tizimlari 1980-yillar boshlaridan AQSH va Yaponiyada faol foydalanib kelinmoqda. Xususan, Yaponiyada bojxona rasmiyatchiliklaridan o'tish mexanizmi havo (air-NACCS) va dengiz (sea-NACCS) turlariga taqsimlanadigan (NACCS) bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash avtomatlashtirilgan tizimiga asoslanadi. Bu avtomatlashtirilgan kompyuter tizimi TIF qatnashchilari va bojxona xizmatlarini bir qilib bog'laydi. Deklarantning o'z ishchi kompyuteridan tovar nomi, uning kelib chiqish mamlakati, shartnoma qiymati, transport vositasida tashish qiymati haqidagi va boshqa zarur ma'lumotlarni kiritishi kifoya. SHundan so'ng tizim amaldagi bojxona to'lovlari stavkalariga muvofiq olib kiriladigan tovar uchun umumiy to'lov miqdorini aniqlaydi va olingan ma'lumotlarni xotiraga


kiritadi. Deklarant olingan ma'lumotlarni qayta tekshirish imkoniga ega bo'ladi, shundan so'ng ijro uchun buyruq beriladi. Buyruq bo'yicha tizim talabnomani uch toifadan biriga o'tkazgan holda uni birlamchi tasniflashni amalga oshiradi: a) «hujjatsiz» yoki «oddiy inspeksiya» (tovarlar bojxona to'loviga tortilmaydigan, bojxona to'lovi to'lash kechiqtirilgan yoki mos keluvchi summa tizim tomonidan avtomatik ravishda bojxona organining hisobraqamiga o'tkazilgan hollarda); b) «hujjatlarni tekshirish»; v) «hujjatlarni tekshirish» va «bojxona tekshiruvi». Oralatib tanlash mezonlari CIS (Customs Information System) mst tizimiga kiritilgan bo'lib, unda tovar harakatlanishi haqida barcha ma'lumotlar to'planadi.

CIS axborot bojxona ma'lumotlar to'plami TIF qatnashchilari haqidagi deklarantning halolligi haqida mulohaza yuritishga imkon beradigan bojxona nazorati natijalari, harakatdagi tovarlar ro'yxati, harakat shartlari va h.k. ma'lumotlardan iborat. Tovar chiqarishga ruxsat olish muddati talabnoma toifasiga bog'liq bo'ladi. Ruxsat bojxona organi xodimining NACCS tizimiga mos keluvchi buyruq kiritishi yo'li bilan bajariladi. Olingan ruxsat tizim bojxona to'lovlari zarur miqdorining to'langani tasdig'ini olganidan so'ng yoki tizim hujjatlarni tekshirish lozim deb hisoblagach, bunday tekshiruvdan keyin deklarantning monitorida paydo bo'ladi.

Elektron deklaratsiya berish xalqaro tajribasi shuni ko'rsatadiki, bojxona rasmiylashtiruv ma'lumotlar to'plamlaridan, ilgari amalga oshirilgan tekshiruv tadbirlari natijalaridan foydalanadigan, TIF qatnashchilari haqida axborotga ega bo'lgan; risk bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradigan, chunonchi: rasmiylashtirish uchun berilgan talabnomalarni toifalashtiishni bajaradigan umumiy axborot markazlari yaratish maqsadga muvofiq. Bunda inson omilining ta'siri minimal bo'ladi, chunki tizim tavsiyalar beribgina qolmay, ularning bajarilishini nazorat ham qiladi.

Bojxona amaliyotiga elektron deklaratsiyalashning joriy qilinishi – uzoq muddatli va sermashaqqat jarayondir. Biroq uni amalga oshirish zarurligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi, chunki faqat to'g'ri tashqil qilingan va amalga oshirilgan elektron deklaratsiyalash tizimi fiskal va tartibga solish vazifalarini samarali hal

qilishga imkon beribgina qolmay, TIF qatnashchilari tomonidan ham, bojxona organlari xodimlari tomonidan ham bojxona qoidabuzarliklari va jinoyatlari sonini keskin pasaytirdi ham.



6.6-rasm. Risklarni boshqarish tizimi va elektron deklaratsiyalashdan birgalikda foydalanish sxemasi

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi elektron deklaratsiyalashni amaliy qo'llashga o'tish uchun bojxona rasmiylashtiruv va nazorati yangi shakllaridan foydalanishga imkon beradigan huquqiy asoslarni ta'minlaydi.

Bojxona axborot texnologiyalarini rivojlantirishning elektron deklaratsiyalash va risklarni baholash kabi strategik yo'nalishlarini birlashtirishdan

maqsad bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalarini bojxonada rasmiylashtiruv muddatlarini qisqartirish va nazorat samaradorligini oshirish hisoblanadi. Buning asosiga TIF qatnashchisidan tashqari bojxona organining mos keluvchi struktura bo'linmalarida bojxona rasmiylashtiruvi jarayonining ham «shaffofligi» hisoblanadi. Bunday jarayon sxemasi 5.6-rasmda aks ettirilgan.

Deklarant tomonidan shakllantirilgan bitim ma'lumotlari yig'indisi (SDS) uning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi, arxivlanadi va bojxona organining quyitizimiga beriladi.

SDS mintaqaviy o'zelda avtomatik ravishda qayta arxivlanadi, so'ngra deklarant imzosining haqiqiy ekanligi tekshiriladi. Ushbu bosqichda tahliliy markaz spravochniklari, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi va mintaqaviy bojxona boshqarmalari axborot resurslari foydalaniladi. Deklarantning elektron imzosi haqiqiy ekanligi tasdiqlangach, SDS ma'lumotlar to'plamiga yuklanadi va avtomatik rejimda elektron BUBlar GTD format-mantiqiy nazorati bajariladi. Ijobiy natija olinganda mintaqaviy o'zel SDSni qayd qiladi va unga unikal identifikatsiya raqami berib, risk borligi yoki yo'qligini ko'rsatadi.

Riskli ta'minotlarni aniqlash uchun axborot resurslari sifatida quyidagilar foydalanilishi mumkin:

- bojxona darajasida – elektron xabarnomalar ma'lumotlar to'plami, «bojxona qoidabuzarliklari bo'yicha ma'lumotlar» spravochnigi, SVX (VSO) o'tkazish qobiliyati elektron spravochnigi, transport vositasining yuklanganlik darajasi elektron spravochnigi;
- mintaqaviy bojxona boshqarmasi darajasida – «MDP Konvensiyasini bo'zgan tashuvchilar» spravochnigi, «Vaqtinchalik saqlash omborlari reestri» spravochnigi, soliqlar va yig'imlar bo'yicha mintaqaviy tashqilotlarning ma'lumotlar to'plami;
- O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati darajasida – «Muvofiqlik sertifikatlari» spravochnigi, «Kelib chiqish sertifikatlari» spravochnigi, «Import tarifi va import tarif bo'yicha izohlar»

spravochnigi, «O'rtacha shartnoma narxlari» spravochnigi, qo'shimcha axborot resurslari (masalan, «bir kunlik firmalar» toifasiga tushadigan tashqilotlar ro'yxati) chiqarilgan.

Bojxona darajasidagi va mintaqaviy bojxona boshqarmalari darajasidagi axborot spravochniklarida keltirilgan axborot riskni tahlil qilish tizimi maqsadlar uchun yuzaga kelayotgan tezkor vaziyatni aks ettirishi lozim. U risk omili ahamiyati bo'yicha tartibga solinishi lozim, bu tashuvchi tashqilotlar tasifnomalari, tashuvlar yo'nalishlarini hisobga olgan holda risk chegarasini belgilashga imkon beradi.

SHundan keyin BUBlar GTD asosiy bojxona rasmiylashtiruvini shtatli dasturiy vositalari shaklida bojxona nazorati va bojxona rasmlashtiruvini amalga oshiradigan bojxona organiga beriladi. Bunda deklarantga avtomatik ravishda SDS tizimdagi identifikatsiya raqamidan iborat bo'lgan xabar yoki format-mantiqiy nazoratdan muvaffaqiyatsiz o'tgan holatda xatolar ro'yxati beriladi.

Agar BUBlar GTD tekshirish natijasida tahliliy markazda risk aniqlanmasa, u bilan ishlashdan so'ng bojxona inspektori tovarni «yashil yo'lak bo'yicha», ya'ni tekshiruvsiz va qog'oz shaklidagi hujjatlar taqdim etishsiz chiqaradi.

Risk aniqlangan BUBlar GTD bilan ishlashda bojxona inspektori risk profili yoyiq ko'rinishda ajratgan holda riskni minimallashtirish choralarini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqadi. Deklaratsiya risk profili nazoratisiz chiqarilishi mumkin emas, chunonchi: BUBlar GTD ichki elektron strukturasida risk profili ishga tushadigan joylarda ichki bojxona tahlil markazi «bayroqcha» qo'yadi va faqat risk tqliq minimallashtirilgan holatdagina uni olib tashlaydi (tovar kodini aniqlash to'g'rilishi va qiymat nazorati, tekshiruv dalolatnomasi nazorati, sertifikatlarni tekshirish). Risk profili ustida ishlash natijalari bo'yicha ma'lumotlar ichki tahlil markazidan iererxiya bo'yicha mintaqaviy bojxona boshqarmasiga, undan esa – O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati tahlil markaziga o'zatiladi.

Rasmiylashtirish jarayoni yakunlangach, elektron BUBlar GTD yana bojxona organi quyitizimiga yuklanadi, bitim ma'lumotlari yig'indisi bojxona

organinnig mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolanadi va arxivga joylashtiriladi, rasmiylashtirilgan elektron BUBLar GTD esa deklarant quyitizimiga jo'natiladi. Elektron shaklda deklaratsiyalangan tovar chiqarilgach, bojxona organining vakolatli xodimi tovar joylashgan vaqtinchalik saqlash ombori xo'jayiniga tovarni berish haqida ruxsat jo'natadi.

Zamonaviy axborot bojxona texnologiyalari joriy qilish mamlakatda bojxona taomillarini Bojxona taomillarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish haqida Xalqaro konvensiyaga muvofiq holga keltirish uchun sharoitlar yaratishi lozim.

Logistika yondashuvining yanada rivojlanishi bojxona organari stryukturasida axborotni ishlash va qaror qabul qilish uchun operatsion markaz tashqil qilish bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy vazifasi kelib tushayotgan barcha axborotlarni uzlyuksiz monitoring qilish, uni risklarni boshqarish tizimidan foydalangan holda tahlil qilish va oralatib tanlagan holda bojxona nazorati usullarini maqsadli qo'llash uchun tezkor yo'alishlar berish hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, oldindan xabardor qilish va elektron deklaratsiyalash bilan birgalikda tovar oqimi va hujjat aylanmasi bilan bog'liq ishlarni taqsimlash imkoniyati ko'rib chiqiladi, bu esa bojxona taomillarini tezlatish, shuningdek, zarur hajmdagi tovarlar haqida axborotni nazorat qilishni ta'minlaydi.

Turli mamlakatlarda qo'llanayotgan, huquq-tartibot va nazorat qiluvchi organlar umumiy axborot tizimiga asoslangan chegarada nazorat va integratsiyalangan boshqaruv turi texnologiyalaridan foydalanish ko'zda tutiladi, bu o'tkazish punktida mamlakat davlat chegarasidan o'tkaziladigan tovarlar ustidan hujjatli nazoratni birgalikda olib borishga, shuningdek, bunday tovarlarni ko'rib chiqish sifatini yaxshilashga imkon beradi. Natijada tovarlarni bojxona chegarasi orqali o'tkazish uchun qulayroq sharoitlar yaratiladi,bojxona nazorati va rasmiylashtiruv vaqti qisqartiriladi, moliyaviy xarajatlar kamatiriladi, tovar oqimi oshiriladi, «eshikdan eshikkacha», «aniq muddatida» va «turn key» savdo-logistika texnologiyalarini amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Sanab o'tilgan

bojxona taomillari sifat darajasining yuqoriligi har bir alohida bojxona operatsiyasi sifatini boshqarish tizimining qo'llanishi evaziga ta'minlanadi.

Jahon bojxona tashqilotining fikriga ko'ra, oldindan xabardor qilishdan foydalanish muammosi jonlandi va bu bojxona xizmatining rivojlanish darajasi yuqori ekanligidan dalolat hisoblanadi. Oldindan xabardor qilish va oldindan elektron deklaratsiyalash qonunchilik buzilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini keskin oshirishga va mamlakat xavfsizligiga solinadigan tahdidlarni minimallashtirishga imkon beradi.

Bobga doir qisqacha xulosa

Zamonaviy axborot bojxona texnologiyalari joriy qilish mamlakatda bojxona taomillarini Bojxona taomillarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish haqida Xalqaro konvensiyaga muvofiq holga keltirish uchun sharoitlar yaratishi lozim.

Logistika yondashuvining yanada rivojlanishi bojxona organari stryukturasida axborotni ishlash va qaror qabul qilish uchun operatsion markaz tashqil qilish bilan bog'liq bo'lib, uning asosiy vazifasi kelib tushayotgan barcha axborotlarni uzlyuksiz monitoring qilish, uni risklarni boshqarish tizimidan foydalangan holda tahlil qilish va oralatib tanlagan holda bojxona nazorati usullarini maqsadli qo'llash uchun tezkor yo'alishlar berish hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Bojxona organlari faoliyati amaliyotiga logistika yondashuvlari axborot ta'minotini joriy qilish qaysi o'zgarishlarni taqozo etadi?
2. Bojxona organlari stryukturasiga nisbatan tashqilot axborot piramidasiga misol keltiring.
3. Mikrodarajada axborot logistika tizimlarining qaysi guruhlarini bilasiz?
4. Logistika tizimlarida axborotning pragmatik qimmati nimada?
5. Qaysi asosiy tamoyillar axborot logistika tizimlari barpo etishning asosiga aylanishi mumkin?

6. Bufer va texnologiya hududlarida axborot nazoratining asosiyni qaysi elementlar tashqil qiladi?
7. Ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish darajalarini bojxona organlari faoliyatiga moslashtiring.
8. Logistika axborot tizimlarida vertikal va gorizontal integratsiyaning mohiyati nimada?
9. Axborot infrato'zimasini nimani ifd va uning asosiy vazifasi nimada?
10. Bojxona ishida logistika jarayonlarining axborot ta'minoti mohiyatan nimalarni nazarda tutadi?
11. Bojxona ishida axborot ta'minoti ierarxik strukturasining xususiyatlarini sanab bering.
12. Lokal avtomatlashtirilgan ish o'rinlari va yuklarni bojxona rasmiylashtiruvchi avtomatlashtirilgan tizimlarga misol keltiring.
13. Risklarni boshqarish nimani ifodalaydi? Uning maqsadlari, vazifalari va qo'llanish ob'ektlari qanday?
14. Risklarni boshqarish tizimi va elektron deklaratsiyalashdan birgalikda foydalanish sxemasini tavsiflab bering.

Asosiy atama va ta'riflar

Axborot logistika tizimi – materiallar tayyor mahsulotga aylanadigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlar muomalada bo'ladigan, makro va mikrologistika darajasida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimi.

Lokal axborot tarmog'i – axborotni birgalikda qayta ishlash maqsadida strukturali bo'linmalar o'rtasida axborot uzatish uchun aloqa liniyalari orqali bir nechta kompyuterni o'zaro birlashtirish.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatning uni qalbashtirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik o'gartirish natijasida olingan hamda imzo kaliti sertifikatini egasini identifikatsiya qilish, shuningdek, elektron hujjatda axborotning bo'zib ko'rsatilishini aniqlash imkonini beradigan elektron hujjat rekviziti.

Axborot oqimi – ko'rib chiqilayotgan logistika tizimida boshlang'ich moddiy oqim hosil qiladigan, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan tashqi muhit va logistika tizimlari o'rtasidagi xabarlar yig'indisi.

Risk profili – risk sohasi, risk indikatorlari, shuningdek, riskning oldini olish yoki minimal qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar yig'indisi.

Taqsimlangan ma'lumotlar to'plami (distributed database) – ma'lumotlar bir nechta qattiq diskda joylashgan ma'lumotlar to'plami.

Mintaqaviy tarmoq – birgalikda qayta ishlash maqsadida bitta mintaqaviy bojxona boshqarmasi doirasida bojxonalar (bojxona postlari) o'rtasida axborot uzatish uchun bir nechta mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini o'zaro kanallar (aloqa liniyalari) orqali birlashtirish.

Xatar (risk) – mamlakat bojxona qonunchiligiga rioya qilmaslik ehtimoli.

Xaridor bozori – dastlab bozor ehtiyojlari o'rganiladi, so'ngra uni qondirish usullari amalga oshiriladi tamoyili amalga oshiriladigan bozor.

Server – foydalanuvchining so'rovlariga xizmat ko'rsatadigan personal yoki virtual kompyuter.

Ma'lumotlar to'plami serveri – ma'lumotlar to'plami, tarmoq operatsion tizimi, tarmoq ma'lumotlar to'plamini boshqarish tizimiga ega bo'lgan personal yoki virtual kompyuter.

Sinergiya, sinergizm (yunoncha synergyevropa ittifoqia – hamkorlik, hamdo'stlik) – birgalikdagi harakat, to'la-to'kis harakatda turli potentsiya yoki energiya turlarining o'zaro aloqasi.

Axborot logistika tizimi – materiallar tayyor mahsulotga aylanadigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlar muomalada bo'ladigan, makro va mikrologistika darajasida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimi.

Bojxona organlari – bojxona ishi sohasida vakolatlarga ega bo'lgan va mamlakat bojxona organlari unga bo'ysuadigan davlat xizmati.

Teleks – axborot oqimini tayyorlash va avtomatik ravishda abonentlarga uzatish uchun elektron axborot tizimi.

Axborot texnologiyasi – texnologik zanjirga birlashtirilgan, axborot resursidan foydalanish jarayoni mehnat sig'imini pasaytirish, tezkorlik va ishonchlilikni oshirish uchun axborot to'plash, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish usullari va dasturiy-texnik vositalar yig'indisi.

Risklarni boshqarish – risklarning oldini olish va minimallashtirish, ularni qo'llash samaradorligini baholash, shuningdek, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotni uzlyuksiz yangilash, tahlil qilish va ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan, bojxona operatsiyalari va bojxona taomillari qo'llash ustidan nazoart bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Xizmat – uning natijalari moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayonida sotiladigan va iste'mol qilinadigan faoliyat.

Tahliliy hisob – korxonalar vositalari yoki xo'jalik operatsiyalarining tahliliy schyotlar yordamida, ya'ni detallashtirilgan, batafsil ma'lumotlar bilan buxgalteriya schyotlari yordamidagi buxgalteriya hisobi.

Sintetik hisob – vositalar va xo'jalik jarayonlari umumlashtirilgan ko'rsatkichlardagi buxgalteriya hisobi.

Fayl – ma'lumotlar yig'indisi, maxsus tashqil qilingan ma'lumotlar strukturasini.

Faks (lat. fax simile – shunga o'xshashni qil) – grafik originalni masofadan turib aniq takrorlash uchun qurilma.

Logistika zanjiri – moddiy yoki hamrohlik qiladigan oqimlar bo'yicha chiziqli tartibga solingan hamda tashqi moddiy oqimni bir logistika tizimidan boshqa logistika tizimiga yoki yakuniy iste'molchigacha yetkazishni amalga oshiradigan logistika tizimi bo'g'inlari yig'indisi.

Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

Nerush YU.M. Logistika: Uchebnik. M.: YUNITI-DANA, 2003.

Osnovi logistiki: Ucheb. posobie lar Pod red. L.B. Mirotina i V.I. Sergeeva. M.: INFRA-M, 2000.

Parfenov A.V. Tamojennaya logistika: Ucheb. posobie. SPb.: SPbGUEF, 2000.

Sergeev V.I. Logistika v biznese: Uchebnik. M.: INFRA-M, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

Degtarenko V N. Osnovi logistiki i marketinga. Rostov nlar D: Ekspertnoe buro; M.: Gardarika, 1996.

Lindere M.R., FironX.E. Upravlenie snabjeniem i zapasami. Logistika lar Per. s angl. SPb.: Poligon, 1999.

Logistika, effektivnost i riski vneshneekonomicheskix operatsiy lar K.V. Zaxarov, A.V. TSiganok, V.P. Bocharnikov, A.K. Zaxarov. Kiev: INEKS, 2000.

7-BOB. BOJXONA ISHINI LOGISTIKALASH YO'NALISHLARI

Bojxona logistikasi paradigmasi shunga asoslanadiki, uning vujudga kelishi va amaliy qo'llanishi tashqi savdo aylanmasi global makrologistika tizimlari shakllanadigan, ya'ni bojxona organlari logistika zanjirlarining bo'g'inlariga aylanadigan paytdagina o'ringa ega bo'ladi. SHunday qilib, tashqi savdoni boshqarish logistika tizimi mohiyatan o'zaro bog'liq va o'zaro aloqa qiladigan elementlar yig'indisi hisoblanadi. Tabiiyki, asosiy elementlar bojxona organlari va TIFni davlat tomonidan boshqarish boshqa organlari, eksport-import tovar oqimlarini tarifli va tarifsiz tartibga solish usullari, bojxona va tashqi savdo vositachilari, tovar eksportchilari va importchilari, iste'molchilar hisoblanadi.

7.1. Bojxona ishini logistikalash jarayoni xususiyatlari

TIF sub'ektlari haqida gapirganda shuni ta'kidlash joizki, pirovard natijada ularning har biri o'zining iqtisodiy manfaatlarini ko'zlaydi. SHu boisdan tashqi savdo sohasida logistika yondashuvining asosiy maqsadi TIF muayyan sub'ektlarining 6 ta turli yakuniy maqsadlariga aylanadi. Masalan, davlat nuqtai nazaridan logistika yondashuvidan foydalanish bojxona nazorati va rasmiylashtiruv bojxona taomillarini soddalashtirishda bojxona ma'murchiligini takomillashtirish hisobiga davlat budjetiga kelib tushadigan bojxona to'lovlari hajmi va tashqi savdo aylanmasining ortishiga olib kelishi lozim.

Eksportchi va importchilarning fikriga ko'ra, logistika yondashuvidan foydalanish xarajatli bojxona taomillarini soddalashtirish va bojxona rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish natijasida ularning moliyaviy xarajatlarini optimallashtirishga imkon beradi. Transport korxonalarini, SVX (VSO) xo'jayinlari, bojxona brokerlari va boshqa vositachilarning logistika yondashuvini amalga oshirishdan manfaatdorligi eksport-import oqimlari hajmining, demak, ularning daromadlari o'sishi istiqbollari bilan asoslanadi.

Bojxona logistikasining missiyasi va maqsadlarini ifodalab beramiz:

missiya – savdoning rivojlanishi, tashqi savdo aloqalarining kengayishi va tovaraylanmani tezlatishga xizmat qilish;

maqsadlar:

- bojxona ma'murchiligi samaradorligini oshirish va TIF qatnashchilari uchun qulay sharoitlar yaratish;
- bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash;
- davlat budjetining daromadlar qismini o'z vaqtida va to'liq to'ldirish.

Bojxona logistikasi missiyasi va maqsadlarini amalga oshirishda bojxona infratuzilmasi va unga yaqin infratuzilma shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona logistika tizimi (BLT-TLS) haqida logistika zanjirining bo'g'ini sifatida gapirganda barcha qatnashchilar maksimal erishish mumkin bo'lgan foydali umumiy samaraga erishish uchun yaxlit bir butunlik sifatida amal qiladigan (mustaqil shaxslar hisoblangan holda) harakat qiladigan VILS – vertikal integratsiyalangan logistika tizimi tushunchasiga kaytish maqsadga muvofiq. Bu yerda gap imperativ usulni amalga oshirgan holda bojxona chegarasi orqali eksport-import tovar oqimlari o'tishini tartibga solishni amalga oshiradigan boshqariladigan (idora qilinadigan) VILS haqida boradi.

Bojxonada tartibga solish deganda ularga rioya qilgan holda yuridik va jismoniy shaxslar tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali o'tkazish huquqini amalga oshiradigan qoidalar va tartibni belgilashdan iborat bo'lgan davlat faoliyati yo'nalishi tushuniladi.

Bunda vujudga keladigan, bojxona-huquq me'yorlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ikkita asosiy turga ajratilishi mumkin:

- davlat-hyukumat ko'rsatmalari asoida vujudga keladigan va birinchi navbatda tovarlar olib kirish va olib chiqish cheklovlariga, bojxona operatsiyalarini amalga oshirish bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirish tartibiga aloqador ma'muriy-huquqiy xarakterdagi munosabatlar;

- bojxona to'lovlari undirish bilan bog'liq moliyaviy-huquqiy xarakterdagi munosabatlar.

Logistika nuqtai nazaridan eksport-import tovar oqimlarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishda asosiy rolni jx rejimlarini amalga oshirish bilan bog'liq bojxona taomillari oqimlari o'ynaydi. Bu adolatdandir, chunki TLS xuddi boshqa har qanday iqtisodiy tizim kabi, kirish va chiqish kanallariga ega bo'ladi. Bojxona ishiga nisbatan eksport-import tovarlar oqimlarining qonuniy kirish va chiqish kanallari bojxona rejimlari hisoblanadi, chunki aynan ular tovarning belgilangan vazifasiga qarab, uning bojxona chegarasidan o'tish tartibini, tovarning bojxona hududida yoki undan tashqarida bo'lish shartlarini belgilab beradi, u foydalanilishi mumkin bo'lgan doiralar, tovarlarni harakatlantiruvchi shaxsning huquq va majburiyatlari, muayyan rejim ostida joylashtiriladigan tovarga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Mamlakat bojxona hududiga tovarlar olib kirish va bu hudaddan tovarlarni olib chiqish shaxslarning toarlarni bojxona rejimlaridan biri ostida joylashtirish va unga rioya qilishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida bojxona rejimlarining asosiy turlari belgilab berilgan.

1. Asosiy bojxona rejimlari

Ichki iste'mol uchun chiqarish – bunda mamlakat bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ushbu hududda ularni olib chiqish majburiyatisiz qoladi. Bunda tovarlar bojxona bojlari va soliqlar to'langanidan va amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan boshqa cheklovlar amal qilinganidan so'ng mamlakat bojxona hududida erkin muomalada bo'lgan tovar maqomini oladi.

Ushbu rejimga eng tarqalgan oldi-sotdi va ta'minot tashqi savdo shartnomalarini amalga oshirish tufayli bojxona chegarasidan o'tkaziladigan tovarlar to'g'ri keladi. SHu tufayli rejim eksport bojxona rejimi bilan bir qatorda eng ko'p foydalaniladigan rejim hisoblanadi. Ushbu bojxona rejimi ostida joylashtiriladigan tovarlar mamlakat hududida savdo aylanmasida faol ishtirok etish uchun mo'ljallanadi.

Erkin muomala uchun tovarlar chiqarish bunday tovarlardan foydalanish va tasarruf qilish to'liq erkinligiga yo'l qo'yadi. Bu rejimni e'lon qilgan shaxslar bu tovarlardan foydalanish, boshqalar ixtiyoriga o'tkazish, yo'q qilish, qayta ishlash, tovarlar bilan amaldagi qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa har qanday harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Ekspost – bunda mamlakat bojxona hududida erkin muomalada bo'lgan tovarlar qaytarib olib kirish shartisiz uning hududidan olib chiqiladigan rejim. Ushbu rejim tovarlarni olib chiqishga doir bojxona bojlari to'lanishi, bojxona kodeksida belgilangan barcha cheklovlar va boshqa talablar bajarilishi shartida amalga oshiriladi. Bunda to'lovdan ozod qilish, soliqlar va yig'implar haqidagi qonunchilikka muvofiq ichki soliqlarni qaytarish yoki o'rini qoplash amalga oshiriladi.

Xalqaro bojxona tranziti – xorijiy tovarlar mamlakat bojxona hududida ularning kirib kelish va chiqib ketish joylari o'rtasida bojxona nazorati ostida harakat qiladigan rejim. Rejim bojxona bojlari va soliqlar to'lovsiz, shuningdek, tovarlarga nisbatan taqiqlar va iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar qo'llamasdan amalga oshiriladi. Bu rejim ostida ularni tranzit qilish mamlakat qonunchiligi va xalqaro shartnomalar bilan taqiqlangan tovarlarni istisno qilganda har qanday xorijiy tovarlar joylashtirilishi mumkin.

Tranzit tovarlarni mamlakat bojxona hududiga olib kirish mamlakat iqtisodiyotiga bilvosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u yuk ashuvlarini amalga oshirish bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan sohalarda faollikni rag'batlantiradi. SHunday qilib, qoidaga ko'ra, har qanday davlat o'z hududi orqali tranzit tashuvlarni rag'batlantirishdan manfaatdor bo'ladi.

2. Iqtisodiy bojxona rejimlari

Bojxona hududida qayta ishlash – olib kirilgan tovarlar mamlakat bojxona hududida ularni qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazish uchun foydalaniladi. Rejim qayta ishlash mahsulotlari belgilangan muddatda mamlakat bojxona hududidan olib chiqish shartida bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan to'liq shartli ozod qilgan holda amalga oshiriladi. Ushbu rejim ostida joylashtiriladigan olib

kirilgan tovarlarga nisbatan barcha taqiqlar va cheklovlar qo'llanadi. Tovarni bojxona rejimi ostida joylashtirish bojxona organining yozma ruxsati olingandan so'ng yo'l qo'yiladi.

Rejimdan foydalanishning asosiy maqsadi mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulot va xizmatlarini raqobatbardosh sharoitlarda xalqaro bozorlarda sotish imkoniyati taqdim etish hisoblanadi, bu mamlakat bojxona hududida ishlab chiqarishning rivojlanishiga, shuningdek, qo'shimcha ish joylari uchun sharoitlar yaratish va ishlab chiqarish quvvatlarini yuklashga xizmat qiladi. mamlakat iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida bu buyurtmachining xomashyosi asosida xorijiy buyurtmalarni bajarish ustida ishlayotgan gradoobrazuyushix??? korxonalar uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Ichki iste'mol uchun qayta ishlash – olib kirilgan tovarlar mamlakat bojxona hududida kelgusida qayta ishlangan mahsulotlarni erkin muomala uchun chiqargan holda tovarlarni qayta ishlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan rejim. Ichki iste'mol uchun qayta ishlash bojxona organining ularning ro'yxati mamlakat hyukumati tomonidan belgilanadigan tovarlarga nisbatan ruxsati mavjudligida yo'l qo'yiladi. Olib kirligan tovarlarga nisbatan mamlakat bojxona qonunchiligida ko'zda to'tilgan barcha taqiqlar va cheklovlar qo'llanadi.

Rejim bojxona hududiga tovarlarni bojxona bojlari to'lamasdan olib kirish, ular bilan qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar amalga oshirish va bojxona bojlari pastroq stavkalar bo'yicha to'lagan holda erkin muomala uchun qayta ishlangan mahsulotlar chiqarish imkonini beradi. Bu rejimning iqtisodiy ahamiyati milliy sanoat raqobatbardoshligini oshirshidan iborat, chunki u ish o'rinlarini saqlab qolgan holda ishlab chiqarish faoliyatining bojxona hududiga ko'chib o'tishiga olib keladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash – tovarlar bojxona bojlari va soliqlar to'lash bo'yicha imtiyozlar taqdim etgan va qayta ishlangan mahsulotlarni qaytargan holda ularni qayta ishlash operatsiyalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mamlakat bojxona hududi tashqarisiga olib chiqiladigan rejim. Olib

chiqiladigan tovarlarga nisbatan iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar va taqiqlar qo'llanmaydi.

Bu rejimning asosiy iqtisodiy ahamiyati milliy ishlab chiqaruvchilarga ishlab chiqarish xarajatlarini (kafolatli xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, modernizatsiya qilish) qisqartirish va o'z mahsulotlarini ichki bozorda raqobatbardosh narxlar bo'yicha taklif qilish imkoniyatini taqdim etishdan iborat.

Vaqtinchalik olib kirish – xorijiy tovarlar belgilangan muddat (ikki yilgacha) davomida mamlakat bojxona hududida ularga nisbatan iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar va taqiqlar qo'llanmagan holda foydalaniladigan rejim. Rejim bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan to'liq yoki qisman shartli ozod qilishni nazarda tutadi. Bojxona organi bu rejimni e'lon qilgan shaxsdan bojxona kodjeksida belgilangan majburiyatlarning tegishlicha ijro etilishi kafolatlarini, jumladan, vaqtinchalik olib kirilgan tovarlarni qayta olib chiqib ketish majburiyati taqdim etishni talab qilish huquqiga ega.

Rejimning qo'llanishi xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy, insonparvarlik aloqalarini rivojlantirish yo'lidagi ko'plab to'siqlarni olib tashlashga imkon beradi. U ko'rgazma eksponatlari, reklama materiallari, xilma-xil o'rab-qadoqlash materiallari, xalqaro yuk tashuvlarini amalga oshiruvchi transport va h.k. olib kirishga xosdir. Vaqtinchalik tovarlar olib kirgan shaxs ushbu rejim haqidagi qonunchilik talablariga rioya qilishi shart, shu boisdan unga qo'shimcha majburiyatlar yuklatilib, unga berilgan huquqlar bilan birgalikda uning vaqtinchalik olib kirish rejimi foydalanuvchisi sifatidagi maqomini belgilab beradi. Vaqtinchalik olib kirilgan tovarlardan foydalanishga faqat ularni olib kirishga berilgan ruxsatda ko'rsatilgan maqsadlar va shartlarda yo'l qo'yiladi.

Umumiy qoadaga ko'ra, vaqtinchalik olib kirilgan tovarlar bojxona organining maxsus ruxsatisiz boshqalar ixtiyoriga o'tkazish (har qanday shaklda) predmeti bo'lishi mumkin emas.

Bojxona ombori – mamlakat bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar bojxona nazorati ostida bojxona bojlari va soliqlar to'lamasdan, iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar va taqiqlarsiz saqlanadigan, olib chiqish uchun

mo'ljallangan tovarlar esa bojxona nazorati ostida amaldagi qonunchilikda ko'da to'tilgan shartlarda saqlanadigan rejim. Xalqaro savdo amaliyotida shunday holatlar bo'lib turadiki, tovarlar olib kirilgan paytda ularning mamlakat hududida qanday foydalanilishi hali noma'lum bo'ladi. Bojxona ombori rejimini tanlab, importchi tovarlarni belgilangan vaqt davri davomida saqlash, zarur hujjatlar to'plash hamda bojxona bojlari va soliqlar to'lash vaqtini tovarlarni erkin muomalaga chiqarish paytigacha o'zaytirish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Ushbu rejim ko'pincha xalqaro kompaniyalar faoliyatida tovarlarni saqlash va kelgusida qayta yo'naltirish uchun, distribyutsiya markazlari tomonidan tovarlar oqimini optimallashtirish uchun va servis xizmatlari ko'rsatuvchi tashqilotlar tomonidan ta'mirlash uchun zarur bo'lgan detallar bilan tezkor ta'minlash va boshqa ko'plab holatlarda foydalaniladi. Bojxona ombori rejimi shuningdek, eksportchilar tomonidan bojxona omboriga mahalliy tovarlarni joylashtirish uchun ham foydalaniladi. Bu holatda tovarlar egasi dastlab eksport bilan bog'liq barcha bojxona taomillaridan o'tish va shundan keyin tovarlar olib chiqishni amalga oshirish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Tovarlar bojxona omborida uch yil davomida saqlanishi mumkin. Bu rejim ostida amaldagi qonunchilikda olib kirish va olib chiqish taqiqlangan tovarlarni istisno qilgan holda istalgan tovarlar joylashtirilishi mumkin.

Bojxona ombori – xorijiy tovarlar mos keluvchi hududiy chegaralar yoki joylarda bojxona bojlari va soliqlar undirilmasdan, shuningdek, iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar va taqiqlar qo'llanmasdan joylashtiriladigan va foydalaniladigan, mahalliy tovarlar esa eksport bojxona rejimiga muvofiq olib chiqishga nisbatan qo'llanadigan shartlarda joylashtiriladigan va foydalaniladigan rejim. Mazkur rejim O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida keltirilgan bojxona rejimlari umumiy ro'yxatida faqat nomi keltirilgan, xolos.

Maxsus iqtisodiy hududlar iqtisodiyotning qayta ishlash tarmoqlari va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish, yangi mahsulot turlari ishlab chiqarish va transport infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlarida tashqil etiladi. Bu investitsiyalar jalb qilish hamda mamlakatning iqtisodiy va ilmiy salohiyatini

yanada yuksaltirish uchun xalqaro hamkorlikni rivojlantirishning samarali va yetarli darajada istiqbolli yo'nalishidir. Bojxona rejimi faqat maxsus iqtisodiy hududdagina amal qiladi. Bu hudud bojxona nazorati hududi sanaladi. Tovarlar sanoat-ishlab chiqarish yoki texnik-joriy qilish faoliyatini amalga oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy hudud rezidentlari tomonidan bojxona rejimi ostida joylashtiriladi.

3. YAkunlovchi bojxona rejimlari

Evropa ittifoqi import – shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O'zbekiston tovarlari import bojlari, soliqlarni to'lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda belgilangan muddatlarda qayta olib kiriladi.

Tovarlarni bu rejim ostida joylashtirish mahalliy shaxslarga ilgari eksport qilingan tovarlarni mamlakat hududiga bojxona bojlari va soliqlar to'lamasdan (masalan, xorijiy tomon kelib tushgan tovar sifatining shartnoma shartlariga muvofiq emasligi sababli tovaralni qabul qilishdan bosh tortgan hollarda) olib kirish imkonini beradi. Ryevropa ittifoqimport qilinadigan tovarlarga nisbatan tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish haqidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar va taqiqlar qo'llanmaydi (masalan, litsenziyalash, kvotalash). Tovarlar bojxona maqsadlari uchun erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Bu rejim ostida ilgari boshqa bojxona rejimlari ostida joylashtirilgan tovarlar joylashtirilishi mumkin.

Reeksport – shunday rejimki, bunda chet el tovarlari bojxona hududidan olib chiqiladi.

Agar tovarlar bojxona organiga keyinchalik reeksport rejimida olib chiqib ketishga mo'ljallangan tovar sifatidagina ma'lum qilingan bo'lsa, ular bojxona hududiga olib kirilayotganda import bojlari, soliqlar hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi. Bunday tovarlarni amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab olti oydan kechiqtirmay amalga

oshiriladi. Amalda olib chiqib ketilmagan taqdirda import bojlari, soliqlar, shuningdek ular yuzasidan foizlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Tovarlar reeksport rejimida olib chiqilayotganda eksport bojlari, soliqlar undirilmaydi, olib chiqish chog'ida amal qilib turgan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda to'tilgan hollar bundan mustasno.

Rejim TIF turli sxemalarida, xususan, mahalliy shaxs tovarni bir mamlakatda xarid qiladigan va uni boshqa mamlakatdagi kotragentga sotadigan hollarda; mamlakatda vaqtinchalik iolib kirish rejimi yoki bojxona hududida qayta ishlash rejimi ostida (agar qayta ishlash amalga oshirilmagan bo'lsa) joylashtirilgan tovarlarni qayta olib chiqishda qo'llanishi mumkin. Bu rejim ostida xorijiy tovarlar maqomiga ega bo'lgan tovarlar joylashtirilishi mumkin. SHu bilan bir paytda, bojxona kodeksida xorijdan olib kirishda ichki iste'mol maqsadlari uchun chiqarish rejimi ostida joylashtirilgan mahalliy tovarlar uchun ham qo'llanishi mumkinligi ko'zda to'tilgan.

Yo'q qilish – shunday rejimki, bunda chet el tovarlari boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida yo'q qilinadi, shu jumladan ular foydalanish uchun yaroqsiz holga keltiriladi.

Tovarlarni yo'q qilishga bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Ruxsatnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi. Tovarlarni yo'q qilish manfaatdor shaxs tomonidan o'z hisobidan amalga oshiriladi. Tovarlarni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilar bojxona nazorati ostida turgan chet el tovarlari sifatida tegishli rejimga joylashtiriladi. Yo'q qilib tashlash uchun ruxsatnoma berish rad etilgan taqdirda tovarlar ularni olib kirgan shaxs hisobidan O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketiladi.

Rejim, masalan, ko'rgazma ishida qo'llanadi: ortga transport vositasida tashish qiymati stendlar, reklama jihozlari va ayrim eksponatlar qiymatidan baland bo'lishi mumkin, bu esa ularni bojxona nazorati ostida yo'q qilish yoki davlat mulkiga aylantirishga (tovardan davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi) undaydi. Ko'rgazma yoki yarmarka qatnashchisi bu predmetlarni oddiygina «qoldirib», «esdan chiqarib» keta olmaydi, chunki ularni mamlakat bojxona

hududiga qayta olib chiqib ketish majburiyati bilan olib kirgan, demak, agar yukning bojxona hududi chegarasidan o'tkazilishi ro'y bermasa, uning egasi (deklarant) bojxona bojlari va soliqlar to'lashi lozim bo'ladi. Bojxonaga tovarning bojxona nazorati ostida yo'q qilingani haqida tegishli rasmilashtirilgan dalolatnoma taqdim etish yukni qayta olib chiqmaslik va shu bilan bir paytda bojxona bojlari to'lamaslikning qonuniy imkoniyati hisoblanadi.

Quyidagi tovarlarni yo'q qilishga ruxsat etilmaydi: madaniy boyliklar; yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan jonivorlar va o'simliklar, ularning qismlari va derivatlari, epidemiya va epizootiyaning oldini olish maqsadida ularni yo'q qilish talab etilgan hollar bundan mustasno; bojxona organlari tomonidan garov predmeti sifatida qabul qilingan tovarlar; mamlakat hukumati tomonidan ro'yxati belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa tovarlar.

Tovarlarni yo'q qilishga quyidagi hollarda ruxsat etilmaydi, agarda: bu atrof-muhitga jiddiy ziyon yetkazishga sababchi bo'lsa yoki odamlar hayoti va salomatligiga bevosita yoki potentsial xavf tug'diradigan bo'lsa; tovarlarni odatiy yo'l bilan iste'mol qilish orqali amalga oshiriladigan bo'lsa; davlat organlari uchun xarajatlarga olib keladigan bo'lsa. Yo'q qilish bu operatsiyani amalga oshirish bo'yicha oqilona zarur bo'lgan vaqtdan kelib chiqib, deklarantning arizasi asosida bojxona organining nazorati ostida amalga oshiriladi.

Davlat foydasiga voz kechish – shunday rejimki, bunda shaxs tovarlarga nisbatan boj, soliqlar va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda ulardan davlat foydasiga voz kechadi.

Tovarlarni davlat foydasiga voz kechish rejimiga joylashtirishga qonun hujjatlarida nazarda to'tilgan tartibda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Tovarlardan davlat foydasiga voz kechish davlatning xarajatlari qilishiga sabab bo'lmaydi. Rejimdan foydalanish xorijiy tovarni mahalliy bozorda sotish samarasizligi yoki imkoni yo'qligi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Tashqi savdo amaliyotida ko'pincha bojxona to'lovlari stavkalarining katta ekanligi sababli tovarlardan davlat foydasiga voz kechish holatlari uchrab turadi. Bojxona to'lovlari

hajmining keskin oshishi xorijiy tovarni mahalliy ishlab chiqarilgan xuddi shunday tovar bilan taqqoslagan raqobatbardosh emas qilib qo'yishi mumkin. Xuddi shunday natijaga dengiz va temiro'l tashuvlarida transportning uzoq vaqt harakatsiz turib qolishi ham olib kelishi mumkin. temiro'l va dengiz portlari ma'muriyatiga to'lanadigan jarimalar tovarning sezilarli darajada qimmatlashuviga olib keladi. O'zgargan sharoitlarda tashqi savdo bitimi rentabelligini aniqlab (yangi bojxona tariflari, transport tashqilotlariga to'langan jarimalar va h.k.), importchi tovarni mahalliy bozorda sotishni maqsadga muvofiq emas deb hisoblashi mumkin.

Agar bunday tovarni mamlakat bojxona hududidan olib chiqish foydali bo'lmaydigan bo'lib chiqsa, TIF qatnashchisi tovarning yo'qotilishiga tan bergan holda moddiy yo'qotishlarni minimal qilishga va bojxona bojlari to'lashdan ozod bo'lishga harakat qiladi. Buning uchun u tovardan davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimini tanlashi mumkin, chunki bu unga ma'lum bir foyda beradi. Masalan, tovarni tekinga davlat mulki qilib berish importchining ishbilarmonlik nufuziga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari, tovarni yo'q qilish bundan manfaatdor bo'lgan shaxs hisobidan amalga oshiriladi.

Tovardan davlat foydasiga voz kechish bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi. Bunda bojxona organlari tashuvchi, vaqtinchalik saqlash ombori (bojxona ombori) xo'jayiniga yoki boshqa shaxslarga tovarlarni transport vositasida tashish, saqlash, bu tovarlarni bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv jarayonida operatsiyalar o'tkazish bilan bog'liq biron-bir xarajatni qoplamaydi.

4. Maxsus bojxona rejimlari

Vaqtinchalik olib kirish (olib chiqish) – shunday rejimki, bunda bojxona hududida yoki undan tashqarida tovarlardan bojdan, soliqlardan to'la yoki qisman ozod etilgan holda va tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan foydalanishga yo'l qo'yiladi. Vaqtincha olib chiqish rejimiga joylashtiriladigan tovarlar o'zgartirmasdan qaytarilishi lozim, tabiiy eskirish yoxud

normal tashish va saqlash sharoitlarida kamayish oqibatidagi o'zgarishlar bundan mustasno.

Vaqtincha olib chiqish rejimiga joylashtiriladigan tovarlarni boj va soliqlar to'lashdan to'la yoki qisman ozod qilish qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarni vaqtincha olib chiqish rejimiga joylashtirishga, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ularni qayta olib chiqish yoki qayta olib kirish majburiyati taqdim etilgan, bojxona to'lovlari to'lanishi ta'minlangan, tovarlarning aynanligi ta'minlangan taqdirda bojxona organining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

Rejimning zarurligi tovarlarni olib chiqishdan tashqari ularni kelgusida mamlakat bojxona hududiga olib kirishda imtiyozli sharoitlar yaratish yo'li bilan tashqi savdo munosabatlari, fan, madaniyat, kinematografiya, sport, turizm va boshqa sohalarda xalqaro aloqalarning rivojlanishini ta'minlash vazifasi bilan bog'liq. Bunda bojxona organining tovarlarni olib kirishga doir bojxona bojlari to'lamasdan, shuningdek, ularga nisbatan iqtisodiy xarakterdagi cheklov va taqiqlar qo'llamasdan tovarlarni qayta olib kirish imkoniyati tasdiqlangani haqida oldindan, tovarlarni olib chiqishdan avval xabar olishi bu rejimning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Vaqtinchalik olib chiqilgan tovarlarga nisbatan bojxona organlari qayta olib kirish borasida shaxslarning majburiyati ijro etilmagunga qadar nazoratni davom ettiradilar.

Bu rejim ostida faqat mahalliy tovarlar, ya'ni mamlakat bojxona hududida erkin muomalada bo'lgan tovarlar joylashtirilishi mumkin. Rejimning qo'llanishi dastlabki (oldindan) ruxsat olish zaruratini taqozo etmaydi.

Tovarlarni vaqtinchalik olib chiqishda ichki soliqlardan ozod qilish, to'langan soliqlarni qaytarish yoki o'rnini qoplash amalga oshirilmaydi. Vaqtinchalik olib chiqish muddati bojxona organi tomonidan deklarantning arizasi bo'yicha bunday olib chiqish maqsadlari va holatidan kelib chiqib belgilanadi.

Boj olinmaydigan savdo do`koni – mamlakat bojxona hududiga olib kirilgan xorijiy tovarlar yoki mahalliy tovarlar mamlakat bojxona hududidan tashqariga chiqayotgan jismoniy shaxslarga chakana sotiladigan rejim.

Tovarlarni sotish tovarlar boj va soliqlar to'lanmay, shuningdek, ularga nisbatan iqtisodiy xarakterdagi cheklov va taqiqlar qo'llamasdan sotiladigan magazinlarda amalga oshiriladi. Bu rejim mamlakat bojxona hududida bojxona nazorati ostida davlat chegarasidan o'tkazish punktlarida amalga oshiriladi. Mahalliy tovarlarni bu rejim ostida joylashtirishda soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq ichki soliqlar to'lashdan ozod qilish, ularni qaytarish yoki o'rnini qoplash amalga oshiriladi. Xorijiy tovarlarni joylashtirishda ilgari to'langan bojxona bojlari va soliqlar summasini qaytarish amalga oshiriladi. Bojsiz savdo bojxona rejimi ostida joylashtiriladigan tovarlar deklaranti bo'lib faqat bljsiz savdo magazini xo'jayini ishtirok etishi mumkin.

Pullik yoki bepul yo'lovchi yoki yuk tashuvlarini amalga oshiruvchi transport vositalarida ekipaj a'zolariga va yo'lovchilarga sotish yoki foydalanish uchun mo'ljallangan tovarlar bojxona chegarasidan bojxona bojlari va soliqlar to'lamasdan, shuningdek, ularga nisbatan iqtisodiy xarakterdagi cheklov va taqiqlar qo'llamasdan o'tkaziladigan rejim. G'amlab qo'yilgan tovarlar transport vositalarining qayd qilingan mamlakatidan qat'i nazar ushbu rejim ostida joylashtiriladi. Ularga nisbatan olib kirishga doir bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etishning umumiy sharti shundaki, ular mamlakat bojxona hududi bo'ylab harakat qilish vaqtida ushbu transport vositalari doirasini tark etmasligi lozim.

Xorijiy tovarlar maqomiga ega bo'lgan g'amlab qo'yilgan tovarlardan yo'l qo'yiladigan foydalanish, jumladan, ularni iste'mol qilish faqat ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning yo'nalish bo'ylab yoki oraliq stansiyalardagi ehtiyojlariga mutanosiblik bilan chegaralanadi. Transport vositalari uchun zarur bo'lgan yoqilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqalar bu transport vositalarining mamlakat bojxona hududida bo'lish vaqtidan kelib chiqib belgilanadi.

Boshqa maxsus bojxona rejimlari bojxona chegarasi orqali o'tkaziladigan quyidagi tovarlarga nisbatan belgilanadi: 1) mamlakat bojxona hududidan olib chiqiladigan va elchixonalar, konsulxonalar, xalqaro tashqilotlardagi vakolatxonalar va boshqa rasmiy vakolatxonalar faoliyatini ta'minlash uchun

Bojxona kodeksda bojxonaga yaqin infratuzilma litsenziya (ruxsat berish) tizimi bekor qilingan va bojxona ishi sohasida mos keluvchi faoliyat turini amalga oshiruvchi shaxslarni reestrغا kiritishning xabar bildirishga oid tartibi joriy qilingan. Bojxona brokerlari, bojxona terminallari xo'jayinlari va bojxona tashuvchilari bojxona xizmati tomonidan yuritiladigan va rasmiy matbuotda chop etiladigan mos keluvchi reestrlarga kiritiladi. SHaxsning burday reestrغا kiritilishi belgilangan shakldagi guvohnoma berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Mos keluvchi reestrغا kiritish jarayoni yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish institutiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan. Reestrغا kiritish huquqini olish uchun hujjatlarni ko'rib chiqishda hech qanday yig'im olinmaydi.

Bojxona kodeksida ko'zda to'tilgan yuklarni tashish, vaqtinchalik saqlash, deklaratsiyalash va boshqa operatsiyalar bo'yicha shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarda reestrغا kiritish shartli batafsil ro'yxati beriladi. Reestrغا kiritishning asosiy sharti sifatida iqtisodiy mezon – bojxona to'lovlari to'lanishining ta'minlanishi, ushbu shaxs javobgarligi ostida bo'lgan boshqa

shaxslar tovarlariga ziyon yetkazish oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan fuqarolik javobgarligi riskining sug'urta qilinganligi ko'rsatiladi.

Bojxona tashuvchisi – bojxona tashuvchilari reestriga kiritilgan va bojxona nazorati ostida bo'lgan yuklarni tashishni amalga oshiradigan yuridik shaxs.

Bojxona tashuvchilari reestriga kiritish shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- ikki yildan kam bo'lmagan muddat davomida yuklarni tashish bo'yicha faoliyat amalga oshirish (m. 94 RF BK);
- 20 mln rubldan kam bo'lmagan miqdorda bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash (p. 2 m. 339 RF BK);
- agar bunday faoliyat turi amaldagi qonunchilikka muvofiq litsenziyalanadigan bo'lsa, yuklarni tashish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga litsenziya mavjudligi;
- tovarlarni tashishda foydalaniladigan transport vositalariga, jumladan, bojxona muhrlari va plombalari ostida tovarlar tashish uchun yaroqli bo'lgan transport vositalariga egalik qilish (mulkida, xo'jalik yuritishida, tezkor boshqaruvda yoki ijarada bo'lish);
- shartnomadan kelib chiqadigan shartlarning buzilishi yoki yuklarni tashish shartnomasi bo'yicha tashuvchiga ishonib topshirilgan tovarga ziyon etkazilishi oqibatida o'zining fuqarolik javobgarligi riskini sug'urta qilish shartnomasi tuzish. Bunda sug'urta miqdori 20 mln rubldan kam bo'lmasligi lozim.

Bojxona tashuvchilar reestriga kiritilganlik haqida guvohnoma 5 yil davomida haqiqiy hisoblanadi. Unda ushbu bojxona tashuvchisi faoliyat yuritadigan mintaqa ko'rsatiladi. Bojxona tashuvchisi o'z faoliyat mintaqasini bitta yoki bir nechta bojxona organi mintaqasi bilan chegaralash huquqiga ega. Bojxona tashuvchisining TIF sub'ektlari bilan munosabatlari shartnoma asosida tashqil etiladi. Bojxona tashuvchisida tovarlar tashishni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lganda uning shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bojxona tashuvchisining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- transport vositasida tashish va saqlash normal sharoitlarida tabiiy eskirish yoki kamayish oqibatidagi holatlardan tashqari tovarlar va hujjatlarni ularning o'rovi va holati hech qanday o'zgarishsiz yetqazib berish;
- bojxona organi tomonidan o'rnatilgan tovarlar va ularning hujjatlarini yetqazib berish muddatlariga harakat yo'nalishiga rioya qilish;
- tovarlar va ularning hujjatlarini belgilangan manzil bojxona organiga taqdim etish, bu bojxona organining talabi bilan esa – tovarlarni amalda taqdim etish;
- bojxona nazorati ostida bo'lgan tashilayotgan tovarlar hisobini yuritish va bojxona organlariga bu tovarlarning tashilganligi haqida hisobot taqdim etish;
- tovarlarni o'z transport vositalariga yuklash yoki qayta yuklashni, yuklarni tushirish yoki qayta yuklashni o'z kuchlari bilan yoki boshqa korxonalar va tashiqilotlar bilan shartnoma asosida ta'minlash;
- tovarlar jo'natuvchidan, tovarlar oluvchidan yoki ekspeditordan olingan axborot maxfiyligiga rioya qilish.

Avariya ro'y berganda yoki bartaraf qilib bo'lmaydigan kuchlar ta'siri ostida tashuvchi tovarlar saqlanishini ta'minlash va ulardan ruxsatsiz foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarni ko'rishi, vaziyat haqida, tovarlar va transport vositalari joylashgan joy haqida zudlik bilan eng yaqin bojxona organini xabardor qilishi, tovarlarni eng yaqin bojxona organiga yetqazib berishni ta'minlashi va bojxona organi tomonidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun belgilanadigan boshqa choralarni ko'rishi lozim.

Bojxona tashuvchisi tovarlarni manfaatdor tomonlarning tashabbusi bo'yicha (ko'ngilli xizmat), shuningdek, bojxona organining qarori bo'yicha (majburiy xizmat) tashii mumkin. O'z faoliyatini amalga oshirishda bojxona tashuvchisi bojxona organlari oldida, jumladan, bojxona to'lovlarini to'lash, tovarlarni yetqazib berish joyida vaqtinchalik saqlash ombori xo'jayiniga amalda topshirish yoki bojxona organining ruxsati bilan tovarlar ushbu organga yetqazib

berilganda bu tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxsga tovarlarni amalda topshirish uchun javobgar bo'ladi.

Vaqtinchalik saqlash ombori xo'jayini – vaqtinchalik saqlash ombori xo'jayinlari reestriga kiritilgan yuridik shaxs . VSO xo'jayinlari vaqtinchalik saqlash ombori xo'jayinlari reestriga kiritilmaydigan bojxona organlari ham bo'lishi mumkin. Mazkur VSO faqat ochiq turdagi, har qanday tovarlarni saqlash va har qanday shaxslar foydalanishi uchun ochiq omborlar bo'lishi mumkin. Bunda O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi ularning xo'jayinlari bojxona organlari hisoblangan VSO ro'yxatini muntazam (kamida 6 oyda bir marta) chop etishni ta'minlaydi.

VSO tashqil qilish niyatida bo'lgan yuridik shaxslarga bir qator talablar qo'yiladi: belgilangan talablarga javob beradigan binolarga egalik qilish (o'z mulki sifatida yoki ijara asosida); bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash; fuqarolik javobgarligi riskini sug'urta qilish shartnomasi mavjudligi, ijara shartnomasi mavjudligi. Har bir hududiy jihatdan alohida bo'lgan bino va ochiq maydonga 5 yil davomida amal qiladigan VSO xo'jayinlari reestriga kiritilganlik haqida alohida guvohnoma beriladi.

VSO xo'jayini bojxona nazorati ostida bo'lgan tovarlarni saqlashni amalga oshiradi. Bunda tovar saqlashdan manfaatdor shaxslar bilan o'zaro munosabatlar shartnoma asosida tashqil etiladi.

VSO xo'jayinining asosiy majburiyatlari quyidagilardan iborat :

- bojxona nazorati ostida bo'lgan tovarlar va transport vositalari saqlashga nisbatan O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi belgilab bergan talablar va shartlarga rioya qilish;
- vaqtinchalik saqlanishda bo'lgan tovarlar va transport vositalari hisobini yuritish va hisobot taqdim etish;
- tovarlar va transport vositalari saqlaninishini ta'minlash;
- begona shaxslarning vaqtinchalik saqlanishda bo'lgan tovarlar va transport vositalariga yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslik.

VSO xo'jayini omborda saqlanadigan tovarlar yo'qotilgan yoki bojxona organining ruxsatisiz berib yuborilgan hollarda bojxona to'lovlari to'lash uchun javob beradi.

Bojxona ombori xo'jayini – bojxona omborlari xo'jayinlari reestriga kiritilgan yuridik shaxs. Bojxona ombori tashqil qilish niyatida bo'lgan yuridik shaxslarga qator talablar qo'yiladi: belgilangan talablarga javob beradigan binolarga egalik qilish (o'z mulki sifatida yoki ijara asosida); bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash; fuqarolik javobgarligi riskini sug'urta qilish shartnomasi mavjudligi. Har bir hududiy jihatdan alohida bo'lgan bino va ochiq maydonga 5 yil davomida amal qiladigan bojxona omborlari xo'jayinlari reestriga kiritilganlik haqida alohida guvohnoma beriladi.

Bojxona ombori xo'jayining asosiy majburiyatlari belgilab berilgan bo'lib, VSO xo'jayinlarining majburiyatlari bilan bir xildir. Bojxona ombori xo'jayini omborda saqlanadigan tovarlar yo'qotilgan yoki bojxona organining ruxsatisiz berib yuborilgan hollarda bojxona to'lovlari to'lash uchun javob beradi.

Bojxona brokeri (vaqili) bu – bojxona operatsiyalarini deklarant yoki bojxona operatsiyalarini amalga oshirish majburiyati unga yuklangan yoki huquqi unga berilgan oshqa shaxs nomidan va uning topshirig'i bo'yicha bojxona operatsiyalarini amalga oshiruvchi vositachidir. Uning huquqiy maqomi belgilab qo'yilgan.

Bojxona brokeri deb bojxona brokerlari reestriga kiritilgan yuridik shaxs tan olinadi (faqat tijorat tashqiloti, davlat korxonasi bojxona brokeri bo'la olmaydi). Bojxona brokerlari reestriga kiritilgan haqida guvohnoma amal qilish muddati bilan chegaralanmaydi.

Bojxona brokerlari reestriga kiritish uchun quyidagilar talab etiladi:

- shtatda bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha malakaviy attestatga ega bo'lgan kamida ikkita mutaxassis mavjudligi;
- to'liq shakllantirilgan boshlang'ich nizom kapitali, nizom fondi yoki pay badallari mavjudligi;

- kamida 50 mln rubl miqdorida bojxona to'lovlari to'lanishining ta'minlanishi;
- vaqili bo'lib ishtirok etilayotgan shaxslar mulkiga ziyon yetkazish yoki bu shaxslar bilan shartnomaning buzilishi oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan fuqarolik javobgarligi riskini sug'urtalash shartnomasi mavjudligi. Bunda sug'urta miqdori 20 mln rubldan kam bo'lishi mumkin emas.

Bojxona rasmiylashtiruvida bojxona brokerining majburiyatlari va javobgarligi O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida tovarlarni bojxona rejimi ostida yoki boshqa bojxona taomili ostida joylashtirish uchun zarur bo'lgan bojxona operatsiyalariga nisbatan belgilangan talablar va shartlar bilan asoslanadi. Bunday operatsiyalarni amalga oshirganlik holati bojxona brokeriga bojxona rejimi amal qilishining yakunlanganligi bilan bog'liq operatsiyalarni yakunlash bo'yicha majburiyat yuklamaydi.

Bojxona brokeri o'z nomidan tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni bajaradi va u vaqili bo'lgan shaxsning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik funksiyalarini amalga oshiradi, chunonchi:

- tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalash;
- bojxona organiga bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar taqim etish;
- deklaratsiya qilinayotgan tovarlar va transport vositalarini taqdim etish;
- deklaratsiya qilinayotgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona to'lovlari to'lashni ta'minlash;
- deklaratsiya qilinayotgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi muvofiq, bojxona brokeri bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda bojxona brokerini bojxona organlari bilan o'zaro munosabatlarda o'zining manfaatlarini ifodalash vakolatlarini bergan shaxs bilan bir xil huquqlarga ega bo'ladi. SHu sababli bojxona rasmiylashtiruv va bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona brokeri tovarlarni mamlakat bojxona chegarasi orqali mustaqil o'tkazgan holatdagi kabi majburiyat va javobgarlikka ega bo'ladi.

Bojxona brokerining u vaqili bo'lgan shaxs bilan o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tashqil yevropa ittifoqiladi. Bojxona brokerining xizmat ko'rsatish yoki shlarni bajarish uchun imkoniyati mavjudligida shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bojxona brokeri quyidagilarni bajarishi shart:

- ularga nisbatan bojxona operatsiyalari amalga oshiriladigan tovarlar hisobini yuritish va bojxona organlariga amalga oshirilgan bojxona operatsiyalari haqida hisobot topshirish;
- agar tovarlar deklaratsiyalash uchun mo'ljallangan bojxona rejimida ularning to'lanishi ko'zda tutiladigan bo'lsa, bojxona bojlari va soliqlarni to'lash. Bojxona kodeksiga muvofiq tovarlarni deklaratsiya qilishda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'lamaganlik uchun bojxona brokeri xuddi deklarant bilan bir xilda javob beradi;
- qonunda ko'zda to'tilgan hollarni istisno qilganda, vaqili bo'lgan shaxsdan olingan, tijorat siri, bank siri yoki qonun bilan himoya qilinadigan boshqa sirni ifodalaydigan axborotni va boshqa maxfiy axborotlarni oshkor etmaslik yoki o'z maqsadlarida foydalanmaslik.

Bojxona brokerining vaqili bo'lgan shaxs bilan shartnomasi bojxona brokerining bojxona organlari oldidagi javobgarlik va majburiyatini chegaralashi mumkin emas.

Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida belgilab berilgan. Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassis o'z faoliyatini bojxona brokerining xodimi

sifatida amalga oshirib, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona kumitasi tomonidan belgilangan malakaviy talablarga javob berishi va malakaviy attestatga ega bo'lishi lozim. Attestat noto'g'ri ma'lumotlar asosida berilgani yoki uning egasi o'z faoliyati jarayonida bir necha marta bojxona qonunchiligi me'yorlarini bo'zgan holatda bekor qilinishi mumkin .

Rossiya Federatsiyasida bojxona brokerlari Milliy uyushmasi mavjud, bu o'zini-o'zi tartibga soluvchi tashqilot bojxona ishi sohasida xizmatlar ko'rsatish bozorida O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi oldida uning tarkibiga kiradigan, mamlakat bojxona xizmatlari bozorida faoliyat yuritadigan tashqilotlar, shuningdek, Uyushmaga a'zo bo'lmagan, lekin unga shunday vakolatlar bergan boshqa tashqilotlar manfaatlarini ifodalaydi.

Uyushma quyidagi asosiy majburiyatlarni bajaradi:

- bojxona brokerlari, bojxona tashuvchilari, bojxona omborlari xo'jayinlari va vaqtinchalik saqlash omborlari xo'jayinlari xizmatlarini takomillashtirish usullarini umumlashtiradi, tahlil qiladi, ishlab chiqadi va taklif etadi;
- bojxona rasmiylashtiruvni ilg'or texnologiyalarini rivojlantirish maqsadida jahon amaliyotida qo'llanayotgan yuqum rasmiylashtiruvni texnologiyalari haqida axborot to'playdi, tahlil qiladi va taqdim etadi, ularni mahalliy amaliyotga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
- tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvini tezlatish maqsadida Uyushma resurslarini TIF qatnashchilari, bojxona xizmatlari bozorida faoliyat yurituvchi tashqilotlar va bojxona organlari o'rtasida istiqbolda umumiy axborot tarmog'i yaratish niyatida elektron ma'lumot almashinish tizimlari tashqil qilish va rivojlantirishga jalb qiladi;
- bojxona organlarining so'rovlariga ko'ra bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan, Uyushmaga a'zo sanalgan korxonalar va tashqilotlar haqida axborot taqdim etadi;

- uyushmaga a'zo tashqilotlar, shuningdek, uyushma ularning manfaatlarini himoya qiladigan tashqilotlar personalini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirini ta'minlaydi.

Bojxonaga yaqin infratuzilma qatoriga faqat mahalliy yuridik shaxslar bo'lishi mumkin bo'lgan *boj olinmaydigan savdo do'konlari xo'jayinlari* kiradi.

Magazin xo'jayini bojxona huquq munosabatlari sub'ekti bo'lib qolaveradi, lekin undan sotilayotgan tovarlarni bojsiz savdo bojxona rejimi ostida joylashtirish uchun litsenziya olish va ruxsat berishga oid taomillardan o'tish talab qilinmaydi.

Boj olinmaydigan savdo do'konlari ochish tovarlar bilan chakana savdo qilishga ruxsat beradigan hujjatlar mavjudligi shartida mamlakat Davlat chegarasi orqali o'tish punktlarida rejim o'rnatish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni xo'jayini bojxona organini boj olinmaydigan savdo do'koni ochilish muddati haqida oldindan xabardor qiladi. bojsiz savdo bojxona rejimiga muvofiq tovarlar chiqarish bunday xaabrnoma olingandan so'ng ruxsat etiladi. Xabarnoma ixtiyoriy shaklda, qoidaga ko'ra, xabarnomada ko'rsatilgan magazin ochilish muddatidan kamida 15 kun oldi beriladi.

Belgilangan tartibga muvofiq boj olinmaydigan savdo do'koni xo'jayini kamida uch oyda bir marta shu magazin faoliyat ko'rsatayotgan mintaqa bojxonasiga bojsiz savdo bojxona rejimi ostida joylashtirilgan tovarlar haqida, shuningdek, ularga nisbatan bojsiz savdo bojxona rejimi boshqa rejimga almashtirilgan tovarlar haqida hisobot taqdim etadi.

Boj olinmaydigan savdo do'koni xo'jayini xorijiy tovarlar yo'qotilgan yoki boj olinmaydigan savdo do'konida mamlakat bojxona hududidan tashqariga chiqayotgan jismoniy shaxslarga chakana sotishdan boshqa maqsadda foydalanilgan hollarda bojsiz savdo bojxona rejimi ostida joylashtirilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to'lash uchun javobgar hisoblanadi. Boj olinmaydigan savdo do'koni xo'jayini tovarlar avariya yoki bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar ta'siri oqibatida yoxud saqlash va sotish normal sharoitlarida

tabiiy kamayish hisobiga yo'qotilgan hollarda bojxona bojlari va soliqlar to'lash uchun javobgar bo'lmaydi.

SHunday qilib, bojxona huquq munosabatlari doirasida xizmatlar taqdim etuvchi bojxonaga yaqin infratuzilmaning rivojlanishi bozor va tashqi iqtisodiy aylanma ehtiyojlari bilan asoslanadi. Zarur infratuzilma va asbob-uskunalarga ega bo'lgan bojxona huquq munosabatlari professional qatnashchilari tomonidan bojxona rasmiylashtiruvi bojxona rasmiyatchiliklarini o'tish jarayonini tezlatish va oqibatda importchining (eksportchining) xarajatlarini minimal qilishga imkon beradi. Bunda bojxona qonunchiligida belgilangan ko'rsatmalarni bo'zish riski pasayadi. Iqtisodiy shartlarni bajarish mos keluvchi reestruga kiritilgan shaxslarga bojxona organlari oldida vaqillik qilinayotgan shaxs uchun bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash borasida kafil sifatida ishtirok etishga imkon beradi, bu esa tashq iqtisodiy faoliyat qatnashchisining xarajatlarini pasaytirishga imkoniyat yaratadi.

7.4. Bojxona ishida outsorsing

Outsorsing – monopollashuv tendensiyalariga qarama-qarshi bo'lgan jahon iqtisodiyoti rivojlanishi zamonaviy tendensiyalarining mahsulidir. Zamonaviy menejmentda outsorsing deganda alohida funksiyalar (ishlab chiqarish, servis, axborot, moliyaviy va b.) yoki biznes-jarayonlarning (tashqiliy, moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik, marketing va b.) buning uchun zarur resurslarga ega bo'lgan chet tashqilot tomonidan uzoq muddatli kelishuvlar asosida bajarilishi tushuniladi. Hayotiy ahamiyatga molik mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish yoki xarid qilish o'rtasida tanlash muammosini hal qilish tashqilotning asosiy e'tiborini yuqori samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarish yaratish bilan bog'liq vazifalarga qaratish imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, g'arb olimlari va tahlilchilari orasida ushbu tanlov muammosi «make or buy?» (ishlab chiqarish yoki xarid qilish?) nomi ostida ma'lum. Biron-bir tashqilot boshqa hamma tashqilotlardan xizmatlar ko'rsatish yoki ishlab chiqarishning barcha yo'nalishlari bo'yicha ustnlik qilishining amalda umuman imkoni yo'qdir.

Autsorsing va logistika o'rtasida o'zaro bog'liqlik aynan shu yerda kuzatiladi, chunki mikrologistika konsepsiyalari ham kuli korporativ aloqalar rivojlanishiga, iste'molchilarga yaqinlikka, unumdorlikka, raqobatbardoshlikka tayanadi va tashqaridan ta'minlash g'oyasini amalga oshiradi. Bunda dastlabki bosqichda tashqilotning hayot faoliyatini ta'minlash jarayoniga xizmat qiladigan jarayonlar, so'ngar asosiy jarayonlar ham qamrab olinadi. Jahon amaliyotida bunday yondashuv o'z samaradorligini isbotladi va endilikda asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi jarayonlar to'laligicha tashqilot «hududidan tashqariga» chiqarilgan ko'p sonli virtual korporatsiyalar mavjud.

Bojxona ishi amaliyotiga nisbatan autsorsing tarkibiga o'zaro manfaatli hamkorlikning quyidagi shakllari kiritilishi mumkin: bojxonaga yaqin infratuzilma tashqiloti xodimlarini o'qtiish uchun bojxona organlarining ta'lim muassasalari xizmatlaridan foydalanish; axborot va moliyaviy xizmat ko'rsatish xizmatlarini xarid qilish va b.

Qayd etmizki, bojxona organlari va TIF qatnashchilari an'anaviy korporatsiya shakllari bilan bog'lanmagan. Kooperatsion hamkorlik natijalaridan olingan foydada birgalikda ishtirok etish o'rniga deklarantlar autsorsing bitimi (shartnomasi) shartlarida kelishib olinadigan shartlarda autsorser sifatida ishtirok etadigan bojxona organlarining xizmatlari uchun pul to'lamoqa. Autsorsing doirasida bojxona logistika tizimi qatnashchilari o'rtasida o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish strategik rejalashtirish sohasida yotadi va eksport-import tovar oqimlarini tartibga solishning zamonaviy usul va vositalariga tayanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish amaliyotida autsorsingni amalga oshirish muammolarini ko'rib chiqish nafaqat sanoat, axborot va moliyaviy texnologiyalarni, balki mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanishga imkon beradigan yangi bojxona ma'murchiligi texnologiyalaridan foydalanishni ham talab qiladi.

7.5. “Angren” Maxsus industrial zonasi

«Angren» Maxsus industrial zonasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2012 yil 13 apreldagi Farmoniga binoan tashqil etilgan. O‘zbekistonning yirik shaharlarigacha bo‘lgan masofalar:

Toshkent – 80 km;

Farg‘ona – 240 k;

Samarqand – 220 km;

Umumiy maydon (1 gektap) – 387 Ga;

Soliq imtiyozlari va qulayliklar:

«Angren» MIZ rezidentlari quyidagilardan ozod etiladi:

Mulk solig‘i;

Daromad (foyda) solig‘i;

YAgona soliq (YAKB);

Ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishga qaratilgan soliq;

Respublika yo‘l fondiga bo‘lgan majburiy to‘lov;

O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, ishlab chiqarish uchun olib kirilayotgan uskunalar, xom ashyo, ishlab chiqarish komponentlari, Vazirlar Mahkamasi Qaroriga binoan bojxona to‘lovidan ozod etiladi. Soliq imtiyozlari muddati 3 yil -agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar miqdori 0.3 -3.0 mln. doll.

5 yil - agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar miqdori 3.0 -10.0 mln. doll.

7 yil - agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar miqdori 10.0 mln. doll. ortiq bo‘lganda. Angren shahrining jo‘g‘rofiy o‘rni bu yerda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay. Tuprog‘i tabiiy resurslarga boy. Bu yerda qo‘ng‘ir ko‘mir, kaolin va boshqa qurilish materiallarining katta zaxirasi mavjud. Bugungi kunda shaharda 200 dan ortiq korxonalar va tashqilot faoliyat yuritmoqda. "O‘zbekko‘mir" va uning tarkibiga kiruvchi unitar korxonalar, Angren va YAngi Angren issiqlik elektr stansiyalari, "Sangren tex" qo‘shma korxonasi, "Energoqozontozalash", "Angren kaolin" mas‘uliyati cheklangan jamiyatlari, “Angren” logistika markazi shular jumlasidandir.

- Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yil 13 aprelda qabul qilingan “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish to’g’risida”gi farmoni bu boradagi ishlar qo’lamini yanada kengaytirishda muhim dasturilamal bo’layotir. Ushbu hujjatda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashqil etish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish bo’yicha qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek, Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, yangi ish o’rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish maqsadlari ko’zda to’tilgan.

- Farmonda belgilab berilgan muhim vazifalarning amalga oshirilishi natijasida bu yerda ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh bo’lgan yuqori qo’shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan samarali foydalanish, mineral-xomashyo resurslarini yanada kengroq qayta ishlashga qaratilgan yangi tuzilmalar barpo etish imkoniyati yaratilmoqda. Mamlakatimizdagi korxonalar o’rtasida kooperatsiya aloqalari yanada rivojlanmoqda. Mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish jarayoni chuqurlashayotir. Transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma, “Angren” logistika markazi salohiyati, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish hamda ulardan keng qo’lamda foydalanish ta’minlanayotir, ko’plab yangi ish o’rinlari ochilmoqda.

- Mazkur industrial zonada faoliyat ko’rsatadigan korxonalarga, kiritiladigan investitsiyalar hajmiga qarab, 3 yildan 7 yilgacha bo’lgan muddatga keng qo’lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar qo’llaniladi, ularning infratuzilma ob’ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ulanishi ta’minlanadi.

- Davlatimiz rahbarining yuqorida qayd etilgan farmoniga binoan berilgan bunday imtiyoz va imkoniyatlar, Angrenga temir yo’l borgan va uning elektrlashtirilgani, vodiy viloyatlariga eltuvchi avtomobil yo’lining talab darajasiga keltirilgani, Angrenning poytaxtga yaqinligi va u yerdan Toshkent shahriga

kirmasdan Sirdaro, Jizzax va boshqa viloyatlarga o'tish imkoniyati mavjudligi sarmoyadorlarning "Angren" maxsus industrial zonasiga bo'lgan qiziqishini tobora oshirmoqda.

- Hozir mazkur zonada qiymati 186,5 million dollarlik sakkizta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Xususan, shakar zavodi qurish, ishlatilgan avtomobil moylarini qayta ishlash, keramik plitalar tayyorlash, terini qayta ishlash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish, har xil o'lchamdagi mis quvurlar, ko'mir briket va sanitar-keramikalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

- Ushbu yirik loyihalar "O'zbekneftgaz" milliy xolding va "O'zqurilishmateriallari" aktsiyadorlik kompaniyalari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekcharmpoyabzali" va Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmalari hamkorligida Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Avstriya, Hindiston hamda Bolgariyaning yetakchi kompaniyalari orasidan tanlab olingan investorlar ko'magida hayotga tatbiq etilayotir.

- "Angren" maxsus industrial zonasi direktsiyasi direktori Sohib Saifnazarovning aytishicha, ayni kunda zarurat va ehtiyoj yuqori bo'lgan turli tayyor mahsulot va butlovchi buyumlar ishlab chiqarish ko'zda to'tilgan loyihalarning tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilmoqda. "Parking construction servise" mas'uliyati cheklangan jamiyati jamoasi shakar zavodini qurmoqda.

- – Ish qizg'in davom etmoqda, – deydi "Parking construction servise" mas'uliyati cheklangan jamiyati vaqili, qurilish uchastkasi boshlig'i T.Pernebekov. – Jumladan, zavodgacha bo'lgan hamda ichki temir va avtomobil yo'llari qurilayotir. Bunyodkorlik ishlariga uch yo'z nafardan ziyod quruvchi va yo'lsozlar jalb etilgan. Qad ko'tarayotgan ob'ektgacha tabiiy gaz, elektr energiyasi, ichimlik va texnik suv quvurlarining olib kirilgani, qurilish materillarining peshma-pesh yetqazib berilayotgani ish sifati va samaradorligini oshirish imkonini yaratmoqda.

- Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu zavod uchun eng zamonaviy texnologik liniya, uskuna va jihozlarga buyurtma berilgan. Ularni olib kelish va o'rnatish ishlari joriy yilning ikkinchi choragidan boshlanadi

- Zavodning loyiha qiymati 108,5 million dollarga teng. Bu yirik korxonaga ishga tushgach, kuniga ming tonnagacha shakar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo'ladi, ikki mingga yaqin ish o'rni yaratiladi.

- Mana shu ma'lumotning o'zi ham industrial zonada amalga oshirilayotgan ishlar naqadar ulkan va muhim ahamiyatga ega ekanidan dalolat beradi.

- Industrial zonada amalga oshirilayotgan bunday keng qo'lamli ishlar doirasida Angren va Ohangaron shaharlarida 42,7 qilometrdan ortiq avtomobil yo'li barpo etiladi va kapital ta'mirlanadi. SHuningdek, 21,4 qilometr suv, 4,2 qilometr kanalizatsiya tarmoqlari quriladi. Bir necha qilometr yangi elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmoqlari tortiladi. Ayni kunda bu boradagi ishlar qizg'in davom etmoqda.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 17 avgustdagi 2013-2015 yillarda "Angren" maxsus industrial zonasining transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlariga oid qarori bunda muhim omil bo'lmoqda.

- Hozirgi vaqtda mazkur hududda "O'zkimosanoat" va "O'zavtosanoat" kompaniyalari, "O'zfarmsanoat" kontserni, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va boshqa mahalliy hamda xorijiy yirik kompaniya va firmalar ishtirok etishi ko'zda tutilayotgan umumiy qiymati 245 million dollarlik yana yigirma ikkita istiqbolli loyihani amalga oshirish masalalari ko'rib chiqilmoqda va buning uchun investorlar tomonidan zarur hujjatlar tayyorlanmoqda

- Har yili Angren shahridagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uch ming nafardan ortiq yigit-qiz bitirib chiqayotir. Yangi korxonalarining ishga tushirilishi shahar aholisini, birinchi galda ushbu bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, daromadini ko'paytirish hamda hududlarni obodonlashtirish imkonini beradi. "Angren" logistika markazi, "Maxsusyuktrans", "Avtoterminal" korxonalarining faoliyat boshlashi munosabati bilan ko'plab fuqarolar ish bilan

ta'minlandi. Gulbog', Obliq, YAngi Go'shsoy, Grum kabi mahallalar atrofi tartibga keltirildi, bu maskanlarga ko'plab mevali va manzarali daraxtlar, anvoyi gullar eqildi.

- “Angren” maxsus industrial zonasining tashqil etilishi shaharda bu boradagi ishlar qo'lamini kengaytirish, sanoat va infratuzilmani yanada rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

- Angren maxsus industrial zonasi: Zamonaviy logistika tizimining ahamiyati

- Joriy yilning 19 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi “Angren maxsus industrial zonasining kelajakda hududlar rivojlanishini optimallashtirish, zamonaviy logistika tizimini va transport infratuzilmasini yaratishdagi ahamiyati va roli” mavzuida davra suhbatini o'tkazdi.

- Unda Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirliklar, mutasaddi tashqilotlarning rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vaqillari ishtirok etdilar.

- Bugungi kunda «Angren» maxsus industrial zonasida zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, mavjud korxonalarni texnik va texnologik modernizatsiya qilishga qaratilgan 22 ta investitsiyaviy loyihani amalga oshirish ishlari boshlangan. Xususan, 2013 yilda qiymati 216.0 mln. AQSH dollariga teng 11 ta loyiha yakuniga etkazilib, ishga tushirilishi ko'zda to'tilgan.

- Bir qator deputatlar Angren maxsus industrial zonasiga tashrif buyurib, bu yerda olib borilaetgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

- Deputatlar, 2013-2014 yillar davomida investitsiyalar asosan zamonaviy, yuksak samarali, elektr energiyasi tejamkor bo'lgan asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilganligiga e'tibor qaratdilar.

- Bugungi kunda bir qator investitsiya loyihalarning qurilishi amalga oshirilmoqda, jumladan loyiha qiymati 108.5 mln. AQSH dollariga teng, kuniga 1000 tonna shakar ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod qurilishi, loyiha qiymati 15.0 mln. AQSH dollariga teng, ishlatilgan texnik moylarni qayta ishlash zavodi qurilishi, loyiha qiymati 35.8 mln. AQSH dollariga teng turli xil o'lchamdagi mis

quvurlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan zavod qurilishi, mamlakat aholisining ko'mirga bo'lgan bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida loyiha qiymati 3.1 mln. AQSH dollariga teng briket ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalar barpo etilishi shular jumlasidandir.

- Tadbir ishtirokchilari yana bir imtiyozga alohida e'tibor qaratdilar, ya'ni «Angren» MIZda qatnashuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun «O'zbekenergo» DAK, «O'ztransgaz» kompaniyalari va Toshkent viloyat hokimligi tomonidan investitsiya loyihalari uchun zarur bo'lgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ishlab chiqarish maydonchalariga tutashtirgan holda ulanishi ta'minlangan.

- Bunday loyihalarning ishga tushirilishi natijasida respublikamizda 2013-2015 yillarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish o'rtacha yillik hajmi 110-112% , sanoat ishlab chiqarish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2015 yilda 28% ga yetkazish va umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmidagi sanoat mahsulotlari eksportining 2015 yilda 63,2% gacha o'sishi ta'minlanadi.

- Yig'ilishda, deputatlar va ishtirokchilar tomonidan «Angren» maxsus industrial zonasini tashqil qilishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bunda davlat va xo'jalik organlari, tadbirkorlarning faol ishtirokini kengaytirish, mutasaddi tashqilotlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish hamda belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish, bu sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator taklif va mulohazalar bildirildi.

- quyidagilar “Angren” maxsus industrial zonasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib berilsin:

- ichki va jaxon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun investitsiyalar, eng avvalo to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlarni shaqillantirish;

- maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqaning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishini ta'minlash, mineral-xomashyo

resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish;

- maxsus industrial xudud va umuman respublika korxonalari o'rtasida mustaxkam koperatsion aloqalar o'rnatish xamda sanoat koperatsiyasini rivojlantirish asosida maxalliy xomashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali maxsulot ishlab chiqarishni maxalliylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

- transport, muxandislik - kommunikatsiyasi va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish xamda samarali foydalanish, "Angren" logistika markazi saloxiyatini, yuklarni avtomobil va konteynerlarda tashish borasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish xamda ulardan keng kulamda foydalanishni ta'minlash.

- Xujjatlarga ko'ra, ushbu xududni yaratishdan maqsad – yuyukori qo'shilagan qiymatga ega bo'lgan raqobatbardosh maxsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, yuksak texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashqil etish uchun xorijiy va maxalliy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni shaqillantirish.

- SHuningdek, maxsus industrial xududi Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs saloxiyatidan kompleks xamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va axoli daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

- "Angren" maxsus industrial xududi tarkibiga kirgan er maydonlari Toshkent viloti xokimiyatining bevosita tasarrufida bo'ladi.

- "Angren" maxsus industrial xududining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashqil etadi va bu muddat keyinchalik o'zaytirilishi mumkin. "Angren" maxsus industrial xududi faoliyat yuritadigan muddat mobaynida uning xududida maxsus solik tartibi va bojxona imtiyozlari amal qiladi. "Angren" maxsus industrial xududi katnashchisi makomi "Angren" maxsus industrial xududi Ma'muriy kengashining qarori bilan beriladi.

- "Angren" maxsus industrial xududi katnashchilari yuridik shaxslardan olinadigan foyda soligi, ularning mol-mulkiga solinadigan solikni, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligini tulashdan, kichiq

korxonalar uchun yagona solik to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamgarmasiga majburiy ajratmalar tulasidan ozod etiladi.

- Bundan tashqari, ular respublikada ishlab chiqarilmaydigan, loyihalarni amalga oshirish doirasida "Angren" maxsus industrial xududi xududiga Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar bo'yicha olib kiriladigan uskunalar, butlovchi buyumlar va materiallar boj to'lovlari (bojxona yigimlaridan tashqari) tulasidan xam ozod qilinadi.

- Yuqorida ko'rsatib o'tilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalarning xajmiga karab uch yildan etti yilgacha muddatga beriladi, shu jumladan umumiy ekvivalenti 300 ming AQSH dollaridan 3 million AQSH dollarigacha bo'lganda – uch yil muddatga, umumiy ekvivalenti 3 million AQSH dollaridan ortiq 10 million AQSH dollarigacha bo'lganda – besh yil muddatga, umumiy ekvivalenti 10 million AQSH dollaridan ortiq bo'lganda – etti yil muddatga.

7.6. Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona

O'zbekiston iqtisodiyoti bugun jahon iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylandi. Mamlakatimiz eksport salohiyati yildan yilga oshmoqda, tashqi bozorlarga xomashyo emas, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar yetkazib berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisida "...YAngitdan tashqil etilgan "Navoiy" va "Angren" erkin industrial-iqtisodiy zonalarini bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o'rin egallamoqda..."¹³

Jahon iqtisodiyotida inqirozli hodisalar kuchayayotgani va uning o'sish sur'atlari sekinlashganiga qaramay, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor vazifalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini jadal

¹³Karimov I.A. 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar mahkamasining majlisidagi "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qatiyat bilan davom ettirish" mavzusidagi maruzasi –T.: "Xalq so'zi" 2013 y 19 yanvar, № 13

rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha kompleks dasturlarning tizimli va izchil amalga oshirilishi samarasida O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash ta'minlanmoqda.



Prezidentimizning 2010 yil 15 dekabrda qabul qilingan va mamlakatimiz sanoatini barqaror, jadal hamda muvozanatli rivojlantirishga yo'naltirilgan "2011-2015 yillarda O'zbekiston



Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarori ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan jarayonning mantiqiy davomi bo'ldi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ularning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarni tizimli joriy etish ham muhim yo'nalish hisoblanadi.

SHunisi e'tiborliki, loyihalarni amalga oshirish doirasida respublikamizda ishlab chiqarilmaydigan va chetdan olib kelinadigan uskunalar, materiallar va butlovchi buyumlar 2016-yilning 1 yanvariga qadar bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yigimlaridan tashqari) ozod etildi.

Mazkur qarorda sanoatda umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda to'tilgan.

YAqin to'rt yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi kamida 60 foizga ko'payishi lozim va bu yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushining 2010-yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga oshishini ta'minlaydi. Mashinasozlik, kimo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa tarmoqlar jadal sur'atda rivojlanib, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar ikki baravardan oshadi.



YUqori texnologiyalar sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoda. Jumladan, sintetik suyuq yoqilgi ishlab chiqarishni tashqil qilish, polietilen va polipropilen mahsulotlar, suyo'ltirilgan va siqilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish bo'yicha yangi, zamonaviy gaz-kimo komplekslarini barpo etish, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar asosida mineral o'gitlar hamda yangi turdagi kimo mahsulotlarini ishlab chiqarish, eskirgan uskunalarni zamonaviy bug'-gaz uskunolari bilan almashtirish hisobidan energetika jadal rivojlantiriladi.

O'zbekiston sanoatini rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati bilan bevosita bogliqdir. O'zbekistonda investorlar uchun qulay investitsiya muhiti, imtiyozlar va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimining yildan-yilga ko'payib borayotgani qam shundan dalolat beradi.

Mamlakatimizning investitsion jozibadorligi keng qo'lamli sotish bozorlarining mavjudligi, Evroosiyoning investitsion hamda savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari belgilab beruvchi multimodal kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashgan transport infratuzilmasining rivojlangani bilan ham bogliq.

O'zbekistonga investitsiya kiritayotgan xorijiy kompaniyalar beshta yirik va jadal rivojlanib borayotgan bozor – 300 milliondan ortiq kishi savdo-sotiq qiladigan bozorlarga ega MDH mamlakatlari, Markaziy va SHarqiy Yevropa, Janubiy hamda Janubi-sharqiy Osiyo, YAqin SHarq davlatlariga chiqish imkoniga ega bo'layotir.

Xalqaro investitsiya huquqining asosiy qoidalari, jumladan, xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash, investorlarga muayyan preferensiyalar taqdim etish to'grisidagi qoidalar va boshqalarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasining investitsiya qonunchiligi MDH mamlakatlari qonunchilik tizimida yetakchio'rinlardan birini egallaydi.

“Xorijiy investitsiyalar to’g’risida”gi, “Investitsiya faoliyati to’g’risida”gi, “CHet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi Qonunlar, shuningdek, davlatimiz rahbarining va hyukumatimiz qarorlari shaklida qabul qilinayotgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar O’zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni huquqiy jihatdan tartibga solishda mustahkam asos bo’lib xizmat qilmoda.

SHuningdek, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to’g’ridan-to’g’ri qo’yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo’yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi turli burokratik g’ovlar va to’siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo’l qo’ymaslik maqsadida 2012 yilning 10-aprelida Prezidentimiz Islom Karimovning “To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Iqtisodiyotning yetakchitarmoqlarini modernizatssiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga doir loyihalarni ro’yobga chiqarish borasida faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi 2011yil hamda 2012 yil boshida “General Motors Powertrain O’zbekistan” qo’shma korxonasida avtomobil dvigatellari, “Zenit elektroniks” qo’shma korxonasida avtomobil generatorlari va kompressorlari, energiya tejoychi lampalar, “Samso’ng” rusumidagi kir yuvish mashinalari, “NEO Sanlayt” qo’shma korxonasida maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, “O’zkabel” qo’shma korxonasi ochiq aksiyadorlik jamiyati va “Andijonkabel” qo’shma korxonasida yangi turdagi kabel-o’tkazgich mahsulotlar, “Toshkent traktor zavodi” ochiq aksiyadorlik jamiyatida zamonaviy qishloq xo’jalik texnikasi, avtomobil simlari, diodli yorug’lik lampalari, pardoz buyumlari, chaqaloqlar uchun tagliklar hamda gigiena vositalari («Navoiy» YEVROPA

ITTIFOQIIZ) ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuqori texnologiyali korxonalarni ishga tushirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, mahlliy xomashyo resurslari va tarkibiy qismlaridan foydalangan holda qurilish materiallari ishlab chiqarish, shu jumladan Qoraqalpogiston Respublikasida noruda materiallar, Jizzax viloyatida yogoch va toladan koshinlar, Qashqadaro viloyatida dolomitdan zamonaviy pardozlash materiallari, Sirdaro hamda Toshkent viloyatida g'ovakli beton, "Knauf Buxoro" xorijiy korxonasida gipsokarton buyumlari hamda turli tom yopish materiallari ishlab chiqaradigan 200 dan ortiq yangi korxonalar foydalanishga topshirildi.

Samarqand viloyatida "MAN" yuk avtombillari ishlab chiqaradigan yangi kompleksning dilerlik markazi va "Qo'qon to'qimachilik kombinati" negizida yigiruv korxonasini (1-bosqich) qurish nihoyasiga etkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2010-yilning dekabrda tasdiqlangan 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risidagi dasturga muvofiq, ishlab chiqarish hamda muhandislik infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirish ishlari faol olib borilmoqda.

Ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy, yuksak texnologiyali va innovatsion ishlab chiqarishlarni barpo etish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish; maxsus industrial zonaga kiruvchi mintaqalarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash, mineral-xom ashyo resurslarini va mahalliy xom ashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni barpo etish; maxsus industrial zona va umuman respublika korxonalar o'rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o'rnatish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida mahalliy xom ashyo va materiallar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishilmoqda.

Xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik yaxshi samaralar berayotir. Negaki, O'zbekistonda xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimiz davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lib, investorlarning samarali ishlashi uchun zarur barcha sharoitni yaratib berishga qaratilgan. O'zbekistonning geografik jihatdan qulay yerda joylashgani, transport tarmog'ining rivojlangani, tabiiy resurslarning ko'pligi, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmaning yuqori darajada taraqqiy etgani, malakali kadrlarning mavjudligi va boshqa omillar investorlarga kelajakka ishonch bilan qarash imkonini bermoqda.

7.7. Erkin iqtisodiy zona faoliyatining nazariy asoslari

G'arbiy Yevropada integrallashuvga urinish birinchi marta 1948 yida bo'lib o'tgan, bunda "Marshall rejasi" ni amalga oshirishni osonlashtirish uchun AQSH tomonidan qo'llab-quvvatlangan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashqiloti tuziladi. Ammo bu tashqilot yetarli iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmagan uchun hamkorlik yangi shakllana boshlandi. Taniqli frantsuz ilmiy maktabi konsepsiyasiga binoan xalqaro munosabatlar sohasidagi "umumiy bozor" o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak edi:

Tovarlarni, kapital va odamlarning iqtisodiy erkin ko'chib yurishini ta'minlashi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy sohasidagi siyosatlarini uygunlashtirish. Umumiy tashqi ixsoslashuvning vujudga kelishini ta'minlashdan iborat edi. Bu g'oya 1957 yil mart oyida Rim shartnomasiga asosan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tashqil etilishi bilan amaliyotga tatbiq qilindi. YIH tashqil topgan vaqtda unga olti mamlakat – Fransiya, FRG, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg davlatlari kirdi. Ushbu mamlakatlar o'rtasida tuzilgan Yevropa ko'mir va metall uyushmasi – 1951 yilda va 1957 yilda tuzilgan. Yevropa atom energiyasi uyushmalarining 1967 yilda bir yo'nalish ostiga birlashishlari natijasida Markazlashgan Yevropa hamjamiyati tashqil topdi.

Boshqa bir iqtisodiy g'oya maktabi frantsuz maktab g'oyasiga qarshi chiqib, erkin savdo zonasi doirasida sanoat tovarlarining erkin aylanishi bilan bir

qatorida har bir mamlakatning uchinchi dunyo mamlakatlari bilan savdosi tashqi tariflarni belgilashni ushbu davlatlarni o'z ixtiyorlariga berilishini yollab chiqdi. Bu goya asosan Angliya manfaatlariga mos kelar edi, chunki Angliya, Britaniya millatlar ittifoqiga kirgan sobiq mustamlakalari o'rtasida Angliya uchun foydali bo'lgan savdo munosabatlari yo'lga qo'yilgan edi. Ushbu g'oya asosida 1960 yil may oyida Stokgolmda Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi tashqil topdi. Bunga etti mamlakat – Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, SHvetsiya, SHvetsariya va Angliya kirishdi. Ularga 1 mart 1970 yilda Islandiya va 1986 yil 1 yanvarda Finlandiya davlatlari qo'shilishdi. 90 yillarga kelib Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasining a'zolari ham Yevropa hamjamiyatiga birin-ketin qo'shila boshlashdi. 1973 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga – Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya, 1981 yilda – Gretsiya, 196 yilda – Portugaliya va Ispaniyalar qo'shilishgan bo'lsa, 1994 yilga kelib Avstriya, SHvetsiya va Finlandiya Yevropa hamjamiyati a'zosi bo'lishdi.

G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasini shartli ravishda 4 bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich (50 yillar oxiridan 70 yillar o'rtalarigacha) hamjamiyatning "oltin asri" hisoblanadi. Bu davrda tezlikda bojxona ittifoqi tuzildi, umumiy agrar bozor tashqil topdi va yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 3 mamlakat hamjamiyatga a'zo bo'lib kirdi. YEVIROPA ITTIFOQI yoki "Umumiy bozor"ni tashqil qilishning aniq maqsadlari bo'lib, u:

a'zo mamlakatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarida cheklashlarni bosqichma-bosqich yo'qotish;

uchinchi mamlakat bilan savdoda umumiy bojxona tarifini o'rnatish;

"Insonlar, kapital, xizmatlar" erkin ko'chib yurishdagi cheklovlarni yo'qotish;

transport va ish xo'jaligi sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va yuritish;

valyutaviy ittifoqni tashqil etish;

solliq tizimini takomillashtirish;

qonunlarni bir-biriga yaqinlashtirish;

iqtisodiy siyosatni uygunlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish edi.

YEVROPA ITTIFOQI o'zining birinchi maqsadi sifatida tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchini erkin ko'chib yurishini ta'minlovchi bojxona ittifoqini tuzish deb belgiladi. Bojxona ittifoqining tuzilishi esa integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirdi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar o'rtalaridan 80-yillar o'rtalarigacha) Yevropa tarixida turg'unlik davri degan nom bilan oldi. Bu davrda Yevropa valyuta tizimini (EVT) tuzishga muvaffaq bo'lingan bo'lsa qam, "evroskleroz" nomini olgan krizis davrida a'zo mamlakatlar iqtisodi o'rtasidagi farq kattalanib bordi. 1981 yilda Yevropaga Gretsiyaning qabul qilinishi bilan bu farq yanada namoyon bo'la boshladi.

Yevropa ittifoqi iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va chuqurlashtirishni, dastlabki ko’rinishidan (ochiq savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor), yuqori ko’rinishga o’tish (iqtisodiy va valyuta ittifoqi) va unga a’zo mamlakatlar sonini oshirish bu ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. 1957 yil Rim (imzolangan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashqil etish) shartnomasida ko’zda tutilgan edi. Jaxon xaritasidan Yevropadagi sotsialistik mamlakatlar yo’qolganidan so’ng Yevropa ittifoqiga qo’shilishi mumkin bo’lgan mamlakatlar soni yna ko’paydi, ya’ni sobiq ittifoqning boltiq bo’yi mamlakatlari va Yevropaning boshqa sotsialistik Respublikalari qo’shilishi mumkin bo’ldi. Yevropa ittifoqga a’zo mamlakatlarning 1997 yil dekabr oyida Lyuksemburgda bo’lib o’tgan Oliy darajadagi uchrashuvda 1999 yildan Yevropa ittifoqi tarkibiga beshta mamlakatlarni qo’shish maqullandi. Bular Vengriya, Kipr (Gretsiy qismi), Polsha, Chexiya va Sloveniya. 1991-1992 yillarda Sharqiy Yevropa bilan Yevropa ittifoqga a’zo mamlakatlar o’rtasida, Sharqiy Yevropa mamlakatlari qonunlarini Yevropa ittifoqga a’zo mamlakatlar qonunlari bilan yaqinlashtirish, tashqi iqtisodiy a’loqalarni kengaytirish davlatlar o’rtasida 10 yil ichida bojxona bojlarini bekor qilish yo’li bilan ochiq savdo hududlari, ochiq sanoat ishlab chiqarish hududlari tashqil etish va tashqi savdodagi boshqa to’siqlarni bekor qilish bo’yicha kelishuv imzolandi. Ko’pgina sanoat maxsulotlariga Yevropa ittifoqi 1995 yil Sharqiy Yevropa mamlakatlari uchun bojxona bojlarini bekor qildi. 1990 yillarning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa ittifoqiga a’zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan

tovarlar Sharqiy Yevropa mamlakatlari ichki bozorlariga iqtisodiy siyosat choralari tortilmasdan erkin kirib kela boshladi.

Mamlakatlar Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lishlari uchun bir qator shartlarni bajarishlariga to'g'ri keladi:

- demokratik institutlarni meyoriy ishlashini ta'minlash;
- huquqiy tartib;
- inson xuquqlariga rioya qilish va milliy kamchilikni himoya qilish;
- bozor iqtisodiyoti jarayoni mavjudligi;
- a'zolik majburiyatlarini qabul qilish;
- siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoq.

1973 yildan boshlab Yevropa ittifoqi uchinchi mamlakatlar bilan bevosita shartnoma imzolay boshladi. Hozirgi kunda Yevropa ittifoqi 30 dan ortiq ko'p tomonlama savdo, siyosiy shartnomalarda qatnashgan.

Rossiya Federatsiyasi o'zining ichki bozorini himoya qilishda proteksionistik choralarni me'yoriy ravishda qo'lladi. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan dempingga qarshi choralar bir tomonlama qo'llanilmaydigan bo'ldi. Kapitallarning to'g'ri investitsiyalari ko'rinishida harakatlanishi to'grisidagi tartibi kelishib olindi. Rossiya Federatsiyasi bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi aloqalar o'sish xarakterini kasb etdi. Rossiya Federatsiyasining tashqi savdo aylanmasining 50% Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar zimmasiga to'g'ri keladi. 1994 yil 24 iyunda Gretsiyaning Korfu orolida Rossiya Federatsiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasida hamkorlik va sheriklik to'grisidagi kelishuv imzolandi. Bu kelishuv esa Rossiya Federatsiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi ilgari qabul qilingan SSSR va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi (1988 yil), SSSR va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati o'rtasidagi (1990 yil), savdo - tijorat va iqtisodiy hamkorlik to'grisidagi kelishuvlar (1989 yil) yana ham chuqurlashishiga sabab bo'ldi.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiyotni barcha sohalari bo'yicha hamkorlik qila boshladilar.

1998 yildan keyin Yevropa ittifoqi Rossiya Federatsiyasi bilan itifoqdoshlar kompaniya va korporatsiyalari mamlakatlarida erkin harakatini qamrab olgan va transchegara bo'yi xizmatlar savdosi va kapital harakatini ko'zda tutuvchi erkin savdo hududi tashqil etishni rejalashtirilgan edi. Bu kelishuvlarning asosiy maqsadi bo'lib iqtisodiy va boshqa turdagi kelishuvlarda ikkala tomonning foydasini ko'zda tutuvchi va ikkala tomon bir-birlariga nisbatan javobgarlikni his qiluvchi va bir-birlarini qo'llab - quvvatlash hisoblanar edi.

Kelishuvga asosan Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy o'tish davridagi mamlakat hisoblanar edi. Shundan kelib chiqqan holda Rossiya Federatsiyasi davlat „savdo sistemasi“ deb nomlangan tushunchadan Yevropa ittifoqi foydasiga voz kechdi, bu esa Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqi mamlakatlari qattiq tashqi savdo diskriminatsion choralar qo'llanilishini bildirardi, bu Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarni Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakat ichki bozorlariga kirib borishini kamaytirar edi.

O'tish davrining muddati 5-yilga mo'ljallangan edi, lekin shartnoma kuchga kirishi bilan Rossiya Federatsiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar diskriminatsion choralarni olib tashlovchi shartnomani qabul qildilar va u kuchga kirdi.

Kelishuv asosan GATT printsiplariga asoslanganligi uchun Rossiya Federatsiyasini bu tashqilotga a'zo bo'lishini osonlashtirardi. Birinchi marta Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnoma amaliyotida Rossiya GATTga a'zo bo'lmasdan turib uning ayrim asosiy moddalariga o'zgartirish kiritishga erishdi. Shunday qilib Rossiya Federatsiyasi dastlabki maslaxatlar natijasida o'zining boj tarifi imkoniytini saqlab qoldi. Bulardan tashqari Yevropa ittifoqi Rossiya Federatsiyasidan import qilinadigan barcha tovarlarga import kvotalarini bekor qildi. (Hozirgi vaqtgacha import kvotalari 600 ta tovar pozitsiyalariga mavjud edi). Tekstil va EOO'S nomenklaturasidagi tovarlar (ko'mir, po'lat va boshqalar) alohida kelishuv asosida oshiriladi. Bir-biriga nisbatan taqdim etilayotgan eng qulaylik savdo rejimini berish rejasiga GATT tomonidan belgilangan eng qulaylik savdo rejimini berish rejasiga to'liq javob beradi.

8.3.Bojxona hamkorligini xalqaro tovarlar tashuvidagi o`rni

Erkin savdo xududlari tashqil etish ayrim mamlakatlar iqtisodiyoti uchun salbiy xarakter kasb etish xam mumkin. Bu esa ba'zi bir milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni ayrim chet-el tovar ishlab chiqaruvchilarining sifatli tovarlari oldida inkirozga uchrash xavfini tugdiradi va ayrim xollarda bu maqsadlariga xam erishadilar.

Natijada importorlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z bozorida sikib chiqaradilar. SHuning uchun xam milliy tovar ishlab chiqaruvchilarga davlat yordami zarur bo'ladi.

Erkin savdo xududlarini xammasini qamrabolgan xudud bo'lib, 1994 1-yanvarda kuchga kirgan SHimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuvi xisoblanadi. Bu kelishuv AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari xyukumatlari tomonidan imzolangan.

Bu ochiq savdo xududi doirasida yagona tashqi savdo tarifi amal qiladi va yana bu kelishuvni yaxshi tomoni SHimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga a'zo mamlaktlar xududida savdo tarifi umuman yukligi bilan ajralib turadi.

Bu kelishuvning o'ziga xos tomoni yana shundaki bunda investitsiyalar xam "Savdo to'g'risidagi kelishuv" ning bir qismi xisoblanadi.

SHimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi tovarlarni xarakatini, kelib chiqishni tasdiqlovchi yagona jarayonini, tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo-bojxona orqali tartibga solishda va boshqa qoidalarini soddalashtirishda asosiy xalqaro tashqilot xisoblaydi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani keyingi bosqichi bu Bojxona Ittifoqi xisoblanadi.

Bojxona ittifoqi o'z navbatida ittifoqqa a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va ittifoqqa a'zo bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shug'ullanadi va buni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi.

SHunday qilib, “Bojxona ittifoqi”ga a’zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbat savdo siyosatini olib borishni Ittifoq boshqaruvi organiga saylangan a’zolar belgilaydilar.

Masalan 1967 yil SHimoliy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi Bojxona ittifoqi yoki erkin savdo xududi ko’rinishida tashqil etilgan.

Bu ittifoq doirasida a’zo mamlakatlar iqtisodiy integratsiya to’g’risida, iqtisodiy xamkorlikni rasmiy chuqurlashtirish va bojxona xamkorligi to’g’risida chuqur o’ylamoqdalar.

1992 yil ASEAN ga a’zo mamlakatlar ochiq savdo xududi tashqil etish bo’yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo xududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

ASEAN ga a’zo mamlakatlarda tarif tovar qayta ishlanganlik darajasi atrofida belgilangan bo’lib ular 15 ta tovar kategoriyalari uchun tarif stavkalarini kamaytirish mo’ljallangandi. Tovarlar kelib chiqish qoidasiga asosan tovarlar ASEAN da ishlab chiqarilgan bo’lishi uchun tovarning kamida 40% qismi unga a’zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bo’lishi kerak.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyani yuqori darajasi bo’lib **yagona yoki umumiy bozor** xisoblanadi, chunki bu sistemada kapital va mexnatning erkin xarakati ta’minlanadi. Bojxona poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish. Bojxona ittifoqiga a’zo mamlakatlar o’z faoliyatlari davrida yagona yoki umumiy bozor yaratish uchun shart-sharoit yaratadilar.

Buning uchun: yaratilgan mexanizm va vositalardan tashqari a’zo mamlakatlarni iqtisodiyotini ayrim tarmoqlarini rivojlantirish umumiy siyosatini ishlab chiqish, kapitallarni erkin xarakatiga, ishchi kuchi erkin xarakatiga, xizmatlar va axborotlarning erkin xarakatiga tovarlarni xar qanday to’siqlarsiz xarakatiga sharoit yaratish; sotsial va xududiy rivojlanishda umumiy fondlarni shakllantirish, bu xaridorlar va yashovchi axolini itegratsion jarayonni ustunligini real xis etilishlariga olib keladi.

Asosiy urin raqobatni tartibga soluvchi qonunlarni buzulishiga yo’l qo’ymaslikka ajratiladi.

Bobga doir qisqacha xulosa

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) soxasidagi isloxotlar barqarorlikka erishishning qisqa muddatli masalalari yechimiga emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalishga ega bo'lsa, bu shak-shubxasiz, iqtisod samaradorligining ko'tarilishiga imkon beradi. O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni quyidagi muammolarga qaratishimiz lozimdir:

Birinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy va meyoriy-huquq asoslarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ishlarni davom ettirish juda muximdir. Amaldagi qator qonunlarga, xususan, valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, vazirliklar va davlat idoralari tomonidan qonunlar, Prezident Farmonlari, xukumat qarorlari mazmunlarini aniqlashtiruvchi meyoriy xujjatlarni ishlab chiqish ijobiy rol o'ynashi mumkin;

Nazorat savollari:

1. Bojxona xamkorligi deganda nimani tushinasiz?
2. Iqtisodiy integratsiya nima?
3. Iqtisodiy integratsiyaning qanday shaqillarini bilasiz?
4. Iqtisodiy integratsiyaning qanday bosqichlari mavjud?
5. Ochiq savdo xududi nima?
6. Bojxona ittifoqi deganda nima tushinasiz?
7. YAgona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?
8. iqtisodiy yoki valyuta ittifoqi nima?
9. SHimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (ASEAN) nechanchi yilda imzolanib nechanchi yilda kuchga kirgan?
10. SHimoliy Amerika erkin savdo kelishuvini qaysi mamlakatlar imzolagan?

9 – BOB. JST/GATT – XALQARO SAVDO TASHQILOTI VA XALQARO SAVDONI TARTIBGA SOLISH TAMOYILLARI

9.1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv va Jahon savdo tashqiloti

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) – xalqaro savdoning boj-tarif jixatlarini tartibga soluvchi eng nufizli tizilmadir. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «bu tashqilot jahon savdosining shozirgi tizmini boshqarishda markaziy urinni egallab turibdi».

GATT 1947 yilda Jenevada tuzilib, tovar aylanmasi xajmini kengaytirish maqsadida xalqaro savdoning barqaror qoidalarini qaror toptirish intilishlarini aks ettiradi.

Dastavval AQSH takliflari asosida xalqaro savdo tashqiloti tashqil etish qo'llanib, uning ustavi ishtirokchi davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinmay, uning o'rniga boj siyosati asosiy qoidalari to'g'risidagi ko'p tomonlama kelishuv – boj va tariflar to'g'risidagi bosh kelishuv kuchga kirdi.

Bu kelishuv savdo erkinligi goyalarini, ya'ni ishtirok etuvchi taraflarning tengligini ifoda etadi. Bunday goyalar bir necha qoidalarda yanada aniq aks ettirilgan.

Birinchi va eng asosiy qoida diskriminatsiya qilmaslik tamoyili, «eng ko'p qulaylik berish» shaklini olib, bu tashqi savdo ishtirokchilari hammasining tengligini ta'minlash va ularni diskriminatsiya qildirmaslik to'g'risidagi tezisdir. «Eng ko'p qulaylik berish» rejimi ishtirokchi davlatlarning o'zaro yetqazib berilayotgan tovarlarga nisbatan har qanday uchinchi tomon tovarlarga nisbatan qo'llanilayotgan boj stavkalaridan yuqori bo'lmagan boj stavkalarini qo'llash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis maxsus iqtisodiy guruxlar tashqil etidgan xollarda undan chekinishga ruxsat beradi. SHuningdek rivojlanayotgan davlatlarning preferensiya boj rejimlaridan bir taraflama foydalanishi huquqi ham aloxida kayd etilgan.

Diskriminatsiya qilmaslik tamoyili «milliy rejim» tushunchasining asosida ham yotadi. Unga ko'ra a'zo davlat o'zining va boshqa a'zo davlat tovar va

xizmatlari o'rtasida diskriminatsiya rejimini urnatmasligi kerak. Tovar va xizmatlar boshqa davlatning chegarasini kesib utganidan boshlab ularga mahaliy ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga bo'lgan munosabatda bo'linishi talab etiladi. Bu eng avvalo solikka tortish, tovarning sifati va sertifikatlashtirilishiga nisbatan talablarga taaluqli.

Ikkinchi tamoyil tashqi savdoni tartibga solish usullari qo'llanilishining huquqiy asoslanganligi tamoyilidir. GATT shunday usul sifatida faqat bojlarni tan oladi. Tashqi savdoni tartibga solishning boshqa usul va shakllari qo'llanilmasligi talab etilib, ular qo'llanilgan holda ham amal qilish davri qisqa bo'lib, faqat istisno xolatlarida joriy qilinishi mumkindir. GATT a'zo davlatlarga kvotalardan foydalanish hamda eksport yoki import litsenziyalarini qo'llashni tavsiya etmaydi. Biroq GATTda miqdoriy cheklashlarni joriy etish o'rinli xisoblab ularni asoslaydigan extimoliy istisno xolatlari ro'yxati keltirilgan. SHular qatoriga qishloq xo'jalgi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tartibga solish dasturlarini amalga oshirish yoki to'lov balansi muvozanati buzilishi xolatlari kiradi.

Va nixoyat GATT faoliyatining eng asosiy tamoyili qarorlarni qabul qilish va chora tadbirlarni amalga oshirish qoidalariga aloqadordir, bu eng avvalo bir taraflama sharakatlardan o'zaro mizokaralar va maslaxatlar foydasiga voz kechishdir. Ishtirokchi davlatlar tashqi savdoni cheklashga qaratilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar: barcha qaror faqatgina savdo masalalariga bag'ishlangan o'zaro muzokaralar doirasida qabul qilinadi.

9.2. O'zbekiston Respublikasida JSTlar GATTga a'zo bo'lish yo'lida olib boriladigan chora - tadbirlar

Bugungi kunda dunyodagi 148 mamlakat JST (Jahon savdo tashqiloti) a'zosi bo'lib, ular Urugvay raundi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ish kiradilar. SHozirda YAna 30 ta mamlakat JSTda kuzatish maqomini qilga kiritganlar va ular ham a'zolikka da'vogardirlar.

JSTga a'zo bo'lish ancha uzoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar hyukumatlari tomonidan JSTga kuzatish maqomini qilga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichida tashqilotga teng huquqli a'o bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayonining Ushbu bosqichi hyukumatlar tomonidan JSTga maxsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi.

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasidagi sado-iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jihatlariz aksini topadi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik shartlari atroflicha o'rganib chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha maxsus ishchi guruhi tashqil etiladi. Ishchi guruhi majlislarida da'vogar mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va xizmatlar turi bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va majburiyatlar xususida JSTga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradilar. Muzokaralar o'rnatilgan tartiblarning amalda ijro etilishi mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi va ularning istagan vaqtda o'zgartirilishi qat'iyan man etiladi.

A'zolikka da'vogar mamlakatning savdo rejimini o'rganish va uning bozorga kirib borish to'g'risidagi muzokaralar o'z yakuniga yetgandan so'ng, Ishchi guruhi tomonidan a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi asosiy shart-sharoitlar ishlab chiqiladi. Majlis natijalariga kira, maxsus bayonnoma tayyorlanadi va u Bosh yig'in yoki vazirlar Konferensiyasida JST a'zolarining 2lar 3 qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanilgan taqdirdagina imzolangan va tasdiqlangan deb topiladi. Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lganlaridan so'ng, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning barchasini qabul qilishlari va ularga amal qilishlari shartdir.

2003 yilning 10-14 sentabrida Meksikaning Kankun shahrida bo'lib itgan JSTning 5-vazirlar Konferensiyasida 148 mamlakat savdo vazirlari o'rtasida yuzaga kelgan har xil kelishmovchiliklar sabab, jahon savdo tizimini yanada erkinlashtirish borasida hal qilinishi lozim bo'lgan ushbu masalalar o'z yechimini topa olmadi. Biroq, mazkur vaziyat JSTning xalqaro miqyosdagi nufuziga ta'sir

ko'rsata olmaydi, albatta. Chunki, bu tizim millatlar uchun ma'lum bir ustunliklar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi tabiiydir.

JST tizimining ustunliklari, unda yirik savdogar davlatlarning a'zo bo'lganligi bilan emas, balki uning erkin tovar almashinuvi jarayonida mamlakatlar uchun turfa xil iqtisodiy manfaatdorliklarni ta'minlashi bilan izohlanadi. Bu tizim a'zo mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga, shuningdek, fuqarolar farovonligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. JST savdo tizimi mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoriga, shuningdek, alohida fuqarolar va umuman jahon hamjamiyati doirasida o'z ustunliklarini namoyon etadi.

Xususan, JSTning iste'molchilar manfaati va aholi farovonligini yuksaltirishdagi roli shu bilan izohlanadiki, bunda erkin savdo tamoyillaridan kelib chiqqan holda, xalqaro savdodagi proteksiya to'siqlari minimal darajagacha kamaytirib boriladi. Tashqilotning 50 yillik faoliyati davomida savdodagi to'siqlar butun dunyo miqyosida bir necha barobarga kamaytirildi. Buning natijasida, nafaqat import qilinadigan tayyor mahsulotlar va xizmatlar baholarining pasayishi, balki import qilinadigan xom ashyolar va butlovchi qismlar hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovarlar narxlarining ham arzonlashishi kuzatildi.

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklovlar va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma'muriy-iqtisodiy dastaklarning me'yoridan ortiqcha qo'llanilishi, oxir-oqibatda ko'tilgan ijobiy natijalarga emas, balki kishilar farovonligi darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, to'qimachilik mahsulotlari importiga qo'yilgan savdo cheklovlari oqibatida Buyuk Britaniyada iste'molchilarning kiyim-kechaklar uchun yiliga qo'shimcha 500 mln funt sterling miqdoridagi oshiqcha mablag'lar sarf qilganligi qayd etiladi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kanadalik iste'molchilar uchun taxminan 780 mln Kanada dollariga teng bo'lgan. Yevropa Ittifoqida esa, telekommunikatsiya sohasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan. 2005 yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar savdosi bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan

islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, aynan shu xildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgandir.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari, yana shu bilan izohlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va xizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor xorij mahsulotlaridan tashqari, import qilinadigan xom ashyolar, butlovchi qismlar va jihozlar baholarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahaliy tovar va xizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahaliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Tovarlar almashinuvi jarayonining faollashuvi esa innovatsiyaning rivojlanishiga sabab biladi.

Mahaliy mahsulotlar eksporti tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarining kuzatilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning qat'iy valyutadagi daromadi ortadi. Buning natijasida, xazinaga kelib tushadigan soliqlar miqdori ham o'z-o'zidan ortadi va pirovard natijada, aholi farovonligi yuksalishi kuzatiladi.

Erkin savdo tizimining istemolchilar, ishlab chiqaruvchilar va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini aniq dallilarga tayanib asoslab berish qiyin, albatta. Xususan, savdo to'siqlarini kamaytirish orqali tovarlar va xizmatlar xalqaro almashinuvini kengaytirib borish, nafaqat davlat daromadlarining, balki xususiy sektor daromadlarining ham oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Urugvay raundiga asoslangan holda xalqaro savdo shartnomalari yangicha tizimining amaliyotga joriy etilishi natijasida jahon daromadining 109 mlrd dollardan 510 mlrd dollargacha ko'payganligi qayd etiladi.

Chunki, har qanday mamlakatda salohiyatli eksportchilar faoliyatining samarali tashqil etilishi, davlat daromadlarini bir necha barobarga yuksaltirib, ularning qayta taqsimlanishi, kuchli xorijiy raqobatga duch keladigan mahaliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, sohalar raqobatbardoshligini oshirish,

yangicha ishlab chiqarish quvvatlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarish qo'lamini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Savdoning rivojlanishi, uzoq muddatli istiqbollarda, asosan, iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan sohalarida bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. o'z navbatida, mamlakatga kapitalning, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning oqib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. SHuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahaliy korxonalariningamalda cheklab bo'lmaydigan xorijiy raqobat bilan to'qnash kelishi natijada mavjud ish o'rinlarining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Fikrimizcha, jahon mamlakatlari tomonidan proteksionizm siyosatining faol qo'llanilishi, bu muammoni yanada chigallashtiradi. CHunki, savdo to'siqlarining noo'rin qo'llanilishi oqibatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahaliy mahsulotlar sifatida keskin pasayish alomatlari kuzatilishi mumkin. Importni chegaralash jarayonida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bahosining ortib borishi sotuv shajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa mavjud ish o'rinlari qisqarib boradi. Aynan shunday holat o'tgan asrning 80-yillarida YAponiya avtomobillari importiga qat'iy cheklovlarning o'rnatilishi sababli, AQSHda kuzatilgan edi. Bugungi kunda AQSHning eksport tarmoqlarida kamida 12 millionga yaqin ishchi band bo'lib, bunga qarama-qarshi ilaroq, YEVIROPA ITTIFOQI bozorlarining erkinlashtirilishi oqibatida, hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda qo'shimcha 300 mingga yaqin ish o'rinlari yaratildi.

Bizningcha, shimoya chora-tadbirlarining aql-idrok bilan qo'llanilishi va qo'shimcha davlat daromadlarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish har qanday mamlakatda savdoni erkinlashtirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishning muhim omili bo'la oladi. JST tamoyillarining amalda qo'llanilishi, shuningdek, amaldagi bojxona poshlinalari va boshqa savdo to'siqlari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda ko'tilgan natijalarga olib kelishi mumkin. CHunki, daxlsizlik va iqtisodiyotning ochiqligi, ustuvor savdo shartlarining

belgilab olinishi va ularning soddalashtirilishi hamkorlar e'tiborini tortadi. SHuningdek, mavjud korxonalar sharajatlarning kamayishi va savdo hamda investitsiyalar uchun qulay mushitning yaratilishi, mamlakat tovar aylanmasi shajmining oshishiga sabab biladi.

O'zbekiston ham ko'pchilik davlatlarning savdo munosabatlarini tartibga soluvchi xalqarosavdo tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida JSTga qo'shilishga qaror qildi. Bunday integratsiyalashuv JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdoni kengaytirish, eksport tushumlarini ko'paytirish, chet el investitsiyalarini ko'prok jalb etish, ishlab chiqarish sohalarda bandlik yuqori darajasi erishishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston 1994 yilning iyun oyida JSTda kuzatuvchilik maqomini qilga kiritgan edi. 1994 yilning dekabrda esa O'zbekiston Respublikasi hyukumati tomonidan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi to'g'risida ariza topshirildi. 1995 yilning yanvarida esa O'zbekistonning JSTga qishilishi bo'yicha maxsus Ishchi guruhi tuzildi. O'zbekiston Respublikasining rasmiy delegatsiyalari JSTning Singapur (1996 y.), Jeneva (1998 y.) va Sietl (1999 y.)da bo'lib o'tgan vazirlar darajasidagi konferensiyalarida ishtirok etdilar.¹⁴ 1998 yilning sentabr oyida O'zbekiston hyukumati JST kotibiyatiga respublikaning tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumni taqdim etdi va uning rasmiy taqdimoti bo'lib itdi. Ushbu yuzasidan Avstraliya, Yevropa Ittifoqi, YAngi Zelandiya va AQSH hyukumatlarining savolnomalari olindi va shunga muvofiq JST Kotibiyatiga javoblar tayyorlandi.

2002 yilning 17 iyulida esa SHveytsariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib Kirishi bo'yicha tashqil qilingan Ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib itdi. Bunda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumning yangi tashriri kirib chiqildi. Mazkur majlis natijalari bo'yicha bir qator mamlakatlar tomonidan Memorandum bo'yicha yozma sharsh va savolnomalar taqdim etildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib

¹⁴O'zR TIAAga 2004 yilning 5-17 yanvarida «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisod faoliyat yurituvchi korhona rahbarlarining malakasini oshirish kursi» tarqatma ma'lumotlar asosida

kirishi bo'yicha Ishchi guruhining birinchi majlisi davomida kelib tushgan savolnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizga qo'yilgan asosiy talablar a'zolikka da'vogar mamlakatlarga qo'yilgan umumiy talablarga to'liq mos keladi.

JST bilan samarali faoliyat tashqil qilish maqsadida, mamlakatda JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya tuzildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 dekabrdagi 520-sonli qaroriga muvofiq uning tarkibi tasdiqlandi. Unga TIAA, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralardan vaqillar kiritildilar. JST bilan ishlash bo'yicha idoralararo komissiya kotibiyati vazifasini bajarish TIAA zimmasiga yuklatildi. JSTga kirish uchun zarur biladigan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida respublikaning vazirliklari va idoralarida ishchi guruhlari tashqil etilib, ularning maqsadi:

- savdoda qo'llaniladigan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar hamda texnik to'siqlar to'g'risidagi savolnomalar ro'yhatini tayyorlash;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalarini berish to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash;
- xizmatlar savdosiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash;
- intellektual mulk huquqi savdosiga tegishli bo'lgan axborotlarni tayyorlash;
- tovarlarga tarif chegirmalarini berish va xizmat majburiyatlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish;
- JST bitimi doirasida ko'zda to'tilgan tartiblarga muvofiq milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish;
- JSTga a'zo bo'lishning iqtisodiyot sohalariga biladigan ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borishga qaratildi.

SHu paytga qadar O'zbekiston Respublikasi tomonidan JST Kotibiyatiga quyidagi bir qator masalalarni o'z ichiga oluvchi materiallar tayyorlab topshirildi:

- AQSH, YEVROPA ITTIFOQI, Koreya tomonidan JSTga kirish bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi yakunlari bo'yicha O'zbekiston savdo rejimi to'g'risidagi memorandumga qo'yilgan yozma savollarga javoblar;

- JST bitimiga muvofiq savdodagi texnik to'siqlar, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar bo'yicha qo'yilgan turli xildagi savollarga javoblar;

- Intellektual mulk huquqi savdosi masalalariga tegishli bo'lgan ma'lumotlar.

SHuningdek, shozirgi paytda 2002 yilning 24 sentabrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib Kirishi bo'yicha tashqil qilingan Ishchi guruhining ikkinchi majlisiga tayyorgarlik kirish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi amalga oshirilmoqda¹⁵ va Ishchi guruhi tomonidan O'zbekistonning JSTga kirishi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar tayyorlanmoqda:¹⁶

- tovarlar mavqeyi Yevropa Ittifoqibo'yicha tariflarni tushirib borish yuzasidan boshlang'ich ma'lumotlar;

- xizmatlar savdosi sohasidagi siyosatni olib borish bo'yicha ma'lumotlar;

- xizmatlar savdosi sohasidagi maxsus majburiyatlarning boshlang'ich ro'yhatini tuzish.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hyukumati JSTga a'zo bo'lib kirishni jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida qarab kelmoqda va mazkur tashqilotga teng huquqli a'zo bo'lib kirish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. JSTga a'zo bo'lib kirish mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tajribaga muvofiq, JSTga a'zo bo'lish uzoq muddatli istiqbollarda har qanday milliy iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq qisqa muddatli istiqbollarda u milliy xo'jalik taraqqiyoti uchun ayrim muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Eksportni rag'batlantiruvchi siyosat olib boradigan mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan nafaqat uzoq muddatli istiqbollarda, balki qisqa muddatli

¹⁵ Экономическое обозрение, № 6 (46), 2003.

¹⁶ O'zR TIAAGA 2004 yilning 5-17 yanvarida «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalar rahbarlarining malakasini oshirish kursi» tarqatma materiallar asosida

istiqbollarda ham katta foyda kiradilar. Bunga qarama-qarshi ilaroq, import o'rnibosuvchi siyosat olib boruvchi mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishdan uzoq muddatli istiqbollarda manfaat kirsalarda, qisqa muddatli istiqbollarda ular iqtisodiy jihatdan ma'lum darajada zararga kirishlari ham mumkindir. SHu sababli, xalq xo'jaligi miqyosida erishiladigan foyda va kutilishi mumkin bo'lgan zararlarni ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish va iqtisodiy jihatdan baholash Butun jahon savdo tashqilotiga ishtirok etishning dastlabki bosqichlarida ita muhim hisoblanadi.

Ayni paytda, JSTga a'zo bo'lishning milliy iqtisodiyotga, shuningdek, uning alohida tarmoqlariga biladigan ta'sirini baholamasdan turib, xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi mazkur tashqilotda a'zo bo'lish uchun zarur bo'lgan qat'iy chora-tadbirlarni ishlab chiqish qiyin, albatta.

Xususan, MDH doirasidagi JSTga a'zo bo'lib kirgan ayrim mamlakatlarda xalqaro savdo rivojlanishi va kutilishi mumkin bo'lgan tezkor iqtisodiy o'sish holatlarining aniq ko'zga tashlanmayotganligi kuzatilmoqda. Shuningdek, o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar uchun JSTga a'zo bo'lish jarayonida ochiqlik darajasining ortib borishi, amalga oshirilishi zarur bo'lgan iqtisodiy islohotlarni tezlashtiradi va o'z navbatida, bozor tarkibiy o'zgarishlarining istiqboli uchun zaruriy kafolat bo'lib hisoblanadi. Boshqa bir tomondan esa, baholar o'zgarishiga barham berish va mamlakatdagi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish va ularni samarali taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi mamlakat hukumati va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga jahon hamjamiyati va salohiyatli investorlar ishonchini yanada oshiradi va savdoning rivojlanishi, investitsiyalar oqimining ko'payishi, shuningdek, tezkor iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Iqtisodiyotni imkoniyat darajasida qayta qurish, tarmoqlarning qishilgan qiymatni yaratishi bilan bog'liq yuksak taraqqiyot darajasini ta'minlash, JSTga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirib borishning muhim kafolati bo'lib hisoblanadi.

9.3. Iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va maqsadi

O'zbekiston Respublikasi jaxon xamjamiyatiga iqtisodiy integratsiyasi uchun chet mamlakatlarning bu soxa bo'yicha eksportga mo'ljallangan va import o'rni bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishda tuplangan yutyuklari juda xam muximdir. Xalqaro iqtisodiy integratsiya deganda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, o'zaro iqtisodiy aloqalarning chuqur rivojlanishi va millatlar o'rtasidagi xo'jaliklarning mexnat taqsimoti tushuniladi.

SHundan kelib chiqib bu jarayon faqatgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiy almashinuvi, bozor iqtisodiyoti emas, balki xalqaro xamkorlikda va jaxon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Lekin bu tovarlar ishlab chiqarish doirasiga chuqur kirib boradi va xar xil ko'rinishda chuqur iqtisodiy aloqa o'rnatishga olib keladigan jarayon xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng uning oldida jaxon xamjamiyatiga a'zo bo'lish yo'lida yangi imkoniyatlar paydo bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvining:

- **siyosiy asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi va demokratiya asosida ko'rilgan jamiyat;

- **iqtisodiy asosi** bo'lib mulkchilikning xar-xil shakllari ko'rinishda bozor iqtisodiyotiga o'tishi va ular uchun barcha shart-sharoitlari yaratish shu jumladan huquq bazani xam;

- **material asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi va O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish;

- **ijtimoiy asosi** bo'lib –O'zbekiston Respublikasida erkin mexnat, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlash, xaqiqiy mulkdorlar sinflarini shakllantirish:

- **ma'naviy asosi** bo'lib esa-g'oyalarning yaratilishi ma'naviy boyligimiz va millatning o'z-o'zini anglashi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida integratsion o'zaro aloqalarini yuqorida keltirilgan asoslari bo'lib

- mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni kelgusida xam mo'tadillashtirishga yo'naltirilgan;

- Respublikaning milliy Xalq xo'jalik kompleksini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va bundan tashqari integratsion imkoniyatlarni va undan samarali foydalanishini kuchaytirish zarur.

Bizning nazarimizda integratsion saloxiyat deganda –Xalqaro iqtisodiy integratsiya sub'ektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab chiqarish, ilmiy texnika soxasidagi xamkorligi va o'zaro almashinuv predmeti xisoblangan tabiiy kompleksi, mexnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy saloxiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining jaxon xamjamiyatiga integratsion aloqalariga ko'maklashuvchi faktorlari va shartlari orasida baxslashib bo'lmaydiganlari quyidagi integratsion patentsionalini rivojlantirishga qaratilganlarini ajratish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasining Yevro-Osiyo qit'asida muxim geografik joyda joylashganligi;

Yer osti va yer usti zaxiralarini mineral xom-ashyo va o'simlik resurslari, qishloq xo'jaligini va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini rivojlantirish uchun qulayligi;

Tashqi savdo va eksport saloxiyatini yuqoriligi;

yuqori ishlab chiqarish saloxiyati;

insonlarni saloxiyati yuqoriligi o'suvchi mexnat resurslari;

bundan tashqari jaxon xamjamiyatiga nisbatan arzon ishchi kuchi mavjudligi;

Respublikamizni boshqa xududlar bilan boglab turuvchi avtomobil va temir yo'l magistrallari mavjudligi;

rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi;

ikki tomonlama manfaatli tashqi iqtisodiy va integratsion xamkorlik, chet el kapitali, investorlar jalb etish uchun davlat garanti va turg'un siyosiy xolat mavjudligi;

Yuqorida sanab o'tilganlarda belgilardan O'zbekiston Respublikasi mineral xom-ashyo saloxiyatini aloxida aytib utish mumkin. CHunki D. Mendeleev jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud bo'lib, u chet el ekspertlari tomonidan 3.3 trln dollar qiymatida baxolangan. SHu bilan birgalikda xar yili O'zbekiston Respublikasi yerlaridan 5.5 mlrd AQSH dollari miqdorida Yer osti qazilma boyliklari qazib olinadi, xar yili Yer osti va yer ustizaxiralari 6-7 mlrd. dollarga o'sadi. SHu bilan bir qatorda respublikamizda mavjud ana shu saloxiyatdan va yaratilgan iqtisodiy jarayondan samarali foydalanish zarur. Xususiy tadbirkorlik va kichiq biznesni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish ustuvor yo'nalish xisoblanadi.

Kichiq biznes va xususiy tadbirkorlikka bevosita ko'mak beruvchi bir qator davlat institutlari tashqil etilgan ular: tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, kichiq biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlovchi fond (biznes fond), "Madad" va "O'zbekinvest" eksport import milliy sug'urta kompaniyasi, maxsuslashtirilgan aktsiyadorlik tijorat "Tadbirkorbank", respublika tovar birjasi va fond birjasi, biznes-inkubatorlar, ko'chmas mulk birjasi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi xyukumati kichiq biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rivojlangan chet el banklarining kreditlarini jalb etish bo'yicha samarali ishlar olib bormoqda. SHu maqsadda 2002 yilda chet el kreditlari respublikamizda kichiq biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash uchun 700 mln. AQSH dollari miqdorida kredit jalb etildi. Biznes fond 2002-2003 yillarda kichiq biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun 25 ta investitsion proektlarni xususiylashtirish yo'li bilan tushgan mablaglar xisobidan 5,7 mlrd. so'm ajratildi.

Osiyo taraqqiyot banki kichiq va o'rta qishloq xo'jalik korxonalarini qayta jixozlash maqsadida 724 mln. AQSH dollari miqdorida mablag ajratdi. SHunday qilib juda katta geostrategik, zaxirali insoniy intellektual va ishlab chiqarish

saloxiyatiga ega bo'lgan va respublikamiz mustaqilligi bilan uygunlashib ketgan jarayon xisoblanadi.

9.4. Jahon iqtisodiy hamkorlik birlashmalari va ularning mamlakatlar iqtisodiyotidagi ta'siri

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor sharoitiga moslashtirish uni rivojlantirish (masalan Respublikada sanoat ishlab chiqarishni o'sishi 2003 yilning 9 oyida 2002 yilga nisbatan 106,4 % darajasida o'sdi.) Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va tashqi savdo aylanmasini o'sishiga erishish. O'zbekiston Respublikasini jaxon arenalarida xurmatini oshirish integratsion aloqalarini kengaytirish va chuqurlashishi uchun muxim sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini davlat sifatida 165 ta mamlakat tan oldi. SHulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik aloqa o'rnatgan 120 ta mamlakatning 40 tadan ortigi Respublikamiz poytaxti Toshkentda o'z elchixonalarini tashqil etganlar. Respublikamizda 88 ta chet el mamlakatlarining vakolatxonalarini va 13 ta nodavlat tashqilotlari tashqil etilgan va ular hozirgi kunda faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan o'p tomonlama xalqaro xamkorlik mexanizmiga faol kirishdi. Bir qator obro'li xalqaro siyosiy iqtisodiy va moliyaviy tashqilotlar, BMT va uning institutlari; butun jaxon banki, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashuvchi tashqitlotlar, Butun jaxon bojxona tashqiloti va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi bilan Xindiston mamlakati, Xitoy xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Vengriya Respublikasi, SHimoliy Koreya Respublikasi, Malayziya Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Germaniya Respublikasi, AQSH, Avstraliya mamlakati, Eron Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'ton Respublikasi, Q'irg'iziston Respublikasi va boshqalar davlatlar bilan xyukumatlararo savdo-iqtisodiy xamkorlik to'g'risida kelishuv imzolangan.

Savdo-iqtisodiy xamkorlik yangi ko'rinishi bu xar yilda bir marta o'tkaziladagan Amerika-O'zbekiston savdo palatasi xisoblanadi (AUSP). Bu savdo

palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investitsiyalari okimini ko'paytirishdan iborat. Bu tashqilot o'z ichiga Amerikaning 63 ta chet el mamlakatlari tomonidan tan olgan yirik kompaniyalari va korporatsiyalarini birlashtiradi bo'lar "Boing", "Uayt end Keyns", "Koka-kola", "Katerpillar", "Kargil", "Dir end Kompani", "Enron", "Enkson", "Teksako", "Texnalodjiz", "Nyument end Mayying", "Amerikan interneyshnl", "Grinn", "Meyr Brain end plett". Ana shunday konferensiyalarning birida 1998 yil Nyu-York shaxrida AQSH ning 150 dan ortiq kompaniya va korparatsiyalari ishtirok etdi.

Yuqorida olib borilayotgan barcha tadbirlar natijasida chet el mamlakatlarining sarmoyalarining xajmi yildan yilga oshib bormoqda.

CHet el mamlakatlari sarmoyalari asosida O'zbekiston Respublikasida bir qator yirik qo'shma korxonalar tashqil etilgan bo'lar: "Zarafshon-Nyuman", "O'zDEUavto", "O'zDEUelektroniks", "O'zBAT", "O'zItalmator" va boshqalar. SHu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan so'ng 100 dan ortiq chet el investorlarining sarmoyalari bilan 3600 dan ortiq qo'shma korxonalar tashqil etildi.

O'zbekiston Respublikasini integratsion saloxiyatini tashqiliy bo'linmasi sifatida tashqi savdoni ko'radigan bo'lsak, shunday xulosa chiqarish mumkinki O'zbekiston Respublikasining integratsion pozitsiyasi sezilarli darajada oshdi, bu O'zbekiston Respublikasining jaxon integratsion muxiti bilan o'zaro aloqasi xar xil bosqichlarda-Global (xalqaro iqtisodiy va moliya tashqilotlarda), Transkontenental (transosiyo iqtisodiy xamkorlik tashqiloti), Subregional (Mustaqil davlatlar iqtisodiy xamkorlik tashqiloti), Xududiy (Markaziy Osiyo Respublikalari iqtisodiy xamkorlik tashqiloti) mikro darajada (kichiq biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari darajasi) tashqil etilgan va bu rivojlantirilmoqda.

Lekin milliy integratsion saloxiyatni barcha yuqorida ko'rsatilgan o'zaro aloqasini to'liq tatbiq etish uchun uning aniq mexanizmini ishlab chiqish kerak. Buning uchun iqtisodiy usullar, tashqiliy chegara va institutlarni tushunish zarur.

O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va uni tatbiq etishni ta'minlash va jahon xo'jalik sistemasiga har xil darajadagi integratsion aloqalarni va milliy integratsion jarayonini chuqurlashtirish maqsadga muvofiq xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini jaxon iqtisodiy bozoriga kirib borishida integratsion salohiyatini ikkita strategiyasi mavjud. Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi. Xududiy integratsion bloklar bazalariga kelishilgan xolda qo'shilish.

Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi O'zbekiston Respublikasi uchun juda ogir masala bo'lib unda tovar ishlab chiqaruvchilar jaxon bozoridagi kuchli raqobatga bardosh berishlariga to'g'ri keladi. SHuning uchun xam dastlabki 1-chi bosqichda jaxon bozorida faqatgina xom-ashyo va malakali arzon ishchi kuchini taklif etish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Keyinchalik o'zaro munosabatlarni kuchaytirish natijasida iqtisodiy o'sishning lokal nyuktasini shakllantirish kelib chiqadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi tashqilotlari soxalar kompleksi va xududlar chet el mamlakatlari investitsiyalariga sezilarli qiziqishlari ortadi. Bu – mehnat sigimi yuqori bo'lgan ekologik xavfsiz tashqilotlar, ishlab chiqarishning xom -ashyo soxasi.

Lekin jahon amaliyoti shuni ko'rsatdiki xududiy integratsion bloklarga qo'shilish jaxon bozoriga kirib borish uchun juda xam samarali xisoblanadi, masalan, Jahon integratsion birlashmasi, Yevropa ittifoqi, SHimoliy Amerika integratsion bloki, NAFTA, Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari xududiy koalitsiyasi va boshqalar. SHu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining tarixiy sotsial-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida O'zbekiston uchun aloxida xudud doirasida ma'lum integratsion kenglik shakllantirish uchun ob'ektiv sharoit yaratildi.

So'z avvalom bor Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari ustida bormoqda. SSSR mamlakatining tarqalib ketishi natijasida bir qator yangi sub'ektiv davlatlar paydo bo'ldi. Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi xam. Sobiq Ittifoqdagi Respublikalar o'rtasidagi aloqa birdaniga o'zilganligi sababli yagona iqtisodiy xudud saklanib kolinmadi. Real h olatda sobiq ittifoqdosh Respublikalar

o'rtasidagi aloqalar chet el davlatlari singari tashqi savdo ko'rinishni oldi. YA'ni sobiq ittifoqdagi respublikalar o'rtasidagi aloqalarni yukotilishi dastlabki davrlarda sotsial iqtisodiy aloqalarni kiyinlashishiga olib keldi, bo'lardan tashqari sobiq ittifoqdan respublikalarni xavfsizligiga xam taxdid solindi. Natijada 1993-1994 yillarda mustaqil davlatlar xamdo'stligi MDX integratsion tuzilma tuzishga va ana shu tuzilma tarkibida yagona iqtisodiy xudud tuzish goyasi paydo bo'ldi. Va 1993 yil 24 sentabrda yagona iqtisodiy xudud tashqil etish bo'yicha shartnoma imzolandi. Ushbu shartnoma tomonlarni xo'jalik sub'ektlari o'rtasida o'zaro teng huquqlilik va bozor prinsiplari asosida va yagona iqtisodiy xududni tashqil etish va uni takomillashtirishni bosqichma - bosqich amalga oshirishga kelishilib olindi. Yagona iqtisodiy xudud to'g'risidagi shartnoma bir qator bosqichlarini nazarda tutgan:

- ko'p tomonlama erkin savdo assotsiatsiyasini tuzish;
- yagona bojxona ittifoqini tuzish;
- to'lov ittifoqini tuzish;
- yagona mustaqil davlatlar xamdo'stligi umumiy bozorga o'tish.

Mustaqil davlatlar xamdo'stligi Iqtisodiy xamkorlik kengashi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish, ko'pgina a'zo mamlakatlar fikriga ko'ra majburiy xarakter kasb etmaydi, chunki bu xamkorlik tashqiloti millatlarni keltirib chiqaruvchi va ularni mustaqilligi va erkinligini chegaralovchi millatlararo xokimiyat va boshqaruv tashqil qilmaydi. O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil davlatlar xamdo'stligi iqtisodiy tashqiloti ichida asosiy va eng muxim strategik sherik bo'lib Rossiya Federatsiyasi xisoblanadi. SHuning uchun xam O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan qalin xo'jalik aloqalarini o'rnatgan. Buni O'zbekiston Respublikasi bilan Rosiia Federatsiyasi o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasidan xam ko'rish mumkin. 2003 yilda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasini 28% Rossiya Federatsiyasi ulushiga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich 1989 yilda 53 % ni 2000 yilda 17% ni tashqil etgan. SHuning uchun xam Ushbu yo'nalishni saqlab qolish va uni rivojlantirish Respublikamizni tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojdlantirishga yangi turtki bo'ladi,

chunki yaqinda ikki mamlakat o'rtasida strategik sherikchilik to'g'risida xukumatlararo kelishuv imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi integratsion saloxiyatini muxim strategik yo'nalishlaridan yana biri bo'lib bu Respublikamizni O'rta Osiyo Respublikalari bilan yaqin xamkorligi xisoblanadi. SHuning uchun xam O'rta Osiyo Respublikalari 1992 yil yanvar oyida birlashib mamlakatlararo iqtisodiy birlashma to'zdilar va uni nomini Markaziy Osiyo xududiy xamdo'stligi (TSARS) deb atadilar va xamdo'stlik tarkibida 5-ta markaziy Osiyo Respublikalari a'zo bo'ldilar. Bo'lar-O'zbekiston Respublikasi, Qozog'ton Respublikasi, Q'irg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikalaridir.

Bu hamdo'stlikning asosiy maqsadi yagona ichki bozorni shakllantirish yo'li bilan xududiy iqtisodiy integratsiyaga erishish va bundan tashqari iqtisodiyotning oliy bosqichi sifatida Trans Osiyo iqtisodiy xamkorlik tashqilotiga Markaziy Osiyo xududiy xamdo'stlik a'zolarini integratsiyalash edi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik tashqiloti a'zolari tomonidan oldindan rejalashtirilgan asosiy yo'nalish edi.

O'rta Osiyo xududida iqtisodiyot va ta'minotni boshqarish bir-xil tizimligi, yuqori ishlab-chiqarish darajasi bir xilligi, qishloq xo'jalik ekinlarini o'xshashligi, transport va energo ta'minot yagona integratsiyani ravnaqini belgilaydi. SHular bilan bir qatorda ayrim faktorlar muxim o'rin tutadi, bular qatoriga quyidagilar kiradi:

-xududni o'z-o'zini barcha turdagi energetik, mineral va qishloq xo'jalik xom-ashyosi bilan ta'minlanish;

-sezilarli darajadagi yalpi eksport saloxiyati;

-kuchli yalpi ishlab chiqarish saloxiyati;

-mexnat resurslari va kiyosiy arzon ishchi kuchi;

-suv resurslaridan rotsional va xamkorlikda foydalanish imkoniyati;

-ekologik, iqtisodiy va siyosiy xavfsizlikni ta'minlashga erishishda maqsadlarni umumiyliigi;

Yuqorida keltirilganlarning xammasi Markaziy Osiyo xududida mamlakatlarning integratsiyasiga ob'ektiv zamin yaratadi.

1994 yil Qozog'ton Respublikasi va Q'irg'iziston Respublikalari o'rtasida integratsion salohiyatni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi bir qator tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha shartnoma imzolandi. Ushbu masalalarni xal etish o'z navbatida xududiy iqtisodiy birlashma tarkibidagi integratsion institutlar oldidagi asosiy maqsadlardan biridir. Integratsion jarayonlarini kengaytirish kompleks choralariga asosiy o'rin transport faktoriga, asosan suv transportiga ajratiladi:

Sobiq ittifoq tarqalgungacha barcha o'zining shaxsiy portiga ega bo'lmagan ittifoqdagi respublikalar o'zlarining shaxsiy portlariga ega bo'lishlariga extiyoj sezmasdilar, chunki ular Rossiya, Yukraina, Boltikbuyi respublikalari va Gruziya portlaridan teng huquqli sub'ektlar sifatida foydalanadilar.

Sobiq ittifoq tarqalib respublikalar mustaqil bo'lganidan keyin barcha o'z portiga ega bo'lmagan Respublikalar singari O'zbekiston Respublikasi xam bu soxada ancha kiyinchiliklarga uchradi. Bu kiyin masalani xal etish yo'lidagi birinchi qadam 1993 yilda Belgiyani Brussel shaxrida O'rta Osiyo respublikalari va Kavkaz mintaqasi Respublikalari, bundan tashqari Yevropa ittifoqi mamlakatlari vaqillari tomonidan Markaziy Osiyo Respublikalari Gruziya va Ozarbayjon Respublikalar orqali Kora dengizga chiqish yo'lida «Yevropa-Kavkaz-Osiyo» transport koridorini tashqil etish bo'yicha deklaratsiya qabul qilinishi bo'ldi. 1998 yil 8 sentabrda Azarbayjon Respublikasining Baku shaxrida bo'lib etgan xalqaro konferensiyada «Yevropa – Kavkaz - Osiyo» transport koridorini rivojlantirish bo'yicha ko'p tomonlama kelishuv imzolandi.

Bu esa ko'pgina mamlakatlarga shu jumladan O'zbekiston Respublikasiga xam tovarlarni transport xarajatlarini kamaytirgan xolda eng qisqa yo'llar orqali tashish imkoniyatini ochib beradi. Ushbu transport koridori orqali bir tonna pastani tashish xarajati ikki marotabaga qisqaradi. Iqtisodiy integratsiyani yuqorida keltirilgan ijobiy tomonlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasini yanada Tashqi Iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirib jaxon xamjamiyatiga integratsiyasini

chuqurlashtirsa shunchalik xalqimiz uchun va respublikamizni kelajakda rivojlanishi uchun zamin xozirlangan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) soxasidagi isloxotlar barqarorlikka erishishning qisqa muddatli masalalari yechimiga emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalishga ega bo'lsa, bu shak-shubxasiz, iqtisod samaradorligining ko'tarilishiga imkon beradi. O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni quyidagi muammolarga qaratishimiz lozimdir:

Birinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy va meyoriy-huquq asoslarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ishlarni davom ettirish juda muximdir. Amaldagi qator qonunlarga, xususan, valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, vazirliklar va davlat idoralari tomonidan qonunlar, Prezident Farmonlari, xyukumat qarorlari mazmunlarini aniqlashtiruvchi meyoriy xujjatlarni ishlab chiqish ijobiy rol o'ynashi mumkin;

Ikkinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional asoslarini mustaxkamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'nalishdagi birinchi qadamlar (eksportni ragbatlantirish bo'yicha tashqil etilgan Respublika komissiyasi faoliyati) kerakli samara bergani yo'q. Ma'muriy-boshqaruv apparati xodimlari sonini mexanik tarzda ko'paytirmasdan, amaldagi tashqiliy bo'g'inlar, muxim bo'linmalarning birlashishi, funksional qayta buysunishi va shu kabilar orqali ularning vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan xolda, respublika TIF boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish lozim. Bu o'rinda maslaxatchi organlar faoliyatlari xalqaro tajribasiga e'tiborni qaratish axamiyatga molikdir;

Uchinchidan, respublika budjet mablaglari xisobiga moliyalashtiriladigan (imkon qadar tadbirkorlar tizimi resurslarini jalb qilgan xolda) va maxsus vakolatli tashqilotlar tomonidan boshqariladigan (YAponiyaning DJETRO tashqilotiga o'xshash) tashqi savdo faoliyatining axborot bilan ta'minlanishi uchun umumdavlat tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muxim axamiyatga

ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim amalda samarali qo'llanilishining muxim sharti, axborot-maslahat xizmati idoralarining keng tarmogini tashqil etishdir. Agarda O'zbekistonda O'rta Osiyo mintaqasida axborot-moliyaviy markaz sifatida o'z o'rnini mustaxkamlay olsa, unda mamlakat salmoqli foydani qo'lga kiritadi. SHuning uchun mamlakatda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga xar tomonlama ko'maklashish va axborot biznes soxasida faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarni transmilliylashtirishni qo'llab-quvvatlash zarur. Ushbu tizim reklama-ko'rgazma ishlarini tashqil qiluvchi, axborot-maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi, marketing ma'lumotlarini yiguvchi, taxlil qiluvchi turli tarmoqlarga bo'lingan bo'lishi kerak. Tashqi iqtisodiy aloqalar muammolari bo'yicha keng ilmiy izlanishlarni tashqillashtirish va amalga oshirish xam TIF samaradorligini ko'tarishga yordam beradi;

Nihoyat, to'rtinchidan, TIFning rivojlanishiga milliy operatorlarning manfaatlarini turli xildagi xavflardan ximoya qiluvchi savdo va investitsiyalarni davlat tomonidan sug'urta qilishning diversifikatsion tizimi bevosita turtki bo'lishi mumkin. U o'zida savdoni umumiy sug'urtalash, valyuta xavflarini sug'urtalash, import uchun avans to'lovlari, xorijiy investitsiyalar va xokazolarni sug'urtalashni mujassamlashtirishi mumkin.

Tanlangan ishlab chiqarish soxalarida iqtisodni modernizatsiyalashtirish va eksportga yo'naltirish konsepsiyalariga ko'ra, davlat yangi texnologiyalarni qo'llash eki yangi bozorlarni egallashda katta moliyaviy xarajatlar talab etadigan yangi sanoat maxsulotlarini ishlab chiqish va bu soxada izlanishlar o'tkazishni qo'llab-quvvatlashi zarur. Tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) soxasidagi isloxotlar barqarorlikka erishishning qisqa muddatli masalalari yechimiga emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalishga ega bo'lsa, bu shak-shubxasiz, iqtisod samaradorligining ko'tarilishiga imkon beradi. O'zbekistonda, bizning fikrimizcha, asosiy e'tiborni quyidagi muammolarga qaratishimiz lozimdir:

Birinchiidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning qonuniy va meyoriy-huquq asoslarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ishlarni davom ettirish juda

muximdir. Amaldagi qator qonunlarga, xususan, valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, vazirliklar va davlat idoralari tomonidan qonunlar, Prezident Farmonlari, xukumat qarorlari mazmunlarini aniqlashtiruvchi meyoriy xujjatlarni ishlab chiqish ijobiy rol o'ynashi mumkin;

Ikkinchidan, TIFni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional asoslarini mustaxkamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bu yo'nalishdagi birinchi qadamlar (eksportni ragbatlantirish bo'yicha tashqil etilgan Respublika komissiyasi faoliyati) kerakli samara bergani yuk. Ma'muriy-boshqaruv apparati xodimlari sonini mexanik tarzda ko'paytirmasdan, amaldagi tashqiliy bo'g'inlar, muxim bo'linmalarning birlashishi, funksional qayta bo'ysunishi va shu kabilar orqali ularning vazifalari, huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan xolda, respublika TIF boshqaruvi mexanizmini takomillashtirish lozim. Bu o'rinda maslaxatchi organlar faoliyatlari xalqaro tajribasiga e'tiborni qaratish ahamiyatga molikdir;

Bobga doir qisqacha xulosa

Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muxim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bunday tizim amalda samarali qo'llanilishining muxim sharti, axborot-maslaxat xizmati idoralarining keng tarmog'ini tashqil etishdir. Agarda O'zbekistonda O'rta Osiyo mintaqasida axborot-moliyaviy markaz sifatida o'z o'rnini mustaxkamlay olsa, unda mamlakat salmoqli foydani qo'lga kiritadi. SHuning uchun mamlakatda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga xar tomonlama ko'maklashish va axborot biznes sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyalarni transmilliylashtirishni qo'llab-quvvatlash zarur. Ushbu tizim reklama-ko'rgazma ishlarini tashqil qiluvchi, axborot-maslaxat xizmatlarini ko'rsatuvchi, marketing ma'lumotlarini yig'uvchi, taxlil qiluvchi turli tarmoqlarga bo'lingan bo'lishi kerak. Tashqi iqtisodiy aloqalar muammolari bo'yicha keng

ilmiy izlanishlarni tashqillashtirish va amalga oshirish xam TIF samaradorligini ko'tarishga yordam beradi;

Nihoyat, TIFning rivojlanishiga milliy operatorlarning manfaatlarini turli xildagi xavflardan ximoya qiluvchi savdo va investitsiyalarni davlat tomonidan sug'urta qilishning diversifikatsion tizimi bevosita turtki bo'lishi mumkin. U o'zida savdoni umumiy sug'urtalash, valyuta xavflarini sug'urtalash, import uchun avans to'lovlari, xorijiy investitsiyalar va xokazolarni sug'urtalashni mujassamlashtirishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv qachon tuzilgan?
2. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvning asosiy tamoyillari qanday masalalarni yechishga qaratilgan?
3. SHu davrgacha GATTlar JSTni nechta raundlari o'tkazildi?
4. Bu raundlarda qanday asosiy masalalar ko'rilgan?
5. Urugvay raundining eng ahamiyatli natijasi nimadan iborat?
6. Jahon savdo tashqiloti qachon tashqil topdi?
7. O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashqilotiga qo'shilish istagini qachon bildirdi?
8. Jahon savdo tashqilotining asosiy kelishuvlari.
9. O'zbekiston Respublikasi JSTning qaysi kelishuvlariga qo'shildi?
10. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
11. Iqtisodiy integratsiya deganda nima tushunasiz?
12. Iqtisodiy integratsiya bo'yicha jaxon tajribasi to'g'risida gapiring?
13. O'zbekiston Respublikasining jaxon xo'jaligiga integratsiyasi uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
14. O'zbekiston Respublikasining Jaxon xo'jaligiga integratsiyasi integratsiyasi uchun ko'maklashuvchi qaysi faktorlarni bilasiz?

15. O'zbekiston Respublikasida kichiq biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi qaysi davlat institutlarini bilasiz?

16. O'zbekiston Respublikasida kichiq biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi qaysi davlat institutlarini bilasiz?

17. O'zbekiston Respublikasini integratsion saloxiyatini tarkibiy bo'limlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

18. O'zbekiston Respublikasini integratsion muxitini global, transkontenental, subregional, xududiy iqtisodiy birlashmalari bilan aloqalari to'g'risida gapiring.

19. O'zbekiston Respublikasini jaxon bozoriga kirishni asosiy strategiyasi to'g'risida gapiring.

20. Mustaqil Davlatlar Hamkorligi davlatlarining iqtisodiy integratsiyasi to'g'risida gapiring.

Glossariy

Ochiq savdo xududi – iqtisodiy birlashuvni eng sodda shakli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar o'zaro tovar savdosining iqtisodiy to'siqlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar.

ASEAN – a'zo mamlakatlar ochiq savdo xududi tashqil etish bo'yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo xududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

SHimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuv – 1994 yil 1 yanvarda kuchga kirgan va a'zo mamlakatlar AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari doirasida yagona tashqi savdo tarifi amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi – 1951yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashqil etish bilan boshlangan. Yevropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Yevropa mamlakatlari kirgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Amerika-O'zbekistonsavdo palatasi (AO'SP) – bu savdo palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investitsiyalari okimini ko'paytirishdan iborat.

Markaziy Osiyo xududiy xamdo'stligi (TSARS) – 1992 yanvar oyida O'rta Osiyo respublikalari birlashib, mamlakatlararo iqtisodiy birlashma sifatida tuzilgan.

«Erkin savdo bo'yicha Lotinamerikasi assotsiatsiyasi» (LAFTA) va **«Markaziy-Amerika mamlakatlari umumiy bozori» (MAUB)** – 1960 yilda Lotin Amerikasi mamlakatlarini ichki bozorini xududiy savdosi oldidagi ayrim iqtisodiy to'siq va boshqa iqtisodiy siyosat choralaridan ozod etish maqsadida tuzilgan.

SHimoliy Afrika rivojlanish kordinatsion konfrensiyasi (SHAKK) – 1980 yilda tuzilgan bu kordinatsion konfrensiya SHimoliy Afrika mamlakatlari o'rtasidaga o'zaro iqtisodiy xamkorlikni kuchaytirish maqsadida tashqil etilgan.

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi – 1964 yilda tashqil etilib, faqatgina ichki bozorda emas, balki, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining boshqa integratsion uyushmalar bilan iqtisodiy va xalqaro masalalarda xamkorlik qilish maqsadida tuzilgan.

Asosiy adabiyotlar:

1. I.A.Karimov – O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T: O'zbekiston, 1999 y
2. V.K.Lomakin – Mirovaya ekonomika, P-izd., Ucheb., M. YUNITI, 2004 g.
3. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Ucheb., M: Prospekt, 2004 g.
4. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya. Ucheb., M: Infra-M, 2004 g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001 y.

2.O'zbekiston Respublikasini «Boj tarifi to'g'risida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997 y

3.Rossiyskoe tamojennoe pravo. Uchebnik dlya vo'zov. Ryukovoditel avtorskogo kollektiva i otvetstvenniy redaktor doktor yuridicheskix nayuk, professor Gabrichidze B.N. - M.: Izd. Norma, 2000.

4.I.V.Malkova – Mirovaya ekonomika, V voprosax i otvetax. M., Prospekt, 2004 g.

Glossariy

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi bojxona ittifoqi – bu ittifoqqa a'zo mamlakatlar. Iqtisodiy va sotsial rivojlanishning zamonaviy integratsion jarayonlarni rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib - xududiy savdo iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar tashqil etish va rivojlantirish xisoblanadi.

GUAM – Gruziya Respublikasi, Yukraina Respublikasi, Azarbayjon Respublikasi va Maldova Respublikalarining iqtisodiy birlashmasi .

«**Tarif va savdo erkinliklari bosh kelshuvi**» (**GATT**) – 1947 yilda a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoni ekinlashtirish xamda to'siqlarni olib tashlash maqsadida tuzilgan.

Butunjaxon bojxona tashqiloti – 1994 yildan «Tarif va savdo erkinliklari bosh kelishuvi» (GATT)ning davomchisi sifatida yuqoridagicha atala boshladi. Bu tashqilotga 150 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan. SHu jumladan O'zbekiston Respublikasi xam kuzatuvchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bojxona ittifoqi – ittifoqqa a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va ittifoqqa a'zo bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shug'ullanuvchi va buni ustidan nazorat olib boradigan iqtisodiy birlashmadir.

Yagona yoki umumiy bozor – kapital va mexnatning erkin xarakati ta'minlaydigan iqtisodiy birlashma xisoblanib, u Xalqaro savdoda bojxona

poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish bilan shug'ullanuvchi birlashmadir.

Yevropa birlashmasi – 1951yilda Parijda ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashqil etish shartnomasining imzolanishi natijasida tashqil etilgan. Unda 6 ta Yevropa mamlakatlari a'zo bo'lgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

1-ilova

Jahon savdo tashqilotining maqsadlari, vazifalari va tashqiliy stryukturasi

Xalqaro bojxonachilar kuni nafaqat dunyo davlatlari bojxona xizmatlarining o'zaro hamkorligini namoyish etish, balki iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishishda bojxonaning muhim ishtirokiga yana bir karra keng jamoatchilik e'tiborini jalb qilish imkonini beradi. Mazkur sanani dunyodagi 800 mingdan ziyod bojxonachilar keng nishonlaydi.

O'zbekiston ham 1992 yil 28 iyuldan beri mazkur tashqilotga a'zo hisoblanadi. Mamlakatimiz 15 ta xalqaro bojxona konvensiyasining a'zosi bo'lib, bugunga kelib Jahon bojxona tashqiloti ishida faol ishtirok etmoqda. O'zbekistonning 1995 yilda Siyosiy komissiya a'zosi etib, 2001 yilda esa Moliya qo'mitasi tarkibiga saylanishi ham mamlakatimiz xalqaro bojxona hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilganidan dalolat beradi. Ushbu ko'p yillik hamkorlik respublikamiz huquqiy bazasini xalqaro konvensiyalar va bojxona ishining boshqa xalqaro me'yorlariga yaqinlashtirishga imkon berdi. Bojxona sohasidagi qonunchiligimiz umumqabul qilingan xalqaro standartlar, me'yorlar va amaliyot bilan birxillashtirish hamda uyg'unlashtirish yo'nalishida rivojlanmoqda, bu esa respublika bojxona siyosati yutuqlarini mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim dalili xisoblanadi.

Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida xalqaro konvensiyaning (Kioto konvensiyasi) 1999 yil iyunda ma'qullangan yangi versiyasi JBTning eng katta va muhim yutug'iga aylandi. Kengashning 2005 yildagi sessiyalarida Xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirishning hadli standartlari qabul qilinishi ham xalqaro bojxona hamjamiyati uchun muhim voqea xisoblanadi.

Halqaro hamkorlik borasida O'zbekiston bojxonasi uchun o'tgan 2014 yil samarali bo'ldi deyish uchun barcha asoslar mavjud.

Jumladan, Jahon bojxona tashqilotiga a'zo davlatlar bojxona xizmati rahbarlari shu yilning iyun oyida Belgiya poytaxti Brusselda tashqilotning navbatdagi sessiyasida ishtirok etishdi.

Kengashning bu yilgi yigilishida Jahon savdo tashqiloti bilan savdo jarayonlarini yanada osonlashtirish bo'yicha Kelishuvi, yovvoyi xayvonlarning noqonuniy savdosi yuzasidan bojxona hamkorligi kabi masalalar muxokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston tomonidan Davlat bojxona qo'mitasi Raisi Z.Dusanov ishtirok etdi.

SHuningdek, Davlat bojxona qo'mitasi taklifiga binoan Jahon bojxona tashqilotining nufuzli ekspertlari Toshkentga tashrif buyurishdi va Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan Oliy harbiy bojxona institutida "Xavfni boshqarish" mavzusida tashqil etilgan seminarlarda ishtirok etishdi.

Davlat bojxona qo'mitasining bir qator xodimlari Belgiya, Ozarbayjon va Qozog'istonda xizmat safarlarida bo'lib, Jahon bojxona tashqiloti tomonidan tashqil etilgan turli o'quv-amaliy tadbirlarda faol qatnashishdi.

O'zbekiston va xalqaro tashqilotlar: bojxona sohasida hamkorlik

Davlat bojxona qo'mitasining xalqaro bojxona hamkorligi faqatgina Jahon bojxona tashqiloti bilan kifoyalanmaydi. Respublikamiz bojxona organlari boshqa yirik xalqaro tashqilotlarning ham bojxona ishiga doir dastur va loyihalarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

Jumladan, BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik boshqarmasining giyohvand moddalarning noqonuniy aylanuviga qarshi kurashish bo'yicha tajriba

almashishga doir xalqaro tadbirlarida, Shanxay hamkorlik tashqilotining Bojxona hamkorligi bo'yicha maxsus ishchi guruhi yig'ilishlarida, MDH Bojxona xizmatlari rahbarlarining kengashi majlislari, Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi dasturi, YAponiyaning JICA va Koreyaning KOIKA xalqaro hamkorlik bo'yicha tashqilotlari o'quv kurslarida faol ishtirok etib kelinmoqda.

Jumladan, 2014 yil aprel oyida Almati shahrida Shanxay Hamkorlik Tashqilotiga a'zo davlatlarning bojxona hamkorligi bo'yicha Ishchi guruhining 21-majlisi bo'lib o'tdi. Unda Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston va tashqilot kotibiyati vaqillari ishtirok etishdi.

Yig'ilish ishtirokchilari tashqilotga a'zo davlatlar o'rtasida Xavfni boshqarish tizimini qo'llash va rivojlantirish bo'yicha Memorandum, huquqni muhofaza qilish sohasida tashqilotga a'zo davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi bo'yicha Protokolni imzolashdi.

Tadbirda SHHTga a'zo davlatlarning bojxona xizmatlari o'rtasida Intellektual mulk huquqini himoya qilish bo'yicha Memorandum doirasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlar tinglandi va aniq chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, mazkur yo'nalishda ma'lumotlar almashinuvining aniq tartiblari ishlab chiqildi. Bojxona sohasidagi halqaro hamkorlikning o'zviy bo'lagini kinologiya xizmati tashqil qiladi. O'tgan yilning oktabrida Davlat bojxona qo'mitasi kinologlari Almati shahrida MDHga a'zo davlatlar bojxona xizmatlarining kinologik tuzilmalari o'rtasida to'rtinchi bor o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etishdi. Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasi vaqillari ishtirokida giyohvand moddalarni izlash yo'nalishida o'tkazilgan musobaqa natijalariga ko'ra O'zbekistonlik kinologlar faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Axborot texnologiyalari – bojxona xizmatiga!

Hozirgi kunda davlat bojxona xizmati organlari tomonidan respublika bojxona organlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha 2011-2015 yillarga mo'ljallangan dastur ijrosini ta'minlash maqsadida yirik xalqaro

tashqilotlarning va rivojlangan davlatlarning grant mablag'lari va texnik ko'magini jalb etishga oid qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada respublikamizning bir qator chegara bojxona postlari zamonaviy katta hajmdagi temir yo'l va mobil skaner qurilmalari bilan jihozlanmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan chegaraga tutash bojxona postlarini yoritish uchun taqdim etilgan beg'araz yordamdan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2014 yil 14 yanvardagi PQ-2110 Qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyati bojxona boshqarmalarining bir qator bojxona postlari katta hajmdagi yuk avtotransport vositalari va temir yo'l vagonlarini skaner qiluvchi nazorat-ko'rik majmualari bilan ta'minlandi.

CHegara bojxona postlariga o'rnatilgan mazkur skaner qurilmalari yurtimiz sarhadlari orqali o'tayotgan katta hajmdagi yuk avto transport vositalarini hamda temir yo'l vagonlari sostavini bir necha soniya ichida to'liq skanerdan o'tkazish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida bojxona ko'rigi samaradorligini yanada oshirib, bojxona ko'rigi uchun ketadigan vaqtning sezilarli darajada qisqarishiga xizmat qiladi.

Qolaversa hozirgi kunda barcha davlatlarga xavf solayotgan giyohvand moddalarning noqonuniy aylanuvi, kontrabanda va bojxona qoidalarining buzilishiga qarshi kurashishda samarali yordam beradi. Mazkur texnik nazorat vositalari bojxona nazoratini yengillashtirish va tezlashtirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlariga ham o'z o'rnida qulayliklar yaratadi. Mazkur nazorat-texnik vositalarini qo'llash, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bojxona organlari xodimlaridan maxsus bilim va malaka talab etadi. SHu maqsadda, bir qator xamkasblarimiz xorijiy davlatlarda maxsus tayyorgarlik kurslarida qatnashib, o'z tajribalarini orttirib qaytishdi.

Bundan tashqari Koreya Respublikasi hyukumati grantlarini jalb etgan holda O'zbekistonda "Yagona darcha" tizimini joriy etish orqali, tadbirkorlik sub'ektlariga qulayliklar yaratishga qaratilgan loyiha ustida ham ishlar olib borilmoqda. Mazkur "Yagona darcha" loyihasi ustida koreyalik ekspertlar va

O'zbekistonning manfaatdor vazirlik va idoralari vaqillari ishtirokida uchrashuv va muhokamalar o'tkazildi. Ayni paytda mazkur loyihaning axbort tizimini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro kasb bayrami arafasida respublikamiz bojxona xizmati an'anaga ko'ra o'tgan yildagi o'z ishi yakunlarini sarhisob qilishadi. 2014 yil bojxona sohasida nihoyatda samarali yil bo'ldi.

Masalan, 2014 yil 1 maydan boshlab Davlat bojxona qo'mitasi Internet tarmog'ida yangi takomillashtirilgan veb-saytini ishga tushirdi. Avvalgi versiyalardan farqli o'laroq, yangi saytda axborotlar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va jismoniy shaxslar uchun alohida tarzda taqdim qilib kelinmoqda. Sayt orqali ko'rsatiladigan 20 ga yaqin barcha interaktiv xizmatlar yagona "Interaktiv xizmatlar" bo'limiga biriktirildi.

Bundan tashqari bojxona chegaralari kesib o'tayotgan jismoniy shaxslar to'ldirishi lozim bo'lgan yo'lovchi bojxona deklaratsiyalarini aynan sayt orqali to'ldirib, xato va kamchiliklarni tuzatgan holda chop etib, chegara-bojxona postiga taqdim etish imkoniyati joriy qilindi. Bojxona ishining yagona qonunchilik bazasini xalqaro standartlarga mos ravishda shakllantirish, bojxona ma'murchiligining barcha bosqich va darajalarida huquqiy norma va yondashuvlarni bir xilda qo'llanilishini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2014 yil 3 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi bojxona kodeksi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha" 219-sonli farmoyishiga muvofiq o'tgan yilda yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi loyihasini ishlab chiqish jarayonlari yanada jadallashti.

O'z mohiyatiga ko'ra ushbu qonun loyihasi amaldagi Bojxona kodeksidan tubdan farq qiladi. Unda boshqarishning iqtisodiy usullari ustun turadi. Loyihaning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, u tovarni olib kirish va olib chiqishdan boshlab, uning taqdirini belgilashga qadar butun eksport-import zanjirini tartibga solishni nazarda tutadi. Amaldagi Bojxona kodeksi esa ushbu masalalarni bunday kompleks ravishda qamrab olmagan edi.

2014 yilda bojxonachilar tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralar bilan hamkorlikda 23 mingdan ortiq qonunbuzarlik holatlari aniqlanib, qiymati salkam 155 mlrd. so'm bo'lgan tovar-moddiy boyliklar daliliy ashyo sifatida ushlab qolindi. SHuningdek, o'tgan yilda davlat budjetiga undirilgan bojxona to'lovlari 2013 yilga nisbatan 25,6 %ga ko'payishiga erishildi.

Bunday natijalarga asosiy e'tiborni bojxona tizimini isloh qilish, kadrlar potentsialidan unumli foydalanish, bojxona qonunchiligini takomillashtirish, bojxona nazoratini va kontrabandaga qarshi kurashni kuchaytirish, faoliyatga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish, tovarlarning haqiqiy miqdori va qiymatidan kelib chiqib bojxona to'lovlarini undirish evaziga erishilmoqda. Bojxonachilarning mashaqqatli va sharaflil mehnati hamisha e'zozlanib, munosib e'tirof qilib kelinmoqda. O'tgan yilda bojxona organlarida o'rnatilgan xizmat qilib kelayotgan 7 nafar xodimlar, joriy yilda esa 2 nafar bojxona xodimlari Prezidentimiz qarori asosida davlatimizning yuksak myukofotlariga sazovor bo'lishdi.

Bu esa respublikamiz bojxona organlarida ma'suliyat va sharaf bilan xizmat qilayotgan bojxonachilarimiz faoliyati munosib e'tirof etilayotganidan dalolatdir.

Xalqaro savdo tashqiloti (XST) tashqil etish zarurati XX asrning o'rtalarida dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. 1947 yil 21 noyabrdan 1948 yil 24 martgacha Gavanada bo'lib o'tgan BMT Konferensiyasida 56 mtm ishtirokida xalqaro savdo hamkorligining Gavana nizomi loyihasi tayyorlandi. BMT tizimida yangi ixtisoslashgan muassasa bo'lishi lozim bo'lgan XST tashqil etish haqidagi qoidalar Gavana nizomining asosiy qoidalariga aylandi. Gavana nizomi 53 ta ishtirokchi-davlat tomonidan imzolangan Konferensiya YAKuniy dalolatnomaasiga ilova qilindi. Gavana nizomi 27 davlat, ya'ni uni imzolagan davlatlarning ko'pchiligi ratifikatsiya qilganidan so'ng kuchga kirishi ko'zda tutildi, lekin aslida uni atigi ikki davlatgina ratifikatsiya qildi, qolgan davlatlar, jumladan, AQSH oxir-oqibatda o'z loyihasidan voz kechdi.

XST tashqil etish bilan bog'liq muvaffaqiyatsizlik jahon savdosini erkinlashtirish borasidagi harakatlarni to'xtatib qo'ymadi, bu harakatlar torroq

yo'nalishga – boj-tarif masalalarini tartibga solishga borib taqaldi. 1947 yil, XST tashqil qilish sharttlari va imkoniyatlari muhokama qilinayotgan bir paytda 23 mamlakat vaqillari Jenevada Gavana nizomining 17-moddasiga muvofiq tarif yon berishlari haqida muzokaralar o'tkazish haqida kelishib oldilar. Natijada 1947 yil 30 oktabrda bu davlatlar uning boshqa davlatlarning ham izolashi uchun ochiqligini ko'rsatgan holda Jenevada Tariflar va savdo haqida bosh bitim (GATT - ingl. General Agreement on Tariffs and Trade) imzoladilar.

GATT 1948 yil 1 yanvardan kuchga kirdi. Keyinchalik ushbu Bitimga boshqa davlatlarning asta-sekin qo'shilish jaaroni muvaffaqiyatli bo'lib chiqdi. Huquqiy ma'noda GATT xalqaro tashqilot hisoblanmagan va BMT tizimiga ixtisoslashgan muassasa huquqlarida kirmagan.

GATT faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslangan: haq-huquqni cheklashsiz (diskriminatsiyasiz) savdo; bozorlarga oldindan aytish mumkin bo'lgan va kengayayotgan kirish; adolatli raqobatga xizmat qilish; bojxona bojlari yordamida iqtisodiy suverenitetni himoya qilish; davlatlarda iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish.

GATT asosiy funksiyalari sifatida quyidagilar belgilangan: ko'p taraflama bitimlar bo'yicha ma'muriy ishlar; jahon savdosining holatini kuzatib borish va uni boshqarish bo'yicha maslahatlar berish; ko'p taraflama savdo muzokaralari uchun forum rolini bajarish; nizolarni tartibga solishda murosa mexanizmlarini ta'minlash; xalqaro tashqilotlar bilan global savdo siyosati muammolari bo'yicha hamkorlik qilish.

Tashqi savdoni tartibga solish bilan bog'liq nizolarni hal qilishning institutsional mexanizmi va tashqi savdoni har qanday tartibga solishning universal amal qiladigan mexanizmi yaratish masalasi texnik jihatdan GATT qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan qator yillar davomida savdo bo'yicha bitimlar shaklida natija olish maqsadida yuritilgan va mos ravishda muzokara raundlari deb atalgan ko'p taraflama savdo muzokaralari (KTSM-MTP) kabi huquqiy vosita yordamida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan. GATT doirasida MTP o'tkazish

muntazamligi va umumiy yo'nalishga egaligi ularni GATT doirasida amal qiladigan huquqiy institut sifatida tasniflashga imkon berdi.

1947 yildan 1993 yilgacha bo'lgan davrda bunday raundlardan sakkiztasi o'tkazilgan bo'lib, ularning eng muhimi – Urugvay raundi (1986-1994 yy., Jeneva) Jahon savdo tashqiloti (WTO - ingl. World Trade Organization) tashqil etilishiga olib keldi. Urugvay raundi 1994 yilning aprel oyida Marokashda WTO ta'sis etish haqida Bitim (bundan keyin – WTO haqida Bitim) imzolanishi bilan yakunlandi. Tashqilot to'zuvchilarning fikriga ko'ra, Bitim «barcha xalqlar manfaatlarida adolatliroq va ochiqroq ko'ptaraflama savdo tizimi doirasida ishlashga intilishni kengroq aks ettirib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikda yangi davr boshlanganini bildiradi». U turli masalalar bo'yicha 20 dan ortiq bitimdan iborat bo'lgan (bundan keyin - GATT-94 bitimlari, chunki ularning asosida 1947 yilgi, lekin 1994 yil tahriridagi GATT yotadi). GATT-94 bitimlari orasida ikkita hujjatga alohida rol ajratilgan. Bu Final dalolatnomasi va WTO ta'sis etish haqida Bitimdir.

Final dalolatnomasi (Final Act) MTP Urugvay raundi natijalaridan iborat bo'lib, WTO ta'sis etish haqida Bitim, shuningdek, vazirliklarning qarorlari va deklaratsiyalari, moliyaviy xizmatlar sohasidagi majburiyatlar haqida kelishuvlar yakuniy dalolatnomaning ajralmas qismi sanalishini ko'zda tutadi. Final dalolatnomasi ishtirokchi-davlatlarning milliy bozorlar ochiqligini ta'minlash bo'yicha majburiyatini ifodalaydi. Ushbu majburiyatga muvofiq qatnashchi-davlatlar tarif va notarif to'siqlarini qisqartarishni amalga oshiradilar. WTO ga a'zo bo'lib kirishda kelishuvlar umumiy tizimiga har bir davlat o'z zimmasiga oladigan majburiyatlar milliy ro'yxatlari (national schedules) kiritiladi. 550 betdan iborat bo'lgan bitimlar matnlari bilan birgalikda, erishilgan kelishuvlar umumiy matni, jumladan, WTO a'zo mamlakatlar milliy majburiyatlarini qo'shganda – 26 ming betdan ortadi.

WTO ta'sis etish haqida Bitim (Agreement Establishing the World Trade Organization) strukturasiga vazirliklar darajasidagi qatnashchi-davlatlar konferensiyasi (ikki yilda bir marta o'tkaziladi) va doimiy asosda GATTLar WTO bitimlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradigan, shuningdek, Nizolarni hal

qilish haqida kelishuvda ko'zda to'tilgan nizolarni hal qilish bo'yicha Organ (Understanding on Rules and Procedures Governing the Settlement of Disputes) savdo siyosatini sharhlash bo'yicha Organ (Trade Policy Review Mechanism) funksiyalarini bajaradigan Bosh kengash kiradigan mustaqil institut sifatida WTO tashqil qilishga aloqadordir. WTO strukturasiga shuningdek, bosh direktor tomonidan boshqariladigan Sekretariat ham kiradi (unga tashqiliy masalalar yuklatiladi).

Ushbu bazis hujjatlar tufayli GATT-94 doirasida erishilgan barcha hujjatlar va kelishuvlar umumiy jahon savdo tizimini tashqil qiladi.

GATT-94 paketiga shuningdek, quyidagi bitimlar kiritilgan.

Savdo bilan bog'liq investitsion chora-tadbirlar bo'yicha Bitim - TRIMS (Agreement on Trade Related Investment Measures) GATT III-modda (milliy rejim) va XI-moddasiga (tashqi savdoni tartibga solishda miqdoriy cheklovlar belgilanishini taqiqlash) zid keladigan tartibga solish choralari ko'rgazmali ro'yxatini o'z ichiga oladi. Mazkur Bitimga ko'ra WTO qatnashchisi bo'lgan davlatlar bunday choralar ko'rilganda ikki yil (sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun) yoki besh yil (rivojlanayotgan mamlakatlar uchun) davomida WTO ni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

GATTga mos kelmaydigan chora-tadbirlar ro'yxatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi tijorat tashqilotlari faoliyatini tartibga solishga doir chora-tadbirlar kiradi. Masalan, ayrim mamlakatlar qonunchiligida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashqil qilish ko'pincha «milliy tarkibiy qism» talabi bilan, ya'ni ko'pincha xorijiy investorlarning chet el investitsiyalari ishtirokidagi tijorat tashqilotlari tashqil qilish yoki tadbirkorlik faoliyati yuritishga ruxsat olishi uchun shart sifatida foydalaniladigan ichki muammolarni hal qilish (masalan, ichki mahsulot bozorida bunday korxonalar sotuvini oshirish, xorijiy investorlarning ishlab chiqarish jarayonida milliy tovarlardan, shuningdek, mahalliy ishchi kuchidan foydalanishi) bilan bog'lanadi. TRIMS qoidalariga ko'ra «milliy tarkibiy qism» talabiga, shuningdek, biznes bo'yicha xorijiy hamkor yoki chet el investitsiyalari ishtirokidagi tijorat tashqiloti tomonidan majburiy eksport,

belgilangan bozorga majburiy yetqazib berish, texnologiyalar uzatish va boshqalar yo'l qo'yilmaydi.

Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh Bitim - GATS (General Agreement on Trade in Services) WTO qatnashchisi bo'lgan barcha davtlar qabul qiladigan umumiy majburiyatlarni, shuningdek, majburiyatlar milliy ro'yxatlarida qayd etilgan alohida tarmoqlar va xizmat turlari bo'yicha muayyan majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Xizmatlar bozori ochiqligi bo'yicha sektoral (maxsus) majburiyatlar xorijiy ta'minotchilarning xizmatlar ichki bozoriga kirish uchun ochiqlik darajasini va ularning faoliyat shartlarini belgilab beradi. GATS xususiyati shundaki, ushbu Bitim milliy rejim qo'llanishini ko'zda tutmaydi. Majburiyatlar tariqasida xizmatlar ta'minotchilari bozorda faoliyat yuritish uchun rioya qilishi lozim bo'lgan talablar maksimal darajasini belgilab beradigan tartibga solish choralari qayd qilinadi.

Davlatning xalqaro majburiyatlari ob'ekti tashqi savdoni tartibga solish choralari emas, faqat ichki qonunchilik hisoblanishi sababli davlat organlarining xizmatlar bozorida tez va to'g'ri ma'muriy qaror qabul qilishiga imkon beradigan umumiy qonunchilik tizimi yaratish bunday majburiyatlarni ijro etishning asosiy shartiga aylanadi. Bunday qonunchilik tizimi yuridik va jismoniy shaxslar qatnashchisi sanalgan tadbirkorlik munosabatlarini qamrab olishi ko'zda to'tilgan. qonunchilik tizimiga asos qilib monopol tuzilmalarga (jumladan, xizmatlar ta'minotchilari, alohida huquqlardan foydalanuvchi ta'minotchilarga) milliy bozorda o'zining bozordagi monopol holatini suiiste'mol qilishga imkon bermaydigan me'yorlar olinishi lozim.

GATS xizmatlar sektoriga investitsiyalar va savdoni qamrab olgan ilk ko'p taraflama bitimga aylandi. CHeklaydigan ishbilaronlik amaliyoti doimo WTO a'zo davlatlarida xizmatlar bozorini tartibga soluvchi organlarning diqqat-e'tibori markazida bo'ladi. Bitim ishtirok etuvchi davlatlarning xizmatlar bozoridagi avtorizatsiya, litsenziyalash va sertifikatlash tamoyillariga bo'lgan talablarni bajarishi bo'yicha majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

Intellectual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha Bitim - TRI PS (Agreement on Trade Related Aspects of Intellectual Property Rights) mualliflik huquqlari (jumladan, kompyuter dasturlari, savdo belgilari va xizmat ko'rsatish belgilariga egalik huquqlari) va patent huquqlarigisha daxldordir. TRI PS WTOga a'zo-davlatlarning qonunchilikda milliy va xorijiy huquq egalarining intellektual mulk huquqlarini himoya qilish usullari va jarayonlari ko'zda tutilishi borasidagi talabdan iborat. WTOga a'zo-davlatlar tomonidan intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha ko'riladigan qonun choralari samarali va adolatli bo'lishi lozim.

YUqorida sanab o'tilgan Bitimlar jahon savdo tizimining asosiy elementlari hisoblanadi. Unda ishtirok etuvchi davlatlar tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlartizimli ravishda o'zaro bog'liq bo'lgan holda, bir-biridan ayri bo'la olmaydigan investitsiyalar va tashqi savdo tushuniladigan xalqaro savdoni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Tashqi savdo qonunchiligi importchi-mamlakat hududida ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirishga yoki agar qonunchilik unga TIF amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, investorning bunday faoliyatni amalga oshirishga qiziqishini pasaytirishga qodir. Savdo va investitsiyalarning o'zaro bog'liqligi «bozorlar ochiqligi» tushunchasida ifodalanadi. Bozorlar ochiqligigi va ularga kirishni ta'minladigan qonunchilik yaratish GATT-94 Bitimlarida taklif etilgan doiralarda tartibga solish choralaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

WTO haqidagi bitim 1995 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirgan (bir yil davomida u GATT bilan parallel ravishda amal qilgan). 1996 yil 1 yanvardan boshlab WTO o'z ishdoshining o'rnini to'liq egalladi.

WTO xalqaro savdo masalalari bo'yicha o'zaro bog'liq xalqaro bitimlar tizimigina ifodalamaydi; u Bitimga Ilovaga kiritilgan huquqiy hujjatlar bilan bog'liq va bitimlarga masalalarda qatnashchilar o'rtasida savdo munosabatlarini amalga oshirish uchun umumiy institutsional doiralar ham yaratadi.

WTO asosiy funksiyalari qatorida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, WTO ishtirokchi davlatlarning milliy savdo siyosatini va ularning o'zaro bog'liq bitimlar talablarini bajarishini nazorat qiladi, shuningdek,

tashqi savdoni tartibga solish qoidalariga amal qilishini ta'minlash uchun ko'zda to'tilgan chora-tadbirlardan foydalanadi.

Ikkinchidan, WTO xalqaro savdoning o'sishi va uni tartibga solish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish maqsadida ko'p taraflama muzokaralar tashqilotchisi hisoblanadi.

Uchinchidan, WTO umum e'tirof etilgan xalqaro sud funksiyalarini bajaradi, bu esa ishtirokchi davlatlar hyukumatlariga jahon bozoridagi o'yin qoidalarini buzilsh bilan bog'liq nizolarni hal qilishga imkon beradi.

To'rtinchidan, WTO boshqa xalqaro iqtisodiy (hyukumat va nohyukumat) muassasalar bilan qalin hamkorlik qilib, shu tariqa global iqtisodiy makonni shakllantirishda ishtirok etadi. Bundan xususan, WTO yetakchixalqaro tashqilotlar, jumladan, Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Konferensiyasi (YUNKTAD), Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki bilan hamkorlik haqida to'zgan qator bitimlar ham dalolat beradi. Ushbu bitimlarda axborot almashinish va ishbilarmonlik aloqalari, harakatlar muvofiqlashtirilganligi va faoliyatda bir-birini takrorlashning bartaraf etilishi ko'zda tutiladi.

Ko'rsatilgan xususiyatlar WTO ni ko'p taraflama savdo tizimi sifatida tavsiflashga imkon beradi. Bunday tizim ishlab chiqarish va tadbirkorlik uchun adolatli raqobat sharoitida xalqaro savdoni rivojlantirish uchun zarur shart hisoblangan barqarorlik va oldindan aytish mumkinligi muhitini yaratadi. Xalqaro savdo tizimi mavjudligi investitsiyalar va xalqaro savdo hajmining ortishiga xizmat qiladi, bu esa WTO a'zo-davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi va yangi ish o'rinlari yaratilishi bilan bog'liq.

WTO millatlar uzra xalqaro organlar tashqil etilishini ko'zda tutmaydi. Uning Yevropa Ittifoqi kabi integratsion turdagi tashqilotlardan asosiy farqi shunda. Barcha qatnashchi-davlatlar o'z suverenitetiga asoslangan holda, ushdu davlatlar hududida amal qiladigan tashq iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish me'yorlarini ishlab chiqadilar va qabul qiladilar. GATTlar WTO Bitimlari me'yorlari ushbu davlatlar hududida xuddi xalqaro shartnomalar me'yorlari kabi tartibda joriy qilinadi.

2006 yilning 1 yanvar holatiga WTO qatnashchilari 149 davlat sanaladi, bunda ularning faqat 21 tasi yangi a'zo hisoblanadi, jumladan, Qirg'iziston (1998), Latviya, Estoniya (1999), Gruzija (2000), Litva, Moldaviya (2001), Armaniston (2003) 1995 yil 1 yanvardan keyin ushbu tashqilotga a'zo bo'lgan.

30 dan ortiq davlat WTO kuzatuvchisi maqomiga ega, jumladan, Ozarbayjon, Belorussiya, Qozog'iston, Rossiya, Tojikiston, Ukraina, O'zbekiston WTOga qo'shilishning turli bosqichlarida turibdi.

WTO ga a'zo bo'lgan davlat quyidagi huquqlarga ega:

- xalqaro savdo haqida batafsil axborot olish;
- xorijiy hamkorlarni xalqaro savdodagi milliy manfaatlar xususiyatlari bilan tanishtirish;
- xalqaro savdoda milliy manfaatlarni himoya qilish;
- dunyoda savdo iqlimi shakllantirishga ta'sir ko'rsatish.

WTO ga a'zo bo'lgan davlat majburiyatlari quyidagicha:

- tashqi iqtisodiy savdoni faqat iqtisodiy usullar bilan tartibga solish;
- WTOda muvofiqlashtirilgan bojxona bojlari darajasidan oshmaslik;
- bojxonada tartibga solishning notarif vositalari qo'llashni chegaralash;
- eksport tovarlar narxini pasaytirmaslik va demping narxlari bo'yicha tovarlar xarid qilmaslik;
- milliy iqtisodiyot holati, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi savdo, shuningdek, boshqa davlatlarga taqdim etiladigan imtiyozlar haqida WTOni muntazam xabardor qilib turish.

WTOda qabul qilingan hujjatlar va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida WTOga qo'shilish maxsus taomili mavjud bo'lib, unga muvofiq qatnashchi-davlat o'zaro manfaatlilik shartlarida taqdim etiladigan savdo chegirmalarini muvofiqlashtirish maqsadida ikki taraflama savdo muzokaralari o'tkaziladi. WTOga qo'shilayotgan davlatning ichki qonunchiligining amaldagi holatiga, shuningdek, unda GATT-94 Bitimlarida mavjud bo'lgan xalqaro savdo qoidalarida qarama-qarshiliklar yo'qligiga alohida e'tibor qaratiladi. WTOga qo'shilish masalasi maxsus tashqil etiladigan ishchi guruh tomonidan qabul qilinadi.

Milliy qonunchilikda WTO xalqaro savdo qoidalariga zidlik mavjudligi WTOga qo'shilish uchun to'siq bo'lmaydi. WTOga qo'shilish istagida bo'lgan davlat xalqaro savdoda uning qonunchiligida mavjud normativ ko'rsatmalar yaratadigan u yoki bu to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha majburiyatlar ro'yxatini to'zadi. U davlatning iqtisodiy barqarorligi va xavfsizligini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatmani saqlash huquqiga ega bo'lib, bu WTO sekretariatiga WTOga a'zo bo'lib kirishda taqdim etiladigan hujjatlarda qayd etilishi lozim. WTOga a'zo davlatlar uchun sekretariatda saqlanadigan qo'shilish haqidagi hujjatlar davlatning savdo-iqtisodiy siyosati haqida umumiy tasavvur yaratadi. SHu tariqa WTO TIFni huquqiy tartibga solishning u yoki bu choralarni qo'llashda ishtirokchi-davlat harakatlarida ochiqlik va aniqlikka erishadi.

GATT doirasida tuzilgan va WTO xalqaro savdo tizimiga kiradigan xalqaro bitimlar to'rt tamoyilga asoslanadi:

Ichki bozorni boj tariflari yordamida himoya qilish – alohida holatlarni istisno qilganda, miqdoriy cheklovlar qo'llashni taqiqlash bilan ta'minlanadi.

Ishtirokchi-davlatning bojni oshirmaslik majburiyati («tariflarni bog'lash»), ya'ni savdoni huquqiy tartibga solish holatini yomonlashtirmaslik. WTOga qo'shilish paytiga pasaytirilgan tariflar kelgusida oshirishning oldini olish uchun muzlatiladi (bog'lab qo'yiladi) va har bir mamlakatning tarifga yon berishlar milliy ro'yxatiga kiritiladi. Bunday ro'yxatlar GATT yuridik tizimining ajralmas qismi bo'lib ishtirok etadi.

Mumkin qadar qulaylik berish rejimi (yoki savdoda – nodiskriminatsiya tamoyili) – GATTlar WTO eng muhim qoidasi. Ushbu tamoyilga muvofiq, tariflar va boshqa tartibga solish choralari import qilinadigan va eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan mamlakatlar bo'yicha diskriminatsiyasiz qo'llanishi lozim. Savdo rejimi haqida GATTlar WTO me'yorlariga kiritilgan nodiskriminatsiya tamoyili biron-bir mamlakatga bir mamlakatdan amalga oshiriladigan importga boshqa mamlakatlardan import tovarlarga nisbatan yuqoriroq boj o'rnatishga imkon bermaydi. Ushbu tamoyil asosida GATTlar WTO se'yorlarini investitsiyalarga nisbatan ham qo'llash mumkin.

Bu qoidadan bir nechta istisnolar mavjud, masalan, mintaqaviy savdo bitimlari a'zolari o'rtasidagi savdoda (xususan, Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida Bojxona ittifoqi) preferentsial stavkalar yoki bojlardan ozod qilish qo'llanadi; imtiyozlar umumiy tizimiga muvofiq rivojlangan mamlakatlar yoki imtiyozli bojlar qo'llaydi, yoki boshqa mamlakatlardan imporoga mumkin qada qulaylik rejimi doirasida tarif stavkalari belgilab, rivojlanayotgan mamlakatlardan import bojlardan ozod etiladi.

Milliy rejim tamoyili – import qilinayotgan tovarlarga nisbatan mamlakatning o'zida ishlab chiqarilayotgan xuddi shunday mahsulotlar bilan taqqoslaganda, ichki soliqlarga tortish va ichki qonunchilikni qo'llash borasida diskriminatsiyaga to'sqinlik qiladi.

GATT doirasida MTP natijasida imzolanadigan bitimlarda *xalqaro savdo qoidalari*, ya'ni WTO a'zo davlatlar savdo siyosatini muvofiqlashtirishni ta'minlaydigan me'yorlar mavjud. Masalan, 1967 yil GATT doirasida adabiyotlarda «Antidemping kodeksi» nomini olgan GATT VI moddasini tushunish haqida Bitim, 1970-yillar boshlarida esa – subsidiyalarga taalluqli bo'lgan va adabiyotlarda «Subsidiyalar haqida kodeks» nomini olgan GATT VI, XVI va XXIII moddalarini tushunish va talqin qilish haqida Bitim imzolandi. Ikkala bitim xush kelmaydigan, nomaqbo'l tovarlar importiga to'sqinlik qilish maqsadida tarifga oid tartibga solish choralar ko'rish tartibini ko'zda tutadi. Bitimlarga kiritilgan me'yorlar – xalqaro savdo qoidalari – qaysi hollarda davlat tariflarni oshirishi va importga to'sqinlik qilishi mumkinligi va davlat tomonidan tartibga solishning bu chorasini qo'llash tartibi qanday bo'lishi belgilangan.

Antidemping kodeksiga ko'ra, antidemping bojlari joriy qilish davlat organi demping holati va tarmoqqa demping tovar importi tufayli moddiy ziyon etkazilishini aniqlashidan oldin kelishi lozim. Tarifning ortishi esa demping etkazgan zarar bilan taqqoslanadigan darajada bo'lishi va asosiysi, antidemping bojlari yuzaga kelgan muammoni hal qilish vositasi sifatida belgilangan muddatga joriy qilinishi lozim.

Xuddi shu tarzda davlat o'z eksportchisini subsidiyalagan hollarda kompensatsiya bojlari qo'llash tartibi ko'zda to'tilgan. Eksport tovar ishlab chiqaruvchilariga taqdim etiladigan davlat subsidiyalari tufayli ular tovarni tashqi bozorda ichki bozorda yuzaga kelgan bozor narxlaridan arzon sotishi va shu tariqa milliy ishlab chiqaruvchini uning o'z bozoridan chiqarib yuborishi mumkin. Importchi-davlat tomonidan kompensatsiya boji joriy qilish unga o'z mahsulotini sotish uchun jahon bozorida kurashish maqsadida insofsiz eksportchi-davlat bilan raqobat qilishga imkon beradi.

Ko'rsatilgan bitimlarga muvofiq davlat, tashqi savdoni tartibga solishning bunday choralarini ko'rар ekan, bitimlarda qabul qilingan qoidalar doirasidan chetga chiqmasligi lozim.

Xalqaro savdo qoidalari WTOga a'zo davlatlar milliy qonunchiligiga nafaqat ishtirokchi-davlat o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni bajarish zarurati tufayligina emas, balki davlatlardan birining boshqa a'zo-davlat manfaatlarini bo'zadigan TIFni davlat tomonidan tartibga solish choralari ko'rilishi tufayli vujudga keladigan nizolarda nizolarni arbitraj yordamida hal qilish mexanizmi orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Arbitraj organi qarorlari, qoidaga ko'ra, qoidani bo'zgan davlatning u yoki bu, jumladan, normativ xarakterga ega bo'lgan qarorni qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Biroq GATT-94 Bitimlari milliy qonunchilikka ko'rsatadigan ta'sirning asosiy natijasi bozor munosabatlari uchun eng yaxshi sharoitlar yaratish borasida uni takomillashtirish bo'yicha ishning umumiy yo'nalishini ta'minlash hisoblanadi.

Xalqaro savdo qoidalari ishtirokchi-davlatda biron-bir bozor qatnashchisi (milliy yoki xorijiy) uchun imtiyozli shartlar mavjudligi yoki yaratilishiga to'sqinlik qiladi. Bozor iqtisodiyotining ushbu umumiy tamoyili ijrosi GATT-94 Bitimlari bilan ta'minlanadi. SHunday qilib, xalqaro savdo qoidalari xalqaro raqobat qoidalari hisoblanadi va ma'lum darajada Yevropa ittifoqi doirasida amal qiladiganga o'xshash «raqobat haqida qonunchilik» me'yorlarini ifodalaydi (Rim shartnomasining 85, 86-moddalari). Yevropa «qonunchiligidan» farqli ravishda, WTO doirasida amal qiluvchi qonunchilik ishtirokchi-davlatning normativ

faoliyatini «tartibga soladi». Bundan tashqari, ko'rsatilgan WTO me'yorlari to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi va bevosita Bitimda ifodalangan ko'rinishda qo'llanmaydi, bu ularni bir xillashtirilgan xalqaro «qonunchilik»ning boshqa me'yorlaridan ajratib ko'rsatadi. Ular davlatning milliy huquq tizimiga mos keluvchi natija olishni ta'minlaydigan me'yorlar kiritish majburiyatini ifodalaydi.

WTO doimiy faoliyat yurituvchi xalqaro tashqilotning barcha alomatlariga ega bo'lsada, BMT tizimi doirasidan tashqarida hisoblanadi.

WTO yuridik shaxs maqomiga ega, uning har bir qatnashchisi funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatini taqdim etadi. Har bir qatnashchi-davlat WTO va uning mansabdor shaxslari, qatnashchilarining vaqillariga mos keluvchi funksiyalarni bajarish uchun zarur bo'lgan immunitet va imtiyozlar taqdim etadi.

Stryuktura jihatidan WTO uch pog'onali boshqaruv tizimiga ega.

Birinchi pog'onadan WTO barcha a'zolarining vaqillaridan iborat bo'lgan, kamida har ikki yilda bir marta o'tqazib turiladigan Ministrlar konferensiyasi o'rin olgan. Ministrlar konferensiyasi WTO funksiyalarini bajaradi, WTO bitimlariga taalluqli barcha masalalar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega.

Ikkinchi pog'onadan o'rin olgan Bosh kengash WTO barcha a'zolari vaqillaridan iborat bo'lib, u zarurat tug'ilganda yig'ilib turadi. O'z funksiyalarini bajarishdan tashqari, Bosh kengash Ministrlar konferensiyasi yig'ilishlari oralig'ida uning funksiyalarini bajaradi. Zarur hollarda Bosh kengash savdo siyosati sharhini o'tkazish bo'yicha Organ funksiyalarini bajaradi. Bosh kengash umumiy rahbarligi ostida Tovarlar savdosi bo'yicha kengash, Xizmatlar savdosi bo'yicha kengash va Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari bo'yicha kengash ishlaydi.

Uchinchi pog'ona WTO Sekretariati uchun ajratilgan bo'lib, u ko'proq texnik xarakterdagi ijroiya organi hisoblanadi, chunki ular uchun qatnashchi-davlatlarning o'zi javobgar bo'lgan mas'uliyatli qarorlar qabul qilmaydi. WTO Sekretariatining javobgarliklari Ministrlar konferensiyasini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, turli kengash va qo'mitalarga yordam berish, jahon

savdosi tahlilini o'tkazish, WTO hujjatlarini tushuntirib berish, rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'maklashish, WTOga a'zo bo'lish istagidagi mamlakatlar hukumatlariga maslahatlar berish va boshqalardan iborat. WTO Sekretariatini ushbu lavozimga Ministrlar konferensiyasi tayinlaydigan Bosh direktor boshqaradi.

Jahon savdo tashqiloti konsensus yo'li bilan qaror qabul qilish amaliyotini davom ettirmoqda. Konsensus asosida kollegial qaror qabul qilish WTOga a'zo bo'lgan har bir davlat manfaatlarini himoya qiladi. Agar o'zgacha holat ko'zda to'tilgan bo'lmasa, konsensus yo'li bilan qaror qabul qilish imkoni bo'lmagan hollarda ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qaror ovoz berish yo'li bilan (ko'pchilik ovoz asosida) qabul qilinadi.

Jahon bojxona tashqilotining maqsad va vazifalari

Jahon bojxona tashqiloti 1950 yil 15 dekabrda qabul qilingan, 1952 yilning 4 noyabridan boshlab kuchga kirgan Bojxona hamkorligi kengashi (BHT-STS) tashqil qilish haqida Konvensiya bilan ta'ris etilgan.

Bugungi kunda tashqilot 139 davlatni birlashtiradi (jumladan, Qirg'iziston va Tojikistonni istisno qilganda sobiq SSSR respublikalari).

Jahon bojxona tashqilotining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlini rivojlantirish;
- bojxona tizimlarini bir xillashtirish va uyg'unlashtirish darajasi yuqoriroq bo'lishini ta'minlash;
- bojxona texnologiyalari va bojxona qonunchiligini takomillashtirish;
- xalqaro jinoyatlarga qarshi bojxona vositalari bilan kurashni kuchaytirish.

Jahon bojxona tashqilotining oliy organi Kengash hisoblanadi. Har yillik sessiyalarda Kengash raisi va uning bir vaqtning o'zida dunyoning olti mintaqasi – Yevropa, Amerika, Afrikaning uch qismi, YAqin SHarq va Osiyo-Tinch kenai havzasi vaqillari sanalgan oltita muovini saylanadi.

Jahon bojxona tashqiloti Kengashining sessiyalarida Tashqilot faoliyatining strategik yo'nalishlari bo'yicha eng muhim qarorlar qabul qilinadi, uning oliy organlariga, shuningdek, Tashqilot sekretariati rahbar lavozimlariga saylovlar o'tkaziladi.

1986 yildan boshlab STS mintaqaviy yondashuvni amalga oshirmoqda. STS rahbarlarining fikriga ko'ra, bitta mintaqaning bojxona xizmatlari o'xshash muammolarga duch kelmoqda, shu sababli bojxona taomillari va qoidalarini, kadrlar tayyorlash va huquq-tartibot ishlarini uyg'unlashtirish va bir xillashtirish zarur. Mintaqaviy vakolatxonalarining asosiy vazifasi mintaqa davlatlarining bojxona tizimlarini uyg'unlashtirish bo'yicha STS liniyasini amalga oshirishdir. SHu boisdan ular faoliyatining asosiy masalalari STS xalqaro huquqiy hujjatlarini ilgari surish, mintaqa mamlakatlarining manfaatlarini hisobga olgan holda STS

konvensiyalariga qo'shilish maqsadga muvofiqligini tushintirish, bojxona qoidabuzarliklariga qarshi kurashish bo'yicha mintaqaviy axborot markazlari yaratish va h.k. hisoblanadi.

STS rahbar organlari 22 davlat vaqillaridan iborat bo'lgan Siyosiy komisiya, shuningdek, 17 davlat vaqillari kiradigan Moliyaviy qo'mita hisoblanadi.

Jahon bojxona tashqilotining doimiy faoliyat ko'rsatadigan ijroiya organi shtab-kvartirasi Brusselda joylashgan Sekretariat hisoblanadi. Sekretariatga 5 yil muddatga tayinlanadigan bosh kotib boshqaradi.

Rasmiy tillar – ingliz va frantsuz tili, ayrim qo'mitalar ishida ispan va rus tilidan foydalaniladi.

Jahon bojxona tashqiloti 20 dan ortiq konvensiya, 50 ta tavsiya va arim bojxona masalalri bo'yicha qator xalqaro me'yorlar doirasida ishni muvofiqlashtiradi, shuningdek, Jahon savdo tashqiloti uchun tovarlar kelib chiqishi va bojxona qiymatini aniqlash usullarini ishlab chiqish bo'yicha texnik funksiyalarni amalga oshiradi.

- Jahon bojxona tashqiloti tomonidan ishlab chiqiladigan bojxona ishini rivojlantirishning eng yangi yo'nalishlarini targ'ib qilish (masalan, elektron savdoga ko'maklashish va uni rivojlantirish, risklarni tahlil qilish uslubiyatlarini qo'llash, bir xillashtirilgan bojxona hujjatlarini qo'llash va b.);
- bojxona nazorati davomida qurol-yarog', o'q-dori, portlovchi moddalar, radioaktiv materiallar, giyohvand moddalrni samarali aniqlashga qodir bo'lgan mutaxassislar tayyorlash.

O'zbekiston temir yo'llari" Davlat Aktsiyadorlik Temir Yo'l Kompaniyasi

"O'zbekiston temir yo'llari" Davlat Aktsiyadorlik Temir Yo'l Kompaniyasi
tarixi

Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar

"O'zbekiston temir yo'llari" Davlat Aktsiyadorlik Temir Yo'l Kompaniyasi
tasarrufidagi tashqilotlar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat Aktsiyadorlik Temir Yo‘l Kompaniyasi 1994 yil 7 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi xududida joylashgan sobiq O‘rta Osiyo temir yo‘llari negizida tashqil etilgan.

Kompaniyaning asosiy yo‘llarinig umumiy o‘zunligi bugungi kunda 3645 qilomterga yaqinni tashqil etadi. Kompaniyada 54,7 mingdan ziyod kishi ishlaydi. Kompaniyaning yillik yuk aylanmasi barcha turdagi transport yuk aylanmasining 90% ga yaqinini tashqil etadi.

Hozirgi kunda kompaniya stryukturasi tubdan isloh qilinmoqda. Asosiy e‘tibor alohida sohalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga qaratilmoqda.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” Davlat Aktsiyadorlik Jamiyati Temir Yo‘l Kompaniyasi tarixi

O‘zbekistonSHarq va G‘arb o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita hisoblanadi. SHu bois respublikada yangi transport kommunikatsiyalarni (xususan temir yo‘llar) qurish juda dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston xududida temir yo‘llarning rivojlanish tarixi 1874 yildan boshlanib, u vaqtda maxsus komissiya temir yo‘lning Orenburg-Toshkent tarmog‘ini qurish zarurligini tan oldi. Biroq keyinchalik qaror o‘zgartirildi – birinchi po‘lat magistral Toshkentni Kaspiy dengizining sharq qirg‘og‘i bilan birlashtirishi kerak edi.

Kaspiyorti temir yo‘lining qurilishi 1880 yilning oktabrida boshlandi. Besh yildan so‘ng quruvchilar Ashxobodga, 1886 yilda esa – CHardjouga etib keldilar. 1888 yilning may oyida, Amudaro orqali yog‘och ko‘prik qurilgandan so‘ng, Samarqandgacha harakat ochildi. 1899 yilda yo‘l Toshkentga etib keldi.

O‘tgan asr oxirida Toshkentdan Orenburggacha yo‘l qurish masalasi ko‘ndalang bo‘lib turdi, uning qurilishi 1900 yilning ko‘zida bir vaqtda Toshkentdan va Orenburgdan boshlandi. 1906 yilning yanvar oyida Toshkent-Orenburg yo‘li ishga tushdi va O‘rta Osiyo uchun Markaziy Rossiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘l ochib berdi.

Ulug' Vatan urushi yillarida, Kavkazning mamlakat markazi bilan aloqasini ta'minlagan xolda, yo'l alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Yo'ning kengaytirish borasida choralar ko'rildi. Qisqa muddat ichida joylarda etishmaydigan material va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish uchun to'qqizta cho'yan quyish va uchta po'lat quyish tsexi qurildi. Urush yillarida Toshkent-Angren yo'li qurildi.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston temir yo'lchilari mamlakat xo'jaligini tiklashda faol ishtirok etishdi. 1970 yilda o'zunligi 1025 qilometr bo'lgan CHardjou-Qo'ngrod- Beynau temir yo'l tarmog'ining qurilishi muhim voqea bo'lib, u 1972 yilda ishga tushirildi va mamlakatning Yevropa qismiga ikkinchi muhim yo'lni ochib berdi.

Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar

temir yo'l bo'ylab yuklarni ekspeditsiyalash va yetqazib berish
temir yo'l vagonlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish
passajirlarni, turistlarni tashish
lokomotiv va vagon parkini yangilash, xizmat ko'rsatish.

Kompaniya uchun ustuvor yo'nalish quyidagi investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi:

tolali-optik tarmoqlarni qo'llash bilan aloqa kanallarini mustahkamlash;
yangi harakatlanuvchi sostavni (elektrovozlar va vagonlar) sotib olish, shuningdek borini modernizatsiyalash;
yangi temir yo'llarni qurish;
temir yo'llarni elektrifikatsiyalash;
yo'llarni kapital ta'mirlash loyihalarini amalga oshirish, kompaniya zavodlarida yo'ning yuqori qurilmasi elementlarini, ehtiyot qismlarni va h.k.larni ishlab chiqarishni tashqil etish.

Kompaniya investitsion qo'llab-quvvatlashga muxtoj bo'lgan va amalga oshgan taqdirda investorga katta daromad keltirishga umid bag'ishlovchi bir nechta loyihaga ega. "O'zbekiston temir yo'llari" DATK 1993 yildan boshlab temir yo'llar hamdo'stligi Tashqilotiga (OSJD) a'zo.

Kompaniya xalqaro temir yo'llar uyushmasi (MSJD) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi uchun BMTning Iqtisodiy komissiyasi (ESKATO) bilan yaqindan aloqa o'rnatgan. DATK Yevropa Ittifoqi Komissiyasining TESIS dasto'rining TRASEKA (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori) loyihasi bo'yicha qo'shma ish olib bormoqda.

YAgona dispatcher markazi

Poezdlar harakatlanishini boshqarish YAgona dispatcher markazidan amalga oshiriladi, bu magistralni ekspluatatsiya qilish masalalarini tezkor hal qilish, lokomotivlar va vagonlar parkining xolatini nazorat qilish imkonini beradi. Markaz ishida tashishlarni tezkor boshqarishning avtomatlashgan tizimi (ASOUP) ma'lumotlari qo'llanadi.

Poezd dispatcherining har bir ish joyi terminal bilan jihozlangan. Hisoblash texnikasining zamonaviy vositalari shuningdek stansiyalarning parklari va yo'llari, peregonlar, dispatcher uchastkasining xolatini aks ettirish, amalga oshirilgan harakatlar grafigini yuritish bilan poezdlarni o'tkazishni tashqil etishda signallar va strelkalarni boshqarish uchun qo'llanadi.

Energiya bilan ta'minlash xo'jaligi - DATK ning energiya bilan ta'minlash Xo'jaligiga 8 ta distansiya va 1 energiomontaj poezdi kiradi. O'zbekistonning temir yo'llarini elektrlashtirish 1971 yildan beri amalga oshiriladi. O'tgan yillar mobaynida quyidagi uchastkalar elektrlashtirildi: CHengeldi-SHumilovo uzunligi 65 km;

O'zbekistan-Keles va SHumilovo-Qizil-To'qimachi - 58 km;

O'zbekistan-Xavast - 130 km;

Xavast-Bekabad va Xavast-Djizak- 83 km;

Djizak-Samarkand-Marokand - 130 km;

Salar-Xodjikent

"O'zjeldorkonteyner" sho'ba korxonasi

"O'zjeldorkonteyner" sho'ba korxonasi kompleksli transport xizmatini ko'rsatadi:

jo'natuvchilar buyurtmalarini rasmiylashtirishdan tortib oluvchilar yukni olgunlariga qadar;

transport-ekspeditorlik xizmatlari;

bojxona tashuvchisi sifatida yuklarni tashish bo'yicha xizmatlar;

bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovarlar va transport yuklarini saqlash va ular bilan brokerlik operatsiyalarni amalga oshiradi;

yuklarni deklaratsiyalaydi;

multimodel tashishlarni tashqil etadi;

MDH va Boltiq mamlakatlari doirasida konteynerlar parkining vaqtida qaytarilishini nazorat qiladi;

Boshqa davlatlar konteyner parkining ishlatilishini va ularning mulkdor-mamlakatga vaqtida qaytarilishini nazorat qiladi;

Tarozi egalarining tekshiruv-tarozi asboblarini montaj, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi;

Ifloslanishning uchta darajasidagi transport vositalarini yuvish va dezinfektsiyalashni tashqil etadi;

Yuklarni transport vositasida joylashtirish, qotirish bo'yicha professional xizmat ko'rsatadi.

"DorRefTrans" OAJ

"DorRefTrans" OAJ refrijeratorli vagonlarda yuk tashishga ixtisoslashgan korxonaga bo'lib, 1952 ta refrijeratorli vagonlarga, 390 ta refrijeratorli sektsiyaga, 27 ARV, 107 muzliklar va 108 termosga ega.

"O'zjeldorpass" OAJ xizmatlari:

Korxonaga va tashqilotlardan naqd pul va pul o'tkazish yo'li bilan joylarni bron qilishga guruhli buyurtmalar qabul qilish;

Temir yo'l biletlarini bron qilish va oldindan sotish

Temir yo'l biletlarini uyga yetqazib berish bilan sotish ;

"Lokomotiv" mehmonxonasining xizmatlari;

Safarlarda va vokzal xududida boshqa firma tovarlari va xizmatlari to'g'risidagi reklamalarni joylashtirish ;

YUqori komfortabelli vagonlarda Ipak yo'li shaharlari: Samarqand, Buxoro, Xiva bo'ylab turistik safarlarni uyushtirish;

Ko'rsatadigan xizmatlar ro'yxati.

Tez buziladigan yuklarni refrijeratorli vagonlarda tashish.

Temperatura rejimini saqlamagan xolda boshqa yuklarni tashish.

refrijeratorli vagonlarni ta'mirlash.

muzlatish omborlari sifatida ishlatish uchun ijaraga berish.

"O'zremvagon" AJ

"O'zremvagon" AJ vagon va konteynerlarni ta'mirlashga ixtisoslashgan korxonaga bo'lib, 5 ta vagonli depoga ega, 2017 yil davomida 10643 ta yuk vagoni ta'mirlangan, ulardan: 2147 ta vagon kapital ta'mirlangan, 8496 vagon – depoda ta'mirlangan.

Ko'rsatadigan xizmatlar ro'yxati:

Barcha turdagi yuk vagonlarni depoda ta'mirlanadigan va kapital ta'mirning rejali turlari;

Joriy va kapital ta'mirining rejali turlari;

Yemirmaydigan (nerazrushayushiy) nazoratning zamonaviy turlari;

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish.

Asosiy atama va ta'riflar

Avtomatlashtirilgan ish o'rni – foydalanuvchining mos keluvchi texnik vositalar va zarur kabiyo' naltirilgan dasturiy va axborot ta'minoti bilan jihozlangan individual ish o'rni.

Advalor stavka – tovarning bojxona qiymatidan foizda olinadigan bojxona boji stavkasi.

Autsorsing – ilgari mustaqil ravishda bajarilgan ishlab chiqarish faoliyati ayrim funksiyalari yoki turlarini (asosiy, yordamchi yoki xizmat ko'rsatuvchi jarayonlar) tashqilot doirasidan chetga chiqarish yoxud chet tashqilotlar tomonidan umumiy biznes tizimining bir qismi sanalgan biznes jarayonlarning amalga oshirilishi.

Balans – uning alohida tomonlarini taqqoslash yoki qarshi qo'yish yo'li bilan tavsiflanadigan ko'rsatkichlar tizimi.

Biznes – yakuniy hisobda bozor amaliyotida yuzaga kelgan muayyan faoliyat shakllari va usullaridan foydalangan holda bozor sub'ektlari o'rtasida tovarlar va xizmatlar ayirboshlash yordamida bozor operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ishbilarmonlik faolligi.

Biznes-jarayon – tashqilotning yakuniy maqsadi yoki belgilangan natijaga erishishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish faoliyatining o'zaro bog'liq funksiyalari va turlari yig'indisi.

Bojxona brokeri – bojxona operatsiyalarini deklarant yoki bojxona operatsiyalarini amalga oshirish majburiyati unga yuklangan yoxud huquqi berilgan shaxs nomidan yoki uning topshirig'i bo'yicha amalga oshiradigan vositachi.

Buyurtmachi xomashyosi – tashqilot buyurtmachidan qayta ishlash, boshqa ishlarni bajarish yoki mahsulot tayyorlash uchun qabul qilingan xomshayo qiymatini to'lamasdan hamda qayta ishlangan xomshayoni to'liq qaytarish, bajarilgan ishlarni va tayyorlangan mahsulotni topshirish majburiyati bilan qabul qiladigan xomshayo.

Bo'naklangan qiymat – tadbirkorning ishlab chiqarish vositalari (doimiy kapital) va ishchi kuchi (o'zgaruvchan kapital) xarid qilish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari.

Vertikal integratsiyalangan logistika tizimi (VILS) – umumiy tizim sifatida harakat qiladigan bitta yoki bir nechta ulgurji yoki chakana savdogar, ta'minotchi, ishlab chiqaruvchilar yig'indisi bo'lib, bunda kanal a'zolarining biri yoki qolganlarning xo'jayini hisoblanadi, yoki ularga savdo imtiyozlari taqdim etadi, yoki ularning to'liq hamkorligini ta'minlaydigan kuchga ega bo'ladi.

Global tarmoq – birgalikda qayta ishlash maqsadida mintaqalar o'rtasida axborot uzatish uchun bir nechta mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini o'zaro kanallar (aloqa liniyalari) orqali birlashtirish.

Logistika faolligi – moddiy oqimga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshiradigan to'laqonli logistika tizimida ilova qilinadigan harakat.

Ma'lumotlar to'plami (ingl. database) - 1) saqlanayotgan ma'lumotlar mazmuni bo'yicha axborotga tezkor ulanishni ta'minlaydigan ma'lumotlar saqlash tizimi; 2) mantiqiy jihatdan birgalikda bo'ola oladigan ma'lumotlar fayllari yig'indisi; 3) ob'ekt yoki ob'ektlar yig'indisi, ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini aks ettiradigan, ma'lum bir predmetli sohaga mansub bo'lgan ma'lumotlar nooma-nom yig'indisi.

Taqsimot ma'lumotlar to'plami – ma'lumotlar bir nechta diskda joylashgan ma'lumotlar to'plami.

Tashqi savdo faoliyati – tovarlar, xizmatlar, axborot va intellektual mulk bilan tashqi savdo sohasida bitimlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat.

Transport vaqti – tashuv jarayoni uchun zarur bo'lgan vaqt.

Rejalashtirish gorizonti – reja to'zladigan muddat.

Tayyor mahsulot – ushbu korxonada butun ishlab chiqarish tsiklidan o'tgan, to'liq butlangan, texnik nazoratdan o'tgan, omborga topshirilgan yoki iste'molchiga yuklab jo'natilgan mahsulot.

Deklarant – tovarni deklaratsiya qiladigan yoki tovarlar uning nomidan deklaratsiya qilinadigan shaxs.

Tashqi savdo faoliyati – tovarlar, xizmatlar, axborot va intellektual mulk bilan tashqi savdoda bitimlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyat.

Distribyutsiya – tayyor mahsulotni ishlab chiqaruvchidan yakuniy (yoki oraliq) iste'molchilarga yetkazish, savdoni, sotuvdan oldingi va sotuvdan keyingi servisni tashqil qilish bilan bog'liq kompleksli logistika faoliyati.

Elektron hujjat – axborot elektron raqamli shaklda taqdim etilgan hujjat.

Tijorat hujjatlari – schyot-faktura (invoys), yuk hujjatlari va xalqaro shartnomalar, qonunchilik yoki ishbilarmonlik aylanmasi urf-odatlarini bo'yicha tashqi savdo faoliyati yoki boshqa faoliyat to'rini amalga oshirishda foydalaniladigan boshqa hujjatlar.

Transport (tashuv) hujjatlar – konosament, yuk hujjatlari yoki tovarlar tashish shartnomasi mavjudligi va mazmunini, xalqaro tashuvlarda transport vositalari va tovarlarni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar.

SHo''ba tijorat tashqiloti – yuridik shaxs sifatida boshqa tashqilot (ta'sischi) tomonidan to'liq xo'jalik tasarrufiga mulkning bir qismini berish yo'li bilan tashqil qilingan tashqilot.

Bir martalik jarayon – ishlab chiqarish uchastkasida bir nomdagi detallar partiyasini tayyorlash jarayoni.

Zaxira – berilgan vaqt mahali uchun mutlaq birliklarda o'lchanadigan va yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan predmetlar yig'indisi.

Taqiqlar va iqtisodiy xarakterdagi cheklovlar – davlatning faqat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish choralari. Bunday choralar qatoriga embargo (belgilangan mamlakatdan tovarlar olibkirishning taqiqlanishi), alohida tovarlarni olib kirishning taqiqlanishi, litsenziyalash, kvotalash, shuningdek, antidemping, kompensatsion va maxsus bojlar qo'llashni kiritish mumkin.

Logistika tizimi bo'g'ini – ma'lum bir logistika operatsiyalari yoki funksiyalari bilan bog'liq o'z lokal maqsadini bajaradigan logistika tizimi barpo etish doirasida boshqa dekompozitsiya qilinmaydigan, ma'lum bir iqtisodiy va (yoki) funksional jihatdan alohida bo'lgan ob'ekt.

Aynan o'xshash tovarlar – baholanayotgan tovarlar bilan barcha jihatdan, jumladan, quyidagi belgilar bo'yicha bir xil bo'lgan tovarlar: jismoniy tavsifnoma, sifat, bozordagi nufuz, kelib chiqish mamlakati, ishlab chiqaruvchi.

O'lchagich – biron narsani o'lchash uchun ko'rsatkich.

Immanent – predmetning tabiatiga xos bo'lgan, ichki me'yor.

Xorijiy tovarlar – bojxona maqsadlari uchun erkin muomalada bo'lgan maqomiga ega bo'lmagan tovarlar.

Foydalanuvchi interfeysi – dastur ishini boshqarish usuli, operatsion tizimning foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa qilish qoidalari, kompyuter tarmog'ida qo'shni pog'onalarining o'zaro aloqalari.

Bojxona taomillarining axborot texnologiyasi – kompyuter vositalari va dasturiy mahsulotlarni qo'llash asosida tovarlar bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati bilan bog'liq axborot yig'ish, to'plash, saqlash, qidirish va qayta ishlash usullari tizimi.

Axborot infratuzilmasi – axborot kanallari va omborlari, axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyat faoliyatining huquqiy va moliyaviy-iqtisodiy bazasi, shuningdek, axborot faoliyatini ta'minlaydigan boshqa usullar va vositalar yig'indisi.

Bojxona infratuzilmasi – tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxonada tartibga solish shartlari, bojxona tizimi faoliyatini va bojxona ishini amalga oshirishni ta'minlaydigan bojxona organlarining moddiy-texnika bazasi, axborot tizimlari, aloqa, ekspertiza va bojxona nazorati texnik vositalari (tizimlari), faoliyat turlari, ijtimoiy va institutsional strukturalar yig'indisi.

Transport manbasi – tashuvlar vujudga keladigan punkt yoki rayon.

Logistika kanali – moddiy oqimlarni muayyan mahsulot to'rini (mahsulot assortimentini) ishlab chiqarish zarur bo'lgan moddiy resurslar ta'minotchilaridan yakuniy iste'molchilargacha yetqazib beradigan barcha logistika zanjirlari yoki ularning qismlarini o'z ichiga oladigan logistika tizimi bo'g'inlari tartibga solingan yig'indisi.

Taqsimot kanali – tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika taqsimot kanali – muayyan tovar yoki xizmatni ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha yetkazish bo'yicha harakat yo'lida unga egalik huquqini boshqa shaxslarga o'ztishga yordam beradigan yoki o'z zimmasiga oladigan yuridik yoki jismoniy shaxslar guruhi.

Logistika toifasi – logistika jarayonlari va hodisalarining muhim jihatlarini aks ettiradigan eng muhim logistika tushunchasi.

Logistika tizimi sifati – bu tizimning uni amalga oshirishda olingan natijalar bilan bog'liq xususiyatlari yig'indisi.

Global kvotalar – biron-bir tovarning umumiy import hajmiga nisbatan uni ta'minotchi-mamlakatlar o'rtasida taqsimlamasdan belgilanadigan kvotalar.

Individual kvotalar – import ruxsat etilgan tovarlar umumiy sonini ta'minotchi-mamlakatlar bo'yicha taqsimlash asosida belgilanadigan miqdoriy cheklov. SHakllantirish usuli bo'yicha bunday kvotalarning ikki xil turi mavjud: o'tgan (bazaviy) davr uchun importda har bir mamlakat ulushi bo'yicha barcha kvotalar doirasida belgilanadigan proporsional kvotalar hamda boshqa mamlakatning javob tariqasidagi savdo-siyosiy majburiyatlari evaziga taqdim etiladigan ikki taraflama kvotalar. Bundan tashqari, boshqa mintaqalardan erkin xaridlar shartida bironta mamlakat yoki mamlakatlar guruhidan tovarlar yetqazib berish cheklanadigan tanlash asosidagi kvotalar qo'llanadi.

Mavsumiy kvotalar – belgilangan yil fasliga – mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish avjiga etgan paytda belgilanadigan kvotalar.

Tarifli kvotalar – uning uchun boj solishda qulay rejim yaratiladigan hajmda importni chegaralash, bu hajmdan ortiq import uchun import ta'minotni taqiqlashga qadar borib etadigan unchalik qulay bo'lmagan rejim belgilanadi.

Marketing konsepsiyasi – rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonaning ishlab chiqarish-sotuv faoliyatini boshqarish haqida tasavvurlar tizimi.

Kon'yunktura – bozorda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat, uni quyidagilar tavsiflaydi: talab va taklif o'rtasidagi nisbat, narxlar darajasi, tovar zaxiralari, buyurtmalar portfeli va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Bosh litsenziya – unda sanab o'tilgan davlatlardan qiymat va hajm cheklovlarisiz belgilangan tovarlar importi huquqini beradigan, doimiy amal qiladigan, har qanday yuridik yoki jismoniy shaxsga ruxsat.

Individual litsenziya – muayyan tovar turi bilan bitta savdo operatsiyasiga bir martalik ruxsat. U nomi yozilgan bo'lib, boshqa importchiga berilishi mumkin emas va cheklangan amal qilish muddatiga ega hisoblanadi.

Logistika - 1) moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlarning zamon va makon bo'ylab birlamchi manbadan iste'molchigacha harakatini boshqarish haqidagi fan; 2) korxonada faoliyati samaradorligini oshirish va uning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun moddiy va unga hamrohlik qiladigan oqimlar harakatini boshdan-oxir boshqarish bo'yicha amaliy faoliyat.

Xarid logistikasi – korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarish.

Ishlab chiqarish logistikasi – moddiy oqimlarni moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan yoki moddiy xizmatlar ko'rsatadigan korxonalar ichida boshqarish.

Sotuv logistikasi – tashqi savdo tarmog'ida turli iste'molchilar o'rtasida moddiy oqim taqsimlanishini boshqarish.

Omborga joylashtirish logistikasi – zaxiralar bilan ta'minlash, buyurtmalarni qayta ishlash va jismoniy taqsimlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarish.

Axborot logistika tizimi – materiallar tayyor mahsulotga aylanadigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlar muomalada bo'ladigan, makro va mikrologistika darajasida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimi.

Lokal axborot tarmog'i – axborotni birgalikda qayta ishlash maqsadida strukturali bo'linmalar o'rtasida axborot uzatish uchun aloqa liniyalari orqali bir nechta kompyuterni o'zaro birlashtirish.

Makroiqtisodiy model – iqtisodiyot va uning alohida qismlari rivojlanishini aks ettiradigan hamda boshlang'ich ko'rsatkichlar va o'zgaruvchilar sifatida mikroiqtisodiy tavsifnomalarga (masalan, resurslar xarajatlari, alohida mahsulot turlari chiqarish) ega bo'lgan iqtisodiy-matematik model.

Marshrutizator – tarmoqlar o'rtasida ma'lumot uzatishni amalga oshiradigan dasturiy-apparat qurilma.

Masshtablanish – ekspluatatsiya ob'ektlari soni oshishida iste'mol xislatlarini saqlab qolish imkoniyati.

Moddiy resurslar – mehnat predmetlari: xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yarim tayyor mahsulot, butlovchi qismlar, yig'uv birliklari, yoqilg'i,

ta'mirlash va texnologik asbob-uskunalarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan ehtiyot qismlar, ishlab chiqarish chiqtlari.

Bosh (asosiy) tijorat tashqiloti – boshqa (sho''ba) tashqilot aktsiyalari nazorat paketiga egalik qiladigan tashqilot.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – ushbu korxonada doirasida ishlab chiqarish yakunlanmagan mahsulot.

Nochorlik – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish imkoni yo'qligi.

Bir turdagi tovarlar – barcha jihatlardan bir xil bo'lmagan, lekin o'xshash tavsifnomalardan va o'xshash tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan tovarlar. Bunda quyidagi belgilar hisobga olinadi: sifat, tovar belgisi mavjudligi, tovarlarning bozordagi nufuzi, kelib chiqish mamlakati, ishlab chiqaruvchi.

Oligopoliya bozori – ham bir xildagi, ham sifati, xususiyatlari, tashqi ko'rinishi va xizmatlari bilan farqlanadigan differentsiatsiya qilingan mahsulotlar taqdim etadigan, cheklangan sondagi yirik korxonalar mavjud bo'lgan bozor.

Logistika operatsiyasi – menejment yoki qo'yilgan tadqiqot vazifasi doirasida dekompozitsiya qilinmaydigan, moddiy va unga hamrohlik qiladigan axborot, moliya va servis oqimlari vujudga kelishi, o'zgartirilishi yoki o'zlashtirilishi bilan bog'liq har qanday harakat.

Bojxona logistika operatsiyasi – tashqi savdo faoliyati qatnashchilari va bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, eksport-import tovar oqimlarini bojxona chegarasi orqali jismoniy o'tkazishda ularga nisbatan qo'llanadigan alohida harakat.

Maxsus iqtisodiy hudud – mamlakat hukumati tomonidan mamlakat hududida belgilanadigan, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirish maxsus rejimi amal qiladigan hudud.

Paradigma – muayyan ilmiy tadqiqotni belgilab beradigan, umum e'tirof etilgan shart-sharoitlar yig'indisi.

Paritet – bir hil xolat, tomonlar tengligi.

Intermodal tashuv – yukni bir nechta transport turida tashish, bunda tashuvchilardan biri bitta jo'natish punktidan bitta yoki bir nechta yuk tushirib-ortish punktlari orqali yakuniy manzilga yetqazib berishni amalga oshiradi; javobgarlikning bo'linishiga qarab, har xil turdagi tashuv transport hujjatlari beriladi.

Multimodal tashuv – yuklarni tashish, bunda tashuvni amalga oshiruvchi shaxs yagona tashuv hujjati rasmiylashtirilgan holda ishtirok etuvchi transport turlaridan qat'i nazar butun harakat yo'lida yakka o'zi javobgar hisoblanadi.

Elektron raqamli imzo – elektron hujjatning uni qalbaqilashtirishdan himoya qilish uchun mo'ljallangan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda axborotni kriptografik o'gartirish natijasida olingan hamda imzo kaliti sertifikatiga egasini identifikatsiya qilish, shuningdek, elektron hujjatda axborotning bo'zib ko'rsatilishini aniqlash imkonini beradigan elektron hujjat rekviziti.

Oqim – ma'lum bir vaqt oralig'ida mavjud bo'lgan va belgilangan vaqt davrida mutlaq birliklarda o'lchanadigan, yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan, harakatdagi predmetlar yig'indisi.

Axborot oqimi – ko'rib chiqilayotgan logistika tizimida boshlang'ich moddiy oqim hosil qiladigan, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan tashqi muhit va logistika tizimlari o'rtasidagi xabarlar yig'indisi.

Moddiy oqim – unga turli logistika (transport vositasida tashish, omborga joylashtirish va b.) va (yoki) texnologiya (mexanik ishlov berish, yig'ish va b.) operatsiyalari qo'llash jarayonida ko'rib chiqiladigan va ma'lum bir vaqt oralig'iga mansub bo'lgan yuklar, detallar, tovar-moddiy boyliklar ko'rinishidagi mahsulot.

Servis oqimi – bevosita moddiy oqim bilan bog'liq bo'lgan hamda xarajatlar va iste'molchilarning so'rovlarini qondirish nuqtai nazaridan uning eng samarali harakatlanishini ta'minlaydigan xizmatlar yig'indisi.

Eksport-import tovar oqimi – strukturali jihatdan o'zaro bog'liq bo'lgan hamda ta'minotchidan oluvchiga tomon harakatida hech bo'lmasa bir marta bojxona chegarasidan o'tadigan, yaxlit bir butunlik sifatida qabul qilinadigan tovar-moddiy valar yoki tovar-nomoddiy boyliklar tartibga solingan yig'indisi.

Moliyaviy oqim – logistika tizimida muomalada bo'lgan, shuningdek, belgilangan moddiy oqimning samarali harakatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan logistika tizimi va tashqi muhit o'rtasida moliyaviy resurslar yo'naltirilgan harakati.

Korxonada – mahsulot ishlab chiqaradigan va sotadigan, ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan, yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt.

Tayyor mahsulot – ushbu korxonada ishlab chiqarish tsiklidan to'liq o'tgan, to'liq butlangan, texnik nazoratdan o'tgan, omborga topshirigan yoki iste'molchiga yuklab jo'natilgan mahsulot.

Risk profili – risk sohasi, risk indikatorlari, shuningdek, riskning oldini olish yoki minimal qilish bo'yicha zarur chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar yig'indisi.

Logistika bo'jxona taomili – bo'jxona operatsiyalari bajarish tartibini ko'zda tutadigan va bo'jxona maqsadlari uchun eksport-import tovar oqimlari maqomini belgilab beradigan qoidalar yig'indisi.

Transport yo'li – manbadan (tashuv boshlangan joydan) mahsulot yetqazib berish punktigacha bo'lgan masofa.

Taqsimlangan ma'lumotlar to'plami (distributed database) – ma'lumotlar bir nechta qattiq diskda joylashgan ma'lumotlar to'plami.

Mintaqaviy tarmoq – birgalikda qayta ishlash maqsadida bitta mintaqaviy bo'jxona boshqarmasi doirasida bo'jxonalar (bo'jxona postlari) o'rtasida axborot uzatish uchun bir nechta mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini o'zaro kanallar (aloqa liniyalari) orqali birlashtirish.

Bo'jxona rejimi – bo'jxona maqsadlari uchun eksport-import tovar oqimlariga nisbatan bo'jxona bojlari, soliqlar, taqiqlar va cheklovlar qo'llash tartibini o'z ichiga oladigan shartlar va talablar yig'indisini belgilab beradigan bo'jxona taomili.

Reyting – biron-bir hodisani berilgan shkala bo'yicha sub'ektiv baholash. Reyting yordamida ob'ektlarni ular uchun umumiy xususiyatlar bo'yicha birlamchi tasniflash amalga oshiriladi. Reyting baholash shkalalari tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilish mumkin.

Relevant axborot tarkibiy qismlari – muayyan vazifa, shaxs, maqsad va vaqt davri uchun tanlab olinadigan ma'lumotlar.

Moliyaviy resurslar – davlat, korxonalar va tashqilot tasarrufida bo'lgan, yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida yaratiladigan pul mablag'lari yig'indisi.

Xatar (risk) – mamlakat bo'jxona qonunchiligiga rioya qilmaslik ehtimoli.

Xaridor bozori – dastlab bozor ehtiyojlari o'rganiladi, so'ngra uni qondirish usullari amalga oshiriladi tamoyili amalga oshiriladigan bozor.

Sotuvchi bozori – dastlab tovar ishlab chiqariladi, so'ngra uning iste'molchilari faollik bilan izlanadi tamoyili amalga oshiriladigan bozor.

Erkin muomala – tovarlarning mamlakat bo'jxona hududida taqiqlar va cheklovlarsiz aylanmasi.

Server – foydalanuvchining so'rovlariga xizmat ko'rsatadigan personal yoki virtual kompyuter.

Ma'lumotlar to'plami serveri – ma'lumotlar to'plami, tarmoq operatsion tizimi, tarmoq ma'lumotlar to'plamini boshqarish tizimiga ega bo'lgan personal yoki virtual kompyuter.

Sinergiya, sinergizm (yunoncha synergyevropa ittifoqia – hamkorlik, hamdo'stlik) – birgalikdagi harakat, to'la-to'kis harakatda turli potentsiya yoki energiya turlarining o'zaro aloqasi.

Logistika tizimi – u yoki bu logistika funksiyalari va logistika operatsiyalarini bajaradigan, qoidaga ko'ra, bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan moslashuvchan tizim.

Axborot logistika tizimi – materiallar tayyor mahsulotga aylanadigan, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, vositalar, mehnat xarajatlari, pul mablag'lari va h.k. oqimlar muomalada bo'ladigan, makro va mikrologistika darajasida axborot to'plash, qayta ishlash va uzatish bo'yicha kommunikatsiya tizimi.

Bo'jxona logistika tizimi – bir nechta quyitizimdan iborat va tashqi muhit bilan rivojlangan aloqalarga ega bo'lgan, belgilangan bo'jxona taomillarini bajaradigan, tashqiliy turdagi moslashuvchan tizim.

Makrologistika tizimi – vazifasi foyda olish yoki biznesni tashqil qilishning biron-bir korporativ maqsadlariga erishish hisoblanmagan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, harbiy va boshqa shunga o'xshash masalalarni hal qilish uchun hududiy yoki ma'muriy-hududiy tuzilma darajasida tashqil etiladigan tizim.

Mikrologistika tizimi – qoidaga ko'ra, belgilangan biznesni tashqil qilishga mansub bo'lgan hamda ishlab chiqarish jarayonida moddiy va unga hamrohlik qiladigan (axborot, moliya va servis) oqimlarni boshqarish va optimallashtirish uchun mo'ljallangan tizim.

Talab – iste'molchining belgilangan vaqtda va belgilangan joyda tovar kichik xizmatni xarid qilish istagi va imkoniyati.

Bojxona organlari – bojxona ishi sohasida vakolatlarga ega bo'lgan va mamlakat bojxona organlari unga bo'ysuadigan davlat xizmati.

Teleks – axborot oqimini tayyorlash va avtomatik ravishda abonentlarga uzatish uchun elektron axborot tizimi.

Axborot texnologiyasi – texnologik zanjirga birlashtirilgan, axborot resursidan foydalanish jarayoni mehnat sig'imini pasaytirish, tezkorlik va ishonchlilikni oshirish uchun axborot to'plash, saqlash, qayta ishlash, chiqarish va tarqatishni ta'minlaydigan ishlab chiqarish usullari va dasturiy-texnik vositalar yig'indisi.

Tovar toifasi – belgilangan savdo nuqtasida birgalikda taqdim etiladigan tovar va unga hamrohlik qiladigan tovarlar tavsifnomalari kombinatsiyasi (sifati, xususiyatlar to'plami, bezatilishi, marka nomi, maxsus o'rovi va b.).

Tovar assortimenti – bir xil mijozlar guruhlariga bir xil savdo muassasalari orqali yoki bir xil narx doirasida sotiladigan, ishlatilish o'xshashligi tufayli qalin aloqada bo'lgan tovarlar guruhi.

Transaksiya qatori – bog'langan elektron hujjatlarni tavsiflaydigan kodlar qatori.

Transport vositalarida tashish – moddiy resurslar, tugallanmagan ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulotni belgilangan transport vositalari bilan logistika zanjirida harakatlantirish bilan bog'liq bo'lgan hamda o'z navbatida, kompleksli va

elementar faolliklardan, jumladan, yuklarni tarqatish, qayta ishlash, o'rab-qadoqlash, sug'urta qilish, qo'riqlash va boshqalarni o'z ichiga oladigan kompleksli logistika faolligi.

Risklarni boshqarish – risklarning oldini olish va minimallashtirish, ularni qo'llash samaradorligini baholash, shuningdek, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotni uzlyuksiz yangilash, tahlil qilish va ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan, bojxona operatsiyalari va bojxona taomillari qo'llash ustidan nazoart bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Xizmat – uning natijalari moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan, ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayonida sotiladigan va iste'mol qilinadigan faoliyat.

Tahliliy hisob – korxonada vositalari yoki xo'jalik operatsiyalarining tahliliy schyotlar yordamida, ya'ni detallashtirilgan, batafsil ma'lumotlar bilan buxgalteriya schyotlari yordamidagi buxgalteriya hisobi.

Sintetik hisob – vositalar va xo'jalik jarayonlari umumlashtirilgan ko'rsatkichlardagi buxgalteriya hisobi.

Fayl – ma'lumotlar yig'indisi, maxsus tashqil qilingan ma'lumotlar stryukturasi.

Faks (lat. fax simile – shunga o'xshashni qil) – grafik originalni masofadan turib aniq takrorlash uchun qurilma.

Jismoniy taqsimlash – distribyutsiya jarayonining tarkibiy qismi sanalgan va ishlab chiqaruvchining valar yoki logistika vositachilarining tovar o'tkazuvchi stryukturalarida tayyor mahsulotni jismoniy harakatlantirish va saqlash bilan bog'liq barcha logistika operatsiyalarini o'z ichiga oladigan kompleksli logistika folligi.

Korxonaning moliyaviy resurslari – muayyan xo'jalik yurituvchi sub'ekt tasarrufida bo'lgan hamda uning daromadlarini hosil qilish, kgsh va foydalanish jarayonlarini aks ettiradigan pul resurslari yig'indisi.

Logistika funksiyasi – logistika tizimi maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan va uning chiqish o'zgaruvchilari sanalgan ko'rsatkichlar qiymati bilan beriladigan logistika operatsiyalari yiriklashtirilgan guruhi.

Maqsadli funksiya – eng katta yoki eng kichiq qiymati cheklovlarni hisobga olgan holda matematik dasturlash masalalarida belgilanadigan funksiya. Maqsadli funktsiyani tanlash tizim samaradorligi ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

Netto narx – tovarning oldi-sotdi joyidagi turli bazis ta'minot shartlari, subsidiyalar va h.k. faqlanishi bilan bog'liq chegirmalar va ustamalarni o'z ichiga olmaydigan toza narxi. Oluvchi uchun netto narx – amalda sotuvchiga to'langan summa; sotuvchi uchun esa – amalda bitimni ijro etish bilan bog'liq xarajatlarni chiqarib tashlagan holda tovarni sotishdan olingan tushum.

Bitim narxi – narxga qo'shimcha hisob-kitoblarni hisobga olgan holda tuzatish kiritilgan, importchi mamlakatga tovarlarni eksportga sotishda amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narx. Bu qatorga agarda ular ilgari kiritilmagan bo'lsa, quyidagi tarkibiy qismlar kiritilishi mumkin: tovarni mamlakat bojxona hududiga olib kirish joyigacha yetqazib berish bo'yicha xarajatlar (transport vositasida tashish, yuklab-tushirish xarajatlari, sug'urta miqdori va b.); xaridor sarflagan xarajatlar (komission va brokerlik myukofoti, o'rab-qadoqlash qiymati, konteynerlar qiymati va b.); xaridor tomonidan baholanayotgan tovarlarni (xomashyo, materiallar, detallar, tajriba-konstrukturlik ishlari, dizayn va b.) ishlab chiqarish va olib chiqib sotish ufayli foydalanish uchun bepul yoki arzonlashtirilgan narxda bevosita yoki bilvosita taqdim etilgan tovarlar va xizmatlar qiymatining mos keluvchi qismi; litsenziya to'lovi va boshqa to'lovlar.

Logistika zanjiri – moddiy yoki hamrohlik qiladigan oqimlar bo'yicha chiziqli tartibga solingan hamda tashqi moddiy oqimni bir logistika tizimidan boshqa logistika tizimiga yoki yakuniy iste'molchigacha yetkazishni amalga oshiradigan logistika tizimi bo'g'inlari yig'indisi.

TSikl – berilgan vaqt oralig'i davomida aylanmani tashqil qiladigan jarayonlar yig'indisi.

Logistika tsikli – vaqt bo'yicha integratsiyalangan, kompleksli logistika faolliklari bilan bog'liq bo'lgan tsikllar yig'indisi.

Qisman jarayon – ishlab chiqarish uchastkasida bitta mahsulot (buyurtma) detallari komplektini tayyorlash jarayoni.

Xususiy jarayon – barcha ishlab chiqarish bosqichlarida, asosiy ishlab chiqarishning barcha ishlab chiqarish bo'linmalarida bir turdagi mahsulot (buyurtma) tayyorlash jarayoni.

SHlyo'z – turli o'zaro aloqa protokollaridan foydalanadigan tarmoqlar o'rtasida ma'lumot almashinishni tashqil qilishni ta'minlaydigan dasturiy-apparatli qurilma.

Ekspansiya (lat. expansio – tarqatish) – iqtisodiy ta'sir sohasini kengaytirish.

Ochiq savdo xududi – iqtisodiy birlashuvni eng sodda shakli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar o'zaro tovar savdosining iqtisodiy to'siqlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar.

ASEAN – a'zo mamlakatlar ochiq savdo xududi tashqil etish bo'yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo xududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

SHimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuv – 1994 yil 1 yanvarda kuchga kirgan va a'zo mamlakatlar AQSH, Meksika va Kanada mamlakatlari doirasida yagona tashqi savdo tarifi amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi – 1951yilda Parij shartnomasining yani ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashqil etish bilan boshlangan. Yevropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Yevropa mamlakatlari kirgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Amerika-O'zbekistonsavdo palatasi (AUSP) – bu savdo palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investitsiyalari okimini ko'paytirishdan iborat.

Markaziy Osiyo xududiy xamdo'stligi (TSARS) – 1992 yanvar oyida O'rta Osiyo respublikalari birlashib, mamlaktlararo iqtisodiy birlashma sifatida tuzilgan.

«Erkin savdo bo'yicha Lotinamerikasi assotsiatsiyasi» (LAFTA) va «Markaziy-Amerika mamlakatlari umumiy bozori» (MAUB) – 1960 yilda Lotin Amerikasi mamlakatlarini ichki bozorini xududiy savdosi oldidagi ayrim iqtisodiy to'siq va boshqa iqtisodiy siyosat choralaridan ozod etish maqsadida tuzilgan.

SHimoliy Afrika rivojlanish kordinatsion konfrensiyasi (SHAKK) – 1980 yilda tuzilgan bu kordinatsion konfrensiya SHimoliy Afrika mamlakatlari o'rtasidaga o'zaro iqtisodiy xamkorlikni kuchaytirish maqsadida tashqil etilgan.

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi – 1964 yilda tashqil etilib, faqatgina ichki bozorda emas, balki, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining boshqa integratsion uyushmalar bilan iqtisodiy va xalqaro masalalarda xamkorlik qilish maqsadida tuzilgan.

Magrib bojxona ittifoqi – tashqi savdoni tartibga solishni tarif va notarif usullari yuzasidan narmativ qoidalarni birxillashtirish, mamlakat xududiga olib kirilayotgan tashqi savdo tovarlariga nisbatan aktsiz soligi stavkalari birxillashtirish, a'zo mamlakatlarning uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo rejimlari to'g'risida bir xilligiga erishish, tashqi savdoga bojxona statistikasini birgalikda olib borish va uni rivojlantirish bo'yicha umumiy kelishuv .

Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi bojxona ittifoqi – bu ittifoqqa a'zo mamlakatlar. Iqtisodiy va sotsial rivojlanishning zamonaviy integratsion jarayonlarni rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib - xududiy savdo iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar tashqil etish va rivojlantirish xisoblanadi.

GUAM – Gruziya Respublikasi, Yukraina Respublikasi, Azarbayjon Respublikasi va Maldova Respublikalarining iqtisodiy birlashmasi .

«Tarif va savdo erkinliklari bosh kelshuvi» (GATT) – 1947 yilda a'zo mamlakatlar o'rtasida savdoni ekinlashtirish xamda to'siqlarni olib tashlash maqsadida tuzilgan.

Butunjaxon bojxona tashqiloti – 1994 yildan «Tarif va savdo erkinliklari bosh kelshuvi» (GATT)ning davomchisi sifatida yuqoridagicha atala boshladi. Bu tashqilotga 150 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lgan. SHu jumladan O'zbekiston Respublikasi xam kuzatuvchi mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bojxona ittifoqi – ittifoqqa a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va ittifoqqa a'zo bo'lmagan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shug'ullanuvchi va buni ustidan nazorat olib boradigan iqtisodiy birlashmadir.

Yagona yoki umumiy bozor – kapital va mexnatning erkin xarakati ta'minlaydigan iqtisodiy birlashma xisoblanib, u Xalqaro savdoda bojxona poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish bilan shug'ullanuvchi birlashmadir.

Yevropa birlashmasi – 1951yilda Parijda ko'mir va po'lat bo'yicha Yevropa birlashmasi tashqil etish shartnomasining imzolanishi natijasida tashqil etilgan. Unda 6 ta Yevropa mamlakatlari a'zo bo'lgan, bo'lar: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'g'risidagi shartnoma 1953-yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

Yevropa xamjamiyati – 1957 yilda Rim shartnomasini imzolanishi natijasida tashqil etilib, unga 6 ta Yevropa mamlakatlari a'zo bo'lgan. 1973 yildan to 1995 yilgacha shartnoma imzolagan oltita Yevropa mamlakatlariga yana to'qqizta Yevropa mamlakatlari kelib qo'shilgan : (1973 yilda – Daniya, Irlandiya va Buyukbritaniya mamlakatlari, 1981 yilda – Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari, 1995 yilda – Avstriya, Finlandiya va SHvetsiya mamlakatlari).

Lomey konvensiyasi – Togo mamlakatining Lomey shaxrida imzolangan bo'lib, Yevropa ittifoqi va Afrika mamlakatlarining tashqi savdo soxasida o'zaro xamkorlik konvensiyasi xisoblanadi.

Maastrixt shartnomasi – 1991 yil dekabrda Fransiyaning Masstrixt shaxrida imzolangan. Maastrixt shartnomasini imzolash natijasida Yevropa Ittifoqi tuzilgan va yagona Yevropa fuqaroligiga erishilgan.

EOUS (Evropeyskiy obedenenie uglya i stali) – Ko'mir va po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Yevropa birlashmasi.

Iqtisodiy integratsiya – mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, o'zaro iqtisodiy aloqalarning chuqur rivojlanishi va millatlar o'rtasidagi xo'jaliklarning mexnat taqsimoti tushuniladi.

Integratsion salohiyat – xalqaro iqtisodiy integratsiya sub'ektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab-chiqarish, ilmiy texnika sohasidagi xamkorligi va o'zaro almashinuv predmeti xisoblangan tabiiy kompleksi, mexnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy salohiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

Amerika-O'zbekiston savdo palatasi – O'zbekiston Respublikasi va AQSH o'rtasida tashqil etilgan birlashma bo'lib, u xar yilda bir marta yig'ilib, xamkorlikning yangi ko'rinishlarini ishlab chiqadi.

Adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

Gadjinskiy A.M. Logistika: Uchebnik. M.: Marketing, 2006.

Logistika: Uchebnik lar Pod red. B.A. Aniqina. M.: INFRA-M, 2002.

Nerush YU.M. Logistika: Uchebnik. M.: YUNITI-DANA, 2003.

Osnovi logistiki: Ucheb. posobie lar Pod red. L.B. Mirotina i V.I. Sergeeva. M.: INFRA-M, 2000.

Parfenov A.V. Tamojennaya logistika: Ucheb. posobie. SPb.:SPGUEF, 2000.

Samolaev YU.N. Teoreticheskaya konsepsiya logisticheskoy sistemi: Ucheb. posobie. M.: RTA, 2001.

Sergeev V.I. Logistika v biznese: Uchebnik. M.: INFRA-M, 2001.

Staxanov D.V., Staxanov V.N. Tamojennaya logistika. M.: PRIOR, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

Aniqin B.A., Rudaya I.L. Outsorsing i autstafing: visokie texnologii menedjmenta: Ucheb. posobie. M.: INFRA-M, 2007.

Afonin P.I., Salnikov I.A. Informatsionnoe obespechenie v tamojennix organax: Uchebnik. SPb.: Sankt-Peterburgskiy filial RTA, 2006.

Логистика, Эффективность и риски внешнеэкономических операций
К.В.Захаров, А.В. Циганок, В.П.Бочарников, А.К. Захаров. Киев: INEKS,
2000.

Практикум по логистике: Учеб. пособие Под ред. Б.А. Аникина. М.:
INFRA-M, 2000.